

Soʻz xiyoboni

(Adiblar soʻz taʼrifida)



O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
Toshkent-2020

UO'K: 811.512.133:808

KBK 84(50)6

84(50)6

K 25 Karimov, Bahodir. So'z xiyoboni [Matn] / Bahodir Karimov. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. - 248 b.

O'zbek tili bayrami kuniga armug'on

G'oya muallifi va to'plab, nashrga tayyorlovchi:

f. f. d., professor Bahodir Karimov

Mas'ul muharrir:

Abdug'affor Qirg'izboyev, tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Shuhrat Sirojiddinov, f. f. d., professor

Inomjon Azimov, f. f. n., dotsent

Mazkur kitobda adiblarning so'z ta'rifidagi fikr-mulohazalari, ularning badiiy so'z, asarlari tili to'g'risidagi adabiyotshunos, tilshunos olimlar yozgan jiddiy maqolalar jamlangan. Majmua ona til qadri, adabiy tilning taraqqiyot bosqichlarida mumtoz va zamonaviy adiblarning tarixiy xizmatlarini tasavvur qilishga yordam beradi. Yosh filolog olimlar, bo'lajak ijodkorlar, umuman badiiy so'zga befarq bo'lmagan barcha kitobxonlar uchun mazkur kitob qiziqarli bo'lishi tabiiy.

Ushbu kitob O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti buyurtmasiga binoan O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan nashr qilindi.

ISBN: 978-9943-19-577-6

© O'zRFA "Fan" nashriyoti, 2020

© Bahodir Karimov, 2020

ADIBLAR SO'ZINING QUDRATI

Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Inson boshqa mavjudotlardan so'zi bilan ajralib turadi. Dunyoda adiblar ko'p, allomalar ko'p; ular o'z badiiy tafakkur hosilalarini, eng tabarruk fikr-mulohazalarini turli tillarda turli tarixiy zamonlarda bayon qilishgan. Asrlardan asrlarga insoniyat ma'naviyatining mahsuli bo'lgan umrboqiy kitoblar asos-negizida til hodisasi turadi. Ona tilining qadr-qiymati, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, o'zbek va qoraqalpoq tillari rivojida milliy adiblarning qo'shgan hissalarini – bularning barchasi baimkoni qadar ushbu kitobda aks etdi. Alisher Navoiy ijodiga munosabat, alloma adibimizning so'zga bo'lgan mas'uliyati bilan boshlangan gap zamonamizga davur davom etadi. Zero bu ulkan tarixiy oraliqda o'lkamizning turli hududlarida yashab ijod qilgan adiblar o'z qalbini, ko'nglini o'z so'zlari bilan ifodalab o'tishdi. Asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan "Boburnoma" tarkibida kelgan tilimiz etimologiyasi, imlosi, tarixi, umuman, qadriga qaratilgan tadqiqiy mulohazalar bugun ham muhim. Ogahiy o'z g'azallaridan birida: "So'zdir inson ko'nglida bir gavhari qiymatbaho", deb yozgan ekan. Haqiqatan, shunday.

Yaqin tarixda o'tgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi jadid adiblarning tilimizga tegishli adabiy qarashlari, amaliy xizmatlaridan bugun ham saboq olmoq lozim.

So'z zargari sifatida tavsiflangan Abdulla Qahhorning o'zbek adabiy tilining qudratini, bir tomondan, o'z badiiy asarla-

ri bilan ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchidan o'tgan o'sha mustabid tuzum davrida milliy til himoyachisi bo'lib maydonga chiqdi. "Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u, holat yo'q!" - suyukli adibimiz mavzu mohiyatini shu tarzda qahhorona muxtasar ifoda qilgan edi.

Erkin Vohidovning turli millatga mansub lirik qahramonlari "ona tilim o'lmaydi" deb xitob qilishdi. Abdulla Oripov esa "Ona tilim" she'rida tilimiz jozibasiga diqqat berib, to'tilik qismatidan or etdi..

Umuman olganda, mazkur kitobga jamlangan har bir maqola mag'zi to'qligi, jiddiy tadqiqiy tabiati bilan ajralib turadi.

O'zbek tili bayram kuni munosabati bilan taqdim qilinayotgan ushbu majmua barchamizga qutulug' bo'lsin!

MAS'UL MUHARRIRDAN

SO'Z MAS'ULIYATI

Akrom DEHQONOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy "Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lgan "Hayrat ul-abror"da so'z ta'rif-tavsifiga bir bob bag'ishlangan. Ushbu o'n to'rtinchi bobning nasriy sarlavhasidayoq shoir so'zning inson vujudini yorituvchi yorug' yulduz, inson tanasi bir ma'dan bo'lsa, so'z o'sha ma'danning qimmatbaho javohiri ekanini ta'kidlaydi: "So'z ta'rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti ma'danining javohiri serobi durur..."¹

Yaxshi insonlarning bir-biri bilan yaqinlashuviga ularning yaxshi so'zlari sabab bo'lishini, fazilatli odamlarning o'zaro ulfatliklariga ham so'zlarining yoqimli ekani vosita bo'lishini tasvirlaydi: "...sa'd kavkablarning bir-biri birla qironi yaxshi asar ko'rguzuridin va samin javharlarning bir-biriga iqtironi dilpazir ko'rinuridin..."

Shundan so'ng Alisher Navoiy insonga Yaratuvchi tomonidan berilgan so'z ne'matini ta'riflashga o'tadi. So'zni gavharga qiyoslaydi, so'ng bu fikridan qaytib, gavhar hatto so'z uchun sadaf – idish bo'lishga ham yaramaydi, deb so'z sharafining naqadar yuksak va balandligini aytadi:

*So'z guhartga erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.²*

Chunki insonning qalbidan chiqadigan so'z gavharining jonsiz, qonsiz, hissiz toshning ichida saqlanishi so'zga nisbatan zulm bo'lar edi. Shuning uchun Latif Zot bu gavharning saqlanishi uchun insonning qalbini va oppoq qog'ozning yu-

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 7-tom. – T.: Fan, 1991. – B.57.

² Bundan keyingi she'riy misollar ham shu manbadan olinadi.

zini makon qildi. Ulug' adiblarning, buyuk shoirlarning qalb qa'ridan chiqqan so'z javohirlarini kitoblar, ya'ni qog'oz o'z bag'rida yuz yillab, ming yillab saqlab avlodlardan-avlodlarga yetkazmoqda. Alisher Navoiy Yaratuvchining insonga ato qilgan mana shu buyuk ne'matini e'tirof etib, shukrona keltiradi. Shukrona keltirish esa shukrona aytuvchiga ayni ne'matning ziyoda bo'lishini ta'minlaydi.

Navoiy so'zning jonbaxshlik sifatini ta'riflar ekan, uning odamni halok qilish xususiyati ham borligini ta'kidlaydi:

*So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,
Ruh dag'i tan aro so'zdin halok.*

Ayni mazmuni adib "Mahbub ul-qulub" da shunday ifodalaydi: "Odame til bila soyir hayvondin mumtoz bo'lur va ham aning bila soyir insong'a sarafroz bo'lur. Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur.

Ayn ul-quzot til sharafidin Masih guftor bo'ldi va Husayn Mansur til sur'atidin dorg'a sazovor..."³

Zohiriy ko'rinishi go'zal bo'lgan insonning qalb go'zalligini bilish uchun uni so'zlatish kerakligini, agar o'sha odam har qancha chiroyli bo'lsa ham so'z ne'matidan, so'z fasohatidan bebahra bo'lsa, jim o'tiraversa, u bilan devorning farqi qolmasligini aytadi:

*Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So'z bila hayvondin anga imtiyoz.*

*G'uncha og'izlik sanami no'sh lab,
So'zdin agar aylasa xomush lab...*

*Surat ila bo'lsa mahi osmon,
Surati devor hamon, ul hamon...*

Husnu latofatda komil mahbubaning so'zi ham go'zal bo'lsa, har bir aytgan gapini fasohat va balog'at bilan, aql mezon-

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchi tom. – T.: Fan, 1998. – B.94.

da o'lchab tilga keltirsa, bunday so'z insonning yurak-yuragi-ga yetib borishini shunday tasvirlaydi:

*...Oytsa bu husnu malohat bila,
Nuktani oyini fasohat bila.*

*Solg'usi jinsi bani Odamg'a o't,
Ne bani Odam, bari Olamg'a o't...*

Shundan keyin Navoiy so'z ta'rifida hozirgacha aytilganlar nasriy, oddiy so'zlashuvdagi so'z xususida edi, endi nazmdagi so'z haqida so'z yuritamiz, deydi. Nazmdagi, she'rga solingan so'zning poyasi va martabasi butunlay o'zgachaligini ta'kidlaydi:

*...Munchaki sharh etdi qalam so'zga hol,
Nasridadur, nazmda bor o'zga hol...*

Shoir so'zida davom etib, nazmiy so'z bilan nasriy so'z-ni bir-biriga qiyoslashda turli tashbehlardan foydalanadi. Tishlar og'izda o'z o'rnida turganda qanchalar go'zal bo'lsa, og'izdan sug'urilib olinganda o'sha go'zallikdan asar ham qolmasligini aytadi. Og'izda tishlarning terilib turishini she'r-dagi so'zlarning tizilib turishiga o'xshatadi. Atirgul va chiroy-li daraxtlar bog'da tartib bilan turganda xush ko'rinishini, tog'da betartib o'sganda esa ular o'tin qatorida hisoblanishini ta'kidlaydi:

*O'rnida tishlar duri manzur erur,
Chun sochilur qiymati ma'lum erur:*

*Vardu shajar shohid erur bog' aro,
Lek o'tun silkidadur tog' aro...*

Ammo nazmdagi so'zning ham asli, mohiyati, darajasini belgilovchi jihati ma'nosi ekanini shoir doimo diqqat marka-zida tutadi. Ma'no ahli nazariga tushishi uchun she'rning suv-rati, tashqi jihati go'zal bo'lishi bilan birga, mazmun-mohiyati ham marg'ub va dilkash bo'lishi zarurligini aytadi:

*Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo'b emas.*

*Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga...*

Alisher Navoiy so'z xususida yuqorida o'zi aytib o'tgan fikrlariga butun umri, butun ijodi davomida rioya qildi. U o'zi bitgan har bir misra, o'zi tuzgan har bir jumлага alohida mas'uliyat bilan qaradi.

Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan o'tkazilgan anjumanlardan birida davrimizning yirik so'z san'atkorlaridan biri shunday degan edi: "Odatda, she'rda ham musiqadagi kabi boshlanishi, asta-sekin ko'tarilib avjga chiqishi va ohista-ohista pastlashib tugashi bo'ladi. Bu xususiyat deyarli barcha shoirlarning she'rlariga xos. Lekin Hazrat Navoiy o'z she'rlarini birdan avj nuqtadan boshlab, avjda davom ettiradi va avjda tugatadi!"

Alisher Navoiyning so'z mas'uliyati xususidagi fikrlaridan quyidagicha umumiy xulosalar chiqarish mumkin:

1. So'z insonga ato etilgan eng buyuk ne'mat, u tufayli inson hayvondan afzal bo'ldi. Boshqa ne'matlar kabi so'zning ham isrofi bor. Uni isrof qilishdan saqlanish lozim.

2. So'z vositasida insonning fazilati, ma'naviy darajasi namoyon bo'ladi.

3. Nazmga solingan so'zning, ya'ni she'rning martabasi nasriy so'zdan balanddir. Agar nazmning surati – shakli bilan mazmuni bir-biriga mos ravishda go'zal bo'lsa, u yetuk badiiy so'z darajasiga ko'tariladi. Navoiyning barcha she'rlarida mana shu muvozanat saqlangan.

4. Alisher Navoiy o'z she'rlarining yuksak badiiyatini, darajasini juda yaxshi anglagan. Uning "Muhokamat ul-lug'atayn" idagi quyidagi so'zlari ayni haqiqatdir: "Umidim uldur va xayolimg'a andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmagay..."

"Hayratul-abror"ning so'z ta'rifi bag'ishlangan bobidan keyin, XV bobida so'zdagi ma'no haqida so'z yuritiladi. Bob-

ning nasriy sarlavhasida shoir soʻzdagi maʼnoni tanadagi jon- ga qiyoslaydi: “Bir necha soʻz ul maʼnidakim, soʻzdagi maʼni jone dururkim, soʻz qolibi onsiz qolibe dururkim jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas...”

(Soʻzdagi maʼno tanadagi jon kabi ekani, soʻzning qolipi agar maʼno boʻlmasa jonsiz tanaga oʻxshashi haqida bir necha soʻz aytmoq. Oʻsha maʼnoni qanday topishni hech kim bilmay- di, balki maʼnoni topgan kishi ham topilmaydi).

Shundan soʻng shoir soʻzdagi maʼnoni taʼriflashni boshlay- di. Soʻz dengizida gʻavvos boʻlgan kishigagina maʼno gavhari nasib etishini aytadi:

*Ul kishi soʻz bahrida gʻavvos erur
Kim, guharl maʼni anga xos erur.*

Navoiy soʻzdagi maʼnoni taʼriflashda davom etib, soʻzni may- ga oʻxshatadi. Kimki maʼno durining sadafini jom qilgan boʻlsa, soʻz mayini oʻsha odam toʻliq sipqoradi, deya taʼkidlaydi. Osmon xumi oʻsha may bilan, yaʼni soʻz mayi bilan limmo-lim toʻlgan. Quyosh esa oʻsha xumning ogʻzini yopish, yaʼni mayni joʻsh tirish, yetiltirish uchun qoʻyilgan gʻishtdir. Uning, yaʼni soʻz mayining bir qatrasini totgan kishi soʻzning nashʼasidan xumdek joʻsh urib yuboradi. Soʻzning fayzi bilan butun olam toʻladi, lekin soʻz den- gizidan bir qatra ham kam boʻlmaydi:

*Nechaki fayzi bila olam toʻlub,
Qatral bahridin aning kam boʻlub...*

Ushbu baytdan keyin Navoiy oʻz holini bayon qilishga oʻta- di. Soʻz oqimi hasbi hol yoʻnalishi tomon buriladi. “Menki bu may nashʼasidin mastmen”, yaʼni soʻz mayining nashʼasidan mast boʻlib, fano dayri ahlining safiga qoʻshilganman. Soʻz nashʼasidan boshim shunday qizidiki, uning shuʼlasidan me- ning aql chirogʻim yorishdi. Garchi menga hidoyat jomi nasib etib, soʻzda sukut saqlash odatga aylangan boʻlsa-da, baʼzan soʻz mayi ixtiyorimni qoʻlimdan chiqarib, dunyo sahnida sha- moldek kezib, quyoshdek obodu vayronalarni axtarib oʻzlim bilan birga may ichadigan mos sherikni axtardim. Yaʼni turkiy

soʻz maydonida, nazmiy iqtidori oʻziga yaqinroq keladigan kishi yoʻqligidan zorlanyapti shoir:

*Ilgima tushmay bori ofoq aro,
Balki toʻquz charxi koʻhan toq aro.
Oʻyla harifiki, chu bazm aylasam,
Ichgali bu bodani azm aylasam...*

Nazmning eng yuksak oʻrnida oʻtirsam, oldimda son-sanoqsiz nazm ahli tursa, bazmda shohlarga xos asbob-anjom boʻlsa, boshimga nimtark (bosh kiyim)ni egri qoʻyib olsam. Oldimda soʻz mayidan chuqur bir daryo oqib tursa, qoʻlimda qayiqqa oʻxshash katta bir jom boʻlsa. Har nafasda jomni toʻldirib, oʻsha gul rangli bodani sipqorsam. Keyin turkiy ohang bilan kuylashni boshlasam. Oʻsha sherik menga hamovozlik qila olmasa ham (yaʼni qoʻshilishib kuylay olmasa ham), ayolgʻu (bir turli musiqa asbobi) bilan joʻr boʻlib tura olsa edi. Men tutgan bitta jomni ichishga jurʼati yetmasa ham, oʻsha jomdan bir qultum yutishga quvvati yetsa edi:

*Boʻlmasa bir jomim ichar jurʼati,
Boʻlsa biror jurʼa chekar quvvati...*

Lekin, afsus... Mening murodim bazmini bu baland osmon, yaʼni taqdir bunday tuhfa bilan taqdirlamadi – “Qilmadi bu tuhfa bila arjumand...”

Bu mayni ichishga quvvati yetadigan kishi oldin ham boʻlmaganmikan? Yoki boʻlgan boʻlsa ham bazmga men yetishimdan oldin ketishganmikan:

*Yo boʻlubon barchasi azm ettilar,
Bazmga men yetmas ekach kettilar?*

Menga bunday hamroh, hamnafas va hamsoʻz yetmagani ham mayli edi. Buning ustiga har burchakdan tabʼi egriyu soʻz aytmoqchi boʻlganlar, cholgʻu asbobi sozlanmaganu kuy chalmiqchi boʻlganlar paydo boʻldi. Ular soʻzda tuyuq bahrini, nafaqat tuyuq, balki qoʻshiq bahrini ham tushunmaydi. Yana barchalari xos maʼno egasiman, deya daʼvo qilishadi.

Endi Navoiy nazm maydonidagi da'vosi katta-yu, iste'do-di yo'q kishilar haqida so'z yuritadi. Ularning Navoiy yozgan she'rlarning ma'nosini o'zlashtirib, "o'zimniki" deya taqdim qilishlarini "Men ma'no kelinchagini ziynatlab, eng nafis harir liboslarni kiydirib, eng asl durlarni taqib qo'ysam, bu jafogar qavm uning boshiga yetib, asir qilib, "Jismida ne hulla qo'yub, ne harir", barchasini yechib olib, eski qora sholchani unga kiydirib qo'yishibdi", deb ta'riflaydi.

"Buning ustiga, – deya ta'kidlaydi Navoiy, – men ifoda etgan ma'nolarni o'zlashtirib, otini "she'r" deb atab, maqtovini ko'kka yetkazib, undan ham qizig'i, mening tanib turganimni bilib turib, Haqdan uyalmasdan mening o'zimga ko'rsatishadi. Yana mendan maqtov va ehson kutishadi. Mana shunday ishlari bilan u jafogarlar ko'nglimga jafo tig'ini urdilar".

Mana shu joydan boshlab Navoiy o'z "Xamsa"sining yozilishiga sabablardan birini ko'rsatib o'tadi:

*Qolmadi chun o'zga manga choraye,
Qal'a yasardek topibon xoraye.*

Ya'ni o'sha ma'no o'g'rilaridan qutulish uchun eng mustahkam toshlarni topib, qal'a qurishdan boshqa choram qolmadi. Bu baytdagi "qal'a"dan murod "Xamsa" asaridir. Men qal'a qurmoqchi bo'lgan tepalik juda baland va keng edi (Qulla chu ham oliy edi, ham vase'...). Poydevorini suvga yetguncha qazib, tosh bilan bunyod qildim. Binosini ko'k toqigacha po'latdan ko'tardim. Devorining tashqarisidagi himoya handaqini shu qadar chuqur qazdimki, kimki uning qa'riga qarasa, aqli ozadi. Gumbazining kungurasiga esa kamand otib yetkazib bo'lmaydi. Ma'noni esa parizodlar, go'zallar guruhidek shu qal'aga joylashtirib, jonlarini xavfdan ozod qildim. Tajovuz qiluvchilarning jismiga sanchish va boshini uchirish uchun qal'ada ko'p o'q va tosh zaxira qildim. Bu qal'aning toshi jonni o'rtovchi taqvo-parhyezkorlikdan, o'qi esa sahardagi ohlarimdan iboratdir. Qal'aga biror bir beadab yaqinlashadigan bo'lsa, o'sha tosh bilan o'qdan unga zahmat yetadi.

Bu o'rinda Navoiy o'zining muazzam adabiy obidasi – "Xamsa"ning yozilishiga sabab bo'lgan omillardan birini ay-

tib o'tmoqda. O'z "Xamsa"sini ma'naviy bir qal'a-istehkom deya ta'riflar ekan, har kim ham unga yaqinlasha olmasligini ta'kidlayapti. Shu ma'noda yaqinlasha olmaydiki, beadablarga "Xamsa" o'z bag'ridagi xazinalarni ochmaydi.

Navoiy shu o'rinda o'z fikrini yakunlar ekan, ko'p so'zlab yubordim, deya o'zini malomat qiladi:

*Arbada ko'p bo'ldi, magar mastmen,
Yoki junun qaydig'a pobastmen.*

(Arbada – shovqin, to'polon ko'p bo'ldi. Mast bo'lib qoldim shekilli. Yoki junun menga g'olib keldimikan). Mast bo'lmasam, muncha lof gaplarni qayerdan gapirdim. Majnun bo'lmasam, buncha behuda so'zlarni so'zlashim qayerdan? Yo'q, yo'q, men shikoyat qilganlarning barchasining aytganlari go'zal, she'rlari dilkash va shirindir. Men bu so'zlarni aytgan vaqtimda o'zimda yo'q edim. Ularning hammalari yaxshi, men yomonman.

Shundan so'ng Navoiy o'zi uchun, nafaqat o'zi, balki butun insoniyat uchun dasturul-amal bo'lgan baytni aytadiki, bu bayt besh yuz yil naridan turib ham bashar zotining zehniga, qalbiga nurdek kirib boradi:

*Tebra, Navoiyo, navo demagil,
Harne emas bo'lsa ravo, demagil.*

Shu joyda Navoiy asarlarining barhayotligini, ularning hanuzgacha ma'naviy jihatdan dolzarb va qalbga yaqinligini ta'minlagan omillar haqida ayrim mulohazalarni aytib o'tish lozim ko'rindi.

Mana, agar oxirgi yuz yilda o'zbek adabiyotida vujudga kelgan badiiy asarlarga nazar solsak, vaqtida baland minbarlardan yangrab, butun mamlakatni larzaga solgan, eng oliy mukofotlar bilan taqdirlangan asarlar tuzum yoki hokimiyat o'zgarishi bilan butunlay o'z ahamiyatini yo'qotganini ko'rishimiz mumkin. Hatto siyosiy tuzumga mutlaqo taalluqli bo'lmagan sof peyzaj ruhidagi yoki romantik asarlar ham ma'naviy jihatdan juda tez eskirib qolayotgani kuzatilyapti.

Alisher Navoiy asarlari esa, mana, besh yuz yildan ortiqroq vaqt o'tdiki, beistisno barchasi bugungi kunda ham

ma'naviy va boshqa jihatdan eskirmagan, o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Navoiy asarlarining barhayotligi, bizningcha, quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) ilohiy manbadan oziqlanish va pok e'tiqod;
- 2) ulug' insonlar diydoridan nasibadorlik;
- 3) o'zigacha yozilgan shoh asarlar mutolaasi;
- 4) o'tgan ulug' ustozlar haqiga muntazam ravishda duo qilib turish;
- 5) so'zni amaldan deb hisoblash;
- 6) yaratuvchi ato etgan buyuk iste'dod va betakror nazmiy iqtidor.

1. Ilohiy manbadan oziqlanish va pok e'tiqod

Navoiy asarlarining mag'zini, tabiiyki, ilohiy kitob Qur'oni karim va hadisi shariflar mazmunidan ayricha tushunib bo'lmaydi. Ulug' shoir asarlari, avvalo, islomiy ilmlar asosi bo'lgan shu ikki tabarruk manbadan tomir olgan. Navoiyning pok e'tiqodli inson bo'lganligi ham shubhasiz. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da yozadi: "Avval taxt olg'anda xayoli bor ekandurkim, duvozdah imomni xutbada o'qutg'ay. Alisherbek va ba'zilar man' qilibturlar. So'ngralar xud jami' ish-kuchi sunnat va jamoat mazhabi bila muvofiq edi".

Boburning yozishicha, Husayn Boyqaro yangi taxtga chiqqan vaqtda shialarning o'n ikki imomi nomini xutbada o'qitmoqchi, ya'ni shia mazhabiga o'tmoqchi bo'ladi. Lekin Alisher Navoiy va ba'zi beklar bunga monelik qilishadi. Husayn Boyqaroning keyingi hamma ishlari ahli sunna va jamoat mazhabi bo'yicha olib borilganini va bunda Navoiyning juda katta hissasi borligini Boburning e'tirofidan bilib olamiz.

Navoiyning o'z asarlari ham ulug' shoirning pok e'tiqodli inson bo'lganini isbotlovchi ochiq-oydin hujjatdir.

2. Ulug' insonlar diydoridan nasibadorlik

Alisher Navoiy sharaflı bir zamonda yashadi. Bu davrda Xuroson va Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat va san'at

gullab-yashnagan edi. Tabiiyki, bunday davrda ulug'-ulug' alomalar, adiblar, faqihlar, tarixchilar ham yetishib chiqadi.

O'sha davrda Xuroson va Movarounnahrda yashagan barcha ulug' insonlar bilan Navoiyning munosabati bor edi. Jumladan, mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan olti yoshida Taft shahrida tasodifan uchrashib, uning duosiga muharraf bo'lganini "Majolis un-nafois"da shoir o'zi hikoya qilib beradi. Shuningdek, yana "Majolis"da Samarqandda Xoja Fazlulloh Abullaysiydan ikki yil dars olganini aytadi. Fazlulloh Abullaysiyning Navoiyga "...oncha iltifoti bor erdikim, farzand der erdi" ("Majolis un-nafois", 2-majlis). Bu alloma mashhur faqih Abullays Samarqandiyning avlodlaridan bo'lib, zamondoshlari uni fiqhda "Abu Hanifai soniy", arabiyatda esa Ibn Hojib qatorida ko'rishlarini Navoiy aytib o'tadi.

Alisher Navoiy diydoridan bahramand bo'lgan ulug' zotlardan yana biri Mavlono Lutfiydir. "Majolis"da Navoiy bu zot ta'rifiga keng o'rin beradi. So'zining oxirida Navoiy: "Aziz va mutabarruk kishi erdi. Bu faqir borasida ko'p fothihalar o'qubdurlar. Umid ulkim, chun darvesh kishi erdi, ba'zi mustajob bo'lmish bo'lg'ay" deya umid qiladi.

Mavlono Nuruddin Abdurahmon Jomiy – Alisher Navoiyning piri va ustozi. Bu ikki ulug' zotning munosabatlari haqida juda ko'p aytilgan. Navoiyning shu darajaga yetishuvida beqiyos xizmatlari singgan ulug' va tabarruk zot. Navoiy hayoti davomida amalga oshirgan barcha ahamiyatli ishlarini, jumladan, "Xamsa"ni yozishni ham Jomiyning duoyi fothiasi bilan boshlagan. Bu haqda Navoiy "Saddi Iskandariy" xotimasida batafsil to'xtalib o'tadi.

Alisher Navoiy hayoti davomida uchrashgan, duo olgan ulug' zotlar juda ko'p bo'lgan. "Majolus un-nafois"ning ikkinchi va uchinchi majlislarida shunday zotlarning ko'plarini Navoiy zikr qilib o'tadi.

3. O'zigacha yozilgan shoh asarlar mutolaasi

Navoiy shaxsiyatining, iste'dodining kamolga yetishida u o'qigan arab, fors va turkiy tildagi ilmiy va badiiy asarlarning

ham ahamiyati beqiyos bo'lgan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida juda ko'p so'fiy olimlar yozgan ilmiy asarlar haqida ma'lumot beradi. Tabiiyki, Navoiy ularning aksar qismini mutolaa qilgan.

Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy asarlarini Navoiy doimiy mutolaa qilgan. Navoiy o'zining bir qit'asida g'azaldagi o'zining uch ustozlari: Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy haqida so'zlab:

*Navoiy nazmiga boqsang, emastur
Bu uchning qolidin bir bayti xoli, –*

deya e'tirof qilib o'tadi.

4. O'tgan ulug' ustozlar haqqiga muntazam duo qilib turish

Alisher Navoiy o'tgan ulug' ustozlar haqida so'z yuritar ekan, albatta so'zni ularning haqiga duo qilish bilan boshlaydi. Har bir sohada ulug' bir ishni boshlayotgan odam shu sohaning o'tib ketgan ustozlarini yod qilib, ularning haqiga duo qilishi go'zal odoblardan biridir. "Saddi Iskandariy" dostoni xotimasida Navoiy "Xamsa"ni tugatib, Jomiy huzuriga olib borganda bo'lgan bir holatni hikoya qiladi. Jomiy Alisher Navoiy "Xamsa"sini varaqlab, tahsin aytadi va Navoiyning yelkasini yengi bilan silaydi. Navoiyda bir holat yuz berib, o'zidan g'oyib bo'ladi va tushga o'xshash bir hol yuz beradi. Navoiy o'zini go'zal bir bog'da ko'radi. O'sha bog'da bir guruh ulug' zotlar davra qurib o'tirgan bo'ladi. Ularning ichidan bir vakil kelib, Navoiyni qo'lidan ushlab o'sha jamoat huzuriga olib boradi. Borishda vakil davradagilarni Navoiyga tanishtiradi: "O'rtada o'tirgan pir Shayx Nizomiy, uning o'ng tarafida Amir Xusrav, chap tarafida esa sening ustozing va piring Abdurahmon Jomiy".

Navoiy ularning oldiga adab bilan borib salom beradi. O'sha joyda ancha gap-so'zlar, duolar aytib o'tiladi. Biz uchun hozir eng muhiml – Shayx Nizomiyning gaplari. Nizomiy

Navoiyga xitob qilib, uning benazir iste'dodiga tahsin aytadi. Nizomiy so'zida davom etib shunday deydi: "Xamsa" yozishda menga ergashding. Men o'z "Xamsa"mda "Mendan keyin kim "Xamsa" yozmoqchi bo'lsa, so'zum o'rog'ining tig'i uning boshini uchirib yuborsin", – deb duo qilgan edim. Mendan keyin juda ko'p odam "Xamsa" yozmoqchi bo'ldi. Lekin ularning bu da'volari o'z boshlariga yetdi. Faqat farzandim Xusrav mening haqqimga duolar qilib ish boshladi va oxiriga yetkazdi. Undan keyin esa faqat senga bu ish nasib etdi. Chunki sen Joriy kabi ulug' purning duosi bilan ish boshlading va har kuni sahar payti yozishni boshlashdan oldin mening ruhimni duo bilan yod etting. Nafaqat meni, balki butun nazm ahlini duo bilan ruhini shod etding.

Navoiy o'z asarlarida ustozlarga nisbatan buyuk odob namunasini ko'rsatgan. Odob esa insonni buyuk martabalarga ko'taruvchi, uni ziynatlovchi omildir.

5. So'zni amaldan deb hisoblash

Alisher Navoiy aytilayotgan so'zni qilinayotgan ish qatorida deb bilgan. Binobarin, Navoiy o'zi amal qilmagan biror narsa haqida yozmagan. O'zi nima haqda yozgan bo'lsa, o'sha narsaga qat'iy amal qilgan. Uning yozgan asarlari amal bilan mustahkamlangani uchun ham hozirgacha qalblarga, zehnlarga to'siqsiz kirib bormoqda va mustahkam joy olmoqda. Saxovat haqida yozgan bo'lsa, hayotda ham saxovatning namunasini ko'rsatgan. Vafo va sadoqat haqida yozgan bo'lsa, amalda ham buning isbotini ko'rsatgan. Masalan, Navoiy butun umr yaqin do'sti Husayn Boyqaro saltanatini mustahkamlash, uning raiyati – xalqini rozi qilish uchun bor kuchini, boyligini sarfladi. Sidqidildan unga xizmat qildi. Husayn Boyqaro haqidagi salbiy fikrlarni hatto xayoliga ham keltirmadi. Bu sadoqatiga yarasha o'zi ham hukmdordan munosib izzat-ikrom va e'tibor ko'rdi. Aziz bo'lib yashadi va aziz bo'lib vafot etdi. Hamon aziz insonlar qatorida yod etilmoqda. Uning azizligi – asarlarining o'qilayotgani, o'rganilayotganidir.

6. Yaratuvchi ato etgan buyuk iste'dod va betakror nazmiy iqtidor

Albatta, Yaratuvchi tomonidan zo'r iste'dod va qobiliyat berilmasa, Navoiy bunday umrboqiy shoh asarlarni yoza olmas edi. Hali juda ko'p asarlari yozilmagan, 24-25 yoshlarida bitilgan "Masnaviy" asaridayoq (bu asar "Sayyid Hasan Ardasheriga maktub" deb ham nomlanadi) o'zining buyuk nazmiy iqtidorini his qila shunday yozgan edi:

*Falak ko'rmadi men kebi nodire,
Nizomiy kebi nazm aro qodire.
Ne nazme der ersam meni dardnok
Ki, har harfi bo'lg'ay aning durri pok.
yetar Tengridin oncha quvvat manga
Ki bo'lmas bitiriga fursat manga...*

Alisher Navoiydek buyuk iste'dod sohibi turkiy olamga Yaratuvchining benazir in'omi va hadyasi bo'lgan. Uning bu salohiyati va iqtidori yuzaga chiqishiga, o'zi bir qit'asida aytganidek:

Piru iste'dodu tavfiq o'lmasa bo'lmas bu ish...

Ya'ni bir ishning voqye' bo'lishida pir-ustoz, iste'dod va Yaratuvchining tavfiqi – muvaffaq qilishi eng muhim omildir.

BOBURNING TIL ILMIGA OID TALQINLARI

Zulxumor XOLMANOVA,

filologiya fanlari doktori, professor

Bobur nomi dardchil, chuqur insoniy tuyg'ular, ruhiy evrilishlar aks etgan o'tli satrlari hamda "Boburnoma" memuaridagi san'atkorona tasvirlarni ongimizda jonlantiradi. Shoir she'riyatining o'quvchi shuuriga singib ketishi, "Boburnoma"-ning dunyo askor ommasi tomonidan e'tirof etilishi, jahon memuarining nodir namunasi sifatida tan olinishi, shuhrati bir qator omillar bilan belgilanadi. Avvalo, "Boburnoma"da gi ifoda teranligi, fikr-hissiyotlarning yorqin aks ettirilishi, voqelikning mohirona tasvirini ta'kidlash lozim. Bobur til imkoniyatlarini chuqur anglagan va undan mahorat bilan foydalangan. Bobur qarashlarining o'zbek tili taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilganda, dastavval, muallifning tilga munosabati, so'z qo'llash mahorati haqida so'zlash joiz.

Boburning tilga munosabati, tilshunoslikka doir qarashlari, o'zbek tili taraqqiyotining muhim jihatlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar "Boburnoma"da o'z ifodasini topgan.

Ijodkor qarashlari quyidagi yo'nalishlarga oiddir:

Bobur, avvalo, qomusiy bilimga ega bo'lgan so'z san'atkoridir. "Boburnoma" XV – XVI asrlar eski o'zbek adabiy tili leksik xususiyatlari mujassamlangan qomus, voqelik ravon uslubda bayon etilgan, betakror badiiy tasvir vositalari orqali ifodalangan sermazmun manbadir. "Boburnoma" memuar janrda yozilgan bo'lib, voqelikning sinchkov, teran aql-idrok, chuqur bilim, tengsiz xotira sohibi bo'lgan muallif idroki orqali bayon etilishi asar tilining o'ziga xosligini ta'minlagan. "Boburnoma" tilining o'ziga xosligi, voqelikning ta'sirchan, mukammal tasviri muallifning yozma nutq ko'nikmalarini to'liq egallagani, fikr-mulohazalarini maqsadga muvofiq tarz-

da, aniq aks ettirishi, til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati bilan ham belgilanadi.

“Boburnoma” leksikasi o‘zbek tili tarixini o‘rganishda, lug‘aviy sath qonuniyatlarini, tarixiy leksikologiya masalalarini yoritishda, eski o‘zbek adabiy tili lug‘aviy taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni, leksik-semantik jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

“Boburnoma” til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish namunasi bo‘lishi barobarida, tilshunoslik sohasi uchun muhim qiymatga ega bo‘lgan ma‘lumotlar jamlangan manba sifatida ham ahamiyatlidir. Taniqli tilshunos olim A. Nurmonov Boburni tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalari rivojiga munosib ulush qo‘shgan olim sifatida tilga oladi. Mirortuq Mirabdulla o‘g‘li Boburni “atamashunos”, “Boburnoma”ni “muhim atamashunoslik manbai”, deb ta‘riflagan bo‘lsa, T. Nafasov Boburni nomshunos olim sifatida e‘tirof etadi. Zokirjon Mashrab o‘g‘li Bobur mirzoning seysmologiyaga oid jarayonlarni ilk bor o‘zbek tilida izohlagan olim ekanligini qayd etgan.

Bobur til va jamiyat masalalarini yoritgan olimdir.

Voqelikni tasvirlar ekan, jumladan, xalqlarning muloqot tili borasida to‘xtaladi: *Janubiy tarafdagi qasabalar (din) bir Andijondurkim, vasatta voqi’ bo‘lubtur... Eli turkdur. Shahr va bazorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rostdur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim, Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur.* (79,1)⁴ Bobur Navoiyning “shu til bila shuhrat topgan”ligini ta’kidlagan. X. Doniyorov bu fikrni tilshunoslikka oid bo‘lgan qimmatli ma‘lumotlardan biri sifatida baholagan⁵ (bu ma‘lumot Alisher Navoiy asarlari tilining dialektal asosi masalasini yoritishga xizmat qiladi).

Kobul viloyati ta’rifida xalqning o‘zaro muomala tili haqida so‘z yuritadi: *O’n bir-o’n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo’g’uliy, hindiy, afg’oniy, pasho-*

⁴ Misollar «Boburnoma»ning 1960, 2002-yildagi nashrlari asosida berildi.

⁵ Doniyorov X. Alisher Navoiy va o‘zbek adabiy tili. -T., 1972.

yi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg'oni(189). Ushbu ma'lumot muayyan hududdagi aholining bir necha ko'rinishdagi mu-loqot tili haqida tasavvur beradi.

Bobur – turkiy so'zlar targ'ibotchisi. Bobur eng qadim-gi davrlarga oid so'zlarni qo'llagan. Masalan, "safdosh do'st" ma'nosidagi *emaldosh* so'zini ishlatgan... *bir necha ko'kaltosh, emaldosh va boyrisi Sulton Mas'ud mirzoni olib...* (66,11); *aka* so'zini ayollarga nisbatan qo'llagan. *Maxfiy kishilar borib akam bila yanga bila, Poyanda Sultonbegimni "aka" der edim.* (255/146,1) *Aka* so'zi Pave de Kurteyl lug'atida "ona" ma'nosi-dagi mo'g'ulcha so'z, deb izohlangan. Bu so'z oltoy umumta-raqqiyot davriga xos bo'lib, hozirgi ayrim turkiy tillardagina saqlanib qolgan. Matndan bu so'zning martabasi ulug' ayol-larga nisbatan ishlatilgan murojaat shakli ekanligi ma'lum bo'ladi.

"Boburnoma"da turkiy so'zlar keng ko'lamda ishlatilgan (*uyrushmak, to'ngmoq, oldaramoq, orqalanmoq* kabi). Bobur turkiy so'zlarning ma'no nozikliklarini tez-fahmlilik bilan ilg'a-gan va mahorat bilan qo'llagan. Masalan, so'z birligini quyida-gi ma'nolarda qo'llagan: a) "xabar": *...Xisravshohdin ko'ngulga yoqqudek so'z kelturmadi, vale el va ulusdin so'zlar kelturdi* (178/102,1); b) "gap": *Xisravshohning mo'g'ullaridin dav-latxohona so'zlar arz qildi* (178/102,1); v) "hodisa": *Tengrig'a ravshandurkim, mendin va menga taalluq eldin hech ish va so'ze voqye' bo'lmadikim, sababi muncha kudurat va niqor bo'lg'ay* (220/127,1); g) "xabar": *Bir gariy, ikki gariy o'lturub, ul tarafdin – bu tarafdin so'z va hikoyat aytildi* (181/104,II); d) "hikmat": *Shayx Sa'diy so'zining mazmunining xilofi voqi' bo'ldi: Nechukkim, "Gullston"da kelturubtur: "Dah darvesh dar yak gileme bixusband va du podshoh dar iqlime nagunjand"* (246/140,II); ye) "fikr": *...g'olibo agar so'z aning emas* (244); j) "qaror": *O'shul so'zda edukkim, Boboyi Parg'ariy dedikim, men ham borib istarmen, ul ham ikki yigit inisi bilan ittifoq qi-lib otlanduk* (176/100, II).

"Boburnoma"da so'z leksik birligi un bilan juftlashib, "ma'lumot", "xabar" ma'nosida kelgan: *...Xoja kelsunlar, har*

nekim farmon bo'libtur, yetkursunlar, so'z-unni so'zlashib bor-sunlar (417/241,II); Hozirgi o'zbek adabiy tilida "nutq birligi" sifatidagi so'z (*O'TIL,II,94*) va "tovush", "ovoz" ma'nosidagi *un (O'TIL,II,277)* so'zlari uchraydi. Ammo mazkur so'zlarning birikkan holda qo'llanishi va "Boburnoma"da ifodalangan ma'nosi kuzatilmaydi. Bu juft so'zni eski o'zbek adabiy tiliga xos birlik sifatida baholash mumkin.

"Boburnoma" matniga xos harakat-holat so'zlaridan biri *yukun*- harakat leksemasidir. *Yukun* – "egilmoq, tiz cho'kmoq" (*BAL,173*); "hurmat, ta'zim yuzasidan egilmoq" (*NAL,712*) ma'nolarida izohlangan. Bu fe'l qadimgi turkiy tilda "buk-la" ma'nosini anglatgan *yuk* fe'lining "buk" ma'nosidan o'zlik nisbat yasovchi *-un* qo'shimchasi bilan hosil qilingan (*O'TEL,183*). "Boburnoma"dagi "yukundim", "qo'pmoq", "ta'zim qildi", "burung'idek=o'q ta'zim qilib qo'ptum", "ko'rushurda uch qatla yukunib..", ".yigirma besh, yigirma olti qatla payopay yukundi", "yurub ko'rushib o'tlanildi" kabi so'z, birikma, iboralarda shaxs fe'l-atvorining turli qirralari hamda davlat arbobining mavqeyini belgilovchi nozik ma'no va mazmun yashirin.⁶ *Yukun* qadimgi turkiy tilda "sajda qilmoq" ma'nosini bildirgan: *jūkūn* "poklonyatsya, klanyatsya" (*DTS,285*). Turkiy *yuk*-, *yukunch* "ta'zim qilmoq", "topinmoq", "sajda qilmoq" so'zining asosi *yuka* shaklida sug'd tilida bitilgan eng qadimgi Bug'ut yodnomasida uchraydi.⁷

Yukun so'zi qadimgi turkiy tilda, asosan, "ibodat chog'ida-gi egilish" tushunchasini ifodalagan. *Yukun*- so'zining semantik tarkibida "ta'zim qilmoq" semasi yetakchi hisoblanadi. Ammo *yukun*-, *ta'zim qilmoq* leksik birliklari anglatgan ma'no aynan teng emas. Asarda *...yirag'din yukunub, ... ta'zim qilib, mening oyog'imga yiqildilar (175);...ta'zim va ehtiromlari jihatidin yukundim, alar ham yukundilar (301)* kabi o'rinlarda "yukunmoq", "ta'zim qilmoq" so'zlarining alohida-alohida keltirilishi ularning aynan teng tushunchani ifodalamasligini ko'rsatadi. *Yukun*=da faqatgina jismoniy egilish emas, "bu-

⁶ Qudratullayev H. Yukunish siyosati // Tafakkur. -2004. -№3. -B. 83.

⁷ Is'hoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Mangu bitiklar. -Toshkent: TDSHIL. 2009. -B.12.

tun vujudi, borlig'i bilan egilish" anglashiladi. *Ta'zim qil*-da, asosan, vujudning egilishi tushuniladi. *Yukun*= fe'li ruhiy holat, harakat, insoniy ehtilom ifodasi hamdir: *uydin kirgach, uch yukundim* (89). "Bu so'z shaxsning mansabi, jamiyatdagi mavqeyi, kim kimga bo'ysunishi va boshqa jihatlarni bildirgan. Quyil mavqedagi shaxs yuqori martabali kishiga yukungan. Yukunish miqdori esa yukunayotgan shaxsning nochor holati yoki muayyan g'ururini bildirgan. Temuriylar saroyida bu qonunga aylangan tartib bo'lgan."⁸

"Yukunmoq"ning shunchaki yoki astoydil bajarilgani asar tilida o'z ifodasini topgan. "Shunchaki, bir bor" egilish tushunchasi *birar* olmoshi bilan birgalikda aks ettirilgan: *Ko'rushurda uch qatla yukunub, yong'anda ham uch qatla, so'rg'anda va tortuq tortqanda birar yukundi* (181). Ushbu jumladagi *biror yukundi* birikmasida "harakatning nomiga bajarilganlik" semasi aks etgan. "Astoydil, ko'p bora egilish" tushunchasi *qalin yukundi* birikmasida ko'zga tashlanadi: *Tortiq tortqanda ham qalin yukundi* (160). *Yukunish* har qanday vaziyatda ham bajarilishi lozim bo'lgan tavoze' ko'rinishi hisoblangan: *Oldarag'ondin yukunub kelguncha ikki qatla yiqildi...* (264).

Asarda qo'llangan *yukun*- so'zi o'ziga xos tavoze'ni ma'nosini, milliy mulozamat etiketini aks ettirishga xizmat qilgan. So'z shaxsning o'zgalarga munosabati, mansabi, lavozimi haqida ma'lum tasavvur beradi: *Avval Poyanda Sultonbegim bila yukunub ko'rushtum, andin so'ng Ofoqbegim bila yukunmay ko'rushtum, andin keyin Xadichabegim bila yukunub ko'rushtum* (252/144). Bu o'rinda shaxsning Poyanda Sultonbegim va Xadichabegimga bo'lgan hurmati va Ofoqbegimga nisbatan salbiy munosabati "yukunmoq" so'zi orqali ifodlangan; "...ortiqcha iltifot, birinchi bo'lib yukunish, kelishilgan joydan o'tib so'rashish kishi obro'yiga salbiy ta'sir etgan".⁹

Yukunishning takroriyligi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Odatiy hollarda bir qatla, tavoze' yuqoriroq bo'lsa uch qatla, samimiy hurmat, mulozamat qilinganda to'qqiz qatla

⁸ Qudratullayev H. Yukunish siyosati // Tafakkur. - 2004. - № 3. - B. 83.

⁹ Qudratullayev H. Yukunish siyosati // Tafakkur. - 2004. - № 3. - B. 85.

“yukunilgan”: *Ko'rushurda uch qatla yukunub, yong'anda ham uch qatla, so'rg'anda va tortuq tortqanda birar yukundi* (181). Yukunish shaxs bilan yuzma-yuz ko'rishish jarayonida bajarilgan: *Ko'rushur yerga yetishib to'qquz qatla yukunub kelib ko'rushti* (160). Hukmdor shaxs huzuridan chiqishda ham ado etilgan: *Yong'anda ham kichik xon to'qquz qatla yukundi* (160). Harakatning takroriyligi me'yordan oshsa, bu tavoze'dan ko'ra ko'proq uzr, afvni ifoda etgan. *Yigirma besh, yigirma olti qatla payo-pay yukundi va bordi va keldi* (181). “Bobur Xisravshoh ta'zimini atayin sanagan (25-26 marta), bunga diqqat qilgan. ... mag'lublik holatini muallif saroy rasm-rusumidagi zodagonlar xatti-harakati, temuriylar saltanatchilik qoidalari orqali ifodalagan”¹⁰; *bordi va keldi so'zlari yukunishning yuqori darajasidan keyingi harakat- holatni ifodalagan.*

Yukun- fe'li hozirda ruhiy holat, harakat ifodasi sifatida faqat badiiy uslubda qo'llanadi, “ta'zim qilmoq”, “iltijo qilmoq” ma'nolarini ifodalaydi (O'TIL, II, 466). So'zning qadimgi turkiy tildagi “sajda qilmoq”, eski o'zbek adabiy tildagi “ta'zim qilmoq” ma'nolari iste'moldan chiqqan. *Yukun=* so'zining “Boburnoma”dagi ma'nolari harakat-holat darajasi tahlili uchun muhim manba bo'ladi.

Bobur turkiy tillarga xos iboralardan mahorat bilan foydalangan, o'zi ham iboralar tuzgan. Masalan, “o'lmoq” tushunchasining *shunqor bo'lmoq, qaro oldurmoq, ko'k saroyga chiqarmoq* iboralari bilan ifodalanishi “Boburnoma” tili uchun xosdir: ...*Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo'ldi* (64).

Ko'k saroyga chiqar- iborasida “o'lmoq” tushunchasi ham kinoya, ham shaxsning nasl-nasabiga ishora ma'nosi asosida ifodalangan. (keltirilgan misollar o'zini oqlamaydi. Real ma'noda qo'llangan) Bobur Ko'ksaroyini “oliy imorat” deb ta'riflaydi. *Temuriylardan har kim taxtga o'ltursa ham munda o'lturur, har kim taxt doiyasi bila bosh qo'ysa ham munda qo'yar...* (95). Sulton Ali Mirzoni Ko'ksaroyga chiqarib, ko'zlariga mil tortdiradilar. Bundan ko'rinadiki, ayrim jazo ko'ri-

¹⁰ Qarang: Qudratullayev H. Bobur amoni. -Toshkent: Sharq. 2005. -B.87.

nishlari, jumladan qatl qildirish ham Ko'ksaroyda amalga oshirilgan: *Hattokim, kinoyati bo'lub edikim, falon padshohzodani ko'k saroyg'a chiqardilar, ya'ni o'lturdilar* (95). *Ko'k saroyga chiqarmoq* iborasida "o'lmoq" tushunchasi aloqadorlik asosidagi ma'no ko'chishi natijasida yuzaga kelgan.

Bosh olib it- iborasida ruhiy holat ifodalangan. Qalloslik (shuhratsizlik, e'tiborsizlik)dan ozorlangan va xorlik tortgan, sargardon kezishdan charchagan Bobur *bosh olib itmak* (yo'qolmoq)ni istaydi: *Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib itsam yaxshi* (159). Bu o'rinda kin-adovatga to'la zaminni tark etish, bu olamdan ketish istagi ifodalangan. Ibora tarkibidagi *itmak* so'zi turkiy *yitmoq* ("yo'qolmoq", "g'oyib bo'lmoq") ma'nosidagi so'zning fonetik o'zgargan shakli bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi, ayrim shevalarda narsa-buyumlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur iborada ruhiy toliqish, bevafoqlik va xiyonatdan azoblanish, barcha noxushliklardan ko'z yumish tuyg'ulari aks etgan. *Bosh olib itish* (o'lish) inson xohishiga ko'ra amalga oshmasligini yaxshi anglagan muallif dunyoning narigi burchiga, uzoqroqqa ketishni istaydi: *Bu nav' xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog'im yetgancha ketsam yaxshi* (159). Va xohishini amalga oshirishga qaror qiladi: *Xitoyg'a bormoqni jazm qilib, bosh olib ketmakka azm qildim* (159).

Bunday leksik birliklar Boburning turkiy tilni qadrlagani, unutilib borayotgan so'zlarni keng qo'llashga harakat qilgani, arabcha, forscha-tojikcha so'zlar o'rnida turkiy birliklarni ishlatgani, yangi voqelik, narsa-hodisani turkiy tilda nomlaganini ko'rsatadi. Bobur ayrim terminlarni bevosita o'zi qo'llagan. "Qo'shinni yorib hujum qiluvchi qism"ni *yorqunchi, ko'mak* deb atagan. Ba'zi o'zlashgan so'zlarni turkiy tilga moslashtirishga harakat qilgan. Jumladan, hindcha numerativlarni turkiy yoki adabiy tilda keng iste'molda bo'lgan variantiga almashtirgan. *Bu kuruhlarni nil bila muvofiq tayin qilindi. (423)* Voqelikni aks ettirish, narsa-hodisani tasvirlash jarayonida leksik birliklarni okkazional ma'nolarda qo'llagan, yangi so'zlarni istifoda etgan. Arabcha, forscha-tojikcha so'z-

lardan ichki imkoniyatlar asosida yasalgan yangi leksik birliklarni qoʻllagan. M., "suyaklar tizimi" ma'nosini ifodalovchi *ustuxonbandlig'* so'zini adabiyotdagi **shakl** termini ma'nosida ishlatgan: *...agarchi ba'zi baytlari tavre voqi' bo'lubtur, vale bu masnaviyning mazmun va ustuxonbandlig'i bisyor kovak va xarobtur. (139,II)*

Asarda xalqning urf-odat, an'analarini aks ettiruvchi so'zlar qoʻllangan. Bobur qoʻllagan turkiy leksika xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, marosimlari borasida yaqqol tasavvur uygʻotadi. Muallif Kobul (hijriy to'qqiz yuz yigirma beshinchi yil) voqealarini tasvirlar ekan, yozadi: *O'sha yerda yilqiron oshini tortturildi. (311)* Ushbu jumladagi *yilqiron oshi* "vabo, o'lat yillarida qilinadigan xudoyi oshi" ma'nosini ifodalagan: *Yilqiron oshi*, dastavval, vabo, o'lat yillarida qilingan va xalqning shu balolardan xalos bo'lish umidini ifoda etgan. Keyinchalik, balo yoki qiron(ning) kelishidan saqlashni so'rash marosimiga aylangan ("Boburnoma"da shu ma'noda qoʻllangan).

Asar matnida uchraydigan *yadachi* termini dehqonchilik bilan bogʻliq professionalizm bo'lib, "yada keltirish" marosimini uyushtiruvchi shaxs" ma'nosini bildirgan: *Sulton Abusaid mirzog'a xizmat qilg'on davrda yadachilik da'vosini qilur edi. (71)* Qadimgi turkiy tilda "yada toshi bilan fol ochmoq" tushunchasi *yatla-* so'zi bilan ifodalangan.¹¹ Eski o'zbek adabiy tili davriga kelib *yatla-* iste'moldan chiqqan. "Boburnoma"da bu tushunchani anglatish uchun *yada qilmoq* qo'shma fe'li qoʻllangan: *To'xta Bo'g'a Sulton yada qilg'on ekandur. (434)*

Bobur fonetika, orfoepiya sohalariga oid muhim fikrlarini bayon qilgan. Nomlash jarayonida tovush o'zgarishi, talaffuzning o'rnini ko'rsatgan. Jumladan, *Hast* (a.) antroponimi *Asad* so'zining hindistonliklar nutqidagi talaffuz asosida shakllanganini yozadi: *Suhon suyining navohisidag'i el va ulusning hoktmining oti Malik hast edi, asli oti Asaddur. Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o'qurlar, nechukkim, "xabar"ni "xabr" derlar, "asad"ni "asd" debturlar, bora-bora "hast" bo'lubtur. (166,I)* Bu matn hindistonliklarning unli

¹¹ Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. II. -T.1960. -B. 410.

tovushlarni ifodalovchi harakatlarni talaffuz qilmasliklari haqidagi muhim faktidir.

Soʻz talaffuzi asosida nomning shakllanishi toponimlarda ham kuzatiladi. M., *Kashmir* toponimi *kash* etnonimi talaffuzi asosida yuzaga kelgan. Bobur *Kashmir* etimologiyasiga qiziqadi, ammo aniq maʼlumotga ega boʻla olmaydi: ...*Hinduston elidin muncha tahqiq va taftish qilildi, hech kim bu tavoyifdin tahqiq xabar ayta almadi. (342/197,II)* Togʻlik aholining *kas* deb nomlanishi, hindistonliklarning "*shin*" harfini "*sin*" tarzida talaffuz qilishlariga eʼtibor qiladi. *Kashmir* toponimini *kas* qabila nomi talaffuziga bogʻlaydi: *Ushmuncha deydurlarkim, bu togʻ elini Kas derlar. Xotirgʻa yettikim, Hinduston eli "shin"ni "sin" talaffuz qilur. Chun bu togʻda muʼtabar shahr Kashmirdur... "Kasmir" demish boʻlgʻaylar (342/197,II).*

Lamgʻonot viloyatining nomlanishida ham talaffuz asosga olingan. Mazkur toponimning nomlanishini Bobur Nuh paygʻambarning otasi Mehtar Lom ismiga aloqador, deb biladi: *Baʼzi tarixta Mehtar Lomni Lamak (Lamkon) ham debturlar (110,II).* Bobur bu toponim etimologiyasini Alishang aholisining "kof" oʻrniga "gʻayn" talaffuz etishlari bilan bogʻlagan: *Ul elni xili mulohaza qilibturkim, baʼzi mahal "kof" oʻrunigʻa "gʻayn" talaffuz qilurlar, bu jihattin gʻolibu bu viloyatni Lamgʻon debturlar (110,II).* "Kof"ning "gʻayn" tarzida talaffuz etilishi *k~gʻ* fonetik hodisasi haqida maʼlumot beradi.

Boburning alifbo va imlo masalalariga oid faoliyati, fikr-mulohazalari ham eʼtiborga molik. U arab yozuvining murakkabliklarini qayd etgan holda, "Boburiy xati"ni yaratdi. Turkiy til fonetik tizimiga moslab yaratilgan bu yozuv qisqa muddatda boʻlsa-da, joriy qilingan: *Mirzobek tagʻoyidin ham Kamrongʻa tarjima va Hindqa kelgali aytaqon ashʻor va "Bobiriy xati" bila bitilgan sarxatlar yiborildi (429).* Sarxat "yangi husnixat mashq qiluvchi uchun koʻrsatma sifatida muallim tomonidan yozib beriladigan xat namunasi"¹² Sarxat namunaviy shakldagi husnixat boʻlib, maʼrifiy maqsadga xizmat qilgan.

¹² Navoiy asarlari lugʻati. Porso Shamsiyev tahriri ostida. -Toshkent, 1972. -552-b.; (NAL. 552. Таджикско-русский словарь. Под редак. М. В. Рахима и Л. В. Успенской -М.: Гос. изд. ин. и нац. словарей. 1954.-с.345.)

Sarxat milliy kalligrafiya taraqqiyoti haqida muayyan tasavvur beradi. *Sarxat*ning "Boburiy xati"da bitilganligi mazkur alifboning muayyan vaqtda amalda bo'lganidan dalolat.

"Boburnoma"ning 2002-yildagi nashrida "Boburiy xati"ning topilgani, bu yozuvda Qur'on ko'chirilganligi haqida ma'lumot beriladiki, mazkur yangilik ma'naviyat ravnaqi uchun muhim ahamiyatga molikdir.¹³

"Boburnoma"da muallifning so'z imlosiga munosabati, yozma nutq haqidagi mulohazalari ham aks etgan. Bobur imlo masalalariga, ayniqsa, arabcha so'zlar imlosiga alohida e'tibor bergan. Boburning so'z imlosiga munosabati, yozma nutq haqidagi fikrlari borasida o'g'li Humoyunga yozgan maktubi ahamiyatidir. Bu maktubida ism imlosi va ma'nosiga e'tiborli bo'lish; ota-onaning farzandga muvofiq ism berish farzi haqida; imlo masalalari; husnixat va uning ahamiyati; til va tafakkur munosabati; fikrni to'g'ri, aniq ifodalash zarurati borasida so'z yuritgan. Bobur o'g'lining xatiga oid tanbehlar beradi, xatosiz yozishga undaydi. Uni rag'batlantirishga urinsa-da, bir qator imlo xatolarini ko'rsatib o'tadi: *Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni "to" bila bitibsen. Qulunjni "yo" bila bitibsen (244)*. Fikrni nutq imkoniyatlari orqali ta'sirchan ifodalash ko'nikmalarini puxta egallagan Bobur ("Boburnoma"ning uslubi bunga dalil) o'g'lidan ham shuni talab qiladi. U "...xatingni xud tavr qilib o'qusa bo'latur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur"(421) deb yozadi, ya'ni mantiqsiz tuzilgan uslubiy nomuvofiq jummalarni rad etadi. Boburning yozma nutqqa nisbatan talabchanlik asosidagi mulohazalari bugungi kun uchun ham muhim qiymatga ega. Boburning Humoyunga yozgan xati avlodlarga yozilgan maktub maqomidagi qiymatga egadir.

Bobur – chog'ishtirma tilshunoslik asoschilaridan biri.

Agar X asrda Mahmud Koshg'ariy bir oilaga mansub yigirmatta tilni qiyosiy jihatdan o'rganib, qiyosiy tilshunoslikka asos solgan bo'lsa, Mirzo Bobur uch oilaga kiruvchi bir necha tilni solishtirib o'rganishning ajoyib namunasini ko'rsatib, dunyo

¹³ Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. -Toshkent: "Sharq" NMAK. 2002. -B. 336 +32 b. Zarvaraq.

tilshunosligida yangi nazariyaning asoschisi sifatida maydonga chiqdi.¹⁴

Allsher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da ikki tilni solishtirib, chog'ishtirma tilshunoslikka asos solgan bo'lsa, Bobur bir necha til negizidagi chog'ishtirma tilshunoslik nazariyasini yaratdi. "Boburnoma"da XV-XVI asr eski o'zbek adabiy tili lug'at boyligi bilan bir qatorda, eski o'zbek adabiy tiliga xos hamda Bobur faoliyati bilan bog'liq forscha-tojikcha, hindcha, pushtu, urdu tillariga oid so'zlar qo'llangan. Asarda muallifning turli tilga doir so'zlar qiyosi asosidagi fikrlari aks etgan. Muallif ijod jarayonida ayrim atamalarning boshqa tildagi (fors-tojik yoki hind tilidagi) muqobillarini keltiradi. Bundan ikki xil maqsad ko'zda tutilgan. Birinchidan, Bobur asarda keng qo'llangan yetkazishga harakat qilgan. Ikkinchidan, voqelik, narsa-hodisaning mohiyatini yanada kengroq yoritishga intilgan. Masalan, forscha **pos** va hindcha **pahr** terminlari haqida shunday fikr bildiradi: "*Hind eli kecha-kunduzni oltmish qismat qilibturlar, har qaysini bir giri debturlar, yana kechani to'rt va kunduzni to'rt qismat qilibturlar. Har qaysini bir pahr debturlarkim, forsiysi pos bo'lg'ay*" (358). **Pahr** terminining boshqa viloyatlar aholisi tilida ishlatilmasligini ham ta'kidlaydi: "*Ul viloyatlarda pos va posbon eshitilur edi, bu xususiyat bila ma'lum emas* edi (358). Hindcha **giring** forsiyda yoki turkiyda muqobili bo'lmagan (agar bo'lganida Bobur keltirib o'tgan bo'lar edi). Bundan kecha-kunduzni oltmish qismga ajratib nomlash faqat hindlarga xosligi ayon bo'ladi.

"O'tloq" ma'nosini ifodalovchi **julga** va **dun** leksemalari ham bir ob'ektni nomlovchi ikki xil til birligidir. Bobur "Hinduston tili bilan "julga"ni "dun" dermishlar" tarzida izoh beradi. Har ikki so'zni ham sinonim sifatida qo'llaydi.

"Tuman" terminining andijonliklar va koshg'arliklar tilida **o'rchin**, hindlar tilida **pargana** deb yuritilishini ta'kidlaydi. Bu bilan turli xil tillarning nomlash xususiyatlarini o'zaro qiyoslaydi.

¹⁴ To'ychiboyev B. Bobur tilshunoslikda yangi nazariya yaratuvchi//O'zbek tili va adabiyoti. -1992. -№1. -B.41-42.

Nabotot (o'simliklar) guruhida keltirilgan meva nomlarini boshqa tildagi muqobillariga solishtiradi: *anba* (*nag'zak*), *kayla* (arabcha *mavz*), *anbull* (*xurmoyi hindiy*), *mahva* (*gul chikon*), *biyr* (forscha *kunor*), *chirunchi* (*daraxti ko'hiy*), *norgil* (*norjil*). Bunda muallif o'quvchiga notanish leksik birliklarni izohlashga harakat qilgan.

Bobur – semantika bilimdoni. Bobur so'zlarni semantik guruhlariga ajratib izohlagan. Hindiston tabiatining avvalgi (birinchi), ikkinchi, uchinchi iqlimdanligini yozgan. Hayvonlar nomini bildiruvchi so'zlarni ikki guruhga ajratgan. Quruqlikda yashaydigan jonzotlarni "hayvonot" (*fil, kark, govmish*), suvlıklarda yashaydigan jonzotlarni "suv hayvonoti" (*sheri obiy, sepsor*) deb nomlagan. Parrandalar nomini *qushlar* (*to'vus, to'ti, lo'cha*), *suvda va suv yoqalarida bo'ladigan qushlar* (*ding, soras, mannik*) tarzida guruhlagan.

"Boburnoma"da nomlar shunchaki qayd qilinmagan, balki nomlarning mohiyati yoritilgan izohlar keltirilgan:

– muayyan xususiyatlari o'xshash bo'lgan narsa-hodisalar umumlashtirilgan va ularga xos muhim jihat bilan nomlangan: sitrus mevalar "norunj mushobihi meva" deb atalgan va *limu, turunj, sangtora, chanbiry, sadofal, amradpal, amalbed* kabilar shu xil meva sifatida ta'riflangan. To'tining turlarini bildiruvchi so'zlar keltirilgan: *jangaliy, Kashmir to'tisi, shorak, vin shorak*;

– narsa-hodisa, hayvon nomi bilan birga uning sinonimi ham keltirilgan (yoki shu narsa-hodisaning tasviriy ifodasi qo'llangan): *Yana nuvldur, kishdin juzviy kichikrak bo'lg'ay. Yig'ochqa chiqar. Ba'zi mushi xurmo ham derlar* (200,I);

– qayd etilgan hayvonning Hindiston tabiatiga xosligi *maxsus*, xos emasligi *maxsus* emas birliklari orqali ifodalangan: *Agarchi bo'dana Hinduston maxsus* emasdur; *vale to'rt-besh jins bo'danadurkim, Hinduston maxsusidur* (201,II);

– Kobul viloyati iqlimi ikkiga ajratilgan: *garmser* – issiq iqlim, *sardser* – sovuq iqlim. Mevalar iqlimga mos ravishda guruhlangan: *garmseriy mevalar* (Issiq iqlimda o'sadigan mevalar); *norunj, turunj, amluk, nayshakar; sardseriy mevalar*

(sovuq iqlimda o'sadigan mevalar): *uzum, anor, o'ruk, olma, behi, amrud, shaftolu, olu, sanjid* kabilar;

- ko'p hollarda alohida ajratib atalmagan narsa-hodisa nomlari keltirilgan. Jumladan, filning xartumi yonidagi uzun tishlarning *oj* deb yuritilishi aytilgan: *Xartumining ikki yonida yuqqorig'i engagida ikki uluq tishi bor... Oj bu tishlarni derlar (199,I);*

Bobur tasvir jarayonida semantik tahlil borasida to'xtaladi. *Darmiyon* antroponimi etimologiyasini keltirar ekan, mazkur laqab bilan sifatlangan shaxsning hal qiluvchi damda (g'anim qasd qilganda yoki Husayn mirzo otsiz qolganda) oraga tushganini ("Joniga oro kirgani"ni) ta'kidlagan: *Yana Shayx Abdusa'idxon Darmiyon edi. Bilmon, bu urushta mirzog'a ot kelturubmudur yo mirzog'a qasd qilg'on g'animni daf' qilibmudur; ul jihattin bu laqab bila mullaqab bo'lubdur (134,II).*

Hozirgi tilshunoslikda leksemalarni maydon nazariyasi asosida talqin qilishga, semalar tahliliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bir umumiy sememaga birlashuvchi leksemalarni muayyan arxisema asosida o'rganishning dastlabki namunalarni "Boburnoma"da ko'rish mumkin. Masalan, Bobur "zamon" sememasini ifodalovchi bir qator leksemalarni keltirgan. "Zamon" tushunchasi asarda quyidagi mezonlar asosida ifodalangan: a) "zamon" tushunchasi uchun xoslangan *asr, oy, yil, fasl, hafta soat, pos, pahr, giri, gari, pul, daqiqa* terminlari bilan aks ettirilgan; b) muayyan hodisaning amalga oshish muddati bilan ifodalangan: *bir sut pishimi*; v) toat-ibodat, namoz ko'rinishlarini bildiruvchi *namozi bomdod, namozi peshin, namozi digar (namozi asri), namozi shom, namozi xufton* kabilar orqali aks ettirilgan. Shu bilan bir qatorda Bobur vaqtni o'ziga xos qiyoslar bilan ifodalagan: ... *bir kecha-kunduz 28 ming sakkiz yuz "Qulhuvalloh"ni bismillo bila o'qug'uncha bo'lg'ay...(359); ... bir kecha-kunduz 216 ming ko'zni yumib ochguncha bo'lg'ay...(359); ...bir kecha-kunduz 8640 navbat "Fotlha"ni "bismilloh" bila o'qug'uncha bo'lg'ay (358).* Bularning hammasi 24 soat, 1440 daqiqaga teng keladi.

Bobur soʻz etimologiyasiga doir fikrlarini bayon qilgan. *Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad* antroponimlari, *Qarshi, Kashmir Lamgʻonot, Hotiypul, Baldaʼi mahfuza, Koʻhi Safid, Hodarvesh Seyoron, Koʻhi Safid, Koʻhi Jud, Savolak parbat, Shohi Kobul* toponimlari, *Laqlaqa, Muqattaʼ, Chinixona* kabi masjid nomlari, *Kakka, Nilagov, Murgʻaki Qarshi* singari zoonimlar etimologiyasini keltirgan. Bobur topoleksemaning semantik jihatdan kengayishini izohlagan: arablarning oʻzlaridan boshqa xalqlarni *ajam* deyishlari kabi hindlarning ham Hindistondan boshqa joylarni *xuroson* deyishlarini taʼkidlagan: *Hindustoniy gʻayri Hindustonni "xuroson" der. Nechuktim arab gʻayri arabni ajam der (107,11).*

Bobur voqelikni ifodalashda oʻziga xos leksik birliklarni istifoda etgan: *devon kuni* "majlis kuni", *tuna-kun* "oʻtgan kuni", *oxlr zamon* "hukmronlikning keyingi yillari" *bosh-koʻz qilmoq* "eʼzozlamoq", *ilgida xamir boʻlmoq* "mute boʻlmoq", *xeyli umr topmoq* "uzoq umr koʻrmoq", *oriyati qoʻyulmoq* "orlanmoq". "Oʻlmoq" tushunchasining *shunqor boʻlmoq, qaro oldurmoq, koʻk saroyga chiqarmoq* iboralari bilan ifodalaniishi "Boburnoma" tili uchun xosdir. Shahar nomlari bilan bir qatorda ularning mohiyat-eʼtiborini yorituvchi tasviriy ifodalarni ham qayd etgan: *Baldaʼi mahfuza* (Samarqand): *Hech yogʻiy qahr va gʻalaba bila munga dast topmagʻan uchun baldayi mahfuza derlar (59,1).* Samarqandning moʻgʻul va turkiy tilga xos ifoda shaklini ham keltirgan: *Moʻgʻul va turk ulusi Semirqand derlar (59,1).*

"Boburnoma"dagi kuzatishlar xalq etimologiyasiga asoslangan boʻlib, Bobur oʻz munosabatini bildirib oʻtgan.

Bobur ijodidagi tilshunoslikka oid talqinlarni kuzatar ekanmiz, muallifning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi oʻrni ni belgilash imkoni tugʻiladi. Bu esa mumtoz madaniy merosimiz qadr-qimmatini anglashda; jamoat arboblari va ijodkorlarning til taraqqiyotidagi xizmatlarini bilishda, hozirda oʻzbek tilshunosligida yangicha yoʻnalish deb qaralayotgan baʼzi sohalarining ayrim muammolari ajdodlarimiz tomondan oʻrtaga tashlanganligini anglashda muhimdir.

SO'Z MARTABASI

Otabek ISMOILOV,

O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Inson aqliy-ijodiy faoliyati boshlanganidan buyon bu ko'hna zaminda qanchadan-qancha yozuvchi va shoirlar yashab o'tdi ekan? Balkim sanab adog'iga yetib bo'lmas. Lekin, sanoqli so'z san'atkorlarining nomlari va asarlarigina asrlar silsilasiga dosh berib, bizning davrimizgacha yetib kelgan hamda bundan buyon ham yashab qolishi muqarrar:

Tangri taolo o'zi yaratgan jamiki mavjudotu maxluqotlar ichida insonni aziz bilib, unga baxsh etgan in'omu inoyati – SO'Z qadrini va martabasini baland tutganlar hamda uni aytish mas'uliyatini chuqur anglaganlargina boqiylik baxtiga sazovor bo'lganlar.

Ustozlari singari ana shunday saodat Muhammad Rizo Oga-hiyga ham nasib etdi. U o'z qit'alaridan birida shunday yozadi:

*Kishi necha imorat qilsa bunyod,
Va yoxud haddin afzun qo'ysa avlod,
Tutub bo'lmas birisidin baqo ko'z,
Qolur boqiy jahon ichra magar so'z.*

Masnaviylarning birida esa so'zning boqiylligi haqida shunday baytlar bor:

*Bilursankim bu olam bebaqodur,
Ne kim olamg'a kelmish bevafodur.*

*Na boqiy qolg'usidur johu davlat,
Na jovid o'lg'usidur izzu shavkat.*

*Fapaz mulku jahon sultonlig'idin,
Bori asnofi odam xonlig'idin.*

*Kishidin onda yaxshi ot qolsa,
Hama ko'rgan, eshitgan bahra olsa.*

*Tanosildin bu maqsad hosil ermas,
Imorat aylamakdin dast bermas.*

*Nedinkim inqilob aylarda davron,
Olor bo'lg'usidur nobud, vayron.*

*Magar boqiy qolur so'zning binosi,
yetushmay dahri dun selu jafosi.*

*Necha ofat yeli ko'rguzsa tug'yon,
So'z avroqi dami bo'lmas parishon.*

Ogahiy ta'riflaganidek, sonsiz farzand do'ratgan, xeshu aq-rabolarni ko'paytirgan, qator-qator imoratlar bunyod qilgan bilan qachonki, elga nafi tegmasa, ular orqali manguликdan xomtama bo'lish o'rinsiz. Zero, imoratlar davrlar o'tib kunpa-ya-kun bo'ladi, avlodlaring ham bir kuni nomingni unutishi shubhasiz. Lekin yaxshi so'z bilan jahonda boqiy yashab qo-lish muqarrar.

Darhaqiqat, so'zlash deyarlik barchaga nasib etgan, ammo so'z aytish iste'dodi hamma-hammaga ham muyassar emas.

Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) devoni debochasida shunday satrlar bor: "Kishidin to qiyomatg'acha boqiy qoloturg'on yodgor va farzandi saodatosor yaxshi so'z-dirkim, ongo zamon havodisining ofati zarari aslo yetushmas va davron inqilobining g'ybori asari hargiz ahvoli boshiga tushmas. Va vujudi adam kisvatidin muarro va baqosi fano tuhmatidin mubarrodur. Alqissa, so'z martabasi nihoyatsiz baland va so'z ahli hamisha aziz va arjumanddurlar".

Ogahiy asarlarining necha davrlar o'tib, davronlar aylanib, o'z so'zi bilan aytganda "zamon havodisining ofati zarari"ga dosh berib, davron inqilobi g'uborlaridan eson-omon qolib, yashab kelayotganligining bosh boisi bor. U ham bo'lsa eng

avvalo, soʻz martabasini baland tutib, uning yelkasiga ezgulikka xizmat etuvchi maʼni yukini ortganligidir. Soʻzni muqaddas bilib uni faqat oʻz davri yoki bir guruh kishilarning manfaati uchun emas, butun bashariyat xizmati uchun chogʻlaganidir. Asarlariga umuminsoniy gʻoyalarni, oddiy xalq dardu alami, orzu intilishlarini mavzu qilib olganligidir.

Ana shu sababdan ham Ogahiy nasri va nazmi “adam kisvatidin muarro va baqosi fano tuhmatidin mubarro” (yoʻqlik libosidan xoli va oʻtkinchi dunyo tuhmatlaridan ozod) qoldi. Ijodkori boshiga azizlik tojini kiydirdi.

Soʻz orqali badiiylkning yuksak namunalarini yaratgan va oʻziga shu orqali haykal qoʻya bilgan Ogahiy mutafakkir sifatida boshqalarni ham soʻz qadrini baland tutishga daʼvat etadi. Buni shoir devoni debochasidan tortib, juda koʻp gʻazallarida, masnaviy, qitʼa, ruboiylarida ham kuzatish mumkin. Shoirning “Soʻz” radifli gʻazali aynan shu mavzuga bagʻishlangan.

*Ey koʻngul, odam xayol aylab, dema nodongʻa soʻz,
Chunki ul inson emas, topsang degil insongʻa soʻz.*

*Soʻzdir inson koʻnglida bir gavhari qiymatbaho,
Oni xor etma debon har hushi yoʻq hayvongʻa soʻz.*

Insonni hayvondan farqlab turadigan narsa ham soʻzi, fikri, oʻy-andishasi. Soʻziga beeʼtibor odamning hayvondan farqi yoʻq. Hayvon duru gavharni farqini qayoqdan bilsin. Uning ishi kunjorau somon bilan. Asli nofahm odamga gap tushuntirish ogʻir mashaqqat. Bu ishni uddalashga uringan soʻz aytuvchining ham bagʻri qonga toʻlishi turgan gap.

*Soʻzni mafhum aylamak nofahmgʻa mushkuldurur-
Kim, boʻlib soʻz ahli bagʻri qonu botgʻay qonga soʻz.*

Ogahiy fikrini davom ettirib uqtiradiki, sandonga bolgʻa urganda kor etmaganidek, tosh yurak johilga ham soʻz taʼsir etmaydi. Oʻz qadrini bilmagan odam soʻz qadrini ham bilmaydi. Shu boisdan uni duch kelganga aytib zoe qilmoq aqldan emas.

*Ahmaq ahli bilmagay so'z ichra o'z behbudini,
O'ziga qilg'ay zarar, oxir chekib hazyonga so'z.*

Ahmaq odam yaxshi yomon so'z farqiga yetmasdan, og'ziga duch kelgan behuda gaplarni gapirib, o'z boshiga balo ortirishi shubhasiz. Yuqoridagi baytda shu fikr o'ta badiiy tarzda aks etgan.

"So'z" radifli boshqa bir g'azalida Ogahiy ta'kidlaydiki, ko'ngil bir dengiz, so'zni undagi pokiza gavharga qiyos qilgudek. Lekin sharti shuki, u ma'ni bilan ziynatlangan bo'lsa. Kimni kim ekanligini bilmoq tilasang, so'zidan ayon bo'ladi.

*Ko'ngul bir bahri zaxxoru ondadur pokiza gavhar so'z,
Vale shart ulki maoni shohtdiga bo'lsa zavar so'z.*

*So'ziga boq agar bilmak tilarsan kimsa ahvolin-
Ki, asrori nihoni suratig'a keldi mazhar so'z.*

Ogahiy ruboiylarining birida yuqoridagi fikrlarni davom ettirib yozadi:

*So'zdur bu jahon ahli aro qulzumi jarf,
Pokiza maoni angodur durri shigarf,*

*Bu bahr topar ko'ngul aro gunjoyish,
Lekin ango har ko'ngul bo'la olmas zarf.*

So'z kamyob gavharlarga to'la ummon, u ko'ngillardan o'rin topadi, oziq beradi. Lekin hamma ko'ngil ham uni sig'dirishga qodir emas. Ogahiy demoqchi, so'z aytuvchi bilan birga uni eshituvchi, qabul qiluvchining mas'uliyati ham kam emas. Ma'noli so'z qadriga yetadigan nozikfahm, pok qalb egasi ham juda zarur.

*Debon g'aflat elig'a pand zoye' qilma so'znikim,
Eshitmak mumkin ermas gar desang har nechakim kar so'z.*

*So'zingg'a ahli dunyo olida qadr istama hargiz,
Rafiul qadr ekonni na bilsun gov ila xar so'z.*

Loqayd, dunyoni suv olsa, to'pig'iga chiqmaydigan, befarosat kimsalarga nasihat aytib so'zingni zoe qilib yurmagilki, kar odam gar qancha gapirsang eshitmagani kabi ular ham e'tiborsizdir. "Ahli dunyo"dan buni umid ham etmagilki, mol bilan eshak so'z bir yuksak qadr ekanini qaydin biladi.

"Ahli dunyo" birikmasida shoir ikki ma'noni ko'zda tutadi. Birinchisi bu dunyoda yashovchilar, deylik, shoirning ayrim zamondoshlariga ishora.

Ikkinchisi – mol-dunyoga, boylikka hirsu havas qo'yan kimsalar. Negakim, pul, mol-dunyoga berilgan kishilar ko'pincha odamgarchilik, insofu diyonatni, birovlar so'zini, ahli ilmi nazar pisand qilmay qo'yadilar.

Ogahiyning "Dahr bog'i ta'rifida" nomli masnaviysi shunday baytlar bilan yakunlanadi.

*Xalq aro gar ogah esang, Ogahiy,
Beg'araz ar so'zni desang, Ogahiy.
Chunki erur boshdin ayoq chin so'zing,
Lek kerakdur amal etsang o'zing.
Gar amaling bo'lmasa, ne foyda,
Borcha so'zing bo'lg'usi befoyda.*

Qarang, shoir o'ziga va so'ziga qanchalar talabchan, mas'uliyatli. Keyingi baytdagi "amal" so'ziga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Shoirning mahorati shundaki, bu joyda ham u bir so'z zimmasiga bir necha ma'no yukini yuklaydi.

Birinchidan u amal — ijro ma'nosini bersa, ikkinchidan mansab, lavozim, mavqe ma'nosini ham anglatadi. Bayt bir o'qilganda aytgan so'zing bilan qilgan ishing bir bo'lmasa, o'z so'zingga o'zing amal etmasang barchasi behuda va ijrosi yo'q so'zing foydasizdir, degan xulosa kelib chiqadi.

Baytni yana bir bor o'qisangiz endi u yangicha ma'no va mazmun bilan jilolanadi. Amaldagi, mansabdagi kishilarning aytgani aytgan, degani degan. Amaling yo'q ekan, to'g'ri so'zing ham e'tiborsiz qoladi va aytganingdan hech qanday naf yo'q, degan kinoyaomuz mazmun ham kelib chiqadi.

Xullas, Ogahiy nazdida soʻz aytish oson ish emas. U puxta, mukammal, aniq va ayni haqiqat boʻlmogʻi kerak. Toki, hech kim soʻzingga gap topmasin, nuqson topib eʼtiroz bildirmasinkim oqibatda soʻzlovchi obroʻsiga ham nuqson yetmasin.

Quyidagi bayt yuksak masʼuliyatli shoirning butun hayoti va ijodiy faoliyati davomida oʻzi uchun qatʼiy tarzda qabul qilgan shiori kabi jaranglaydi:

*Boʻlub karam tafakkur, Ogahiy qil puxta soʻznikim,
Soʻzinggʻa soʻz toporgʻa ochmasun hech bir suxandon lab.*

Ogahiy sheʼriyatda Navoiy, Fuzuliy, Munis va boshqa ustoz qalamkashlarning anʼanalarini izchil davom ettirdi. Sharq sheʼriyatidagi sanʼatkorlik, badiiy ifoda usullarini mahorat bilan egallagan holda betakror asarlar yaratdi.

Ogahiy sheʼriyatning barcha janrlarida barakali ijod eta olgan shoir. Ustozi Navoiy singari har ikki tilda – turkiy tilda ham, fors-tojik tilida ham birdek goʻzal va yetuk sheʼrlar yarata olgan ijodkoridir.

Uning “Taʼviz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devoniga jamlangan gʻazallar, ruboiylar, muxammas, qitʼa va qasidalar mumtoz sheʼriyatimizning goʻzal namunalaridir.

Ogahiy sheʼriyatining mavzu doirasi keng va rang-barang. Ularda inson hayotining murakkab masalalari ham, ijtimoiy muammolar ham, muqaddas tuygʻu – ishq-muhabbat kechinmalari ham olmos qirralaridagi nur kabi maftunkor koʻrinishlarda va taʼsirchan tarzda aks etadi. Bir soʻz bilan aytganda ustoz adabiyotshunoslar taʼkidlaganlaridek, Ogahiy sheʼriyati inson ruhiyatining badiiy tarjimonidir.

Mumtoz sheʼriyatning 22 janrida qalam tebratgan ijodkorning tarjimon, tarixnavis va davlat arbobi (Xiva xonligida bosh mirob) sifatidagi xizmatlari ham benihoya katta.

Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyoti buyuk namoyandalari yigirmadan ziyod badiiy, tarixiy asarlarini forsiydan turkiy tilga tarjima qilgani, oltita (shundan “Firdavs ul-iqbol”, Munis bilan hammualliflikda) tarixiy asar bitgan Ogahiy serqirra ijod sohibi ekanligiga yana bir dalildir.

Soʻz orqali bebaho mulklar yaratgan, ularni sizni bizga meros qoldirgan ijodkorning xizmatlariga taniqli adabiyotshunos olimlar Gʻulom Karimov, Subutoy Dolimovlarning baholari juda munosib va ayni haqiqatdir:

«Qoldirgan ijodiy merosining hajmi jihatidan ham, adabiyotimiz va madaniyatimiz oldida qilgan xizmatlari jihatidan ham va nihoyat shaxsiy iqtidori, badiiy talanti va qudrati jihatidan ham Alisher Navoiydan keyin adabiyotimiz tarixida Ogahiyning oldiga tushadigan sanʼatkor boʻlmasa kerak».

Sharq mumtoz sheʼriyatida badiiylarning yuksak belgisi sifatida soʻz oʻyinlari, harf oʻyinlari, yaʼni harfiy-imloviy tamsillar – oʻxshatishlardan keng foydalanilgan.

Ogahiy Navoiy va boshqa ustozlarning bu boradagi anʼanalarini ham izchil davom ettirgan. Faqat davom ettiribgina qolmay ijodiy rivojlantirib, oʻzining nodir isteʼdod, noziktaʼb qalam sohibi ekanini amalda namoyish qilgan.

Arab alifbosida harflarga maʼshuqa chehrasi, goʻzalliklari yoki kishining biron bir holatini qiyoslash orqali Ogahiy shunday tashbehlar yaratadiki, pirovardida baytlardagi maʼno va tasvirdagi shakl bir-biriga payvasta tarzda jilolanadi, Nozikfahm gʻazalxon dilini zavqqa toʻldiradi. Buning ajoyib namunasi "Ustina" radifli gʻazal sharhida uning matlasi misolida koʻrgan edik.

Ogahiy ijodidan bunday misollarni yana koʻplab keltirish mumkin.

*Laʼli shirinimu yer tutqon qaro xol ostida,
Yo qoʻyulmish nuqta aylarda raqam bol ostida.*

Shoir demoqchi, pastida qora xol yarashib turgan bu mahbubaning laʼli shirinimi yaʼni labimi yoki xattot xat raqam qilayotgan chogʻida bol soʻzi ostiga nuqta qoʻyib yuborganmi-kan?!

Arab alifbosidagi "be" harfi alohida tarzda yozilganda bita nuqtasi bilan xuddi ostida xol oʻrin olgan pastki labga oʻxshaydi.

Be - ب

BOL بل

Bundan tashqari shoir bol so'zi orqali yor labining shirinligiga ham nozik ishora qilyapti.

Shuningdek, mumtoz she'riyatda "alif" harfini kelishgan, tik, to'g'ri, hushbichim qaddi-qomatga, "nun" va "dol" harflarini egilgan qadga o'xshatish hollari mavjud.

ALIF- ا

NUN- ن

DOL - د

Ogahiy g'azallarida bu usul o'ziga xos ma'no va shakl uyg'unligida yuksak san'atkorlik bilan ifodalanadi.

*Iyd aynini orzu aylab,
Alif oso qadim bo'lubdur dol.*

Bayram – iydni, huzur-halovat, hursandchilik kunlar boshlanishi orzusi bilan kuta-kuta "alif"ga o'xshash qaddim "dol" kabi bo'lib, ya'ni bukchayib qoldi.

*Birovkim bo'lsa stdqu rostlig' ichra alif yanglig',
Qadi bori mehan ostida bo'lg'ay ul sifatkim nun.*

Zamona illatlaridan shikoyat ohangida bitilgan ushbu baytda, quyidagicha o'xshatish berilgan. "Kimki sadoqat va rostgo'ylikda "alif" kabi to'g'rilikni shior qilsa, qaddi mehnat hamda mashaqqat yuki ostida nunga o'xshab (bukchayib) qoladi". Yoki:

*Yuz mashaqqat yetkurib, oxir alifdek qaddim,
Qildi xam o'ylaki dard ostidag'i dol firoq.*

Alif harfi qilichga qiyos qilingan quyidagi baytdagi shakl va mazmun uyg'unligidan, favqulodda go'zal bir tashbehdan lol qolasiz:

*Quchg'onin ko'rgach qilich bog'i oning nozik belin,
Rashkdin jonim aro qildi alifdek jo qilich.*

Qilich bog'i (qilich taqiladigan kamar) u (parivash)ning nozik bellni quchoqlaganini ko'rib, rashk tufayli qilich go'yoki jon o'rtasiga alif kabi jo bo'ldi, sanchildi.

Avvalo, qilich alifga o'xshatilayotgani o'zi bir harf o'yini, qolaversa, "jonim aro alifdek" deyilayotganiga sabab arab alifbosidagi jon so'zida "alif", "jim" bilan "nun" orasida kelib, xuddi qilich sanchib qo'yilgandek shakl beradi.

ALIF-ا

JON - جان

Yorning tik, xushqomatiga alif nisbat berilgan yana bir bayt ham bor.

*Jonga orom berur jonda alifdek turishing,
Ko'nglum oromin olur ruhi ravondek yurishing.*

Boshqa bir baytda shoir alif bilan bog'liq tag'in bir harf o'yini qiladiki, u ham bag'oyat ta'sirchan.

*Dog' uzra alifdurmu ko'ksim uza chekmish hajr,
Yo dard sipehrida mihvarmu ekan oyo.*

Ko'ksim uzra hijron tufayli paydo bo'lgan dog'ning o'rtasiga qadalgan narsa alifni yoki dardu sitam osmonining o'qimikan.

DOG' - داغ

Arab orfografiyasida undosh harflarni ikkilantirib o'qilishi kerakligini ko'rsatuvchi tashdid belgisi mavjud. U asosan satr usti belgisi bo'lib, yozuvda ikkilanishi lozim bo'lgan harf tepasiga qo'yiladi. Tashdid va "sin" harfini ko'pincha so'z o'rtasida yoziladigan shaklini tishga o'xshatish rasm bo'lib kelgan.

TASHDID- ˆ

SIN- س

Ogahiyning kinoya va piching ohangida bitilgan quyidagi baytlarida xuddi ana shunday hol "arra" so'zi yozuvidagi tashdid nazarda tutilgan.

ARRA - ارّه

*Har kishikim arra yonglig' bo'lsa badxo'yu durusht,
Dahridun eltar oni avji samog'a sin kibi.*

Yoki:

*Arradek bo'lsa tishing tezu, ishing jangu sitez,
Chiqq'osan avji samog'a o'ylakim sin, ey ko'ngul.*

Bu yerda bir tomondan arra tishlari, ikkinchi tomondan yozuvda shu so'z ustidan o'rin olgan tashdid (sin) belgisi shakl-shamoyili nazarda tutilgan bo'lib ham mazmunan, ham shaklan qo'shaloq tashbehni hosil qilganligi diqqatga sazovordir.

Shu o'rinda Ogahiy mahoratining go'zal ifodasi sifatida "Ustina" radifli g'azalidan yana bir misol keltiramiz.

Ma'lumki, g'azalning birinchi bayti, ya'ni dastlabki ikki misrasi matla' deb ataladi. G'azal matlasidanoq shoir sizni cheksiz bir hayrat olamiga boshlab kiradi va favqulodda go'zal bir tashbehlardan lol qolasiz.

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun nas kelturur nun eltibon sod ustina.*

Mumtoz adabiyotda mahbuba ko'zini chashmi fatton, chashmi jallod deb, ya'ni fitna qiluvchi, maftun etuvchi, jodulovchi, halok etuvchi sifatida ta'riflash mavjud.

Bu baytda esa shoir ma'shuqaning chashmi, ya'ni ko'zi shundoq ham jon oluvchi, halok etuvchi, bu ham yetmagandek, uning tepasidagi qop-qora tusli qoshining ko'rinishi "sod"ning ustiga "nun" eltgan yanglig' nas keltiryapti demoqchi.

Arab alifbosida "NUN" harfini shoir aytganidek "SOD" ustiga eltib xat qilsak, ya'ni ularni qo'shib yozsak, "NAS" so'zi hosil bo'ladi va bu arabchada hukm degan ma'noni beradi.

ن + ص = نص

Hukmni, ya'ni qati uchun qarorni esa jallod ko'z ustidagi "mushkin qoshining hay'ati" chiqaryapti.

Hay'at so'zi ko'rinish ma'nosini, bundan tashqari, hay'at, ya'ni biron masalani hal etish, hukm chiqarish bilan shug'ul-

lanuvchi guruh (masalan, sud hay'ati, hakamlar hay'ati degandek) ham tushuniladi.

Haqiqatdan ham e'tibor qilib qarasangiz, ko'z ustidagi ikki qoshning bir-biriga egilib turishi go'yo hay'at a'zolarining biron to'xtamga, hukmga kelish oldidan kengashib turganiga o'xshaydi.

Shu o'rinda "Ta'viz ul-oshiqin"dagi yana bir baytni eslang:

*Ko'ngul bo'l voqif ul payvasta qoshlar hay'atidinkim,
Ikov bir-birga qatlingda egib boshi kengoshibdur.*

Bundan tashqari shoir yor qoshini mushkin deyayotganligining boisi bor. Mushk qora rangli va xushbo'y hidli modda bo'lib birinchi navbatda qoshning qoraligiga ishora. Qolaversa, hukm chiqaruvchilar ko'p hollarda qora rangli matodan tikilgan kiyim kiyganlar. Yana bir tomoni jallodlar — ko'zlar pastda, hukm chiqaruvchilar tepada. Bu tashbeh ham chiroyli.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, qadim Sharqda hurufiylik qarashlari mavjud bo'lgan. Bu yo'nalish tarafdorlari Qur'ondagi har bir harfda ilohiy hikmat mavjudligiga qattiq ishonganlar, qolaversa, bu harflarning barchasi insonning yuzida mujassamlashgan, shuning uchun ham, odamzod qiyofasi ilohiydir, deb ahli basharni yuksak bir e'tiqod bilan ardoqlaganlar. Bu qarash she'riyatimizga, mumtoz adabiyotimiz vakillarining poetik tafakkuriga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Ogahiy so'z aytishda, nazm aytishda, fikrni o'ziga xos ifoda etishda bu tarzda so'z o'yinlari, harf o'yinlaridan mahorat bilan foydalangan. Lekin bu mazkur baytdagi san'atkorlikning hali hammasi emas. Endi shoir ta'riflaganidek, "nun"ni "sod" ustiga boshqacha tarzda, ya'ni teskari qilib eltib ko'ramiz.

Qarangki, bu holatda ko'z shakli hosil bo'ladi va kutilmagan Ogahiy hazratlarining imloviy musavvirlikni ko'ramiz.



Bu san'at oldida lol qolmay va tahsin o'qimay ilojingiz yo'q. Negaki, ranglar orqali, mo'yqalam orqali suvratkashlik bor gap. Lekin, mukammal ma'no uyg'unligida bu tarzda harfiy musavvirlik juda ham nodir narsa, ta'bir joiz bo'lsa kashfiyot, mo'jiza!

Ogahiy she'riyatda Navoiy, Fuzuliy, Munis va boshqa ustoz qalamkashlarning an'alarini izchil davom ettirdi. Sharq she'riyatidagi san'atkorlik, badiiy ifoda usullarini mahorat bilan egallagan holda betakror asarlar yaratdi.

Ogahiy she'riyatning barcha janrlarida barakali ijod eta olgan shoir. Ustozi Navoiy singari har ikki tilda – turkiy tilda ham, fors-tojik tilida ham birdek go'zal va yetuk she'rlar yarata olgan ijodkoridir.

Uning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoniga jamlangan g'azallar, ruboiylar, muxammas, qit'a va qasidalar mumtoz she'riyatimizning go'zal namunalaridir.

Ogahiy she'riyatining mavzu doiraslari keng va rang-barang. Ularda inson hayotining murakkab masalalari ham, ijtimoiy muammolar ham, muqaddas tuyg'u – ishq-muhabbat kechinmalari ham olmos qirralaridagi nur kabi maftunkor ko'rinishlarda va ta'sirchan tarzda aks etadi. Bir so'z bilan aytganda ustoz adabiyotshunoslar ta'kidlaganlaridek, Ogahiy she'riyati inson ruhiyatining badiiy tarjimonidir.

Yuqoridagi misollarning barchasi Ogahiy yuksak mahorati bilan darak beruvchi jihatlardir.

So'z aytish, she'r bitish mas'uliyati qanchalik katta bo'lgani singari uni tinglash, mutolaa qilish, fahmlash yoki biror bir g'azalni kuyga solib ijro etish, shu orqali boshqalarga yetkazish mas'uliyati ham shu qadar salmoqlikdir.

Afsuski, bu mas'uliyat unutilayotgan, mumtoz adabiyotimiz vakillari qalamiga mansub g'azallarni kuyga solib ijro etish jarayonida noto'g'ri talaffuz qilib so'zlarni yoki baytlardagi satrlarni almashtirib aytish holatlari uchramoqda.

Ogahiyning "Feruz" kuyi bilan aytiladigan "Ustina" radifli g'azali bor. Ayrim xonandalarning bu ashula ijrosidagi mas'uliyatsizligini fikrimiz isbotiga misol qilish mumkin. Masalan,

g'azaldagi "Mushkin qoshining" degan so'zlarni "Mushkul qoshining", "Sayr et Sulaymondek agar"ni "Sayr et Sulaymondek kezib" tarzida, shuningdek, "Yuz xayli g'am"ni "Yuz xili g'am" shaklida aytilayotgani ma'ni buzilishiga olib keladi va bu achinarlidir.

Xuddi shu masala xususida Ogahiyning o'z devoni debochasida muxlislarga, kelajak avlodlarga bir vasiyati, iltijosi ham bor. Unda shunday deyiladi:

"... Emdi donishmand fuzalo va diqqat payvand shuaroning lutf va muruvvatlaridin tarassud va tavaqqu' ulkim, faqirning uzriga quloq solib va holig'a tarahhum qilib aybpo'shliq ko'rguzgaylar va bu nusxaning har satrida buzuq iborat ko'rsalar, isloh berib, qoidag'a muvofiq tuzgaylar va faqirni duoyi xayr bilan yod va ruhimni hamun duo takroridan masrur va shod qilg'aylar.

*Har kim o'qusa duo bilan yod etkay,
Ruhimni bu yod etmak ila shod etkay.
To tangri aning bu karami borasida
Joyini ikki jahonda obod etkay".*

Qarangki, shoir iltijo va iltimosi, o'tinchi barobarida bu tarahhum va tavaqqu' ijrosi uchun oldindan tashakkur hamda tilaklarini ham izhor etganlar. Bizning esa xatolarni tuzatish uyoqda tursin to'g'rini noto'g'ri qilayotganimiz nojoizdir.

Qisqacha aytganda o'tganlar ruhini yod va shod etmoq uchun eng avvalo, ular qoldirgan meros – so'z mulkini muhofazasi, targ'iboti jarayonida mas'uliyatni chuqur his etish ham qarz, ham farzdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda so'z va millat ramzi – tili-mizning qadrlanayotgani, binobarin ilm va ijod ahliga cheksiz e'tibor hamda g'amxo'rliklar ko'rsatilayotgani quvonchlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligi bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi uchun barpo etilgan bino, ayniqsa, Adiblar xiyoboni nafaqat poytaxt shaharga ajoyib ko'rk, balki

har bir ijodkor, har bir san'at va adabiyot muxlisi qalbiga – dunyosiga ziynat bag'ishladi, tabarruk ziyoratgohga aylandi.

Bu muborak maskanda ko'plab ulug' allomalar qatori Ogahiy hazratlarining ham haykali qad rostlab turibdi.

Xiyobonni sayr qilib beixtiyor yana hazratning "Ta'vi-zul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni debochasidagi quyidagi so'zlar yodga keladi:

«...Bas, she'r bir ne'mati zamodurkim, Tangri taolo oni har kishiga ato qilmomishdur va oni aytmoq hunari har kimning qo'lidin kelmamishdur va she'r shoirning izzat va davlat ne'matin hosil qilmoqiga sabab, balki ikki dunyo manzilati saodatig'a vosil bo'lmog'iga boisdur. ...Alqissa so'z martabasi nihoyatsiz baland va so'z ahli hamisha aziz va arjumanddurlar».

Ilm-ma'rifat, ma'naviyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk bobokolonlarimiz, shular qatori Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy asarlarining o'zi yashagan davrda, keyin ham, ayniqsa, bizning kunlarimizda yuksak qadrlanayotgani, e'zozlanayotgani bu so'zlarning haqligi isbotidir. Ogahiy biz uchun aziz va asarlari ila biz bilan har kuni harnafas.

BERDAQ – QORAQALPOQ MILLIY ADABIY TILINING ASOSCHISI

Qurbanbay JARIMBETOV,
filologiya fanlari doktori, professor

Berdaq (Berdimurod, 1827–1900) XIX asr qoraqalpoq adabiyoti mumtoz va mutafakkir shoiridir. Uning she'riyati har xil zamonlarning tarixiy, siyosiy-ijtimoiy sinovlaridan o'tib bizning davrimizda ham xalqimizning ma'naviy-estetik talablarini qondirib kelmoqda. Bu mumtoz she'riyatning mavzusi ko'p tarmoqli bo'lib, g'oyaviy-badiiy jihatdan keng va teran, dolzarb muammolarni o'rta qo'yadi. Ular orasida ijtimoiy adolatlilik, halollik, vijdonlilik, imon-Insof, xalqning erkinligi, o'zligi, kelajak taqdiri kabi masalalar shoirni chuqur teran o'ylantirdi. Shoir ulug' mutafakkir sifatida bu o'tkir masalalarni har birini puxta ishlab, ularni teran tarixiy-falsafiy, ijtimoiy-gumanistik, etik va estetik konsepsiyalarga aylantirdi.

Berdaq xalq manfaatini, xalq dardini kuylagan xalqchil shoir edi. Uning she'riyatida xalqning tarixi, orzu-armonlari, ezgu niyatlari, tilaklari, turmush tarzi, milliy tuyg'ulari ifodalangan. Shoirning "Xalq uchun", "Yaxshiroq", "Yoz kelarmu", "Bu yil", "Soliq", "Zamonda", "Qaramas", "Oqibat", "Haqlik yo'lini ber", "Izlar edim", "Kelin", "Bo'lgan emas" va boshqa she'rlari, "Ahmoq podshoh", "Shajara", "Xorazm", "Oydo's bobo", "Er-nazarbiy", "Omongeldi", "Ravshan" kabi dostonlari fikrimizga misol bo'la oladi.

Berdaqning xalqchil shoir bo'lishining asosiy sabablari-ning biri nafaqat uning asarlarida xalq hayotining haqqoniy tasvirlangani, balki ko'targan muammolarining dolzarbligi va o'tkirligida hamdir. Berdaq she'riyatining tili, uslubi sodda, xalqning jonli so'zlashuv tiliga asoslangan. Shoir asarlarida an'anaviy, keng ommaning anglashi qiyin kitobiy obrazlarni,

timsol va tashbehlarni qayta ishlab soddalashtirdi, turmush faktlaridan keng foydalanib, mahalliy koloritini kuchaytirdi.

She'riyatni keng ommaga mo'ljallash tendensiyasi XVIII–XIX asrlar Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu borada turkman shoiri Mahtumquli (XVIII asr), o'zbek shoiri Muqimiy (XIX asr), qozoq aqini Abay (XIX asr) ijodini misol keltirish mumkin. Adabiyotdagi bu jarayonni tilshunos va adabiyotshunos olimlar to'g'ri kuzatib, tegishli xulosalar chiqargan. Ularning xulosasi bo'yicha, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti mumtoz shoirlari asarlarida eski o'zbek kitobiy tiliga oid so'zlar, iboralar, grammatik shakllardan foydalansa ham, ular qayta ishlanib, keng ommaga tushunarli xalqning jonli so'zlashuv tiliga asoslanib yozilgandi.

Berdaq she'riyati tilining badiiy ildizlari birinchi navbatda, hech shubhasiz, qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Uning leksik tarkibida xalq tilidan o'zlashtirilgan so'zlar, iboralar, frazeologizmlar, naql-maqollar juda ko'p uchraydi. Masalan, *"ай жузли, ақ жузли, қизил гул, сайраған булбил, қалем қас, оймақ аўыз, жупқа додақ, терең ақыл, тынық қыял, қара жер, қара жылан, сур жылан"* va hokazolar. Bunday leksik vositalar chiroyli qizlar portretini va salbiy obrazlarini tasvirlashda ko'proq qo'llaniladi. Masalan, Berdaqning "Kelin" nomli she'rida go'zal qiz portretini yasash uchun folklor hazinasidagi doimiy epitetlardan faol foydalaniladi: *"Шашың қара, бетің аппақ, Қундыз кирпик, жупқа додақ; Қулағыңда алтын сырға, Тилиң шийрин, кеулиң жорға; Жарқырайды бетің айдай, Туўған анаң сениң қандай? Сөзің шийрин, тилиң палдай, Перийзаттан артық келин; Артық сениң ақыл-ойың, Тал шыбықтай хэм де бойың"*.

Lekin shunday afsonaviy go'zal baxtli emas, u o'z tengiga qo'shila olmay umri xo'rlik va azob-uqubat bilan kechadi: *"Қорлық, азап көрген күнің, Қапалықта өтти түнің, Еркин шағлап, шықпай үнің, Қапалықта турсаң келин; Сондай зарын келди маған, Не айтайын барып саған, Қайғыдаман мен де оған, Күнің солай өтти келин"*.

She'rda inson huquqi, ayniqsa, xotin-qizlar huquqi va erkinligi, ularning jamiyatdagi o'rni asosiy muammo sifatida aks ettirilgan. XIX asrda Markaziy Osiyoda feodal jamiyat tuzumi ustunlik qilgani tufayli xotin-qizlar huquqi nihoyatda cheklangan, hattoki, oyoq osti qilingan edi. Berdaq xotin-qizlarning azobli, xo'rlikli ahvoriga achinadi, ularga hurmat bilan qaraydi, yaxshi kunlariga tilakdosh bo'ladi.

Berdaq salbiy obrazlar tasvirida ham folklor vositalariga ko'proq murojaat qilib, an'anaviy epitetlardan, o'xshatishlardan badiiy mahorat bilan foydalanadi. Masalan, "Ahmoq podshoh" dostoni bosh qahramoni – chiroyli va zabardast qiz, mehnatkash xalq vakili Gulim zolim podshohning zo'r-ligiga uchrab saroy haramiga oldiriladi. Gulim podshohdan qo'rqmasdan unga haqiqatni aytadi, uning asl basharasini tasvirlab, zolimligini qoralaydi: *"Қара тиктиң маңлайыма, Қысым еттиң жас жаныма, Мийрими жоқ сур екенсең; Зорлық еттиң жас жаныма, Оралдың келип мойныма, Нақ сур жылан сен екенсең; Тусимде көрген сур жылан, Дос емес еди, ол душпан, Қара бетли сен екенсең"*.

Ushbu misollarda muallif zolim podshohning asl basharasini ko'rsatish uchun xalq og'zaki ijodidagi doimiy epitetlardan va o'xshatishlardan unumli foydalanadi. Masalan, **sur** so'zi qoraqalpoq tilida zolimlik, shafqatsizlik ramzi, u folklor asarlarida salbiy obrazlarni yoritishda juda keng qo'llaniladi. Shuningdek, **sur jilan**, **qara betli** va boshqa sifatlashlar zolim podshohning asl qiyofasini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Berdaq she'riyatining leksik tarkibini tadqiq qilganda unda faqat folklorizmlarni ko'rish bu, albatta, bir tomonlama bo'lar edi. Berdaq she'riyatining tili va uslubi shunchalik oddiy va jaydari bo'lsa ham, baribir unda kitobiy til mezonlari, ayniqsa, uning asrlar davomida to'plagan leksik boyligini kuzatish mumkin. Berdaqning badiiy leksikasida arab va fors tili unsurlari ko'plab uchraydi. Bular diniy terminlar va tushunchalarni ifodalashda qo'llaniladi: Alloh, iloh, haq, subhon, farishta, rasul (rasululloh), ummat, sahoba, iymon, namoz, ro'za, shariat, Qur'on va boshqalar. *"Жерду,*

көкти халқ айлеген **қудайым; Илаҳим** сақлағай душпан заринен (захаридан, азобидан); Күлки- хожжақ ауылы бул, Мухаммедке **уммат, ҳаққа қул; Ҳаққа** налыш етейин мен, **Ҳақ** жол менен кетейин мен; **Расулиллах Пырақ (Бурақ)** минип, **Қабы қаўсейин** барған екен, **Қуда** билан разы айтышып, **Ҳақ** дийдарын көрген екен; Анас, **Малик** екки киши **пайғамбарнинг саҳабаси**".

Shuningdek, tasavvuf ta'limoti terminlaridan ham foydalanadi: "Дунья **фаний**, келмек **ғаний**, Келдиму энди не кордим; **Шариат**дур динниң көрки, **Нафси** шайтан бермес еркти; **Жоғымнан** таппадым дәрек, **Сардарымды** излер едим; **Бердимурат** изле-изле, **Ҳақ жолыны** туўры гөзле; **Ақтарып паний дуньяны**, Мен жоғымды **излер едим**". Ushbu misralar so'fiylik ta'limotidagi foniy va boqiy dunyo, nafs balosi, yo'g'ini (haqni) izlamog' singari tushunchalar va motivlarga ishora sanaladi.

Kitobiy so'zlar va iboralar falsafiy terminlar va tushunchalarni aks ettirishda ham faol qo'llaniladi: "**Төрт нәрсе дунья төркини**, **Ауўел ҳақ**, инсан, бил буну; **Бир Алланың жоқдур мини (kamchiligi); Бир себепкер жалғыз Алла**". Berdaq yuqoridagi "Izlar edim" she'ridan olingan misolda olam haqidagi falsafiy qarashlarga ishora qiladi. Lekin Berdaq shu faylasuflar qarashlariga tayanib, Alloh birinchi borliq (Avval haq), barcha mavjudotlarning paydo bo'lishiga birinchi sabab (Bir sebebker jalg'iz Alla), ularni xarakatlantiruvchi birinchi kuch, u (Alloh) kamchiliklardan holi ekanligi haqida falsafiy ta'limotni ilgari suradi.

Berdag she'riyati tilida antonim va sinonimlar unumli qo'llaniladi. Antonimlar, barchaga ma'lumki, qarama-qarshi (antitezalik) sharoitlarni tasvirlash, qarama-qarshi ma'nolarni, fikrlarni, his-tuyg'ularni ifodalash, ularning o'tkirligini, keskinligini ta'minlash uchun zarur: "**Султан** болма **ғайры** елде, **Шопан** бол туўған жериңде" – bu o'rinda **sulton** va **cho'pon** antonimlari nafaqat qarama-qarshi ma'noni anglatadi, balki vatanning qadrini bilishga, uni hurmat qilishga, ijtimoiy ahvolning qanday darajada bo'lishidan qat'i

nazar tug'ilgan vatanni sevishga undaydi. Yanada misollar: "Хасиге кетпейин, таўбе етейин, Хай ағалар өтирик айтып нетейин". Bu o'rinda diniy atamalar - "osiy va tavba" antonim sifatida ishlatilgan. "Бул дүнья тар ма, кең бе? Ойлап мәнисин билмедим; Малың болмаса қолыңда, Жатар душпаның жолыңда, Досларың шығып солыңа, Қал - жағдайыңа қарамас; Залымлар тыңламас мөҳминнің сөзин; Ойлы жигит жақсы, билимпаз келер, Ақылсыздың қасиеті аз келер; Жақсы адам сөз мәнисин аңлайды, Жаман адам насық сөзди тыңлайды; Биреулер бай, биреу жарлы (камбағал), Тезбе - тез сынап билгейсиз; Биреу бәлент, биреулер пәс". Misollardagi boy - kambag'al, baland-past antonimlari jamiyat a'zolarining ijtimoiy holi bo'yicha tabaqalarga ajralish jarayonini anglatadi.

Berdaq she'riyatida sinonimlar alohida o'rin egallaydi. Shoir sinonimlarni qo'llash orqali she'rlarni yanada chiroyli, yanada go'zal qiladi, fikr-tuyg'ularni teran va ta'sirchan qilib ifodalaydi: "Gul yedim, қуўрадым, солдым; Zaman qismatidan sarg'aydim, azdim". Bu o'rinda gul metaforasi shoirni anglatadi. Matnda yayrab turgan gul obrazi qurtydi, so'ladi. Sinonimlar vaziyatni yanada o'tkirlashtiradi, keskinlashtiradi. Natijada zamon qismatidan, g'am-tashvishidan dard-alam chekib sarg'aygan, ozgan, to'zgan lirik qahramonning obrazi ayonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, Berdaq ijodi haqida har xil mavzularda yozilgan adabiyotlar juda ko'p. Lekin uning asarlarining tili poetikasi to'g'risida umumiy adabiyotlar ham, maxsus ilmiy tadqiqotlar ham juda kam. Ulug' mumtoz shoirning boy merosini badiiy til aspektida o'rganish, ya'ni Berdaqning obraz yaratishda tasviriy - ifodaviy vositalarni (sinonim va antonimlar, arxaizm va neologizmlar, frazeologizmlar, naql-maqollar, aforizmlar va b.), istioralarni (troplarni: epitetlar, o'xshatishlar, metaforalar, allegoriyalar, mubolag'alar va b.) qo'llash mahoratini o'rganish kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Zero Berdaq she'riyati hozirgi zamonaviy adabiyotimizda ham yangicha jaranglaydi, yangi fikr-tuyg'ularni uyg'otadi.

MUQIMIY SO'ZINING SALMOG'I

Otabek JO'RABOYEV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Manbalarning guvohlik berishicha, adabiyotimiz tarixiga "Qo'qon adabiy muhiti" nomi bilan muhrlangan muhitda adabiy an'analar va o'ziga xosliklar ham shakllanib ulgurgan. Mazkur satrlar muallifining mavzuga oid qo'lyozma va boshqa ilmiy manbalardan o'rganib, olib borgan hisob-kitobiga ko'ra, XVIII asrning oxirgi choragidan XX asrning birinchi choragiga qadar birgina Qo'qon va uning atrofidan ikki yuzdan ortiq ijodkor yetishib chiqqan (asosan, shoirlar). Demak, oddiyroq qilib aytganda, bir yarim asrda ikki yuzta shoir.

To'g'ri, bu ijodkorlarning barchasini ham birdek yuqori sa'yiyada, salmoqli adabiy meros qoldirgan, deb bo'lmas. Biroq ularning orasida Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Fazliy, G'oziy, Uzlat, Hoziq, Maxmur, Azimiy, Xon, Qoriy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Haziniy, Hamza kabi so'z san'atkorlari borki, ularsiz o'zbek adabiyoti tarixini tasavvur etish mushkul keladi. Bu shoirlar qatorida Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850–1903) nomi sharifi alohida e'tirof va e'zozga sazovor, deyilsa mubolag'a bo'lmas.

Muqimiy yashagan davr Vatanimiz va millatimiz tarixidagi eng qiyin, eng og'ir va eng qora davrlardan biri hamdir. Bu vaqtda Turkiston zamini Chor Rusiyasi bosqini arafasida va buning oqibatini ko'rish pallasida edi. Muqimiy kabi ziyo-li qatlam esa bu istibdodni o'z boshidan kechirgan avlodidir. Ular endi nafaqat badiiy adabiyotga, balki butun dunyoga boshqa ko'z ila boqayotgan kishilar edi.

Bu masalaning bir tarafi. Boshqa tomondan qaraganda esa, Xo'qandi latif – qadim kent. Bu shaharning o'ziga xos ko'rinishi va madaniyati bilan birga, xalqining ham turfa fe'l-atvori bor. So'zlashuv, muomala, suhbatdagi zakiylik ayni

bu yerning odamlariga xos jihat bo'lib shakllanib qolgan. Bu kentdan yetishib chiqqan ijodkorlarga esa mazkur jihatlar juda katta mas'uliyat yuklar, so'zga munosabat va uni xalqqa yetkazib berishda juda ehtiyotkorlik talab etardi. Ayniqsa, Mavlono Muqimiy yashagan yillarni ko'zda tutilsa, zikri kechgan holat, ya'ni so'zning badiiy adabiyotdagi o'rni va badiiy asar orqali o'quvchiga yetkazilish mas'uliyati ikki karra ortganini ko'rishimiz mumkin.

Muqimiy bir g'azalida yozadi:

*Nazar qilg'anda nazmingg'a Muqimiy,
Nazokatda Umarxondin qolishmas.*

Mana, shoir **Muqimiyning badiiy ijodda va so'z anglashdagi asosiy nuqtasi hamda nuktasi**. Uningcha bu – **mumtoz nazm nazokati**.

Endi, albatta, har bir muhit uchun adabiy ideal bo'lgan shoir keyingi davr ijodkorlari uchun etalon qilib olinadi. Bu o'rinda mashhur shoir va Qo'qon xoni Muhammad Said Amir Umarxon (1787–1822) she'riyati ta'kidlanmoqda.

Haqiqatan ham o'tmish va keyingi davr ko'pgina adabiyotshunoslarining e'tirofiga ko'ra Amir Umarxon she'riyati badiiy sajiyasi, ko'lamdorligi va san'atkorligi bilan ajralib turadi.¹⁵

Lekin bu o'rinda Muqimiy “nazmning nazokati” deganda, birgina Amiriy she'rini emas, u orqali barcha turkiy mumtoz she'riyatni ko'zda tutmoqda.

“Nazokat” aslida arabcha so'z bo'lib, tilimizga o'rnashib ketgan. Uning bir necha ma'nosi bor: 1) *xushmuomalalik, odob*; 2) *latiflik*, 3) *nozik, nafis*; 4) *marom*.

Mumtoz adabiyotda esa istiloh sifatida yuqoridagi mazmunlar birikkan holda ifoda etiladi. Muqimiy ham “nazmning nazokati” deganda she'rning nafisligi va so'zning mantiqqa muvofiqligini nazarda tutgan.

Mumtoz va o'lmas adabiy an'analarni munosib ravishda o'z ijodida aks ettirish bilan birga unga yangicha ohang va uslubni ham joriy eta bilish uchun salohiyatli shoirdan bilim

¹⁵ Bu haqda qarang: O. Jo'raboyev. Amir Umarxon va Qo'qon adabiy muhiti // O'zbek tili va adabiyoti. 2019. №6. 45–50-betlar.

ham malakadan tashqari soʻz va xalq tilini ham yaxshi bilish zaruratdir.

Mazkur xususlarning barchasi Muqimiy ijodida oʻz aksini u yoki bu darajada koʻrsatmay qolmagan. Aynan mana shu koʻrinishga biz shoir sheʼriyatida sof mumtoz adabiyot qoʻbigʻidan chiqmagan holatda, mumtoz adabiy anʼanalarni buzmagani va ularga xilof qilmagan tarzda oʻz unsiyati va mavjudiyatini bildirganiga guvoh boʻlamiz.

Muqimiy mumtoz adabiyot bilan birga, xalq ogʻzaki ijodini ham yaxshi bilgan. Shuning uchun, uni xalqchil shoir ham deyish mumkin. Lekin u kabi xalqchil shoirlar soʻz topishga u qadar qiynalmaydi va ular soʻzlarni shundoqqina xalqdan yigʻib olaveradi, deyish ham unchalik toʻgʻri emas. Albattaki, soʻz ham, kalimalar ham, timsolu tashbehtar ham ziyraklik bilan kuzatuvchi ijodkor uchun atrofda koʻp uchraydi. Lekin ularni axtarib topish, tanlab ishlatish, oʻrniga tushirish va oʻquvchiga maʼqul qilishning oʻzi qiyin jarayon. Bu ham oʻziga xos mashaqqatli ijoddur. Eʼtibor qilaylik:

*Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Fargʻonada,
Zohid istar Kaʼbalarda, barhaman butxonada.*

Baytdagi barcha soʻzlar mumtoz asarlarda uchraydi. Ular xalqqa – kitobxonga ham tanish. Biroq, ilk misradagi “Fargʻonada” qofiya soʻzi oʻquvchini oʻziga qaratadi. Bu zaminda maʼshuqasiga bir oʻzigina oshiq boʻlib qolmaganini baralla aytayotgan oshiq, musulmlar Kaʼbasiniyu butparastlar butxonasini eslatmoqda. Lekin u ishlatgan “barhaman” (brahman, rohib) istilohi oʻquvchini ikkinchi kez sergaklantiradi. Negaki, bu soʻz oʻsha davr badiiyatida ham, leksikasida juda kamchil va noyob edi.

Yoxud sheʼriyatda doimo qoʻllangan va qoʻllanuvchi soʻzlardan chiroyli tasvir yarata olish:

*Suv sepib koʻz yoshidin, qoʻydim yoʻlingiz tozalab,
To kelur vaqtida domanni gʻubor etmay keling.*

Tasavvur etamiz: yor keladigan yoʻlni tozalab, suv sepildi. Toki, ul dilbar kelishda etaklari gʻubor (chang) boʻlmasin.

Baytdagi jozibali tasvir va nozik harakatni "ko'z yoshidin" sepilgan suv jonlantirib, oshiqning hijrondagi asl holatini aks ettirmoqda.

Endi shoir xalq ichida yurgan, yuqoridagiday, eng oddiy so'z yoki iboralarni tanlaganida ham ularning badiiy salmog'i, ta'sir doirasi, serma'nolilligi, ohangdorligi va boshqa xususiyatlarini ham hisobga oladi. Xalq ishlatadigan oddiy so'zlarda haqiqat bo'lishi mumkin, lekin hamisha ham ularda badiiyat bo'lavermaydi. Adabiyot, xususan mumtoz asarlar esa doimo badiiyat bilan go'zal, ta'sirchan va ulug'vordir.

Badiiy so'zning salmog'i ham qiyossiz, ta'siri ham cheksiz bo'ladi. Shoir eng ko'rimsiz yoki yoqlimsiz narsani go'zal darajaga ko'tarib, barchaning e'tiborini unga tortishi, unga nisbatan mehr yoki ehtirom uyg'otishi ham, aksincha, eng go'zal narsadan bir chirkin illat topib, undan hammaning ko'ngilini qoldirishi ham mumkin. Negaki, "badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi asosiy va yagona vosita so'zdir. Lekin badiiy adabiyotdagi so'z oddiy so'z emas, balki insondagi muayyan his-tuyg'uni, holat va harakatni, o'y va kechinmani o'zgaralar qalbiga, shuuriga ta'sir etadigan darajada ifodlaydigan so'zdir."¹⁶

Muqimiy lirikasida so'zni ana shunday san'at darajasida qo'llanilgan o'rinlar bisyordir. U so'zlarni ajralmas iboralar tarzida beradiki, ixtiyorsiz ravishda ular she'rxonga yod bo'lib qoladi. Misol uchun, ayrim yaxlit misralarni keltirsak: *"O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur"*, *"Jamolingga misoli ko'zgu hayron aylading-ketding"*, *"Chiqdi hijron chillasi, keldi bahorim, xayriyat"*, *"Eshikdin ursangu quvsangki, ketmas bir gadoyingman"*, *"Man bu g'am bozorida yurmakka holim qolmadi"*, *"Yurub devonaman Xo'qandg'a sensiz"*, *"Gah-gahe ko'z uchi birlan nazar sol, aylanay"*, *"Ishq o'tig'a kuydi mag'zi ustixon"*, *"Fe'lu atvoringni sog'indim yomon"*, *"Qilmasam zikringni kesulsin zabon"*, *"G'ayr ila ko'rmasam mabodo xud-baxud rashkim kelur"*, *"Naylayin, har yerda bo'lsang ham omon bo'l mayliga"*, *"Ko'z teshildi yo'llarida ham qarab"*, *"Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar"*, *"Shirin asaldin so'zlari, is-*

¹⁶ B. Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. –Toshkent. 2004. 5-bet.

sig' ajab yulduzlari", "Domaningni tutmasun to ro'zi mahshar qonginam", "Ovorai bu mulki Farg'ona qilib ketdi", "Har kishini bo'lsa mahbubi kiroyl san kabi", "Kishining jonidek jismimdagi ruhi ravonim siz", "Dog'men: tab'ingizni chog' etmak qo'limdan kelmadi", "Ko'zicha dushmanim yer birla yakson aylading-ketding", "Ko'rgan yerimda surati devorman yana", "Ko'zim uchgay magar mehmon kelur", "Ko'rdim yuzingni, alhamdulillah", "Har duoeki o'qurman, tarjimondur qoshlaring".

Endi she'riy satrlardagi iboralashgan ba'zi topilmalarga e'tibor qilaylik: "Aqlu hush ucti boshimdin", "Mo'y ham tab'ig'a sig'may", "aybim, Muqimiy, mardumi Farg'onaman", "kokilchasi rayhon ekan", "ko'zum oqsun", "shundin-shunga men sen bor deb keldim", "yomon sog'indim", "o'lmagan jonim mani", "minib noz otig'a", "shul ishni bekor aylading", "bormay ishga qol", "birovning ishqida bemorman yana", "bormudi qasding", "uy bo'lmag'ay devonada", "ilohi, yoridin ayrilmasun", "malomat kunjida doim Muqim".

Bular singari ko'pdan-ko'p xalqona misra-yu ibora hamda yuzlab baytlar shoirning qanchalik xalqchil va so'zga boy bo'lganligini yorqin ko'rsatadi. Adabiyotshunos E.Ochilov Muqimiy ijodiga baho berar ekan, to'g'ri ta'kidlagan: "Qalam ahli so'zlarni, so'zlar orqali esa qalblarni uyg'otadilar. So'zning mudroq jismiga shoirlar jon ato etadilar. Eng oddiy so'z ham shoir qalamiga tushgach, eng ta'sirchan vositaga aylanadi. Eng ko'rimsiz so'zni ham go'zallik ilohasiga aylantirish faqat shoirlarning qo'lidan keladi. Eng arzimas so'zni eng aziz maqomga ko'tarish ham shoirning badiiy mo'jizasidir..."¹⁷

Missioner va muharrir N. P. Ostroumov (1845–1930) Muqimiy haqida bir qiziq fakti keltiradi. U o'z yodnomasi (arxivi)da yozishicha, 1892-yil fevral oyida u Muqimiy bilan ko'rishgan va xayrlashuv chog'ida shoirdan bir she'r bitishni iltimos qiladi. Shunda shoir badihatan (eksrompt) tarzida o'sha zahotiyog quyidagi baytni yozib beradi:

¹⁷ E. Ochilov. O'zbek xalqining mo'tabar shoiri / Kitobda: Muqimiy. Ko'nglum sandadur. –Toshkent: SHARQ. 2009. 20-bet.

*Husniga ne nuqs gar bo'lsa ko'zi feruzarang,
Balki, bog'larg'a tarovat sabzadin paydo bo'lur.*

Ostromov hayratini yashirmaydi. Avvalo, shoirning usta xattotligi va uning husnixati qoyil qoldiradi. Keyin esa she'r-dagi mazmun: bir zumda, muharrir ko'zining moviyiligiga ishora qilib, "ko'zi feruzarang" deb ketishi hamda o'zaro suhbatlarini bog'ga qiyoslanishi uni qoyil qoldiradi.

Haqiqatan, Muqimiyning oddiy elementar voqea yoki ash-yoni ham go'zal tabiat manzarasiga bog'lab bayon eta olishi chindan ham uning yuksak iste'dod egasi ekanini bildiradi. Bu o'rinda albatta, muallifning so'zni munosib va muvofiq tarzda qo'llay olishi tahsinga sazovordir.

Muqimiy lirikasining ajib jihatlardan yana biri yaratayotgan obrazini erkalaydi, ayaydi va faxrlanadi. Ushbularni ifoda etishga esa munosib so'zlarni topa oladi:

*Yuzmu tobon, charx uza yo mehri anvardekkina,
Qadmu nozukdur, ajab, sarvu sanavbardakkina.*

Baytda ma'shuqani erkalab ta'riflash ustun. U kichraytirish ma'nosidagi "kina" (gina) qo'shimchasini so'zga orttirish orqali, avvalo, quyoshning nuriday desa, keyin yor qaddini "nozuk" deb qo'yib, endi baland sarvday emas-ku deya uni "sanavbar"ga mengzab qo'ymoqda.

Quyidagi baytda esa aslida mahbusidan gina qilishi kerak bo'lgan o'rinda uni ayaydi, fazilat qidiradi:

*O'parga qo'llaring vaqti muloqotim, darig'okim,
Chiqmagay yengdin ilking yoki bog'labsan xino, kelding.*

Xilvat muloqot chog'ida yorning qo'lidan o'pishni ko'ngliga tuggan edi-yu, go'zal ma'shuqa qo'lini yeng ichidan chiqarmagach, endi oshiq "husni zan" (chiroyli gumon) qilmoqda. Toki, ul yor qo'lga xino bog'lab kelgan.

Agar keltirilgan baytda go'zalning qo'l uzatmaganini ham ayab xislat topishga "xino" so'zni sabab qilayotgan bo'lsa, endi tubandagi baytda o'zini hijronda qoldirib ketgan bo'lsa ham undan faxrlanadi:

*Yor ila, ne xush, zamone ro'zgorim bor edi,
Podsholik davlatidin hamki orim bor edi.*

Yori bilan o'tgan har dami xush bo'lgani, uning bu "ro'zgori" "podsholik davlatidin" ham uning uchun baland bo'lganini ta'kidlamoqda. Bu o'rinda birgina "or" so'zi butun bayt mazmuniga zeb bo'lmoqda.

Demak, Muqimiy o'z she'rlarida so'z va uning qay tariqayu qay yo'sinda qo'llanishini mukammal tarzda bilgan ijodkor-dir. Shoir asarlarida ko'pgina xalqona tansiq so'zu iboralar; favqulodda timsolu tashbehlar, nozik lutfu qochirimlar, o'tkir kinoya-tamsillar, nishonga tegadigan ta'sirchan so'zlarni topib, o'rniga qo'yib ishlatadi va she'rlarining badiiy barkamolligini ta'minlab, estetik kuchini oshiradi. Albattaki, ushbu so'zlar o'ziga kerakli nuqtani o'zi topadi, o'z nishonlariga bexato uriladi, yuraklarning tub-tubida yotgan tuyg'u-kechinmalarni uyg'otib yuboradi, ko'ngilning allaqayeriga xush yoqib ketib, iliq bir kayfiyat paydo qiladi.

Muqimiy eng oddiy so'zlar vositasida ham eng oliy haqiqatlarni ayta oladigan darajadagi yuksak iste'dod sohibi, mahorat egasi. She'rga tushib-tushmaydigan so'zlar ham shoir she'rlarida o'ziga xos o'rin topib, muayyan badiiy maqsadga xizmat qiladi.

Fikr va tuyg'ularni murakkab timsol hamda tashbehlar qatiga o'rab, sirli va mavhum bir tarzda ifodalash, ehtimol, har bir iste'dod egasining qo'lidan kelar. Lekin teran va ko'p ma'noli fikrni sodda va ta'sirchan shaklda ifodalash faqat yuksak istedod sohiblarigagina nasib qiladi. Buyuk so'z san'atkorlarining ayni kunda yozilganday taassurot uyg'otuvchi chuqur mazmunli oddiy baytu misralari buning yorqin misolidir. Muqimiyning aksar she'rlari haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Shoirning ko'pchilik she'rlari keng ko'lamlil va serqirra mazmunni oddiy va sodda ifodalashi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Uni xalqqa yaqin va sevimli qilgan eng asosiy omillardan biri ham aynan shulardadir.

Shu o'rinda bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Muqimiy mustabid sovet tuzumi davrida o'zbek adabiyotshunosligida

eng ko'p o'rganilgan mumtoz shoirlardan biridir. Ayniqsa, bu borada marhum adibu olimlar G'afur G'ulom, G'Karimov, A.Shokirov, A.Madaminov nomlarini hurmat bilan tilga olish zarur. Biroq, sobiq sho'ro mafkurasi Muqimiy ijodiyotiga ham faqat "demokrat shoir" yorlig'ini qo'yib keldi. Ko'p holda shoirning satirik asarlari ko'kka ko'tarilib, tadqiq etildi va u shu jihatdangina tashviq qilindi. Vaholanki, Mavlono Muqimiy ulkan va yuksak iqtidorli lirik shoirdir. Uning mahorati o'z zamondoshlaridan ancha farq qiladi. Aytish kerakki, Muqimiy ko'p jihatdan fenomenal ijodkor.

Birinchi galda, ta'kidlaganimizday, uning so'z qo'llash mahorati namunapardozdir. Qolaversa, u mumtoz she'riyat tilini zamonaviy va xalq tili bilan vobasta qila oldi. Ta'kidlash lozim, Muqimiy ijodiyoti mumtoz adabiyotimiz bilan zamonaviy adabiyotimiz o'rtasidagi oltin ko'prikdir. Xususan, bu jihat shoir she'riyatining tili va she'riy uslubida yorqin namoyon bo'lgan.

Maqolamiz boshida tilga olingan **mumtoz nazm nazokat** ham yuqoridagi jihatlarga omil bo'lib xizmat qilgan. Aynan Muqimiy she'rlaridagi latiflik, noziklik, nafislik va mantiqiy marom uning nazm nazokatini belgilab bergan. Hamda ko'p jihatdan juda o'nlab zamondosh ijokorlardan farqli ravishda yuksak badiiyati va zamonasiga monand uslubini ham ko'rsatib bera olgan.

Afsus bilan aytish zarurki, Muqimiyni hassos lirik shoir sifatidagi mahorati va qator ijodiy sifatlari hanuzgacha to'la kashf etilmay kelinmoqda. Shoir qo'llagan favqullodda tashbehlar, ularning zamin va zamon bilan mutanosibliigi, ta'riflanayotgan obrazlarning yorqinligi va haqqoniyligi, she'riy asar ta'sir kuchining ortiqchiligi va realligi, voqye'lik va tasvirning o'ta muvofiq me'yoriy darajasi kabi unsurlar to'la-to'kis tadqiq etilganicha yo'q.

Biroq, keyingi yillardagi tadqiqotlar, ayniqsa, matnshunoslik aspektidagi ilmiy izlanishlar Muqimiy ijodiyotini ham yangicha dunyoqarash bilan to'laqonli ravishda tahlil etish imkoniyatini bermocqda.

Shoirning o'zi bir she'rida yozadi:

*El aro borkim masal: "Haq joyiga topsun qaror",
Bul havas ko'yingda aylaydir g'uluv tokaygacha?*

Haqiqat o'z joyida qaror topishiga qat'iy ishonch Muqimiy she'rlariga nisbatan ham, shaxsiga nisbatan ham albatta voqye'likka ko'chganligi ayni zamonamizda ma'lum bo'lib turibdi. Azim boshkentimizdagi "Adiblar xiyoboni"da yigirma to'rt ijodkor qatori uning haykalini ham o'rin olishi ana shu fikrimizning dalilidir.

Muqimiy shaxsiyatida bo'lganidek, ijodiyotida ham qiziq holatlar bor. Ulardan muallifning chin e'tirofini, so'z qudratiga tahsinni ilg'ash mumkin:

*Nogahon har she'rimi bir-bir olsang, Muqim,
Nazmi vasfing chiqmasa yolg'onu yolg'on o'xshamas.*

Bu o'rinda vaqti kelib, shoir nazmini bir-bir tekshirib, ro'stu yolg'onni ajratib olish fursatiga ishora qilinmoqda. Shuningdek, biroz kinoya shuki, yor vasfini nazmda berayotganda "yolg'on" ham ishlatiladi. Agar shu "yolg'on" ishlatilmasa, ushbu nazm nazmga o'xshamay qoladi.

Shoirning bu kinoyasi va ayni damda nimtabassum qo'zg'atuvchi e'tirofiga tahsin aytmay iloj yo'q. Shuningdek, lirik she'riyatning zamondoshlariga tushunarli bo'lmog'i uchun bundan ortiq e'tirof ham bo'lmasligini tan olmoq zarur.

Mana, Muqimiyga xos she'riy kinoyadagi so'zning nazm ipiga tizilgan ayrim o'rinlari:

*Ochib mundog' mato'i husn qadrin bilmaganlarga,
Darig'okim, saxiysan – nasya savdo qilding ketding.*

Ya'ni, asl husnning qadrini bilmaydiganlarga go'zal yor o'z husn mato'ini bir kez ochib namoyish etdi. Bu bilan u go'yoki saxiyiligini ko'rsatdi. Valekin, bu aslida nasya savdo – vaqtinchalik husndan bahramand qilish edi.

Albatta, shoir go'zal ma'shuqa yuzini nogahon ko'rib qolgan oshiqning holatini nasya savdo qilgan kishiga o'xshatmoqda. Bu asosli va ayni damda kinoyal o'xshatishdir. Asosli ekanligi shundaki, Muqimiy yashagan davrda Qo'qon o'ziga

xos savdo markazlaridan bo'lib, turli darajadagi savdo ishlari va bu bilan bog'liq hangomalar sodir bo'lib turardi.

Go'zalning yuzini ko'rib, oshiq bo'lgan muhtalolarni muallif nasya savdoga ko'nib, soxta saxiydan kuyib qolgan savdogarlarning holatiga o'xshatmoqda. Hamda bu bilan lirik kechinma zamirida zamonaviy voqelikka nozik, kishibilmas kinoya bilan ishora qilmoqda.

Yoxud tubandagi bayt:

*Labingizmu, desam, shirin-shakardin, achchig'i kelgan
Urushjo', tundxo'siz, ko'p yomon nomehribonimsiz.*

Oshiq yoridan so'radi: "labingiz shakardan ham shirinmi?". Ma'shuqa achchiqlandi va birpasda urushqoq va tund bo'lib oldi.

Bu tasvir bilan shoir kifoyalanmay, endi yor "nomehribon" bo'lib qolgani va bu esa "ko'p yomon"ligini eslatmoqda.

Albatta, bularning barchasi aslida ham yoqimtoy mahbubaning oniy achchiqlanishini munosib ta'riflash uchun topilgan so'zlar birikimi. Lekin quyidagi baytda esa kinoyaning san'atkorona ko'rinishini aynan xalqona ibora-so'zlardan yasaydi:

*O'tadi yor, kelmay qoldi til so'zg'a, kulub aydi:
- Qalaysiz, kamnamosiz, gungu lolu bezabonimsiz?*

Yor o'ta turib nogahon so'z qotdi, gapirganda ham kulib aytiki: "Qalaysiz, kamnamosiz, gungu lolu bezabonimsiz?". Bunga sabab, oshiqning tiliga so'z kelmay qolganidir.

Muqimiy mazkur baytda qo'qoncha muomala va gap ohangini she'riy satrlarga singdirib yuborgan. Ma'lumki, Qo'qonda uzoq ko'rishmay qolgan tanish-qadrdonlar nogahon ko'rishib qolganda "Qalaysiz? Kamnamosiz?" deya suhbatni boshlashadi. Bu jihat nafaqat Muqimiy davrida, balki ayni kunlarda ham mavjuddir. Ya'ni, shoir xalq ichidagi muomala tarzini she'rga badiiy tarzda chiroyli qilib ko'chira olgan.

Shoir lirikasidagi bu kabi tasvirlar o'z aniqligi bilan birga jozibador va xalqona so'zlarga boyligi bilan ham ajralib turadi.

Mana shunday o'rinlarda Muqimiyning so'z qo'llash mahorati va uning so'zga munosabatiga to'laroq oydinlik kiritiladi, mahoratiga asl baho beriladi. Shuningdek, shoirning

mashhurligi va xalq orasida marg'ubligini ta'minlagan yana bir omil borki, u ham bo'lsa Muqimiyning ko'p sonli she'r-lari ashula tarzida o'z davrida xalq tafakkuriga kirib bordi. Ulardagi sehrli va yoqimli kuy nazokatli nazmu so'z sehrini xalqqa yaqinlashtirdi. Masalan, M.Alibekov o'z xotiralarida Xudoyorxon saroyidagi bazmlarda Muqimiy so'zlari bilan aytiladigan ashulalar urf bo'lganini ta'kidlaydi. Ma'lum bo'ladi-ki, 1876-yilgacha Muqimiy va uning she'r-qo'shiqlari ancha ma'lumu mashhur bo'lgan. Masalan, "Soyaedurmenki, boq-mas oftobim kim desun?", "Yakka bu Farg'onada", "Yodimga tushti" ashulalari, yoki "Tanovor" kuyi bilan aytiluvchi "O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur" ashulasi xalqimiz milliy san'ati xazinasidan allaqachon o'rin olgandir.

Fikrimiz dalili uchun Muqimiy murabba'lari bilan aytiluvchi ashulalarning so'zlariga e'tibor qilinsa ham ular allaqan-day mung va qalbga sizib kiruvchi so'zlari orqali kishini o'ziga oshufta qilishini ilg'ash mumkin.

*Ishq o'tiga kuydim, yondim, tutoshdim,
Vasling istab-istab, yo'ldin adoshdim,
Kasratkakim, Muqimiyo, ko'z ochtim,
Yo Rab, tanholig'ing yodimg'a tushti.*

Yoki,

*Jono, buldirkim rozi nihonim,
yetmaklik erdi sanga gumonim,
Nogah ramaqqa yetkanda jonim,
Ko'rdim yuzingni, alhamdulillah!*

Bandlardagi satrlar siqirligi, oshiq ko'nglining siniqligi bilan uzviy bog'lanib ketgan. Dastlabki she'riy bo'lakda: ishq o'tiga kuyish, yonish va tutashish (bu o'rinda "tutamoq" ma'nosida) so'zlari yor vaslini izlay-izlay yo'ldan adashish bilan izohlanmoqdaki, kasrat (bu o'rinda "haqiqiy mashg'ullik") ga ko'z ochilganda, ya'ni inson o'zini kimligini taniganda Rabbining tanholigi va undan o'zgasi hechligi yodiga tushmoqda. Bu o'rinda "O'zini tanigan Rabbini taniydi" hadisi sharifining chuqur mazmuniga ham irfoniy ravishdagi ishora seziladi.

Keyingi she'riy bandda esa: jononga bildirilayotgan nihon (mahfiy) rizosi, unga yetishning gumonda qolgani bilan izohlanadi. Endi jon uzilay deganda esa nogahon yor yuzini ko'rish nasib etdi. Allohga hamdlar bo'lsin!

Bu kabi jonbaxsh va hijronkash satrlar muhabbat o'tiga bir bora bo'lsa-da duchor bo'lgan kishini befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, go'zal kuy vositasida bu so'zlar inson vujud-vujudidan o'tib to yurak tubiga qadar yetib boradi.

Yoki shoir o'z g'azaliga o'zi taxmis qilgan va qo'shiq bo'lib keng tarqalgan she'rni olsak:

*To asir o'ldim o'shal kun san kabi jonona man,
Zeri husning xirmanidin bir teralmay dona man,
Tobakay mundoq kuyarman otashi hijrona man,
Aqlu hush uchi boshimdin, ey pari, devonaman,
Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsona man.*

"Aqlu xush" nomi bilan mashhur bu g'azaldagi badiiy takomilni yanada mukammallashtirish va so'z hamda mazmunga ma'no yukini orttirish istagi shoir qalamidan muxammas bo'lib to'kilgani seziladi. Boshdan aqlu xush uchib devona bo'lish va ma'shuqadan el ichra afsona bo'lib qolmaslik uchun bir iloj topishni iltijo qilishga yuqoridagi uch misrada asos keltirilgan. Ya'ni bu asos mantiqan izchillikka ega. Unga ko'ra: o'sha kuni u kabi jononaga asir bo'ldi, endi esa uning husni xirmonidan biror dona ham terolmay, tokaygacha bunday hijron otashida kuyadi. Ana endi pariga iltijosiyu boshidan aqlu xush uchib ketishi ham she'riy matnga muvofiq, ham mazmunly davomiylikka uyg'un va badiiy takomilga to'la mos tushgan.

Yoki, bir asrdan ortiqroq vaqt davomida sevib ijro qilib kelinayotgan "Tanovor" ohangidagi quyma satrlar esa na-faqat oshiqalar balki butun jafokash xalqning qalbidan otilib chiqqan so'zu kalimalar yig'indisidir.

*Emdi sandek, jono, jonon qaydadur,
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur.*

Bu kabi so'zning ma'no yuki orttirilgan misralar ila aytiluvchi ashula xalqimizning milliy san'at yutuqlaridan biri sifatida baholanishga loyiqdir. O'z-o'zidan kuygan ko'ngil nolalari tarzida tarannum etilayotgan so'zlar Muqimiy nechog'liq xalq dardini o'z ijodida aks ettira olgani va buni mumtoz badiiyatning go'zal namunasiga singdira olganidan dalolatdir.

Muqimiy mumtoz adabiyotimiz tarixida mahoratli lirik shoir va zakiy hajvgo'yiligi ma'lum haqiqat esa-da, uning zabardast so'z ustasi ekanligi ham yuqoridagi kabi satrlardan bilinib turadi. Shoirning so'zni qadrlashi va unga munosabati esa deyarli har bir asaridan ayonlik beradi. U aytadi:

*Ilm o'qug'ani birla har kim musulmon bo'ldimu?
Mouman aylab, farishta g'ayri shayton bo'ldimu?*

Ya'ni, ilmga ega har bir odam to'la musulmon bo'lib qolmaydi. O'z ilmiga mag'rurlik qilib, kibru havo ko'rsatgan Azozil farishta shaytonga aylanib qoldiku?!

Ushbu mazmun bilan shoir, she'r yozish da'vosini qilayotgan har bir qalamkashning ijodkor-shoir bo'lib qolmasligiga ishora qilmoqda. Va ushbu fikrini mazkur g'azalning yettinchi bayti - maqtada ochiq-oydin bermoqda:

*Bo'lnag'ay hosil, Muqimiy, ma'niye har lafzdin,
Dona sochqan birla har qishloqi dehqon bo'ldimu?*

Har bir lafz, ya'ni so'z-kalima ma'noli bo'lsa ham undan hikmatomuz she'r chiqavermaydi. Uni joyida va o'rinli ishlatilsa hamda ilmu donish bo'lsagina haqiqiy she'r bo'la oladi. Bu go'yoki, quruq yerga urug'lik-don sochib ketavergan bilan har bir qishloqlik odam "dehqon" degan sharafli nomga ega bo'lib qolmaganidek. Chunki, dehqon zahmat chekib yerga ishlov beradi, urug'lik qadaydi va uni sabru toqat hamda bilim tajriba bilan parvarishlaydi. Shundan so'nggina urug'idan mo'l-ko'l hosil oladi. Ana uni dehqon deyish mumkin. Xuddi shuningdek, so'zni qadrlab, avaylab qo'llab, bilim bilan she'rda ishlatilsagina u ma'noli va hikmatli asar bo'lishi mumkin.

FURQAT – SO‘Z RA‘NOSINING OSHIG‘I

Nurboy JABBOROV,

filologiya fanlari doktori, professor

So‘zni sevmay, so‘zni qadrlamay, so‘z aytish mas‘uliyatini his etmay turib, nafaqat shoir yoki yozuvchi, adabiyotshunos yoki tarjimon, hatto tuzukroq odam bo‘lishning ham iloji yo‘q. Negaki, odamzod so‘z tufayli sharafga erishganidek, so‘z bois izzat-hurmatini yelga sovurmog‘i ham mumkin. Aytarini aql elagidan o‘tkazmagan, ko‘ngil tarozisida o‘lchamagan kishi elning nazaridan qolishi aniq. So‘zni nozik his etgan, bilib aytgan, fasohat va balog‘at bilan qog‘ozga bitgan odam esa el ichra azizu mukarramdir. So‘z ahli – shoiru adiblarning jamiyatdagi o‘rni yuksak ekani sababi ham shunda. Buyuk ijodkorlarning so‘zga, tilga bo‘lgan e‘tibori darajasini anglash, ulardan ulgu olish shuning uchun ham muhim hayotiy ehtiyojdir. Benazir asarlari bilan adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan, yangi zamon she‘riyatining, nasrining tamal toshini qo‘ygan ulug‘ shoir va mutafakkir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning so‘zga munosabatini, ulug‘ so‘z san‘atkori bo‘lib yetishuvi omillarini hamda so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Shoirning so‘z haqidagi qarashlari. Furqat so‘zni insonga ato etilgan ulug‘ ne‘mat deb bilgan. Ulug‘ ijodkor “Shoir ahvoli va she‘r mubolag‘asi xususida” deb nomlangan manzumasida ijod ahlining qalb qo‘ri bilan aytilgan haroratli, ba‘zan mubolag‘ali so‘zlariga noo‘rin baho beruvchilarni qoralaydi. Uning fikricha, shoir shuning uchun ham shoirki, u: *“Na xush ko‘rsa olamda ta‘rif etar, Ani yaxshi so‘z birla tavsif etar”*. Aslida ham, ijod ahli ko‘nglida hayrat va ibrat uyg‘otgan hodisalar bilan bog‘liq tuyg‘ularini nafis so‘zlar vositasida ifodalaydi, bu orqali o‘quvchi shuuridagi ezgu orzularga qanot beradi, uning qalbiga halovat bag‘ishlaydi. O‘tgan asr avvalidagi

rus-yapon urushi va unda chor Rusiyasining magʻlub boʻlishi millat ziyolilari qalbida Turkiston ozodligi bilan bogʻliq yangi orzu-umidlarni paydo qilgani maʼlum. Ana shu tarixiy voqea-ga bagʻishlangan asarida Furqat mana bunday yozgan edi:

*Kimikim mard erur insof lozim,
Bilurgʻa soʻz durin sarrof lozim.*

“Sarrof” soʻziga lugʻatda *qimmatbaho toshlarni baholov-chi, zarshunos*, deya taʼrif berilgan. Shunga koʻra, shoir mard boʻlmoq uchun insof nechogʻliq zarur sanalsa, soʻz mohiyatini chuqur bilmogʻ, teran anglamoq uchun sarrof boʻlmoq, yaʼni uning qimmatini toʻgʻri baholay bilish zarur, demoqchi. Ushbu asarni shoir ifodalagan darajada tushunmoq uchun undagi ramzlar, obraz va timsollar mohiyatini bilish kerakligini taʼkidlar ekan, muallif quyidagicha yozadi:

*Bu soʻzning ramzini dono bilur bas,
Nechuk otashga toqat aylagay xas?!*

Chindan ham, soʻzning ramzini anglay bilish tuygʻusi hammaga ham berilmagan. Shoir oʻz asarlaridan koʻzlangan asl maqsadni kelajak avlodlar toʻgʻri tushunmogʻini istaydi. Soʻz ramzini donolargina bilishini alohida taʼkidlaydi.

Soʻz qadrini bilgan, uning insoniyat uchun nechogʻliq ulugʻ neʼmat ekanini chuqur his etgan Furqat soʻzlamogʻda andisha boʻlmogʻi zarurligiga alohida diqqat qaratadi. Shoir fikricha, har bir odam oʻzi bilgan, maʼnosini teran uqqan holda soʻzlamogʻi maʼqul. Mashrab gʻazaliga tazmin sifatida yozilgan “Lozim emas” radifli gʻazaldan olingan quyidagi bayt shu haqda:

*Qosir aqling birla sunʼi Kibrtyodtn urma dam,
Bilmagʻon odamga bu nozik suxan lozim emas.*

Furqat asarlarida “soʻz” kalimasi oʻrnida baʼzan uning *suxan, kalom, nukta* singari sinonimlari ham faol ishlatiladi. Jumladan, ushbu baytdagi “suxan” soʻzi “nozik” sifati bilan birga qoʻllangan. “Sun” – lugʻatda *yaratish, sanʼat* demakdir. Kibriyo – Alloh taoloning sifati boʻlib, *ulugʻ, buyuk* maʼnolarini anglatadi. Shunga koʻra, ushbu baytda Furqat qusurli aql bi-

lan buyuk Tangri taoloning yaratuvchilik qudrati haqida so'zlashdan tiyilish zarurligini, benihoya nazokat (ehtiyotkorlik) bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadigan bu nozik *suxan* bilmagan odamga lozim emasligini alohida ta'kidlaydi.

"O'tar-ketar" radifli g'azalida shoir yaxshilar suhbatida bo'lishni, yaxshi so'zlar eshitmoqni tavsiya etadi. Yaxshilar suhbatini ko'rmagan odamni ko'rga, yaxshi so'zlar eshitmagan karga qiyoslaydi:

*Yaxshini suhbatin ko'rub yaxshi suxan eshitki ul,
Yaxshi ko'rub eshitmayin ko'r ila kar o'tar-ketar.*

So'zga ta'rif berar ekan, shoir: "*suxan ra'nosi nazm libosi birla zebo ko'runur bo'lg'ay*", deya fikrini go'zal badiiy shaklda ifoda etadi. "Suxan ra'nosi" – istiora bilan ziynatlangan behad jozibali bu ibora Furqatgacha va undan keyingi biror ijodkor asarlarida kuzatilmaydi. Haqiqatan, shoir so'zni go'zal shaklda suvratlantira olgan yuksak salohiyat egasi, so'z ra'nosining eng sodiq oshig'idir. Shuning uchun ham shoir she'rlari va nasriy asarlarida so'z duru javohir kabi tiziladi, chuqur mantiq va yuksak mahorat bilan qo'llanadi. Ijodkor she'rlaridagi biror so'zni tahrir qilish yoki boshqasi bilan almashtirishning iloji yo'qligi sababi shunda.

Furqatning ulug' so'z san'atkori bo'lib yetishuvi omillari. Bugungi kunda shoir yoki yozuvchi bo'lish orzusida qo'lga qalam olgan yoshlarning aksari ijodni oq qog'oz yuzini qoraytirishdan iborat jo'n bir mashg'ulot sifatida tasavvur etishi achinarli. Ijod, aslida, Xudo bergan iste'dodni kamolga yetkazish yo'lidagi zahmat va mehnat ekani, chinakam shoir yoki yozuvchi bo'lish uchun tonnalab (sanab emas!), buning ustiga, muttasil ravishda kitob mutolaa qilish, buyuk shoirlar she'rlaridan o'n minglab satrlarni yod bilmoq zarurligi haqida esa o'ylab ham o'tirmaydi. Kitobdan, uni o'qish zavqidan yiroq "yozg'uvchi"ning mashqlari, xoh sochma yo'lda bitilsin, xoh "shig'ir" (she'r emas!) – adabiyotga daxli bo'lmaydi. Eng ayanchlisi, bu toifa so'zni his eta olmaydi, uni inja va yuksak san'at darajasiga ko'tarish yo'rig'idan bebahra o'tadi. Adabiyot bo'stoniga dastlabki qadamlarini qo'yayotgan yoki

shunga taraddud ko'rayotgan yosh iste'dodlar mutolaa mashaqqatlaridan halovat topishi, badiiy so'z mohiyatini, qad-rini chuqurroq anglashi uchun Zokirjon Furqat singari ulug' shoirlar bunga qanday erishganlarini o'rganmoqlari, ibrat va saboq olmoqlari zarur.

Shoirning "Ahvolot" asaridan ma'lum bo'lishicha, uning "birmuncha juz'iyot ilmiga iqtidori bo'lgan" otasi kichik bolalik kezlaridanoq fors tilini o'rgatgan. Turkiy va forsiy adabiyot-ga oshno etgan. Zokirjon yetti yoshga kirganda uni ilm tahsi-li uchun Mulla Olim ismli maktabdorga olib borgan. Dastlab Qur'oni karimdan o'n besh-yigirma mayda surani o'rganib, yod olgach, taxtaga tushgan. Furqatning o'zi "taxta"ni quyidagicha izohlaydi: *"Taxta" iborati bulkim, bir pora taxta lavhag'a huruf, hijoni yozib berib, bei'rob o'qitadur. Andin keyin surai "Fotiha"-din boshlab, surai "Odiyot" g'acha i'rob birla ta'lim beradur*". Shundan so'ng u olti oyda "Haftiyak"ni tamomlab, "...andak fursatda Qur'oni sharifni xatm qiladi". "Chor kitob"ni o'qiydi. Sakkiz yoshda Shayx Farididdin Attorning "Mantiqu-t-tayr"ini, Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil devonlarini mutolaa qilib, ko'p haz (bahra) topadi. To'qqiz yoshda "Chor devon"ni o'qiyotgan kezda uning muallifi hazrat Alisher Navoiyni tushida ko'radi va buyuk salafidan she'r mashqiga oq fotiha oladi. Demak, to'qqiz yoshda u she'r mulkining sohibqironiga uvaysty shogird bo'lish darajasiga erishadi. Bugun ijod da'vosida yurganlarning nech-tasi Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Mirzo Abdulqodir Be-dil devonlarini mutolaa qilib bahra olgan ekan? Yoki ulardan qanchasi Alisher Navoiyning "Chor devoni"ni o'qib, haqiqiy she'riyat nima-yu so'zning qudrati nimada ekanini tafakkur qila bilgan ekan? Ana, Furqatning Furqatligi, ona tilimizni, tur-kiy so'z qudratini aql bilan anglab, qalb ila his etish barobarida forsiy she'riyat ummonida ham erkin suza olgan salohiyatli so'z g'avvosi ekanining siri qayerda yotibdi! Bu hali hammasi emas, Zokirjon o'n yoshda Fuzuliy g'azaliyoti va So'fi Olloyor-ning "Maslaku-l-muttaqin" asarini o'qiydi. Mulla Qambar Ali-dan husnixat, Ashur Muhammad ismli qoridan qiroat ilmlarini o'rganadi.

Ana endi o'n yoshidan e'tiboran Furqat arab tili grammatikasini o'rganishga jiddu jahd bilan kirishadi. Poshshoxo'ja eshon o'tli mudarris qo'lida Mirzo Sulaymon ibn Anvar al-Buxoriyning "Avvali ilm" risolasini, Bahouddin al-Omiliyning arab tili morfologiyasining boshlang'ich qoidalariga doir "Bidon", Shamsiddin Muhammad ibn Abulqosim al-Mu'ziyning fe'l so'z turkumi va uning 22 bobi haqidagi "Mu'ziy", Ibrohim ibn Abdulhavvob az-Zanjoniyl qalamiga mansub fe'lning sulosiy (uch harfli) va ruboiy (to'rt harfli) turlariga oid "Zanjoniyl", nahv (sintaksis) ilmi asoslariga doir ikki manba – Abdulqohir ibn Abdurahmon al-Jurjoniylning "Avomil" va Mahmud az-Zamaxshariylning "Harakot" kabi darslik kitoblaridan tahsil oladi. Shundan keyin uch yil umrini Usmon ibn Umar al-Ma'ruf ibn al-Hojibning arab tili grammatikasi mukammal bayon qilingan "Kofiya" asarini o'rganishga bag'ishlaydi. O'n to'rt yoshidan boshlab uch yil davomida hazrat Abdurahmon Jomiylning "Kofiya" sharhiga oid xalq orasida "Sharhi Mullo Jomiyl" nomi bilan mashhur bo'lgan "Favoyiduz-Ziyoiya" ("Ziyovuddinga foydalar") va Abulhasan Najmiddin ibn Muhammad al-Kotibiy al-Qazviniyl (1203-1277) ning mantiq ilmiga doir "Risolai shamsiya" asarlaridan tahsil oladi. "Risolai Shamsiya"ni o'rgangani, bu vaqtga kelib shoirning, birinchidan, arab tilini mukammal egallaganidan, ikkinchidan, ilmda yuqori darajaga ko'tarila olganidan darak beradi. Asarning to'liq nomi "Sharhu-r-Risolati-sh-shamsiya fi-l-qavoidi-l-mantiqi-l-Aristotiliya" bo'lib, nomlanishidan ham ayon bo'lganidek, mashhur alloma Aristotelning mantiqqa oid asariga sharh sifatida bitilgan.

Ma'lum bo'ladi, Zokirjon Furqat ana shu barcha ilmlarni, turkiyl tilning fasohati va balog'ati-yu fors, arab tillarini, Sharq adabiyotining mumtoz asarlarini o'n yetti yoshigacha aqliga-yu qalbiga jo etib bo'lgan edi. Bu esa, o'z navbatida, shoir uchun so'z san'atining uncha-muncha qalam ahliga nasib etmagan sirlarini egallashi, ijodkor sifatida kamolga erishuvi uchun mustahkam ilmiyl-ma'rifiyl, adabiy-estetik zamin vazifasini o'tagan. Mana, bugungi yoshlar, adabiyot va ijod

ahli kitob mutolaasi-yu ilmu irfon va so'zni qadrlash borasida ulug' shoirdan nimalarni o'rganishi kerak...

Furqatning so'z qo'llash mahorati. Shoir o'z she'rlari bilan ona tilimizning so'z boyligi qanchalik beqiyos va ifoda imkoniyati nechog'liq keng ekanini isbotlay oldi. Birgina misol. Furqat Istanbul safari davrida yozilgan mashhur "Sabog'a xitob" asarini mana bu misralar bilan boshlaydi:

*Bu gulshanki, nasimi fayzi Rabdur,
Guli hilmu hayo birla adabdur.*

Ushbu baytdagi "bu gulshan" jumlasini ikki xil tushunish mumkin: birinchisi, torroq ma'noda Istanbuldagi "Sabog'a xitob" yozilgan Millat bog'i, ikkinchisi, kengroq talqin etilgan – bu yorug' olam. Qanday tushunilishidan qat'iy nazar, bu gulshan nasimi – ko'ngilga xush yoquvchi shabadasidan fayzi Rab – ilohiy fayz taraladi. Undan ham hayratlanarlisi, bu gulshan *hilm, hayo, adab* otli gullar bilan bezalgan. "Sabog'a xitob" ona-yurtdan yiroqdagi shoirning yor-do'stlariga yo'llagan sog'inchli salomi-yu, Vatandan ayriliq iztiroblari ifodasi bilangina emas, so'zlarning inju marjondek tizilgani-yu o'zbek tilining jozibasini bor latofati bilan namoyon eta olgani jihatidan ham, nozik ruhiy kechinmalarning betakror badiiy kashfiyot darajasida suvratlantirilgani bilan ham mumtoz she'riyatimizning betakror va yuksak namunasidir.

Asarning tahlil etilayotgan ilk bayti mumtoz she'riyatimizdagi husni matla san'ati bilan ziynatlangan. Sharq mumtoz she'riyati nazariyotchisi Rashididdin Vatvot bu san'atga quyidagi talablarni qo'ygan edi: 1) shoir she'rning birinchi baytini ohorli mazmun va mukammal badiiyatni mujassam etgan latif so'zlar bilan nafis ifodalashi; 2) hech qanday ezgulikni ifodalamaydigan so'zlardan saqlanishi; 3) bayt o'qilganda, eshitguvchiga rohat bag'ishlashi, uning ruhida ko'tarinki kayfiyat uyg'otishi. Atoulloh Husayniy ushbu badiiy san'atga qo'yiladigan talablarni yanada boyitadi: 1) har bir so'z va ma'no uyg'un bo'lishi, chuqur ma'noni yengil so'zlar bilan yoki aksincha ado qilmaslik; 2) baytning ikki misrasi so'z latofati va balog'ati jihatdan bir-biriga mutanosib bo'lishi – biri a'lo,

ikkinchisi adno – mazmunan nochor bo'lmashligi; 3) ma'no mantiqan asoslangan, chuqur bo'lishi, kelishmagan, qarama-qarshi, yaramas, urfga xilof bo'lmashligi. "Sabog'a xitob"-ning birinchi bayti ushbu nazariy talablarga har tomonlama mukammal javob berishi jihatidan ham qimmatlidir. Ushbu bayt yaxlit holda husni matla' san'atiga misol bo'lsa, undagi *hilm-hayo-adab* hamda *gulshan-nasim-gul* uchliklari tanosib san'ati namunasi. Birato'la bir necha san'at qo'llangani-yu quyma satrlar bilan bitilganiyoq Furqatning oz so'zga ko'p ma'no yuklay bilish, so'zni badiiy san'atlar bilan ziynatlay olish salohiyati qanchalik hayratga loyiq ekanini tasdiqlaydi.

Furqatning hazrat Alisher Navoiyga uvaysiy shogird ekani aytiladi. Shogirdning so'z san'ati borasidagi iqtidori shunchalik darajada baland-ki, ma'lum bir obrazlar tasvirini ba'zan buyuk ustoz g'azallaridagidan ham o'tkazishga erisha oladi. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy mashhur g'azallaridan birida mana bunday yozadi:

*Nuqtai xoling nedin shirin labing ustidadur,
Nuqta chun ostin bo'lur har qaydakti yozilsa "lab".*

Quyidagi baytda Furqat buyuk salafi she'ridagi badiiyatni yanada takomilga yetkazgani kuzatiladi:

*"Nuqta lab ustida bejodur?" dedim. Aydi kulib:
"Sahv qilmish Kotibi qudrat magar tahrirda?"*

Hazrat Navoiy baytida fikr monolog, ya'ni bir kishining nutqi orqali ifodalangan edi. Furqat uni dialogga – oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi muloqotga aylantirdi. Oz so'zga ko'p ma'no yuklay olish mahoratini namoyon etib, yarim misrada "Nuqta lab ustida bejodur?", – deya ulug' ustoz baytidagi mazmuni to'liq ifodalay oldi. Ma'shuqaning: "Sahv qilmish Kotibi qudrat magar tahrirda?", – degan javobi orqali "Kotibi qudrat – taqdir kitobini yozuvchi qudratli zot bo'lgan Tangri taoloni xato qiladi deb o'ylayapsanmi?", – deya oshiqni mot qilishi orqali she'rda ifodalangan mazmunning falsafiy mohiyatini yanada teran bir darajaga yuksaltirdi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Faqat she'riyatidagina emas, nasriy asarlarida ham ulug' adib ona tilimizning tengsiz latofatini san'atkorona ko'rsata oldi. Tarjimayi hollga doir "Ahvolot" asarida hayotli sanalari haqida yozar ekan, ijodkor har bir yoshi haqida fikr bildirganda, bir-birini takrorlamaydigan, badiiyat jihatdan biri ikkinchisidan qolishmaydigan ohorli ta'rifu tashbehlarni keltiradi. Jumladan, sakkiz yoshga kirganini: *"...vaqtim xomasi hayotim yuzidin sekiz raqamni chekti"*, ya'ni vaqt qalami hayotim sahifasiga sakkiz raqamni yozdi, tarzida ifodalasa, to'qqizga qadam qo'yganini: *"Chun umrum shohidi to'quz parda orqasidin chehra ko'rguzdi"* – umrim guvohi to'qqiz parda orqasidan yuz ko'rsatdi, deya tamomila o'zgacha obrazli tasvir bilan beradi. O'n yoshga yetganini esa yana boshqacha: *"Vaqte vujudim qofilasi hayot tariqidin o'n manzil tay ayladi"*, shaklida izhor etadi. "Qofila" so'zi lug'atda – *karvon*, "tay" esa *yurmoq, kezmoq* ma'nolarini anglatadi. Demak, shoir umrining ushbu sanasini: yujudim karvoni hayot yo'llaridan o'n manzil yurgan kezda, deb yuqoridagilarni takrorlamaydigan shaklda, teran mazmun va ohorli tashbeh uyg'unligida ifodalaydi.

E'tiborsizligimiz bois bugungi kunda tilimizdagi nazokatni boy berayotgan hollarimiz ko'p uchraydi. Furqat so'zga shu qadar nozik yondashganki, ijodkordan bu borada saboq olish zamonamiz odamlari, ayniqsa, ijod ahli uchun benihoya foydalidir. Ulug' adib Xo'jandda ekanida, kunlardan birida yaqin do'stlari hamrohligida qo'llarida qarmoq bilan Sirdaryo bo'yicha chiqib, baliq ovlamoqchi bo'ladilar. Lekin ular birorta ham baliq tuta olmaydi. Qayiqda narigi qirg'oqqa o'tib, sayor qilishar ekan, ittifoqo bir chaylaga va unda yashaydigan ikki ko'zi ko'r kekxa odamga duch kelishadi. Ayni shu voqea haqida yozar ekan, Furqat bu kekxa kishini mana bunday ta'riflaydi: *"Bir mo'ysafid kishikim, ikki ko'zi mohiy intizorida falsi mohiy kabi oqarib, qarosi ohular diydasig'a joy topibdur"*. "Fals" so'zi lug'atda *baliq tangachasi*, "mohiy" esa *baliq* ma'nosini anglatadi. Ya'ni Furqat "mo'ysafidning ikki ko'zi ham ko'r ekan" deyish o'rniga ushbu fikrni: *mo'ysafidning ikki ko'zi baliq tutish ilinjida baliqning tangasi kabi oqarib, qarosi ohular*

ko'zida joy topibdur tarzida yuksak odob va benihoya nazokat bilan obrazli va ta'sirchan ifodalaydi. Ham badiiyat talabi, ham millatimizga xos odob taqozosi ijodkorni ana shunday inja yondashuvga undagan. Ana shu kabi misollar tahlili ham Furqatning badiiy nasr tili borasidagi o'ziga xos uslubi, so'zga bo'lgan mas'uliyati va yuksak mahorati isbotidir.

Furqat o'z she'riy va nasriy asarlari orqali ona tilimizning qiyoslab bo'lmas darajadagi so'z boyligini, tengsiz ifoda imkoniyatini namoyon etibgina qolmad. O'zidagi bu noyob iqtidorni amalda el manfaati yo'lga safarbar etish borasida ham kelajak naslarga shaxsiy ibrat namunasi ko'rsatdi. Birgina misol. "Ahvolot" asarida shoir mana bunday ma'lumot beradi: *"...do'konda o'turub, fuqarolar arizasini yozib, mirzoliq'da yaxshi iqtidor ko'rguzdim. Ul hojatmandlar muddaosini eshitib, berobita kalomlarini sanjida aylab, yaxshi marg'ub iboratlar bilan yozib berdim. Mahkama tarjimonlarig'a maqbul bo'lub, mendin izhori xursandlig' ayladilar. Hamesha meni (ng) artzanavtligimni xohladilar"*. Ya'ni savdo bilan shug'ullangan kezlari ulug' shoir oddiy odamlar – hojatmand kishilarning dardini tinglab, ularning muddaolarini ta'sirchan va ravon uslubda qog'ozga tushirib bergan. Turli idoralardagi tarjimonlarga Furqatning fikrni yozma ifodalash qobiliyati boshqalarning bitiklaridan ko'ra ko'proq ma'qul kelgan va fuqarolarning arizani aynan unga yozdirib kelishlarini so'ragan.

Xulosa qilib aytganda, ulug' shoir Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning ona tilimizga, turkiy so'zga bo'lgan muhabbati va mas'uliyati bugungi kun odamlari uchun ham ibrat va namuna bo'la oladi. So'zning inson va jamiyat hayotidagi qadriga doir ijodkor qarashlari hech bir zamonda ahamiyatini yo'qotmaydi. Shoirning so'z san'ati sohasidagi badiiy kashfiyotlari ijod ahlining nafaqat bugungi avlodi, kelajakdagi iqtidorli qalam sohiblari uchun ham mahorat maktabi vazifasini o'tashi mumkin.

BEHBUDIY VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGI MASALASI

Zaynabidin ABDURASHIDOV,
filologiya fanlari doktori

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo'ylab yoyilgan islohotchilik harakati Rossiya imperiyasi qo'l ostida bo'lgan Turkiston o'lkasiga ham kirib keldi. Bu harakat mintaqalar bo'yicha turlicha nom oldi. Arab mamlakatlarida “An-Nahda” (Uyg'onish) deb nom olgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi mustamlakasida bo'lgan turkiy xalqlar o'rtasida esa bu islohotchilik harakati “jadidchilik” nomi bilan tarixga kirdi. “Jadid” so'zi lug'aviy jihatdan “yangi” degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik esa Qrimning Bog'chasaroyida 1883-yili Ismoil Gasprinskiy tarafidan asos solingan yangi – jadid usulga asoslangan yangi maktabdan boshlandi.

Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi qo'l ostidagi turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy tarixidagi nisbatan qisqa, ammo juda shiddatli va murakkab davrlardan biri sanaladi. Ushbu harakatning mohiyatini turli davrlarda turlicha tadqiq va tahlil qilingan tadqiqotlarda jadidchilikning ko'lami, uni harakatga keltirgan shaxslar hayoti, ijodi, jamiyatga bo'lgan ta'siri masalalari hanuz to'raligicha ochib berilmagan. Bu esa, o'z navbatida, jadid harakatining to'liq yaxlit bir shaklda o'rganishni, tadqiq etishni talab qiladi.

XX asr Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiladigan xalqlar uchun bir qadar muvaffaqiyatli boshlandi. Rossiya Yaponiya bilan bo'lgan urushda mag'lubiyatga uchragach, ichki va tashqi kuchlarning bosimiga bardosh bera olmay qoldi. Imperiya ichkarisida siyosiy kurashlar avj ola boshladi va imperator 1905-yil oxiriga kelib barcha siyosiy kuch va guruhlarga erkinlik beruvchi Manifest e'lon qilishga majbur bo'ldi.

Manifestning asosiy nuqtalaridan biri soʻz erkinligini taʼmin etdi.

Turkiston jadidchiligi Rossiya imperiyasidagi boshqa musulmon mintaqalaridagiga nisbatan ancha kech, XX asr boshlarida maydonga keldi. Turkiston jadidchiligini tadqiq etuvchi ayrim olimlarning taʼkidlashlaricha, mahalliy jadidlar 1917-yilga qadar umumiy bir dasturga ega boʻlmaganlar. Ularning fikricha, turkistonliklarning dunyoqarashini bir qadar oʻzgartira olgan Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari 1917-yilga qadar turkistonlik jadidlarning norasmiy dasturi sifatida qabul qilingan edi.¹⁸ Ayni shu fikrni yaponiyalik olim Hisao Komatsu ham ilgari suradi va Fitratning yuqoridagi ikki asarini Buxoro va Turkistondagi jadid – islohotchilik harakatining manifesti boʻlganligini taʼkidlaydi.¹⁹

Bu taʼkid va taʼriflar, albatta, Turkiston jadidchiligining mohiyati va yoʻnalishini aniqlashda nisbiy xarakterga ega. 1911-yili Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari nashr etilgunga qadar Turkiston jadidlarining faoliyati maʼlum bir bosqichga koʻtarilgan, ular yangi usul maktablarining yoyilishida anchagina muvaffaqiyatlarga erishgan va, eng asosiysi, Turkistonda milliy matbuotga asos solib boʻlgan edilar.

Turkiston jadidchiligining asoslarini tadqiq etgan amerikalik tarixchi Adib Xolid uning paydo boʻlishini Markaziy Osiyo jamiyatining transformatsiyasida hamda rus bosqini va uning Islom olami doxil butun dunyoni qayta taqsimlashga boʻlgan harakati natijasida zamonaviylikka zamonaviy “javob” sifatida shakllangan, deb hisoblaydi. Xolid jadidcha maʼrifat yoyish orqali “zamonaviy va shu bilan bir qatorda musulmonchilikni mahkam ushlagan va Turkistonga sodiq

¹⁸ История общественно-культурного реформаторства на Кавказе и в Центральной Азии (XIX-начало XX века). Самарканд: МИЦАИ, 2012. –Б.95–96.

¹⁹ Komatsu Hisao. Muslim intellectuals and Japan: a Pan-Islamist mediator. Abdurreshid Ibrahim. In: Stephane A. Dudoignon, Komatsu Hisao, Kosugi Yūsushi (eds.). *Intellectuals in the Modern Islamic World: Transmission, Transformation, Communication*. Routledge. –P.279.

bo'lgan yangi elita"²⁰ yaratishga va buning natijasida zamona-
viy dunyoda mintaqaning manfaatlarini himoya qilishga shay
bo'lishga harakat qilgan turkistonlik jadidlar va ularning iz-
doshlarini ajratib ko'rsatishga urinadi. Xolidning ta'kidlashi-
cha, Turkiston jadidchiligi aksar holatlarda Qrim va Volga-
Ural tatarlari fikrlarini inkor etgan va maktab ishi, adabiy til
va boshqa masalalarda mintaqa voqyeligiga mos yo'llar topis-
hga harakat qilgan.²¹

Shunday bo'lsa-da, turkistonlik jadidlar muhim masalalar-
ni hal qilishda ichki Rossiya musulmonlari, ayniqsa, jadidchi-
lik haraktining asoschisi bo'lgan qrim-tatar Ismoil Gasprins-
kiy fikr va g'oyalariga ko'proq tayanganini aytib o'tish lozim.

Begali Qosimovning ta'kidiga ko'ra, jadidchilik oqim emas,
harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat. Chunki bu harakat:
1) jamiyatning barcha qatlamlarini islohot jarayoniga jalb eta
oldi; 2) milliy mustaqillik yo'lida siyosiy faoliyat olib bordi; 3)
maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsad-
larga yo'naltira oldi.²²

Turkistonda "jadid" nomini olgan ziyoli qatlam XX asrning
birinchi 10 yilligida shakllandi. Ushbu guruhning asosini
Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qon shaharlari va atrofi-
dagi ma'rifatparvarlar tashkil etdi. Toshkentda Munavvarqori
Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Samarqandda Mahmud-
xo'ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Buxoroda Sadriddin
Ayniy, Fitrat, Usmonxo'ja, Qo'qonda Ashurali Zohiriy, Mah-
mudjon Obidov kabilar ushbu "jadid" guruhining markazida
turdi.

Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishida mu-
him ahamiyat kasb etgan va o'z fikrlari, amaliy harakatlari
bilan jadidchilik g'oyalarining Turkistonda keng yoyilishiga
xizmat qilgan shaxslardan biri bu Mahmudxo'ja Behbudiydir.

Behbudiy birinchi bor 1899-yil haj qilish uchun sayo-

²⁰ Khalid Adeeb. The politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Tsarist
Central Asia. Ph.D. diss., University of Wisconsin-Madison, 1993. -P218.

²¹ Yuqoridagi manba. - B 23. 181-182. 262-328

²² Qosimov B. Milliy uyg'onish. Toshkent: Ma'naviyat. 2002. - B.6.

hatga chiqadi va musulmon Sharqining markazlari bo'lgan Istanbul, Qohira kabi shaharlarda bo'ladi. Adib Xolidning ta'kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan. Oradan 8 oy vaqt o'tib, u Samarqandga qaytishi bilan "Tarjimon" gazetasi-ga obuna bo'ldi.²³

Behbudiyning faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u ta'lim, jurnalistika, siyosat, ijtimoiy masalalar sohalarida samarali ish olib borgan bilan ham Turkiston jadidlari orasida ajralib turadi. Va, bu faoliyat qirralarini tadqiq etilsa, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining yetakchisi ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning ko'p qirrali faoliyatida til, ayniqsa, adabiy til, shuningdek, til o'rganish masalasi alohida o'rin tutadi. Albatta, Behbudiy qaysi sohada bo'lsin turli muvaqqat nashrlarga yozgan maqolalarida o'zi Turkiston o'lkasi uchun "adabiy til" hisoblagan tilda yozishga harakat qilgan. Shu o'rinda Behbudiyning umumiy til yoki adabiy til hamda o'sha davr uchun o'ta dolzarb bo'lgan "umumadabiy til" masalasidagi pozitsiyasini aniqlashtirib olish juda muhim.

XIX asrning oxiri, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, 1883-yildan boshlab, ya'ni "Tarjimon" gazetasining ilk sonidan Ismoil Gasprinskiyning turkiy xalqlar uchun yagona adabiy til, Ingeborg Baldauf iborasi bilan aytganda, "murosa shevasi"²⁴ yaratish fikrini ilgari surdi. Gasprinskiyning turkiy xalqlar uchun "umumadabiy til" yaratishga qaratilgan harakati uning "millat" va "milliylik" konsepsiyasi hamda ushbu konsepiya talqinining mahsuli, deb hisoblash mumkin. Gasprinskiy tilga oid e'lon qilgan ko'psonli maqolalarida o'quvchilar fikrini yuqoridagi "millat" konsepsiyasini tushunishga qaratadi. Unga ko'ra, "millat

²³ Khalid. Adecb. The politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Tsarist Central Asia. Ph.D. diss., University of Wisconsin-Madison, 1993. -P.80.

²⁴ Baldauf, Ingeborg. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar Toshkent: Ma'naviyat. 2001 -B.38.

– bu din va til birligi. Ushbu ikki narsadan biri yo'qotilsa" millat o'zligini yo'qotadi, inqirozga yuz tutadi.²⁵ Gasprinskiyning ta'kidlashicha, barcha millatlarning o'tmishi, kelajagi din va tilga asoslangan. Din birligi qanchalik muhim bo'lsa, adabiy jihatdan til birligi ham shu qadar muhim va bevosita taraqqiyot vositasi hisoblanadi.²⁶ Gasprinskiy til birligini o'ta muhimligini ko'rsatish maqsadida, hatto uni boshqa barcha birliklarning boshi va negizi darajasiga olib chiqdi.²⁷

Bu jihatdan olib qaraganda turkistonliklar orasida birinchi bo'lib Behbudiy Gasprinskiyning til birligi g'oyasini keng targ'ib qildi va quvvatladi. Behbudiy bu masala yuzasidan Turkiston shaharlarida o'ziga xos so'rovnomalar va tajriba ham o'tkazdi. Bu jihatdan biz Behbudiyning turkistonliklar ichidagi ***birinchi sotsiolog sifatida*** ham kashf etamiz. Behbudiy o'zining sotsiologik tadqiqoti davomida umuman gazeta o'qimagan, boshqa turkiy xalqlar tilidan xabari yo'q oddiy odamlarga turli gazetalarni o'qitib eshittirdi va shu yo'sinda Turkistonning turli hududlaridan o'qib eshittirilgan gazetalarning "tili" bo'yicha fikrlarni jamladi, umumiy xulosa berdi. Behbudiy o'tkazgan tajriba va so'rovnomasi asosida turkistonliklar uchun Gasprinskiyning "Tarjimon" gazetasi, sibirlik, asli buxorolik tujjorning avlodidan bo'lgan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Abdurashid qozi nomi bilan tanilgan Abdurashid Ibrohimovning "Mir'ot" jurnali hamda "Ulfat" gazetasining tili ko'proq tushunarli, degan xulosaga keldi. Va "chorak asrdan beri millatimizga til, qalami, qalb quvvati bilan xizmat qilgan, yangi matbuotimiz raisi ham otasi janob Ismoilbek hazratlariga til bobida ergashmoq Rossiyadagi hamma muharrirlarga lozim" ekanligini tavsiya qildi. Bu bilan Behbudiy ham Gasprinskiy kabi Rossiya musulmonlari birligining asosi va negizida til birligi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.²⁸

²⁵ Lison masalasi // Tarjimon, 1905, № 90.

²⁶ Dil, dil, dil // Tarjimon, 1905, № 103.

²⁷ Ismoil. Umumiy lisoni adab // Tarjimon, 1906, № 37.

²⁸ Haqiqat har tarafdan zuhur edar // Tarjimon, 1906, № 48. Behbudiyning ushbu maqolasi "Ulfat" gazetasining 1906-yil 20-sonidan olib bosilgan.

Behbudiy yagona, umumadabiy til borasida fikrlarini davom ettirib, "...til birligining foydalari juda yaxshi ma'lum. Zero, til birligi do'stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosi" degan amaliy xulosaga keladi. Mavlono Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asaridan til to'g'risidagi baytlaridan misollar keltiradi.²⁹

Behbudiy Turkiston uchun turkiy bilan bir qatorda forsiy tilning "o'rta sheva"sini ilgari suradi. Bu taklifning amaliy natijasi sifatida 1913–1915-yillarda Samarqandda Behbudiy tomonidan nashr qilingan "Oyina" jurnalini ko'rsatish mumkin. Baldauf Behbudiyning bu tashabbusini o'z o'quvchilari bilan hamfikir va hammaslak ekanligini bildirish va ko'rsatish deb baholaydi.³⁰

Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy "Oyina"ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili "Tarjimon"ga yo'llagan maqolasida³¹ ko'targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tilning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e'tibor qaratmoqchi bo'ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi. Behbudiy o'z fikrlarini quyidagi argumentlar bilan isbotlashga harakat qildi: 1) Turkistondagi aksariyat shahar aholisi turkiy va forsiyda bemalol muloqot qiladi; 2) ba'zi hududlarda bu ikki tilning qorishiq shakli ishlatiladi; 3) rasmiy idoralarga arizalar turkiyda yoziladi; 4) shar'iy fatvolar forsiyda yozilib, turkiyda qayd qilinadi va bu usulga butun Turkistonda amal qilinadi. Behbudiy maqolasining so'ngida o'zi keltirgan isbot va dalillarga tayangan holda Turkiston maktablarida ham turkiy, ham forsiy birga o'qitilishi maqsadga muvofiq degan xulosa beradi.³²

Behbudiy (umum)turkiy tilni "Tarjimon" gazetasi vositasida o'rganganligini e'tirof etadi: "ona tilim forsiydir, yozgan

²⁹ Mahmudxo'ja Behbudiy. Vahdati lison – dil birligi // Tarjimon, 1906, № 61.

³⁰ Baldauf Ingeborg. XX asr o'zbek... –B.40.

³¹ Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. Turkistonda maktab lisoni. // Tarjimon. 1909, №№ 14, 21.

³² Yuqoridagi manba.

turkchamni ruhoniy xojam "Tarjimon" sahifalaridan tahsil etdim."³³ Gasprinskiy tarafidan nashr qilingan "Tarjimon" gazetasi Turkiston o'lkasidagi e'tiborini "usuli jadida nomi bilan isloh qilingan va ochilgan maktablar muhtaram "Tarjimon" ta'sirida alifbodan oxiriga qadar turkcha dars berib, Turkistonda turkchani yoyilishiga xizmat qil³⁴ganligida ham ko'rish mumkin. Bu so'zlar ham Behbudiyga taalluqli. "Tarjimon" va Gasprinskiy faoliyati Behbudiy e'tiroficha, Turkistonda juda katta ta'sirga ega bo'lgan. Behbudiy Turkistondagi "barcha muallim, ustod va muovinlar "Tarjimon" yordamida" turkiy tilni o'rganganliklarini hamda "Tarjimon" vositasida chorak asrdan beri "zamonaviy yangi adabiyot" bilan tanishish, "madaniy ehtiyoj"larini to'la qondirish imkoniga ham ega bo'lganliklarini ta'kidlaydi.³⁵ Behbudiy turkiy til deganda Gasprinskiy taklif etgan "umumturkiy adabiy til"ni nazarda tutadi.

Begali Qosimov Imperiya musulmonlari, xususan, Turkiston o'lkasining taraqqiy millat qatoriga qo'shilishi va oxir-oqibat mustaqillikka erishish yo'lidagi kurashda Behbudiyni Gasprinskiy bilan bir maslakda bo'lganini ta'kidlaydi. Bu maslak Gasprinskiy taklif etgan "murosa yo'li" bo'lib, ruslarning hamda ularning madaniyati yutuqlari yordamida ma'rifatga erishish, va eng asosiysi, bu yo'lda milliy xususiyatlarni yo'qotmaslikni talab etadi.³⁶ Behbudiyning rus tilini o'rganish va rus madaniyatidan istifoda etish borasidagi fikrlarini uning ko'plab maqolalarida uchratish mumkin.³⁷ Xususan, uning "Oyina" jurnalining ilk sonida chop qilingan

³³ Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. Turkistonda maktab lisoni // Tarjimon. 1909, № 14.

³⁴ Yuqoridagi manba.

³⁵ Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. Turkistonda maktab lisoni // Tarjimon. 1909, № 21.

³⁶ Qosimov, B. Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy. – Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. Toshkent: Sharq, 2005. – B.42.

³⁷ Masalan, qarang: Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. "Munozara" haqida // Turkiston viloyatining gazetasi. 1911. № 73.

"Ikki emas, to'rt til lozim"³⁸ maqolasida turkistonliklar zamon bilan hamnafas bo'lishlari, zamona ilmlaridan, fikrlaridan bahramand bo'lishlari uchun "turkiy, forsiy, arabiy va rusiy" tillarini bilishlari, ularda bemalol muloqot qilish darajasiga yetishishlari lozimligi ta'kidlanadi. Behbudiy bu maqolada "turkiy" til deganda, mahalliy xalqning aksariyati so'zlashadigan "o'zbekiy" tilni nazarda tutadi. Unga ko'ra, to'rt tilning o'rganishga sabablar quyidagilardan iborat: 1) "turkiy, ya'ni o'zbekiy" – Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan til; 2) "forsiy" – "madrasa va udabo tilidir. Bukung'acha Turkistonni har tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur"; 3) "arabiy" – madrasalarda o'qitiladigan barcha shar'iy kitoblar ushbu tilda; va 4) "rusiy" – "zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatga xizmat" qilishga yararlik zamona ilmini o'rganish uchun.

Behbudiy til o'rganishga sabab bo'ladigan omillarni ko'rsatar ekan, turkiy va forsiy mahalliy halq uchun ikkisi birday ona tili bo'lganligi sabab "bizg'a saodat" ekanligi va ushbu tillarni har bir turkistonlik "tahsilsiz" ham yaxshi bilishini ta'kidlaydi. Ushbu tilni mukammal bilganlarforschada bitilgan "Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, "Masnaviy"dan qanday lazzat olsa", buning barobarida turkiyda yozilgan "Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolstoy, Jul Vern va ulamo'i zamoniyy asarini turkiy tarjimasidan" shunchalik bahramad bo'lishi mumkin.

Behbudiy turkistonliklarni nima uchun rus tilini o'rganishga diqqatini qaratmoqchi edi? Unga ko'ra, millat o'zini boshqa xalqlar tomonidan butunlay yo'q bo'lib ketmasligi uchun ular ham tijorat, ham sanoat, ham siyosatda boshqa taraqqiy etgan xalqlar bilan bir qatorda, yonma-yon harakat qilishi kerak. Turkistonliklar orasida hatto millat va Vatan manfaati uchun G'arb tillarida, jumladan rus tilida yuqori minbardan turib gapirishga qodir biror kishi topilmaydi. Bu qusurlarni yo'q qilish uchun esa rus tilini o'rga-

³⁸ Mahmudxo'ja. Ikki emas, to'rt til lozim. // Oyina. 1913. № 1.

nish, Rossiya universitetlarida tahsil olish hamda barcha qonunlardan xabardor bo'lmoq kerak. Behbudiy til o'rganish masalasini siyosiy masala sifatida ko'tarib chiqdi va Vatan manfaati yo'lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo'l ochishi to'g'risida yozdi.

Behbudiy ayni masalani, ya'ni rus tilini o'rganish turkistonliklar uchun ne qadar muhim ekanligini Abdurauf Fitratning "Munozara" asariga yozgan taqrizida ham ko'targan edi.³⁹ Mutaassib bo'lgan turkistonliklarga Behbudiy xorijiy tillarni o'rganishni payg'ambar ham buyurganlari haqida hadisi sharif ham keltiradiki, bu aholini "kofir bo'lmasligiga" eng asosiy dalil sifatida edi.⁴⁰

Behbudiyning adabiy til borasidagi qarashlari uning 1915-yili yozgan "Til masalasi"⁴¹ nomli maqolasida aks etgan. Ushbu maqola ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Behbudiy turkiy tilning shevalari xususida fikr yuritadi. Unga ko'ra, turkiy tilning Turkiston o'lkasida tarqalgan sheva va lahjalari yuz yillar davomida fors madaniyati va adabiyoti ta'siri ostida bo'lgani sabab ushbu tildan juda ko'plab so'zlarni o'zlashtirgani, tub turkiy so'zlar ushbu vaqt davomida iste'moldan chiqib unutilib ketgan. Shuningdek, 14 asrdan beri muqaddas islom dini hamda Qur'on tili bo'lgan arabchadan ham turkiy til shevalariga son-sanoqsiz so'zlar kirib kelganki, ularni sheva yoki lahjalardan chiqarib tashlashning iloji yo'q. Chunki bunday so'zlarning muqobili mavjud emas.

Behbudiy turli mintaqalarda yashaydigan turkiy xalqlarning tili ham turkistonliklarning tilidan qolishmaydigan darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani, hatto ayrimlari "forsiy va arabiyini u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy. forsiy va arabiydan qo'shulub, "usmonli tili" ataldi". Behbudiy usmonli tili haqida gapirar ekan, ushbu tilda ravon yozmoq va o'qib tushunmoq uchun "uch tilning adabiyot va qoidalaridan

³⁹ Samarqand dorulqazo mufularidan Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. "Munozara" haqida // Turkiston Viloyatining Gazeti. 1911. № 73.

⁴⁰ Mahmudxo'ja. Ikki emas, to'rt til lozim // Oyina. 1913. № 1.

⁴¹ Mahmudxo'ja. Til masalasi // Oyina. 1915. № 11-12.

boxabar" bo'lishi kerakligi, aks holda "usmonli shevasinda yozilgan asarlarning aksarini" nafaqat usmonli turklarning "kamsavodi", balki ayrim ziyolilari ham anglamas darajaga kelib qolganligini ta'kidlaydi.

Behbudiy Turkiston shevalari borasida yozar ekan, u o'zini *yetuk tilshunos* sifatida namoyon qiladi. Behbudiy turkistonliklarning yashash mintaqasiga qarab sheva va lahjalar qay darajada fors va arab tili ta'siriga tushgani va bu jarayon "barcha yerda bir holda bo'lmay, balki mavqeyi jug'rofiyasig'a qarab har nav" ekanligini tadqiq etdi. Va turkiy til qanchalar boshqa til ta'siriga tushib o'zgargan bo'lmasin barcha "lahja ila so'ylayturgonlarning har biri boshqasini so'zig'a tushunadurlar", degan xulosa beradi. Bu esa Behbudiyning *sheva-shunoslik borasida ham chuqur bilimga ega* bo'lganligini ko'rsatadi.

Behbudiy Turkistonda yoyilgan kitob tili, ya'ni adabiy til borasida so'z yuritir ekan, "Turkiston, Buxoro va Xivada har kim o'z lahjasig'a muvofiq yozsa ham, bir-birig'a qarib (yaqin)" bo'lib, "ahli savod", ya'ni ziyolilarning "til birligi" - adabiy tili bir ekanligini ko'rsatib beradi.⁴²

"Til masalasi" maqolasining ikkinchi qismi turkiy xalqlar uchun yagona, soddalashtirilgan adabiy til yaratish masalasiga bag'ishlangan. Behbudiyning ta'kidlashicha, u ushbu masalani yoritishda "betarafona" yondoshishiga harakat qilgan. Behbudiy sheva va lahja bilan "adabiy til" o'rtasidagi farqni ko'rsatish uchun Volgabo'yi tatarlari, Kafkaz xalqlari bosib o'tgan yo'lni tahlil qilishdan boshlaydi. Unga ko'ra, tatarlar va ozarbayjonlar nashr qilayotgan matbuot "tili" "ko'cha tili" dan "necha daraja oliy" ekanligi har bir gazeta o'qiydigan ziyoliga ma'lum. Hatto "Vaqt" gazetasi va "Sho'ro" jurnalining tili ular nashr bo'la boshlagan yildan, ya'ni 1908-yildan 1915-yilga qadar "jaridalarining avvalgilari ila hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyliigi zohir" bo'lib tobora "oliylashmoq" yo'lida harakat qilmoqda edi. Albatta Behbudiyning tatar va ozarbayjon matbuoti tili borasida bunday xulosaga kelishi

⁴² Mahmudxo'ja. Til masalasi // Oyina. 1915. № 11.

uning bu yo'nalishda ma'lum tadqiqotlar, izlanishlar, kuza-tishlar hamda tahlillar qilganini ko'rsatadi. Va bu esa o'z navbatida Behbudiyning turkiy tildagi matbuotni doimiy tarzda kuzatib borish bilan bir qatorda ularning til siyosati qay dara-jada o'zgarib borayotganini tahlil qilib muayyan xulosa chiqara olgan *yetuk tilshunos* ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Yuqorida aytilgandek, Behbudiy bu kabi xulosaga kelish uchun sotsiologik so'rovnomalar o'tkazgan va qay matbuot tili turkistonlik oddiy odam uchun tushunarli ekanligini aniqlash bo'yicha qilgan izlanishlari natijasi "Til masalasi" maqo-lasining ikkinchi qismida o'z aksini topgan. Albatta, Behbu-diyning bu kabi izlanish va tadqiqotlar olib borganini o'sha vaqtda o'ta muhim masalalardan biri bo'lgan (umum)adabiy til yaratish yoki qabul qilish borasidagi qarashlarini bildirish, o'z pozitsiyasini ko'rsatish bilan bog'liqlikda qarash kerak.

Behbudiy (umum)adabiy til masalasida tilni soddalash-tirish, omma tushunadigan shaklga olib kelish fikrini qo'l-lab-quvvatlasa-da, tilni soflashtirish, ya'ni arabcha, forscha so'zlarni o'rniga muqobillarini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini "Ijrosi mumkin emas, quruq xayoli fosidgi-na" deb baholaydi. Shu bilan bir qatorda, Behbudiy gazeta va jurnallarda boshqa tillardan yangi kirib kelayotgan so'zlar istalgan shaklda qo'llanilishi masalasiga to'xtalar ekan, buni "bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqqon begona lug'atdagi ismlik nimarsalarg'a turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg'a xizmat etaturgon kishilarni bizg'a yo'qligi"dan deb ta'kidlaydi. Bu bilan Behbudiy tilga yangi o'zlashmalarni tartibga keltiradi-gan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ham kun tartibiga chiqaradi.

Tilni soflashtirish masalasida "Sadoyi Turkiston" gazetasi-da berib borilayotgan maqolalarni tahlil qilar ekan, Behbudiy gazetaning bu harakatiga "ijrosi mumkin emas orzu" deb qa-raydi. Sabab asrlar davomida arab va fors tili ta'sirida qolgan turkiy tilni "yana bir necha ming sanada bularni ta'siridan chiqarmoq" ishiga berilsak, "ma'nan va moddatan va fannan

mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo'lgan tilimizg'a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)" tilidan yangi so'zlar kirib kelayveradi. Behbudiy til soflashtirish masalasida mana shunday pozitsiyani egallagan edi.

Behbudiy tilni soddalashtirish borasida fikrlar ekan, arabcha ko'plikdagi so'zlarni imkon qadar turkiy ko'plik shaklda, masalan, "ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq yerinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar va... lar" kabi yozilishini hamda gazetalarda berilayotgan "kurrai arzda yashamakda bo'lgan har millatni o'ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur" kabi gaplarni imkon qadar turkiychalashtirishni taklif qiladi. Lekin, yuqorida yozilganidek, Behbudiy butun tilni soflashtirish masalasida "butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iboratlarg'a muqobil turkchadan ism ta'yin qilmoq fikrig'a cho'mmoq o'zni charchatib va matbuotni zoye qilmoqdan boshqa nimarsa emas" degan fikrda qat'iy turdi.

Behbudiy sodda til "atrofindagi qavmu qarindoshi ilan so'ylashmoq" uchun kerak bo'lsa, adabiy va ilmiy til "mavjud ilmu fan va tarixni bilmoq va alardan foydalanmoq" uchun zarur deb hisoblaydi. Uningcha, sodda til, ya'ni sheva yoki lahja mintaqaga ko'ra turli bo'lishini hisobga olsa, bu tilni adabiy deb bo'lmaydi va uni istifodaga olib kirishdan ham hech qanday ma'ni yo'q. Bundan tashqari, Behbudiy Turkiston sheva va lahjalari adabiy til bo'lishga "qodir emas" deb hisoblaydi. Behbudiyning bunday xulosaga kelishiga sabab "ilmiy va adabiy tilni har bir qishloq va ko'ydagi onalarni tilinda bo'lmoqligi" uchun boshqa taraqqiy etgan millatlar onalari kabi "qorindan qoring'acha" o'qimishli bo'lishi kerak. Shunday ekan, Behbudiy (umum)adabiy til masalasida "modomiki, bizg'a ilmu fan kerak va modom(iki), turk tilining ba'zi sho'ba va lahjalarig'a zamoniy, fanniy, diniy, tarixiy har nav' kitoblar bordur, ani o'qub fahmlamoqig'a g'ayrat etishimiz lozimdur" degan xulosaga keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Behbudiy Turkistonning avom xalqi qay gazeta tilini yaxshi tushunishi va qabul qilishi borasida o'tkizgan sotsiologik so'rovnomasi va tadqiqotining aso-

siy sababi ham "Tarjimon" yoki "Ulfat" gazetasi tilini (umum) adabiy til darajasiga ko'tarish edi. Behbudiy o'zining bu qarashini quyidagicha izohlaydi: "Dunyomizni ilmu fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va ularni bilmaganda Kafkoz va yo Qrim lahjai adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushig'a vosita bo'lur".

Albatta, Behbudiyning adabiy til borasidagi bu kabi qarashi o'z davrida ham katta qarshiliklarga sabab bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlaridan bo'lgan Hoji Muin Behbudiyning adabiy til borasidagi fikrlariga qarshi chiqqan edi. Hoji Muni mahaliy tilni soflashtirish va begoga (arabcha va forscha) so'zlardan tozalash orqali uni adabiy til sifatida shakllantirish tarafdori edi.⁴³ Bundan tashqari, Hoji Muin Behbudiy taklif qilgan ikkitillik, ya'ni butun Turkistonda turkiy bilan bir qatorda forsiyni ham ishlatish fikrini ham ma'qullamaydi. Ingeborg Baldaufning ta'kidlashicha, Hoji Muin o'z qarashlarining amaliy tatbiqini Behbudiy safarga chiqqan vaqtda "Oyina" jurnaliga vaqtincha muharrir bo'lgan paytda amalga oshirishga qisman muvaffaq bo'lgan. Baldaufga ko'ra, Hoji Muin qisqa muddat ichida ikkitillik bo'lgan "Oyina" jurnalini sof turkiy tildagi jurnalga aylantirishga ulgurgan.⁴⁴

Behbudiy "Til masalasi" maqolasining so'ngida hech qaysi bir til faqatgina o'z so'z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so'zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini ta'kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtni bekor sarflamasdan uning o'rniga "kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas" degan qat'iy fikrni o'rtaga tashlaydi. Bundan tashqari, u Turkistonning turli mintaqalari shevalari orasida farq bo'lgani uchun ushbu shevalarda adabiy asarlar yozish ham maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydi. Behbudiy (umum)adabiy til yaratish borasidagi asosiy muammo va to'siq sifatida millat onalarining savodsizligini ko'radi. Adabiy til yaratmoq uchun, Behbudiyga

⁴³ Hoji Muin ibn Shukrulloh. Til birlashdurmaq haqqinda // Oyina. 1914. №11.

⁴⁴ Baldauf. Ingeborg. XX asr o'zbek... - B.44.

ko'ra, birinchi navbatda "biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak". Adabiy tilning hamda ilm-fanning rivoji millat onalarining bilimiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan Behbudiy, birinchidan, qiz bolalarni maktablarga ko'proq berish, ularni savodli qilish masalasini ko'targan bo'lsa, ikkinchi tarafdin, bir adabiy til yaratish uchun imkon qadar arabcha va forscha so'zlardan kam ishlatish, sodda, boshqa turkiy tillardan keng istifoda qilgan holda yozishni taklif qiladi.⁴⁵ Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur"

Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslik borasida e'lon qilgan maqolalari orasida "sart" so'zi bilan bog'liq fikrlari ham bugungi tilshunoslik nuqtal nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolalarning tahlili natijasida Behbudiy o'z zamondoshlari safidan birinchilardan bo'lib so'z etimologiyasi bilan shug'ullangan, izlanishlar olib borgan, zamona-viy til bilan aytadigan bo'lsak, **madaniy antropolog sifatida** ko'zga tashlanadi.

"Sho'ro" jurnalida e'lon qilingan "Sart so'zi majhuldir"⁴⁶ maqolasida Behbudiy ruslar tarafidan mahalliy o'troq xalqqa nisbatan qo'llay boshlagan "sart" so'zining ishlatilishi, turli lug'atlarda mavjud yoki mavjud emasligi, yon-atrofdagi ko'chmanchi xalqlar bu so'zning nima ma'noda qo'llashi va hokazo dalilardan 24 tasini keltiradi va so'ngida "sart" so'zi Turkistonning mahalliy o'troq xalqiga nisbatan ishlatilishi noo'rin ekanligini isbotlab bergan. Behbudiy ushbu maqolada "sart" so'zi bilan bog'lab keltirgan dalillarini tahlil qilinsa, muallif tarixiy kitoblardagi faktlardan tortib turli lug'atlarda, ko'chmanchi xalqlar nutqidagi ma'nosigacha izohlashga harakat qilgan. Bu esa, o'z navbatida, "sart" so'zining etimologiyasiga oid katta izlanish olib borilganligi va Behbudiyning bu boradagi iqtidorini ko'rsatadi.

Behbudiy barcha dalillarni bir-bir keltirgandan keyin maqolasi so'ngida "sart" so'zining tarixi ham "majhul" bo'lga-

⁴⁵ Mahmudxo'ja. Til masalasi // Oyina, 1915, № 12.

⁴⁶ Samarqanda muftiyi dorulqazo Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. Sart so'zi majhuldir // Sho'ro. 1911. № 19. – B.581-582.

nini hamda turkistonlik o'troq aholiga nisbatan "sart" atamasini ko'chmanchi qozoqlar tarafidan ishlatilgani bois ulardan so'ralsa, balki biror tayinli javob chiqishi haqida ruslarga tavsiya beradi.

"Sart" so'zi bilan bog'liq "Oyina"da berilgan maqolalarning birinchisi "Sho'ro" jurnalida e'lon qilingan maqola nomi bilan bir xil "Sart so'zi majhuldir"⁴⁷ deb nomlangan bo'lsa, ikkinchisi "Sart so'zi ma'lum bo'lmadi"⁴⁸ sarlavhasi bilan e'lon qilingan. Behbudiy bu maqolalarda "Sho'ro" jurnalida o'zi hamda boshqa mualliflar tomonidan bu borada e'lon qilingan maqolalarni tahlil qiladi. Behbudiy barcha mualliflarning fikrlarini jamlagan holda "sart" atamasini Turkiston o'troq aholisiga nisbatan qo'llash "haqorat" sifatida ekanligini yozadi.

Behbudiy o'z fikrlarini dalillash sifatida, bir vaqtlar "Xun"lar bo'lgani, ular butun yevropani zabt etgani va o'sha yerda qolib hozirda nomi yo'q bo'lib ketgani bilan yevropaliklarni sizlar "xun"sizlar deb atash qanchalar o'rinli bo'lishi borasida fikrlarni keltiradi. Behbudiy fikrlarini xulosalar ekan, yevropa xalqlari o'zlariga nisbatan "xun" atamasini haqorat deb qabul qilganidek, ayrim tarix kitoblarida Turkiston hududida qachonlardir "sart" atalgan bir qabila bo'lganligi yozilgani bilan yerli aholini bugungi kunda sen "sart"san deb atash ham haqorat, millatni yerga urish bilan barobar ekanligini ta'kidlaydi.

Behbudiyning Turkiston jadidchiligida tutgan o'rni, uning bu harakati g'oya va fikrlarining yoyilishida, ijtimoiy-siyosiy sohaning turli jabhalarida islohotlarni amalga oshirishdagi faoliyatini baholashda, tabiiyki, u yozib qoldirgan fikrlar, asarlarida katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda uning (umum) adabiy til, til normalari, imlosi, so'zlar etimologiyasi borasidagi fikrlari, qarashlari ma'lum ma'noda Behbudiyning tilshunoslik sohasidagi faoliyatiga ham muayyan baho berishga, uning bu yo'nalishdagi harakatlariga xolisona xulosa berishga imkon tug'diradi.

⁴⁷ Mahmudxo'ja. Sart so'zi majhuldir // Oyina. 1914. № 22-26. – B.314-315; 338-340; 362-365; 386-388; 478-480

⁴⁸ Sart so'zi ma'lum bo'lmadi // Oyina. 1914. № 39. – B.922-924.

Behbudiyning Turkistonda keng tarqalgan turkiy tilning sheva va lahjalarini mukammal bilishi, zamonasining nisbatan taraqqiy etgan turkiy shevalarda nashr etilgan vaqtli matbuot tilini davrlashtirish, ularga muayyan baho bera olish, tahlil qila olish kabi qirralari uning Turkistonlik ziyolilar orasidan yetishib chiqqan ilk tilshunos deb atashimizga dalil bo'la oladi. Shuningdek, so'zlarning tarixi, ularning kelib chiqishiga oid izlanishlarini inobatga olib, Behbudiyni hozirgi zamon atamasi bilan madaniy antropologiya sohasida ham muayyan yutuqlarga erishgan, bu sohada ham birinchilardan bo'lib izlanishlar olib borgan olim deb xulosa berishga asos beradi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Behbudy o'zbek tilining adabiy til sifatida shakllanishi borasida samarali faoliyat olib borgan tilshunos, sotsiolog, shevashunos, etnograf, madaniy antropolog sifatida gavdalanadi.

MILLATNING RUHI

*Abdulla Avloniyning o'zbek tili rivojiga qo'shgan
hissasiga doir ayrim mulohazalar*

Shahnoza SOATOVA,
mustaqil tadqiqotchi

Abdulla Avloniyning o'zbek tili rivojiga ham nazriyotchi, ham amaliyotchi sifatida qo'shgan hissasi haqida so'z ochilsa, xayolga birinchi bo'lib uning biografiyasidan quyidagi faktlar keladi:

– tarjimon sifatida: arab, fors, rus tillarini o'rganib, bu tillarda ijod qilgan mutafakkirlarning asarlarini o'qigan, ba'zilarini o'zbek tiliga tarjima qilgan (masalan L. Tolstoy, K. D. Ushinskiy asarlarini);

– pedagog sifatida: Toshkent shahrining Mirobod mahallasida mahalliy aholi bolalari uchun yangi usul maktabi ochib (1908), o'sha paytdagi an'anaga zid ravishda, arab emas, o'zbek tilida dars o'qitishni yo'lga qo'ydi, milliy darsliklar yaratdi, o'zi ona tili va adabiyotdan dars berdi;

– olim sifatida: 1930-34 yillarda O'rta Osiyo universiteti til va adabiyot kafedrasini mudiri, professor lavozimida ishlab, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi ilmining tamal toshini qo'yganlardan biri bo'ldi;

– noshir sifatida: o'zbek maktablarining 7-sinfi uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» tuzib, nashr ettirdi (1933).

Adib va jurnalist sifatida esa Avloniyning asarlari nafaqat ilgari surilgan g'oyalari bilan, balki o'ziga xos shirali ifoda uslubi vositasida ham o'zbek milliy tafakkuri va tilini shakllantirishda alohida hodisa bo'ldi.

Ma'lumki, XX asr boshlarida matbuot va kommunikatsiyaning rivojlanishi natijasida turkiy tillarning o'zaro ta'sirlashuvi, integratsiyaga intilish, yangi zamon tilini yaratish va

uni tizimlashtirish masalalari kun tartibiga chiqdi. Xususan, ozar, turk, tatar-boshqird tafakkuridagi olg'a sakrashlar o'sha davrdagi madaniy-ijtimoiy taraqqiyot taqdiri va samaralarini belgilab berdi. Natija shu bo'ldiki, ushbu tillarda juda ko'plab matbuot, teatr, matbaa, ilmiy manbalar yaratilib, yaralangan, abgor Turkiston ulardan najot ko'rarak, ergasha boshladi. Bu o'sha davrda ijod etgan adiblar tilida ozar, turk, tatar-boshqird va rus tillaridan jiddiy ta'sirlanishni yuzaga keltirdi.

Ushbu jarayon 30-yillargacha davom etib, keyin o'zbek tili, alifbosi masalalari ancha tartibga tushdi, adabiy til shakllandi, bu tilda buyuk asarlar yaratildi hamda ziyolilar va nihoyat zamonaviy, o'z qiyofasi va so'z boyligiga ega o'zbek tilida ijod qila boshladilar.

Tabiiyki, Avloniy ham til amaliyotchisi (adib), ham nazariyotchisi (olin), ham uni yoshlarga o'qituvchi pedagog, darsliklar muallifi sifatida bu jarayonlarda faol ishtirok etdi.

Adib Avloniyning milliy tilni bilishi va undan amalda foydalana olish mahorati alohida va hali ko'p tadqiq etilmagan mavzu.

Avloniy turkiy tilning ichki imkoniyatlari, so'z yasaliish, xususan, agglyutinativ tillarga xos bo'lgan o'zakka ko'plab qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z shakllarini hosil qilish usullaridan samarali foydalanganini ko'rish mumkin.

Masalan, «yana shul tekshirish, **sinchiklashdirishlarinda** davom qildilar» («Sanoye nafisa» maqolasi). E'tibor bering, «sinchiklashdirishlarinda» so'zi orqali ham ko'plik, ham birgalik, ham davomiylik ma'nolari qanday berilmoqda!

Yoki chetdan so'zlarni o'zlashtirish borasida tajribalari: «Mazkur boyning bank'ga to'laydurg'on **platuji** bo'lur ekan»; «Jonivor o'rgangan otni ko'rsangiz, «vaqti o'tmasun, **veksil natariusga** chiqmasun», deb, quruq **kalaskani** taraklatub olib qochub, kelib to'g'ri podshohlik bankining eshigida to'xtadi»⁴⁹ («Kayfim uchdi» hajviyasi).

U nazmda Cho'lponchalik bo'lmasa ham, nasrda, xususan, satira, tahlil, sayohatnoma kabi janrlarda o'zbek tilining jo-

⁴⁹ <https://ziyouz.uz/matbuoti/jadid-matbuoti/abdulla-avloni-kayfim-uchdi/>

ziba va imkoniyatlarini keng ochib, o'zi ham yayrab ijod etganini ko'rishimiz mumkin. Garchi turkiy sanalmish barmoq vaznini birinchilardan bo'lib qo'llagan bo'lsa ham, she'rlarida arabiy so'zlar, ifodalar ko'p uchraydi, xususan, uning ilk ijodiga xos asarlarida. Qolaversa, ko'p o'rinlarda «p» harfi o'rniga «f» ishlatishi ham ko'rinadi: if (ip).

Bundan tashqari, turk, ozar tillaridan kuchli ta'sirlangani ham seziladi. Masalan:

*Ilm bog'inda bizam toza bakom o'lmaliyuz,
Ilm gulzorina bulbul kabi rom o'lmaliyuz,
Ilm vaslina xiradmandi xitrom o'lmaliyuz,
Ilm ila millati Isloma g'ulom o'lmaliyuz,
Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,
Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.*

Adib tilidagi ushbu holatlar, aslida, o'sha davrda ijod etgan aksar ziyolilarga xos bo'lib, bu tatar, boshqird, turk, ozar matbuoti va boshqa manbalaridan ta'sirlanish natijasidir.

Hajv tili – eng jonli, o'ziga xos ta'sirli va muallifning tilni qo'llash mahoratini ochib beradigan tildir. Biz Qodiriyning, Cho'lponning, G'afur G'ulomning bu uslubdagi mahoratini yaxshi bilamiz va tan beramiz. Avloniy hajvi ham ulardan qolishmaydigan, ajib ma'no tovlanishlari va tafakkur o'yinlariga boy. Xususan, «Kayfim uchdi» hajviya-feletoni tili ham.

Hajviya kompozitsiyasi juda o'ziga xos, ko'p ma'noli va jumboqli bo'lib, uch abzatsli qisqagina matnga besh-olti, balki o'nlab masalalar jo bo'lganki, buni anglash uchun kishi o'sha zamon ijtimoiy-maishiy hayotidan tortib, siyosiy vaziyatgacha bilishi, shuningdek, zakiy o'quvchi bo'lishi talab qilinadi.

Bir ziyolining tasavvur maxluqini bayon etarkan, muallif hajviyani go'yoki bir necha qismlarga ajratuvchi «hangim uchdi», «uyqum o'chdi», «kayfim uchdi» jummalari orqali bir mantiq zanjirini hosil qiladi va o'ziga xos ma'no groteskini yaratadi. Jumboqlarni yecha borgan sari o'quvchi ayri bir lazzat oladi. Adib esa hukmron senzuraning dog'da qoldirib, yengil va

oson hazm bo'ladigan usulda o'tkir satirasi tig'ini tuzum yuragiga sanchadi.

Avloniy pedagogik faoliyati orqali ham zamonaviy o'zbek tilining shakllanishiga va rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Xususan, u tashkil etgan maktablarda zamonaviy ilm asoslari an'anaviy maktablardan farqli ravishda arab tilida emas, turkiy (o'zbek) tilida olib borilar edi. Tabiiyki, bu maktablar uchun darsliklarni ham Avloniy turkiy tilda yozdi. Tabiiyki, u yoki bu fan asoslarini bir tildan boshqasiga o'girish – bu shunchaki tarjima degani emas. Bu, avvalo, o'sha tilda ilmiy tafakkurni shakllantirish va unga yangi tushunchalar, atamalar, ilmiy iboralar va istilohlarni olib kirish deganidir. Avloniy yaratgan geografiya, tarix, adabiyot, o'zbek tili, arifmetika, geometriya kabi predmetlardan o'ndan ortiq darsliklarida ayni vazifani a'lo darajada ado etganini ko'rish mumkin. Bunda unga zamondoshlari, atoqli tilshunos va adabiyotshunos olimlar Abdurauf Fitrat, G'ozil Olim Yunusov, Elbeklarning yordami katta bo'ldi.

Maktablarning yuqori sinflari uchun axloq darsliklari masalasi kun tartibiga chiqqanda, masalaning yechimi o'laroq o'sha davrda Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlari tilga olinar edi. Shubhasiz, ushbu asarlar o'z muallifini Sharq axloq ilmining buyuk allomasi degan rutbaga muvassas qildi. Biroq o'sha davr millat bolalari uchun turkiy tildagi bir axloq darsligi kerak ediki, Avloniy buni yaxshi anglab, «Turkiy Guliston yoxud axloq» nomi bilan o'zbek tilida axloq darsligini yozdi.

Kitobning 1917-yilgi ikkinchi nashriga yozgan so'ng-so'zida u shunday yozadi: «Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal «Axloq» kitobining yo'qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i, o'zum muallimlar jumlasidan o'ldug'imdan, manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulinda yozmakni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin ko'tarmakni munosib ko'rdim».

Garchi Avloniy o'z asarini «Guliston»ga ergashib yozgani- ni aytsa-da, bu tamomila zamonaviy, davrning masala va mu- ammolarini o'ziga singdirgan, zamon ijtimoiy-siyosiy ruhini mujassam etgan asar edi. Asarning boshida epigraf sifatida keltirilgan ushbu satrlar buning isbotidir:

*Har kun o'luram shomg'acha man g'amga giriftor,
Har shab yonuram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu man! ahvolima voqif,
Man xastayamu millatim o'lmish nega bemor?*⁵⁰

Hifzi lison

«Turkiy Guliston yoxud ahloq» asarida Avloniy bejizga yaxshi xulqlar qatorida «hifzi lison»ni ham sanab o'tmaydi. Avloniy fikricha, til muhofazakorligi diyonat, sabr, hilm, ilm, vijdon kabi qator insoniy xususiyatlar qatorida turuvchi «aql va shar'i sharifga muvofiq» fazilatlardandir. Boshqa xulqlar qatori tilni ham sof va go'zal saqlamoq uchun Avloniy «ota- ona, muallim ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihat- larini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmak, axloqi buzuq yomon kishi- lardan qochmak lozimdur»⁵¹ deydi.

Hifzi lison tushunchasini u quyidagicha ta'riflaydi:

«Hifzi lison deb har bir millat o'z ona til va adabiyoti- ni saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan oyna! hayoti til va adbiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur» deb turib muallif birdaniga achchiq afsus bilan «hayhot» deya bayon yo'sinida kutilmagan dramatik burilish qiladi.

«Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir ta- rafda tursun kundan-kun unutmak va yo'qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz. Durust, biz-

⁵⁰ B. Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent, Ma'naviyat, 2004. B. 186

⁵¹ http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/turkiy_guliston.pdf – B. 33.

larga hukumatimiz bo'lg'on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur».⁵²

Avloniyning ushbu so'zlaridan o'sha davr o'zbek tili bir necha tillar bosimi ostida qolgani va uni sof va go'zal asrab avlodlarga yetkazish ehtiyoji har doimgidan ham o'tkirroq bo'lganini anglash mumkin. Bir tomondan an'anaparastlar voz kechishni istamayotgan arab va fors tillari bosimi, boshqa tomondan katta shiddat bilan kirib kelayotgan «ulug' og'a»ning tili endigina shakllanish bosqichida bo'lgan zamonaviy o'zbek tilining go'yoki ikki oyog'idagi kishan edi.

Vaziyatni yanada aniq tasavvur qilish uchun Fitratdan ayrim iqtiboslar keltiramiz. Zero, Chig'atoy gurungini tuzar ekan, Fitrat ham asli tilni shu kishanlardan forig' qilib, o'z erkiga, o'zaniga qo'yib berishni istagandi:

«Deydilarkini, turkchadan adabiy so'zlarni chiqarmasg'a teyish. Buni biz ham qabul qilamiz. Adabiy so'zlarni turkchadan chiqoringiz, demaymiz. Bizning tilagimiz – adabiy so'zlarni emas, arabiy so'zlarni chiqarmoq. Anglashiladirkim, bizga qarshi bo'lg'on og'olar arabiy bilan adabiyini ayirmasdan gapiradilar».

«Shul choqda tilimizdagi arab, fors so'zlarining turkchasi topilmaydi, demoqchi esangiz, o'rganing! Hozirgi so'zlarimizdagi arabcha, forshalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydi, desangiz, so'zlaringiz to'g'ridir. Biz ham unlarni chiqarmoqchi emasmiz, unlarni olurmiz, lekin o'zimizniki qilarmiz, turkchalashdururmiz. Aytaylikkim, «qoida»ning turkchasi yo'qdir. «Harf»ning-da turkchasin topolmadik, ikkisin dahi olurmiz. Lekin sizlar kabi «qavoyidi hurfiya» demasdan, «harf qoidalari», dermiz».

Avloniyning «hifzi lison» tushunchasi Fitratning ana shu fikrlari, chaqiriqlarining davomi, rivojlangan va badiiy ifodlangan shakli edi.

⁵² O'sha manba. – B.33.

«Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqub ketduk. Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir», – demishlar. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qolganlarini ham toparmiz. «Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi», – deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdur. Payg'ambarimiz: «Erlarda jamol lison va tildur», – demishlar».⁵³

Avloniy tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanmay, tashqaridan («qo'shnilar uyidan») kerakli so'zlarni qidirishni yoqlamaydi va buni «Yevropa qalpog'ini kiyib kulgi bo'lish» tarzida chiroyli va zakiy bir topilma bilan esda qolarlik tarzda ifodalaydi. Bunga ham qoniqmay, Avloniy:

*Ey ona til, aziz qadrdomim,
Iltifoti ruhim, Rahmonim.
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
O'lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilm-u adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim, shonim.
Millatning ruhini ko'targuchisan,
Ey muqaddas karamli sultonim⁵⁴.*

deya tilga muhabbatini hassos va ko'tarinki satrlar orqali izhor qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, Avloniy til tuyg'uchini, unga muhabbat va mas'uliyatni insonni inson qilib turguvchi muhim va «shar'i sharifga» (shariatga) muvofiq xususiyatlar qatoriga qo'yadi.

Tilning va so'zning ahamiyatini ochib borar ekan, Avloniy: «so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar», – deya tilning inson tafakkuri va shaxsini belgilashdagi rolini ochib beradi.

⁵³ O'sha manba. – B. 34.

⁵⁴ O'sha manba. – B. 34.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov Avloniyning tilga va soʻzga munosabatini buyuk mutafakkir Alisher Navoiy va M. Y. Lermontov qarashlariga qiyoslab: «Avloniy soʻzning inson qadr-qimmatini belgilashdagi rolga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. Soʻzning maʼnosiga alohida diqqat qildi. Til va soʻz odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi», deydi.

Koʻp qirrali va faol ziyoli oʻlaroq Avloniyning tilshunoslik, adabiyotshunoslik ilmi va noshirlik rivojiga qoʻshgan hissasi beqiyos. U fors, rus, ozarboyjon, arab tillarini durustgina bilgan, Sharq va Gʻarb madaniyati klassiklari bilan yaxshigina tanish boʻlgani uchun 20-yillarda samarali ilmiy ishlar ham olib bordi. 1930-yilda SAGU pedagogika fakultetining til bilimi kafedrasida boʻyicha professor, soʻng mudir boʻlib tasdiqlandi. Ilmiy xodimlar seksiyasida, Oʻznavnashrda, Respublika terminologiya komitetida, Davlat ilmiy sovetida masʼul vazifalarda ishladi.

Avloniy inqilobdan keyingi 14 yil umri davomida adib, shoir sifatida kam ijod qildi, bu davrda uning birorta ham adabiy-badiiy kitobi yoxud toʻplami bosilmadi. Biroq siyosatchi, diplomat, olim va pedagog sifatida ham zamonaviy oʻzbek adabiyoti, tili va tafakkuri rivojiga salmoqli hissa qoʻshdi.

QODIRIY SO'ZINING QADRI

Bahodir KARIMOV,
filologiya fanlari doktori, professor

-1-

Abdulla Qodiriy nomi tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan Otabek va Kumush, Anvar va Ra'nolar taqdirini esga olmaydigan o'zbek ziyolisi, adabiyot muhibi topilmasa kerak. Adibning badiiy so'zida betakror joziba mujassam bo'lgani bois "O'tkan kunlar"ni necha topqir o'qilsa ham, odam to'yamaydi, zirikmaydi; qayta o'qishga zarurat sezaveradi. Roman zavq-shavq bilan yutoqib o'qiladi. Qayta o'qishda asarning yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Bir o'qilganda e'tiborsiz o'tilgan tasvir va epizodlar boshqa safar diqqatni tortadi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga, voqea-hodisalar bayon usuliga tegishlidir. Zero, adabiyotdek so'z san'ati uchun badiiy til juda muhim sanaladi; so'z vositasida obrazlar, manzaralar, tuyg'ular suvratlantiriladi. Barchaga ayon bu haqiqat badiiy adabiyotning alifbosi. Bu gap isboti uchun maxsus ko'chirmalarga hojat yo'q. Ammo Abdulla Qodiriyning so'zga, badiiy tilga, o'zbek adabiy tiliga e'tibori – bunga bugun alohida to'xtalish zarur; albatta. Uning so'zida insonni o'ziga bog'lab turadigan mustahkam ma'naviy iplar, odamni o'ziga ohanrabodek tortadigan kuch-quvvat bor. Buni o'quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so'zning ta'siri bois Kumush o'lgan sahnada ho'ng-ho'ng yig'laydi kitobxon. Aytmoqchi, bu epizod yig'lab yozilgan. Demak, adibning ko'ngil bulog'i shu sahifalarga to'kilgan. Adibning adabiy-estetik dunyosi, ijodkor dardi ana shunday yuzlab sahifalarga muhrlanadi...

-2-

Har qanday milliy tilning boyishi, tiklanish, yuksalishida ijod ahlining ulkan xizmatlari bo'ladi. Jahon adabiyotidagi al-

lomalar birinchi navbatda milliy tillarining dunyoda yashab qolishi uchun ularga o'z asarlari bilan ma'naviy yodgorliklar qo'ydi. Imkon topganlari o'z ona tili bilan boshqalarni qiyoslab ilmiy-nazariy kitoblar yozdi.

Adabiy tilning shakllanishi, baland maqomi, sheva xazinasidagi so'zlarning iste'molga olib kirilishi va esdan chiqqan tub so'zlarning qayta qo'llanishida adiblarning benazir badiiy tafakkuri vositachilik qiladi. Xalq ichidan olingan jonli so'zlar ularning ijod xumdonida toblanadi, pishadi, qayralib sayqal topadi. Shu zaylda xalqning tunganmas xazinasiga, muomala-munosabatlarida ma'naviy mulkiga aylanadi.

O'zbek tilining tarixi uzoq. Ammo zamonaviy o'zbek adabiy tilining shakllanishida jadid adiblari, XX asrning 20-yillari matbuot nashrlari, turli ma'rifiy tashkilotlar aynan milliy til istiqboli bilan bog'liq vazifalarni o'z zimmalariga olgan edi. Bu davr adiblari asarlari qo'lyozmasida o'zicha, nashr bo'lgan gazeta va jurnallarning har biri tajribaviy yo'sinda o'zicha "adabiy til"ni qo'llagani ma'lum. Davr matbuotida manbalar ko'p hollarda tahrirsiz ham berib borilgan edi. Ziyo Said jadidlar matbuoti tarixini yozar ekan, albatta, ularning tili va uslubi-ga e'tibor berdi; "o'rta shevada", "tili o'zbekcha deyilgan bo'lsa ham, arabcha, forsiya ko'p bo'lishi ustiga o'sha usulda jumlar tuzilar edi", "jurnalning sarfiy-nahviy xatolari ham yo'q emas edi" kabi mullohadalar bildirib, "tilidan o'rnaklar" keltirdi.

Bu davrdagi o'zbek adabiy tilini kuzatgan jadid munaqqidi Vadud Mahmud "Cho'lponning tasviri sof'ligini, Fitratning "o'ziga maxsus tili" bo'lib, "o'zbekchani ikkinchi qatla tirtgiz"-ganini aytadi. Davr adabiy tilining muhim bir tarafini ko'rsatadi: "Bu kunigi til bo'lsa, u eski islomiy ruhdan ayrilg'ondan bittobe' uning istiloh va ta'birlarini, fikr qoliblarini tashlab, oz bo'lsa ham asriy fikrlar, ba'zi bir qoliblar - so'zlar olmoqda va shu yo'l bilan bormoqdalar. Bu yangi tilning bir xususiyati, muhovara (*so'zlashuv - B.K.*) tiliga yoqlashmoq tamoyuli borlig'idir".

Fitrat boshqargan "Chig'atoy gurungi" jamiyati a'zolari adabiy tilni tub turkiy so'zlar hisobiga boyitish ustida jid-

diy qayg'urib, o'z qarashlari, taklif va topildiqlarini 1920-yil bahorida bosila boshlagan "Tong" jurnalida yoritib bordi. "Bu jurnal til va imlo masalasiga juda katta ahamiyat berdi va bu yo'lda yaxshig'ina ishladi. Ba'zi bir nomerlari tilimizga kirib qolgan arab va forsiy so'zlariga qarshi jihod bilan maydonga chiqdi. L. Azizzoda xotirasiga ko'ra "Gurungning ("Chig'atoy gunrunqi" jamiyati nazarda tutiladi - B.K.) haftalik yig'ilishida har bir a'zoga eski chig'atoy-o'zbek so'zlarini topib kelish yuklanar va buning uchun keksalar, kampirlar, ko'proq qishloq aholisi bilan suhbatlashish tavsiya qilinardi". Jamiyat a'zolari tomonidan o'sha davrda o'zbek adabiy tiliga kiritilgan "boshqarma", "bildirish", "atama" kabi so'zlar hozir ham keng ishlatiladi. O'zbek adabiy tilining taqdiriga befarq bo'lmagan, asarlari tilini xalq so'zlashuv tiliga yaqinlashtira borgan Julqunboy ham o'sha "gurung"ga a'zo edi.

Uslubini "o'rta imlo"ga moslagan "Inqilob" jurnalining 1923-1924-yilgi sonlarida "O'tkan kunlar" romanidan bir nechta fasl bosildi. Tabiiyki, roman muallifi jurnalning "maqola va she'rlar o'rta imlo bilan yozilsa va yangicha yozib idorani mashaqqatga solinmasa edi" degan iltimosiga rioya qiladi. Chunki "O'tkan kunlar" matnida yangidan shakllanib kelayotgan adabiy til bilan birga an'anaviy mumtoz o'zbek nasrining ayrim unsurlari ham qo'llangan edi. Shu uyg'unlik roman tiliga go'zallik bag'ishlaydi; yangicha til mutlaqo quruq va sun'iy lashib qolishi mumkin bo'lganidek, butunlay mumtoz nasr tilida yozish ham, ehtimol, ma'rifattalab o'quvchilar uchun nisbatan og'irlik qilardi.

-3-

Julqunboyning boshlab yozgan asarlari tili bilan "O'tkan kunlar" romani qiyoslanganda tabiiylik, samimiylik, xalq jonli tiliga yaqinlik yaqqol seziladi. Adibning nasrdagi ilk tajribasi bo'lgan "Juvonboz"ning tilini Oybek "duoyi salom" tili, jonsiz, bo'yoqsiz, "quruq" bir til, deb tanqid qiladi; uning "xalq tilidan juda uzoq" ekanini aytadi. Oradan hech qancha vaqt o'tmaydi. Adib "Uloqda" hikoyasini e'lon etadi va u "tirik, obrazli bir til"

bilan yozilgan edi. Abdulla Qodiriy asardan asarga badiiy tasvir, uslub va poetik til jihatidan ham yuksalib boradi. Oybek Abdulla Qodiriy romanlari tili masalasi o'rtaga qo'yilganda: "O'tkan kunlar" romanida yozuvchi til ustida katta mahorat ko'rsatadi. Romanning tili, haqiqatan boy, bo'yoqli, sodda, ifoda kuchi zo'r, massaga anglashilarli bir tildir. O'zbek adabiy tilining shakllanishida bu asarning roli, shubhasiz katta"; "O'tkan kunlar" yangi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida katta rol o'ynaydi", degan teran fikrlarni yozdi.

Qodiriyshunoslar adibning badiiy til bobidagi mahoratiga qoyil qoldi, tan berdi. Hatto o'sha 30-yillar muhitida turib, "O'tkan kunlar"ni ayamay tanqid etgan Sotti Husayn ham yozuvchining "o'zbek adabiy tilining takomilida katta xizmati bor"ligini ta'kidladi: "A. Qodiriy "O'tkan kunlar" ro'manini asosan hozirg'i adabiy til bilan yozgan. Adabiy tilimizning yaxshi ishlanmaganidan xalq orasida iste'moldagi so'zlarni diqqat bilan terib, o'z o'rnida ishlatmishdir. Til ustida maxtarliq, taqdir etarliq ish ko'rsatgan". S.Husayn Qodiriy qo'llagan so'zlarni tasniflaydi; romandagi jozibali tasviriy nuqtalarga diqqat qaratadi, xalq jonli tilidan, og'zaki ijod namunalaridan o'rinli foydalanganiga urg'u beradi.

Bunday mulohazalar Abdulla Qodiriyning nomi oqlanayotgan 60-yillar arafasida ham qatiqni puflab ichayotgan ziyolilar masalaning mafkuraviy tomoniga nihoyatda ehtiyot bo'lib yondashgani holda "har ikki romanning tili boy, sodda va badiiy jihatdan yuksak bo'lishi bilan, avtorning mohirligi bilan katta so'z san'atkorligidan darak berar edi" (S. Abdulla fikri), "mening nazarimda, Abdulla Qodiriy o'sha paytda o'z tili va mahorati bilan boshqalardan ajralib turadigan iste'dodli so'z san'atkori ekanini ko'rsatgan edi" (M. Muhamedov fikri) kabi qarashlarni bayon qildi.

Darhaqiqat, oradan sal kam bir asr o'tgan bo'lsa-da, bugun ham Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiy til taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos xizmatlari yurak-yurakdan e'tirof etishga, adibning mahorati, go'zal yozg'ichi - qalamiga tahsin aytishga majburbiz. Julqunboy ikki asr va ikki turli tuzum chegara-

sida yashadi. Umri tugab borayotgan "xon zamonlari", "musulmonobod" bo'lgan o'sha zamon odamlari turmushi bilan yangilanayotgan, zamonaviylashayotgan Turkiston ahli hayotini qiyosladi. Shu bois uning asarlari tilida mumtoz nasr bilan yangi o'zbek adabiy tilining uyg'unligi aniq kuzatiladi. Eng muhimi, bu poetik til Abdulla Qodiriy asarlariga, xususan, moziydan so'z ochgan romanlari mohiyatiga juda mos keladi. Sun'iylik sezilmaydi. Lozim o'rinlarda yuqori tabaqaga mansub obrazlar tili yoki farmonlari matnini ham individuallashtiradi.

Xalq maqollari har qanday millat adabiy tilining fasohat va balog'atini ko'rsatadi. O'rnida qo'llangan maqol badiiy asarga ko'rk bag'ishlaydi. Bunday hol Abdulla Qodiriy asarlari tilida ko'p kuzatiladi. Xususan, "Yaxshi niyat yorti mol", "Dardi yo'q - kessak, ishq yo'q - eshshak", "Osilsang ham baland dorg'a osil", "Sut bilan kirgan - jon bilan chiqar", "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r", "O'rgangan ko'ngil o'rtasa qo'ymas", "Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar" kabi maqol va iboralar ko'p uchraydi. Ulardan ayrimlari sarlavhaga ham olib chiqilgan.

O'zbek adabiyotshunoslaridan tashqari xorijlik olimlar ham, deylik, amerikalik tadqiqotchi Xristafor Maykl Murfi "O'tkan kunlar"dagi konflikt masalalariga, obrazlar uchun tanlangan ism va ularning talqiniga, romanda aks etgan tarixiy voqealarga, xarakter va personajlarga, "Mehrobdan chayon" romani syujeti hamda qahramonlariga e'tibor berdi. Adib romanlarining tilini yangi va, ayni chog'da, o'zbek adabiyoti tarixida mavjud hikoya qilish an'alariga yaqin turadi, dedi. Fikr isboti uchun "Mahbub ul-qulub" va "Boburnoma"ni qiyosladi. Xalqning so'zlashuv tiliga yaqinligi, ba'zan xalq dostonlari tiliga xos jihatlar borligini, bunda adib o'quvchilar ommasini ko'proq o'ylaganini yozdi.

-4-

Abdulla Qodiriy asarlari uning benazir poyetik tafakkuridan darak beradi. Badiiy tafakkur esa nutq hodisasi bilan bog'liq, albatta. Har bir millat adibi o'z milliy tilida fikr yuri-

tadi, shu milliy tilning lug'at boyligiga tayanib ijod qiladi. E'tibor berilsa, Abdulla Qodiriyning ayrim qahramonlari, deylik "Mehrobdan chayon"dagi Xudoyorxon obraziga ham aynan tilga e'tibor masalasida milliy tuyg'ularni singdiradi: "Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg'an yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshilarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarim turkiy jumllariga aksar vaqt tushunmas: "Enalaring' arapqa tekkanma?" deb mirzo, muftilarni koyir edi. Ammo Anvarning yozg'an har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va "shu bala bartilaring'dan ham o'qug'anraq chiqari!" deb, boshqa mirzolarning yuragiga o't yoqar edi". Xudoyorxonning "turkiy jumllar"ga alohida qaragani, Anvarning inshosini maqttagani – bu muhim gap. Yana bir zarur gap shuki, adib ayni epizoddagi Xudoyorxon nutqiga xuddi tilshunos kabi roman hoshiyasida shunday bir izohni yozadi: "Xudoyor qipchoqlar ichida o'skani uchun tili o'zbekchadir. Enalaring so'zidagi "ng" harfini "ng'" ravishida qalin so'zlaydir. Bu kungi farg'ona o'zbeklarida ham (ayniqsa, qishloqalarda) yumshoq "ng" o'rnida qalin "ng'" ishlatish ko'b eshutiladir. Hozirgi isloh qiling'an harfimizda bu qalin "ng"-ning maxsus shakli yo'qdir. Yozg'anda (n-g') harflaridan bir tovush yasalsa ham, biroq o'qug'anda har kim buni o'z maxrajidan chiqarolmas, yanglish o'qur. Bu qalin "ng" o'zbekcha bir necha so'zdagina ishlatilmay ko'b (ellilab) so'zda iste'mol qiling'ani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladir. Masalan mashhurlari: zang', pang', lang', darang', qalang'i-qasang'i, dang', to'ng'uz, shang'i, to'ng'illamoq, to'ng', to'ng'uch va ang'iz, ting' boshqalar... Eski "ning" "ng" ravishida isloh qilingan. Bu yo'g'on "ng'" ham "g'" harfining ustiga uch nuqta qo'yulib yozilsamikin... (mual.)".

Yangilanayotgan adabiy til ustida bahslar, turlicha qarashlar aytilayotgan bir muhitda adibning milliy til taqdiri ustida bunday kuyunishlarining chin ziyoliga xos fazilat sanalishi lozim, albatta.

"Mehrobdan chayon"ning "Qiziqalar" faslida o'tmishdagi o'ziga xos xalq teatr san'atining namunasini tasvirlaydi. Sah-

naga olib chiqilgan qiziqchilarning qochirim va askiyalari vositasida o'zbek tilidagi so'zlarning ko'pma'nolilik jihatlarini namoyish etadi. Ba'zan bitta so'zning ichki yoki ko'chki ma'nosidan kulgi paydo bo'ladi.

Hech shubhasiz, Abdulla Qodiriyning adabiy merosi o'zbek adabiy tilining tarixida alohida bosqich sifatida qaralishga munosibdir. Chunki adibning qo'llagan so'zlari, xalq ichidan tanlab, topib olgan ta'birlari, xalqona badiiy tasvir vositalari – bularning bari hozirga qadar o'zbeklar uchun tiniq fikr ifodasiga xizmat qilib keladi.

Abdulla Qodiriyning ulkan hajmdagi romanlaridan tortib, oddiygina bir nechta qatordan iborat "bildirishnoma"larigacha – barcha-barchasida tesha tegmagan ta'birlar, o'ziga xos poetik nutqning betakror namunalari ko'rinadi.

"O'tkan kunlar"ning "Kumushning so'z o'yini" faslida adib Otabek, Kumush va Zaynabni uchburchak holda o'tirg'izib tasvirlaydi. O'sha "din adolatka buyurgan" va "ota-onaning hurmatlari ko'ndalang" bo'lgan muhit bayonida adib ikki xotinli Otabekning Zaynabga nisbatan "majburiyati"dan, ko'ngilsizligi va o'quvchini zeriktirib qo'yishidan so'z ochadi. Kumush bilan munosabatlari tavsifida esa o'quvchi zerikmaydi, yozuvchiga zavq-shavq bilan ergashadi; "chunki Otabek va Kumush ishqlarida samimiyat, yana to'g'risi she'riyat bor edi". Romanning bu kabi majzub epizodlarida adib juda noyob tasviriy so'z va iboralarni topib qo'llaydi.

Adib qahramonlarining tashqi qiyofasi tasviri uchun ham eng esda qolarlik o'xshatma so'zlar va so'z birikmalaridan foydalanadi. Otabek yoki Kumush bibining tashqi ko'rinishi tasvirida so'zlarni marjondek ipga tizadi. Adibning "nafra-ti"ga duchor bo'lgan "Mehrobdan chayon"dagi Abdurahmon domla yoki "O'tkan kunlar"dagi Jannat opa portretini chizishda ham mahoratini namoyon etadi: "Ul (*Jannat opa nazarda tutiladi* – B.K.) yerdan bichib olg'andek pak-pakana, bur-ni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, ko'zi qoqqan qoziq o'rnidek chup-chuqur, og'zi qulog'i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og'riqlarnikidek sap-sariq,

qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi. Kumushbibi o'ziga tomon kelguchi bu dahshatlik xotinni umrida birinchi marta-ba ko'rar edi. "Nima qilib yuribti bu och arvohl!" deb o'yladi. Xotin o'n adimlab uzoqdan yuziga sovuq va tushda qo'rqarliq bir kulgi tusi berdi. Dimog'i bilan "qix" etib qo'ydi". Yozuvchi bu xotinning qiyofasi tasvirida "pak-pakana, tep-tekis, chup-chuqur, sap-sariq" kabi ma'nosi orttirilgan sifatlarni, shuningdek, "q" tovushi qatnashgan qator so'zlarni g'ayrishauriy ravishda ishlatadi, ehtimol. Ustiga-ustak o'sha birgina "Dimog'i bilan "qix" etib" qo'yishidan ham xotinning ichki vahshontiyati va niyati buzuqligi anglashiladi; obraz tabiatini shu bema'ni va qo'rqunch sas bilan individuallashtiradi. Shunga o'xshash "Mehrobdan chayon" romanidagi Solih maxdum tabiatining o'ziga xosligi bayonida u birov bilan so'zlashganda, "ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda styrak va lekin to'g'ri, baquvvat o'skan soqolini tutamlab o'ng ko'zini bir oz qisib" qarashi va o'z nutqida "habba" deb qo'yishi ham ko'pchilik o'quvchilariga ma'lum gap, albatta. "Domlaning bu "habba"si nima ma'noda qo'llanilar, o'zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to'g'rida izoh ham so'ramag'an edilar. Har holda "habba - habali" yoki "ha, barakalla" bo'lsa kerak. Chunki ul bir narsadan xursand va rozi bo'lg'anda aksar "habba" deb yuboradilar". Har qanday vaziyatda ham shu bitta "habba" so'zining assotsiatsiyasidan o'quvchi tasavvurida Solih maxdumning qiyofasi aniq gavdalanadi. Badiiy ijodda topilgan va o'rnida ishlatilgan bitta noyob so'zning quvvati ham yozuvchi mahoratidan darak beradi.

Abdulla Qodiriyning asarlaridagi estetik go'zallik bevosita mahoratga, yozuvchining izlanishlari, ijodning mehnat-mashaqqati, faqat san'atkorgagina xos nazari bilan ham bog'liq. Zero, Julqunboyning o'z e'tirofiga ko'ra, u materiallarni, joylarni puxta o'rganadi; bu jarayonda eng mayda detallarga ham diqqat qaratadi. Adib yozadi: "Materialni o'rganish mahalida eng mayda narsalarga (detailarga) ham ahamiyat beraman. Masalan, men haligi o'rganmoqchi bo'lgan yerda qancha daraxt borligi, ularning qanchasi eski va qanchasi yangiligi, men

borgan mahalda o'sha daraxtlarda qanday qushlar qaysi holda qo'nib turganligi va shunga o'xshash juda mayda narsalargacha. Birinchi qaraganda, u mayda narsalar hech ahamiyatga molik bo'lmaydigandek ko'rinsa ham, keyinroq foydasi tegib qolishi juda mumkin". Tasvirning ishonchiligi uchun o'z ko'zi bilan ko'rgan bunday manzaralar yozuvchiga yordam beradi. "O'tkan kunlar"ni yozishdan avval adib voqealar kechadigan joylarni ko'radi, turli ko'chalardan yuradi, qabristonda tunaydi va xon o'rdalarini sinchiklab o'rganadi. Masalan, Qo'qon o'rdasining qopisini shunday beradi: "Ayniqsa, darbozaning ikki biqinidag'i "o'girmagul" tarzi bilan ishlangan guldastalar, darboza ravoqidag'l ganchdan qabartirilib yasalg'an bo'rtma naqshlar, gullar hali o'zlarining nafosatlarini unchalik yo'qotmag'an edilar". Juda nafis so'zlar bilan berilgan bunday tasvirlar adibning sinchkovligini anglatadi. Aniq tasavvur qilingan manzaralar tiniq tasvirlanadi; o'z o'rniga tushgan yorqin so'z yolqini tafakkur puchmoqlarini yoritadi.

Ba'zan Abdulla Qodiriy o'z asarlarida mumtoz nasrga xos saj san'atidan ham foydalanadi. Deylik, o'rdalik bir samovarchi devonani so'zlatib: "...choyxonada sakkiz yigit, o'rtasida bitta chigit; kakir-kukir etar chilim, katta-kichik unga yelim! Bu na balo, bu na qazo?..." desa, boshqa bir o'rinda - "Salomnoma"da boylarga qarata: "Maskov borib kelibon, minglab foyda qilibon, haftada gap yeyibon, tomga karnay qo'yibon; xalq qayg'usin yemayin, maktab ochay demayin; ellik-oltnish qo'y bergan, sakkiz kunlab to'y bergan - Turkiston savdogarlariga salo-o-om!..", deb yozadi. Bunda savdogarlar xarakteri o'zaro zidlashib yig'ilgan so'zlar vositasida ochiladi...

-5-

Abdulla Qodiriy Kumushni qanday tasvirlaydi? Juda beg'ubor va begidir. Agar esingizda bo'lsa, romanning avvalidayoq Kumush ruhiyatida ham g'alati bir par'ishonlik sodir bo'ladi. U ham Otabekka o'xshab allatavur bo'lib yuradi. Adib Kumush o'sha holatini juda jozibali tarzda, quyuq obrazli til bilan quyidagicha chizadi: "...uyning to'riga soling'on atlas ko'rpa, par

yostiqlik quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg'oq yotgan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yostiqlikning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuuq jinggila kiprak ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qaro kamon, o'tib ketgan nafis, qiyig' qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi...". Bu ko'chirmada berilgan Kumushning holatini tasvirlashda yozuvchi so'zlarni marjondek terгани ko'rinib turibdi.

Yoki aynan ana shu qahramonning boshqa bir epizoddagi holatini berishda ham yozuvchi bor badiiy mahoratini ishga soladi: "...Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg'ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig'a yetkanda go'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'ltirgan sohiraning sihriga musahhar bo'lg'an kabi tag'l bir kattaroq doirada aylangach, ohistag'ina ko'prik ostig'a oqib ketar edi. Ariq suvining nihoyatsiz harakatini uzoq ko'zdan kechirib o'turg'ach qo'l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi. Uning yuzini o'pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatka kelib chayqaldi, go'yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... Nozik oyoqlar toldilar shekillik, sadaf kabi oq tishlarini bir-ikki qaytalab chaydi, ariq bo'yini va uning suvlarini tashlab ketdi". Bu ko'chirmadagi "sohira"ga oid birikma so'zlari ham, "yuzini o'pib tushgan suv tomchilari" ifodasi ham, oyoqlarga qo'shilgan "nozik" sifatlashi va "sadaf kabi oq tishlar" o'xshatishi ham o'quvchini befarq qodirmaydi. Qodiriy sohir qalami ostidan chiqqan aksar qahramonlar jozibali, suyukli, ta'sirli. Chunki adib so'z so'zlashda uzoq andishaga boradi; quruq bayon o'rniga voqelikni, insonni tasvirlashni muhim sanaydi. Bevosita badiiy asarlaridan olingan misollardan tashqari adibning turli maqollarida ifoda etgan adabiy-estetik qarashlarida ham o'z konsepsiyasini teran bayon qilgan edi.

Abdulla Qodiriy fikr ifodasining qisqa va aniqligini, kam so'z bilan ko'p ma'no berish yo'sinini qadrlab, yozishda ortiqcha so'z va jummalarni qisqartirishdan saboq beradi; yozga-

nini odamning yolg'iz o'zigina tushunib, boshqaning anglay olmasligi adibga aslo ma'qul kelmaydi. Shu bois "Yozg'uvchilarimizga" nomli maqolasida: "So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak, yozg'uvchining o'zigina tushunib boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozg'uvchilik, aytmakchi bo'lg'an fikrni hammaga barobar onglata bilishda, orag'a onglashilmovchilik solmasliqdadir", deb ta'kidlaydi. Asar mantidagi har bir so'zga diqqat berib, undan "biron so'zni chiqarib tashlash yoki biron so'zni qo'shish" masalasida ham qat'iy turadi. Bular eskirmaydigan, ibratli va umrboqiy fikrlar sanaladi.

-6-

Mumtoz adabiyotshunoslikda kam so'z bilan ko'p ma'nolar bayon etish san'atiga "iyjoz" deyiladi. So'zning iyjoz maqomi Abdulla Qodiriy nasri poyetikasiga, qahramonlari nutqiga ham xos.

Otabekni ikkinchi marta uylantirish havasida yurgan O'zbek oyim bir kuni Hasanali bilan gap talashib aytadiki: "Sandek soqoli uzun, aqli qisqadan kengash so'rab o'lturg'an men ham ahmoq!". O'zbek oyimning gapga usta qilinganini qarangi, bu o'rinda xalq orasida ayollarga nisbatan aytib kelinadigan nisbiy ta'bir Hasanaliga moslanadi. Shokirbekning Otabekka evrilish sahnasi ostonasida Usta Alim: "...yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi foydalik", deb some'likka hozirlanadi. Bunday nutqda "sen" - "men", "uzun" - "qisqa", "yaxshi" bilan "yomon", "janoza" bilan "hikoya" so'zlari zidlanadi. Yusufbek hoji bir yig'ilishda: "Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi", degan gaplari semantikasi qarshilidir. Yusufbek hojining o'z nafsiga nazari, malomati va e'tirofidagi soqolining oqarishi yoki ko'ngilining qorayishi tasavvurni toza bir inson umrining yo'llari tomon yo'llaydi. Aslida, vaziyat, xarakterning kontrastli-qiyosli tasvirini romanning dastlabki sahifalarida, ya'ni karvonsaroyda Otabek tushgan hujra yoki Otabek bilan Homid xarakteri bayonidayoq ko'rinadi. Adib bu badiiy san'atdan romanda juda ko'p va o'rinni foydalanadi. Ba'zan kundoshlarning ma'naviyati, saji-

yasi har jihatdan taqqoslanadi. O'z maqsadi yo'lida yangi qahramonlarni sahnaga olib chiqish jarayoni romani oxirlab qolgani-da ham davom etadi. Adib romanning "Xushro'ybibi va Zaynab" faslidagi: "Xushro'y uzun bo'yi, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. Xushro'yning harakati yengil va lavzi tez edi, Zaynab loppos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradirg'an edi", degan opa-singillar tabiatining qiyosidan tasavvur to'lishadi.

Adib asarlarida uchraydigan "Ul turg'on joyida qoziqdek qoqilib qolg'on edi", "Kechaning qarong'lig'i ustiga mevalarning quyuyq yaproqlari qo'shilib, bu maydon ayniqsa Otabekning hozirgi ko'ngliga yaqinlashib kelar edi" kabi ifodalarda "q" tovushining takroridan, "sapol lagan bilan qovuqni olib chaqmoq surtdi. Sham yoqildi" kabi jummalardagi "l" va "q" tovushining takroridan yuzaga kelgan ohang, "Tana buzoqning turqi tuqq'anig'a tamg'a" yoki "Endi ko'rsam miltiqning o'qidek, pushti gulning to'qidek kelinim bor ekan" kabi xalqona iboralar badiiy matnga latif bir joziba baxsh etadi. Adibdan avlodlarga go'zal romanlar, ko'rkam so'z meros qoldi. O'qish va uqish – bu xazinani ardoqlash sanaladi.

Abdulla Qodiriy o'zining betakror badiiy asarlari bilan o'zbek adabiy tilining boyligini isbot etdi; o'rni kelganida sheva so'zlaridan unumli foydalandi. Adib xalq tilida qo'llanadigan "chip" so'zi uchun "g'ov, barrikada ma'nosida", boshqa bir sahifadagi dialogda kelgan "eshik" so'zini "Farg'onada hovlini eshik deydi" deb izohlaydi. Homid Jannat opaga "...guzardan chiqib bir chorak et keltirib, sho'rba qilib bersangiz" deydi. Yozuvchi "bir chorak"ni "uch yarim-to'rt qadoq chamasi toshdir" deb izohlaydi. Bugungi o'quvchi uchun bir qadoqning 409,512 grammga teng og'irlik o'lchov birligi ekanini eslatishga zarurat bor.

Boshqa bir epizodda uzoq ayriliqdan keyin qayta uchrashgan Kumush Otabekka "Siz endi qirchillabsiz!" deb aytadi. Adib "qirchillash" so'ziga: "Qirchillash, odatda, qorga aytiladur. Masalan, qattig' sovuqda yoqq'an qor qirchillaydur. Shundan olib, ayni yetilgan yigitlarni qirchillama yigit, deydi" tarzida romanning asosiy kontekstidan tashqarida izoh yozdi. Adibning

asarlarida o'zbek tilining jozibasini namoyon qilgan bunday epizodlar, jumlar, birikmalari va so'zlar izohi ko'plab topiladi.

Abdulla Qodiriy ijod ahlining o'z ona tili va qo'shni millatlar tilini bilish xususida: "Yozuvchi o'z xalqining tilini, folklorini kamol o'rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qo'shni tillarni bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asari jonlanadi", deb yozadi...

-7-

Abdulla Qodiriy romanlarini o'zbek adabiy tilining zamona-viy ko'rinishda shakllanayotgan bir davrda yozdi. Adabiy tilning rutbasi, maqomi yuksalishida adibning xizmati katta bo'ldi. Til millatni birlashtiruvchilik qudratiga ega qadriyatdir. Qodiriyshunos olimlar fikriga e'tibor berilsa, Abdulla Qodiriy toshkentlik bo'la turib o'z romanlarida mahalliy sheva unsurlarini umuman qo'llamaydi. Hatto qahramonlarining nutqini individuallashtirishda ham boshqa badiiy vositalardan foydalanadi. Demak, adib shu zayidi bor mahorati bilan o'zbek adabiy tilining boyligini, o'zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish ham qiladi. Abdulla Qodiriy o'z vaqtida: "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonlikdarni o'zbek tiliga to'nkamasinlar", degan fikrni aytgan edi. Aynan o'zbek tilining naqadar boy imkoniyatlarga egaligini asarlari bilan isbotladi. Ma'rifati bir ziyoli sifatida o'zbekning so'zi uchun, adabiy tilning istiqboli uchun qayg'urdi. Bu chin haqiqatni biz har doim esda tutmog'imiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o'z asarlarida juda unumli va o'rinli foydalandi. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o'zbek adabiy tilining go'zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o'z aksini topdi. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy ba'zan filolog olimlarga xos qimmatli adabiy-nazariy qarashlari bilan ham o'zbek adabiy tilining takomiliga xizmat qildi. Bu benazir adabiy-ilmiiy xizmatlarni o'zbek olimlari bilan birga xorijlik mutaxassislar ham e'tirof etdi.

CHO'LPON ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Abdulhamid NURMONOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

O'tgan asrning 20–30-yillari hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanish davri hisoblanadi.

XX asrning boshlarida jadidchilikning paydo bo'lishi o'zbek xalqi hayotiga yangi ruhni olib kirdi. Jadidlar taraqqiyotga erishishning bosh yo'li ma'rifat ekanligini his qilgan holda, birinchi navbatda, yangi tipdagi maktablar tashkil etish, dunyo yangiliklarini xalq o'rtasida tezroq targ'ib qilish, kishilarni g'aflat uyqusidan uyg'otish uchun matbuotni rivojlantirish, taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan illatlarni fosh qilish uchun teatr san'atini barpo etish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar.

Matbuotning yo'lga qo'yilishi hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay imkomiyat yaratdi. Matbuotning rivojlanishi zsa adabiy til me'yorlarining ishlab chiqilishiga katta ehtiyoj tug'dirdi. Shuning uchun o'zbek xalq tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zbek adabiy til me'yorlarini belgilash 20–30-yillar uchun eng dolzarb vazifa edi. Bu vazifani yechish esa, eng avvalo, matbuot zimmasiga tushardi. Chunki bu davrgacha Alisher Navoiyning adabiyot olamidagi katta obro'-e'tibori tufayli uning asariga naziralar bag'ishlash, til uslubiga ergashish natijasida klassik o'zbek adabiy tili vujudga keldi. Nazmiy asarlar ana shu an'ana asosida klassik adabiy tilda yozildi. Bu adabiy til esa jonli so'zlashuv tilidan ancha uzilgan, shuning uchun ham keng xalq ommasiga uchun tushunarsiz edi. Bu tilni tushunish uchun ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lish kerak edi.

O'tgan asr boshlarida Markaziy Osiyoda Chorizm zulmiga qarshi norozilik harakatlari kuchaydi. Uzoq davrlar mudrab

yotgan xalq qo'zg'ala boshladi. Tili, dini, e'tiqodi, ma'naviy qadriyatlarini tahqirlangan xalqning ziyolilari harakatga keldi. Turkiya, Eronda ta'lim olgan va u yerdagi siyosiy harakatlar og'ushida pishib yetilgan bir guruh ziyolilar o'z yurtiga qaytib, millatining kelajagi uchun kurasha boshladi. Turkiyzabon xalqlarni birlashtirish, ularda o'z millatiga, o'tmish madaniyatiga, tili va ma'naviy merosiga mehr-muhabbat, faxr-iftixor ruhini tug'dirishga harakat qildilar.

1916–1917-yillarda bir qancha siyosiy guruhlar, partiyalar tuzildi. Bir qator gazetalar nashr etilib, vatanparvarlik, milliy o'z-o'zini anglash g'oyalari targ'ib qilindi. Ana shunday nashrlar orasida «Turk eli», «Turk so'zi», «Ulug' Turkiston» gazetalar alohida ajralib turar edi. Xususan, «Turk eli» gazetasining 1917-yil 4-oktyabr sonidagi bosh maqolada o'zining ajoyib tarixiga ega bo'lgan Turkiston ellik yil chorizm iskanjasida xonavayron bo'lgani, dunyo madaniyati xazinasiga Ibn Sino, Forobiy, Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalarni, sohibqiron Amur Temurdek buyuk harbiy sarkardalarni yetkazib bergan xalq bosqinchilar zulmi ostida qo'rquv va dahshatdan tarixni unutmaganligi, o'tmishidan g'ururlanish hissini yo'qotganligi afsus va nadomat bilan bayon qilinadi. Shuning uchun ham mudrab yotgan xalqni uyg'otish bosh vazifa qilib qo'yildi. Milliy uyg'onish bayroqdorlari sifatida Ismoilbey G'aspirali g'oyalari bilan ilhomlangan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitratlar yetakchilik qilgan jadidlar maydonga chiqdilar. Bu oqim Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari adiblarni ham o'ziga birlashtirdi. Jadidlar turkiy xalqlarning o'tmishdagi madaniy va ma'naviy hayotdagi obro'-e'tiborini tiklash, buning uchun yangi tipdagi maktablarni ochish, iqtidorli yoshlarni Ovro'padagi oliy o'quv yurtlarga yuborish va yuksak fan yutuqlarini egallash orqali yurti ozod va obod qilishni o'z oldiga ezgu maqsad qilib qo'ydilar.

Bu davrda adabiy til muammosi ham muhim masalalardan biri edi. O'zbek mumtoz adabiyoti tilida ko'plab arabiy va forsiy so'zlar qo'llanilar, bular ko'pchilik uchun qay yo'sinda ketishini belgilash zaruriyati ko'ndalang turar edi. Bir gu-

ruh ziyolilar barcha turkiy tillarni birlashtirish, umumturkiy tilni barpo etish g'oyasini olg'a surdilar. Bu g'oyani birinchi bo'lib Ismoilbek Gaspıralı ko'tarib chiqdi va Bog'chasaroyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi orqali o'zi ommalash-tira boshladi. Peterburgda nashr etiladigan «Ulfat» gazetasi-da ham Ali Qo'rqud va Kenjaboylar umumturkiy adabiy tilni yaratish g'oyasini ma'qulladilar. Oltmish-yetmish millionlik turkiy xalqlar o'tmishda bir ajdoddan tarqalganligi, bir-biri-ning tilini oson tushunishi, agar umumturkiy gazeta-jurnal-lar omma o'rtasida keng tarqalsa, bu til ommalashib ketishi-ni bayon qildilar. Ana shu g'oya ostida bu gazetalarda bosil-gan maqolalarda tatar, usmonli turk tiliga xos xususiyatlar ko'proq aks etdi. Mashhur sharqshunos Herman Vamberi ham bu g'oyani ma'qulladi.

Cho'lpon, Fitrat kabi adıblar dastlab ana shu panturkistik g'oyalar girdobida bo'ldi. Shuning uchun ularning 1920-yil-largacha bo'lgan asarlarida tatarcha, turkcha elementlar ko'p uchraydi.

*«Men o'zim ikror qilarg'a teyishmankim, uning o'zini
na yo'nalishini tegishinchi tanqid va takriz qiluvni men
bajarolmayman» («Chin sevis»).*

*Bola yanglig' qator-qator chizilib,
Ko'k yuzidan qarg'alar ham o'talar.
Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,
Ko'p jonlilar so'nggi tinni kutalar.*

(«Ko'z»)

Yoki: O'g'uz guruhiga kiruvchi turk tiliga mansub shakllar ishlatiladi:

*Qora bulut to'dasi kim ko'klarni,
Sharqni yopgan parda yanglig' yopmishdir.
Ko'z qo'shini og'u bulut o'qlarni
Yoz bag'riga hech sanoqsiz otmishdir.*

(«Ko'z»)

Bunday shakllar Fitrat, Hamza asarlarida ham keng qo'l-laniladi. Masalan, Fitratning «Sarf» asarida quyidagi jumlani

o'qiyimiz: "Ko'p so'zlarni yozuvchilarimiz hech narsa sezmasdan shu yo'lga keltirib yozalar".

Lekin keyinchalik turkiyzabon xalqlarning har qaysisida o'zlariga xos til xususiyatlari borligini, ularni orqaga qaytarib bo'lmashligini anglaydilar. Shuning uchun Fitrat rahbarligidagi bir guruh ziyolilar «Chig'atoy gurungi»ga birlashdilar. «Chig'atoy gurungi» deb nomlangan ijtimoiy-siyosiy oqim vakillari o'zbek tilining istiqboli uchun, uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun kurasha boshladilar.

Cho'lpon ham bu oqimni ma'qulladi. Xususan, shoir bu haqda yozadi: *«Orag'a «Chig'atoy gurungi» degan nom bir jamiyat chiqib qoldi. U jamiyatga mansub kishilar tilni soddalashtirmak maqsadini asos qilib ushlaganlari holda o'zbek adabiyotining tugallanishiga ham katta ahamiyat berdilar»*. («Tarixning zararli takarruri») «Umumturkiy til» g'oyasini targ'ib qilayotgan gazetalarga ochiq salbiy munosabatini bildiradi, *«Yaqinda» Qo'qon (Farg'ona muzofatining poytaxti) shaharining ko'chalarida bir xitobnoma qadar uzun, Buxorodagi «Anas» yoki «Ulug' Turkiston» gazetasining «Kurama» bir tilida e'lon o'qidim* («Tarixning zararli takarruri»).

Uzoq vaqtlardan buyon an'ana bo'lib kelayotgan ta'lim tizimi XX asr boshlariga kelib ilmiy texnika talablariga javob bermay qoldi. Umumxalq nutqidan uzilgan badiiy adabiyot tili keng xalq ommasi uchun tushunarsiz va yangi adabiyotning turli janrlarida ijod qilishga imkonsiz edi. Buning uchun bugungi va ertangi kun talablariga javob beradigan yangi ta'lim tizimini, yangi adabiyotni, yangi o'zbek adabiy tili shakllantirish jadidlarning asosiy maqsadi edi. Bu haqda Cho'lpon shunday yozadi: *«Eski adabiyot bilan yangi adabiyot o'rtasida qolg'on Sharqli yosh chinakam chuchmal bir vaziyatdadir. Eski adabiyot bir shirin, yangisi yana shirin, g'arbniki tag'in yana shirin. Bizning o'zbeklar uchun hali hozircha u xil chuchmallik yo'q. Nimaga desangiz, o'zbeklar eskidan (hech sababsiz) arazlag'on, xafa, yangiga endigina suqilib kirmoqda. U adabiyot maydonida yangilikka nisbatan yosh bola, go'dak, chaqaloq; eskilikka nisbatan yetim, kimsasiz...*

Navoiy, Lutfiy, Bayqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqumiylarni o'qiymen:» bir xil, bir xil, bir xil!

Ko'ngil boshqa narsa-yangilik qidradir: Botu, G'ayratty, Oltay, Oybek, Julqunboylarni o'qiymen, quvontiradir, xolos! Ular mening uchun yong'on chiroqlar bo'lsa ham, mening ertam uchun» («Ulug' Hindiy»)

Yangi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi kerak? Arab, fors va ovro'po tillaridan so'zlar olish kerakmi yoki yo'qmi? Fitrat va Cho'lponlar bu nihoyatda dolzarb va favqulodda muhim masala bo'yicha ham o'z qarashlarini bayon qildilar. Xususan, Fitrat bu haqda yozadi: *«Turk tili dunyoning eng baxtsiz tildir. Turkchanning baxtsizligi arab bosqini bilan bog'lanmishdir. Arablar bosdiqlari o'lkaga yolg'iz xukumatlarni emas, dinlarini, yo'sinlarini-da tanitg'on, oling'on edilar. Musulnonlikning tubi, tomiri Qur'on bilan Hadisdir. Shuning uchun yangi musulmonlar arabcha o'rganishni o'zlariga vojib deb bildilar, o'qidilar, sevdilar. Bundan keyin forscha va turkcha, arabcha bo'g'uviga kirib qoldilar. Fors tilning holi butunlay yomonlashdi. Forslar o'z tillarini tashladilar. Lekin bu ish ko'p cho'zilmadi. Fors tili bir silkinish bilan o'zini arab bo'g'uvidan qutqara oldi..»*

Dunyoning eng boy tili bo'g'on turkchamiz yolg'iz arabcha qumruqlari (zug'um) bilan emas, forscha tepkilari bilan dag'i ezilmishdir» («Tilimiz»).

Turkiylardan yetishib chiqqan va dunyoga dong taratgan Ibn Sino, Forobiy, Javhariy, Jaloliddin Rumiy, Nizomiylar o'z asarlarini ona tillarida yozmaganidan o'kinadi. Agar ular turkcha yozganlarida turk tilining obro'yi boshqacha bo'lishi mumkinligini bayon qiladi.

Turkcha o'zini arab va fors tillarida qutqara oladimi, degan savolga qutqara oladi deb javob beradi. Bunga turkchanning arabcha va forschadan leksik, grammatik imkoniyatlarining qolishmasligini dalil qilib keltiradi.

O'zbek tilining, avvalo, o'z ichki imkoniyatlari asosida ifodalash mumkin bo'lmasa, boshqa tillardan so'z olish asosida, shunda ham olinma so'zlarni o'zbek tilining xususiyatiga moslashtirish yo'li bilan rivojlantirish lozimligini ko'rsatadi.

Masalan, «Hozirgi soʻzlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydur. . . Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Ularni olurmiz, lekin oʻzimizniki qilurmiz. «Qoida»ning turkchasi yoʻqdir. «Sarf»ning turkchasini topolmadik, ikkinchisini dagʻi olurmiz. Lekin «Qavoidi sarfiya» demasdan «Sarf qoidalar!» dermiz» («Tilimiz»).

Oʻzbek adabiy tilining dialektal asosi masalasi ham eng chiqarilgan masalalardan edi. Gʻozi Olim Yunusov rahbarligidagi bir guruh ziyolilar qipchoq shevalari adabiy til uchun tayanch boʻlishi lozimligi, oʻzbek abadiy tili singarmonizmni oʻzida namoyon etishi kerakligini bayon qildilar. Fitrat ham oʻzbek tovushlarini yoʻgʻon va ingichka tovushlarga boʻlgani holda, yoʻgʻon tovushlar ingichka tovushlar oldida kelolmasligini koʻrsatadi. Darhaqiqat, deyarli barcha oʻzbek shevalarida soʻzning birinchi va ikkinchi boʻgʻinlarida bunday mosliklar bor. Lekin shahar tipidagi oʻzbek shevalarida oʻzakdagi tovushlarning qattiq-yumshoqligi affikslarga koʻpincha taʼsir etmaydi. Fitrat esa qoʻshimchalarni ham oʻzak tarkibidagi tovushlarning qalin-yumshoqligiga muvofiq ravishda qoʻshilishini tavsiya etadi. Masalan, «*Yuqoridagilargʻa oʻxshagʻon koʻb soʻzlar...*

Til siyosatidagi bunday yoʻnalish Choʻlpon asarlarida ham oʻz izini qoldirdi. Masalan, *Koʻklam yerning tinch uygʻusi buzulgʻon*.

Oʻzbek adabiy tilining leksik tarkibini ichki imkoniyatlari asosida boyitish maqsadida bir qator dialektal soʻzlarni ham sheʼriy asarlarida qoʻlladi:

*Endi noz qilma,
Nozlanib kulma!
Kel, labimga kell
Bir ozroq egil.
Bir yayrab oʻpay!
Shunga esirib
Ruhing kirib
Koʻklamga yetay.*

(“Kuz guliga”)

O'sha vaqtlarda ham nippa-ninazin shoir bo'lg'on bu buyuk zot... («Ulug' Hindiy»). *O'z tirikchiligiga oid kitobida o'zi shunday yozg'ondan keyin tong'irqob hayron yoqasini ushlab qoldim* («Ulug' Hindiy»).

Ba'zan grammatik shakllarning tarixiy variantini olib kiradi:

Uchadir, uchadir ming kabat ko'kni,

Bir boshdan siypalab o'taveradir.

Zerikmay, erinmay ketaveradir.

(«Men shoirmanmi?»).

Hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari endigina shakllanayotgani uchun ega shaxs bildirmaydigan so'zlardan ifodalangan-da ham sonda kesim bilan moslashtirish holatlari uchraydi:

Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar,

Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek.

yoki

Qushlar qocharlar,

O'lim dahshat bilan har bir bo'shliqqa quchoq ocharlar.

Lekin 20-yillarning boshlaridayoq Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy asarlari orqali hozirgi o'zbek adabiy tili shakllanib, sayqallanib borganligining guvohi bo'lib qolamiz.

Masalan:

Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman.

O'ynagan boshqalar ingragan menman,

Erk ertaklarini eshitgan boshqa,

Qullik qo'shig'ini tinglagan menman...

(«Men va boshqalar»)

Shuningdek, «Boshqarmaga xat», «Katta maktab egasi» singari publitsistik asarlarining tili leksik, grammatik jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tiliga to'la muvofiq keladi. Bu esa hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishida Cho'lponning o'rni benihoya katta ekanligidan dalolat beradi.

Shuning uchun hatto Cho'lponning ashaddiy dushmanlari ham uning tili g'oyat jozibador, sodda, ta'sirchan ekanligiga tan beradilar va hozirgi o'zbek adabiy tilining namunasi ekanligini e'tirof etadilar.

SO'Z MUSAVVIRI

Suvon Meli,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

“Men o‘zbek shoiriman, o‘z xalqimning tiliman”, deb yozgan G‘afur G‘ulom bu gapda faxr-g‘ururdan tashqari uning zamirida juda katta yuk borligini ham nozik fahm etgan. O‘z xalqi tilini butun nafasatu ifori bilan bilishda XX asr o‘zbek adabiyotida u benazir edi, deyilsa mubolag‘a emas. Xalq tili va mumtoz adabiyotimizga xos ko‘plab hamma ham bilavermaydigan so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash, shunday qo‘llash oqibatida badiiy matn, poetik manzara va ifoda yaratish akademik shoir she‘riyatining xos belgilaridan bo‘lsa, ajabmas.

Yirik bolalar shoiri va adib Miraziz A‘zam “Xotiralar” kitobida ardoqli shoirimiz Mirtemir o‘z asarlarida ishlatgan, aramo izohli lug‘atimizga kirmagan bir necha so‘zlarni keltirib, haqli ravishda yozadi: “Bu so‘zlarning barchasi bir-ikki o‘tirishda ko‘zimga chalinganlari, xolos. Menimcha, lug‘atchi olimlarimiz “Navoiy asarlari lug‘ati” tuzganlari kabi “Mirtemir asarlari lug‘ati” ham tuzishsa, turkiy tilimizning boyligini ko‘rsatuvchi bir vatanparvarlik burchini ado etgan bo‘lardilar” (T.: Muharrir, 2019-yil. 82-bet).

Bu fikr G‘afur G‘ulom ijodiga ham taalluqli. Shoir va adib qo‘llagan so‘zlar, u xoh biror tor sohaga tegishli bo‘ladimi, xoh mavjud so‘zlar asosida yasalgan yangi so‘z, neologizmlar bo‘ladimi, hamisha badiiy niyatga, poetik maqsadga xizmat qiladi. Mana, alloma vafotidan keyin chop etilgan to‘rtlik:

*“Dunyo qo‘ling kiridir”, deganlari rost axir,
Qo‘lom, to‘pol qoladi zargarning ko‘rasida,
Millionerdan so‘rasang maydasi yo‘q bir paqir,
Brilliant – ko‘mir demak atom gilbo‘tasida⁵⁵.*

⁵⁵ G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. 2-tom. Toshkent: Fan. 1984. – 368 b.

Sof fanniy til bilan aytsak, bu yerda tanosib, biri-birini izohlovchi, to'ldiruvchi to'rt hodisa va fikr yonma-yon qo'yilgan. Lekin ularning orasida bittasi, birinchisi, to'rtlik badiiy g'oyasini hosil qilishda yetakchilik qiladi. U shoirning ixtirosi emas, bu hikmat xalqimiz orasida mashhur. Shoir uni tasdiqlaydi, xolos. Ammo undan keyin keladigan tanosib misralar ilk misradagi xalq donishmandligining yangi-yangi falsafiy qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Avval to'rtlikdagi ko'pchilikka notanish so'zlar haqida. "Qo'lom" zargar ishlatadigan metallardan qolgan qirindi parchalarini anglatrsa, "to'pol" esa "O'zbek tilining izohli lug'atida" qizigan temir, mis, qo'rg'oshin kabilarga ishlov berganda to'kiladigan zarra, kukunni anglatuvchi maxsus atama "to'pon"ning o'zgargan shakli, shekilli. "Gilbo'ta" esa izohli lug'atda "gilvata", ya'ni yumshoq, kulrang tog' jinsi, gilmoya tarzda izohlangan geologiya faniga oid so'zning boshqacha shakli bo'lsa ehtimol.

U yoki bu adibning tilga, so'zga munosabati haqida gapirar ekanmiz, avvalo tildan qanday foydalanadi, bunda asosiy narsa, so'z orqali badiiy matn yarata oladimi, ishlatgan har bir so'zi o'z o'rniga tushib, o'zidan kattarib, jilolanadimi, kitobxon qalbi shuuriga nur olib kira oladimi? Ushbu savollar juda muhim va ularga javob ijobiy bo'lgan taqdirdagina shu adibni mohir so'z ustasi, so'z san'atkori deya olamiz.

G'afur G'ulom so'z san'atkori edi.

Endi to'ralikka qaytsak. Uning ma'nosi, badiiy g'oyasi nima? Xalqimiz boylik, mol-davlatni ko'zda tutib, dunyo - qo'lning kiri, der ekan, bunda bani odamni boylikka ruju qo'ymaslikka, tiriklikdan maqsad yolg'iz mol-davlat emasligiga, ilohiy qadriyatlar, Abdulla Oripov "Chorlash" she'rida yozganidek, "Yorug' xayol, samoviy o'tlar" mavjudligiga da'vat etadi.

Alloma shoir ham aynan shunday fikrda, uning haqiqat ekanini ("rost axir") qat'iy ta'kidlaydi. Ilk misra asarning leytmotivi, yo'l boshlovchisidir. Keyingi uch misrada sirtidan qaraganda arzimmas narsalar - to'pol (kukun), bir paqir va ko'mir qimmatbaho ashyolar oltin (zargar asosan oltin bilan

ish ko'radi), millionlar va brilliantga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu ziddiyat, aytilganidek, "Dunyo qo'ling kiridir" hikmati shu'lasida tipologik qiyos asnosida falsafiy-hissiy ma'no oqimini vujudga keltiradi. Ya'ni dunyoga, boylikka mehr qo'yma, alal-oqibat ularning barchasi arzimas matohlardir, degan badiiy ma'no ong-shuurimizda tiklanadi, jilolanadi.

Faqat to'rtinchi misra biroz tushunarsizday – brilliant qanday ko'mir bo'lsin. Gap shundaki, brilliant tarashlangan va sayqallangan olmos bo'lib, lug'atda qayd etilganidek, "Tabiatda uchraydigan grafit va ko'mirni tarkiban olmos deb atash mumkin"⁵⁶. Shunda ma'no joy-joyiga tushadi. Moddalarning atom o'lchovida, shoir ta'biricha, gilbo'tasida ishlov berilgan olmos, ya'ni brilliant tarkiban va mohiyatan ko'mirdir va **oliy o'lchamlarda** brilliantning oddiy ko'mirdan farqi yo'q. Ko'mircha qadri ham yo'q.

Yana bir gap. Uchinchi misra: "Millionerdan so'rasang, maydasi yo'q bir paqir" aytib o'tilgan tipologik qiyos qatorida qanday ma'no anglatishi biroz mubham. Lekin donishmand shoir bunda qandaydir nozik nuqtani ko'zlaganki, uning yechimi haqida o'ylashni zukko she'rxonlar ixtiyoriga qoldirsak deymiz. O'zimiz ham o'ylaymiz, albatta.

G'afur G'ulomning yangi so'z, oxori to'kilmagan iboralar qo'llashiga yana bir misol. Shoir bolalar uchun yozgan "Ola buzoq" she'rini shunday yakunlaydi:

*Katta bo'lsin ola buzog'im,
Ovunchog'im, erkam, ma'rog'im.*

Izohli lug'atda "ma'ramoq" bor, lekin "ma'roq" (ko'p ma'raydigan, ma'rong'ich) so'zi yo'q. Umumiy tilshunoslikdan ma'lumki, til qonuniyatlariga mos ravishda yasalgan har bir yangi so'z zehniyatimizga ta'sir qilib, tafakkur doiramizni kengaytiradi. Katta ijodkorlar bu haqiqatni yaxshi bilishgan, aniqrog'i his qilishgan.

Yana bir misol. Adibning "Qayda baxt" deb nomlangan bir pardali komediyasi bosh qahramoni shoirtabiat quvnoq yigit,

⁵⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. 1-jild. 512-bet.

asarda uning binoyiday bir g'azali berilgan, Sattor onasiga qarata deydi: "Qarilik o'qsiz kamonga o'xshaydi. Na uning urib olguday ovi, na mo'ljal olgan nishoni bor. Mening yuragimda bo'lsa umid, xuddi qayanorning donasiday kun tiqin"⁵⁷.

Bundagi "qayanor" nima, anorning turimi yoki biror belgisi? Yoki tiqin tushunarli, lekin "kun tiqin" nima yoki qanday tiqin? Shu yerda shoirning tiqin so'zi ajabtovur qo'llangan ("Birinchii dars" she'ri) bir tashbihini keltirishdan o'zimni tiyolmadim:

*Sinflarda bo'sh parta yo'q,
Mag'zi tiqin anoday.*

Bolalarga liq to'la sinfni bundan o'tkazib tasvirlash qiyindir-ov. Bolalar va anor donalari – naqadar tansiq o'xshatish.

Adabiyot, xususan she'riyatning birdanbir quroli – so'z. Bu, albatta, yangi gap emas-ku, lekin uni turlicha sharhlash, cho'tka va moybo'yoq orqali chizsa, tasvirlasa, shoir ixtiyorida yolg'iz so'z bor. Demak, she'riyat olamni so'z orqali chizish, so'z orqali kitobxon tasavvurini jonlantirishdir.

G'afur G'ulom yuksak minbarlarda ovozni baralla qo'yib o'qiladigan she'rlar muallifi bo'lishi bilan bir qatorda nafis tuyg'ular va go'zal tasvirlar shoiridir. U so'z musavviridir.

Shu yerda qistirma bir gap. Bo'yoqlar tarkibidagi rang har qanday rassomga bo'yin egmay, yo'rig'iga yuravermaganiday, so'z ham hamma qalamkashga bo'ysunavermaydi. Rang ham, so'z ham o'z ijodkorini, ya'ni rang rassomni, so'z shoirni sevmog'i lozim, shekilli. Ikki taraf bir vujudga aylanishi kerak, hoynahoy.

Vaholanki, sirdan qaraganda, rang ham, so'z ham hamma-ga birday tegishlidir. Bunday emas, shekilli.

Shoir "Bog'" deb nomlangan 1934-yilda yozilgan she'rida kuz, pishiqchilik pallasidagi o'zbek bog'ini, undagi sarxil mevalarni shunday jonlantirib tasvirlaydiki, siz xuddi sevgi musobaqasida ishtirok etayotgandek his qilasiz o'zingizni.

⁵⁷ G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 5-tom. Toshkent: Fan. 1986. 248–249-betlar.

Ushbu bandda faqat oxirgi misralarga kelibgina gap pishib yetilgan husayni uzum haqida ketayotganligi ayon bo'ladi.

*Ko'z suzilgan, lab cho'zilgan, sevgi uyg'ongan chog'i,
Bilmadim do'ndiq bu qizning qancha ermish barmog'i,
Yutqinib olgan o'pishlarning yo'qotdim salmog'in,
Har butoq zumrad kabi ko'k, osmon rang yaprog'i,
Qistasa "sev!" deb husayni, sevmayin qolg'aymi men?*

Ishkomda g'arq pishib sollarib turgan husayni uzumning mukammal badiiy tasviri emasmi bu. Tasvir dinamikasiga e'tibor bering. Odam, ya'ni yetilgan yosh qizga mengzalgan tasvirlar sof maishiy holat, uzumni tanovul qilish bilan uyg'unlashib go'zal hayotiy-ishqiy manzara hosil qilmoqda.

Yana shu she'rdagi boshqa uzum na'vi haqidagi band:

*Yaxshi qizlar, o'rtangizda kim yo'qotdi labda rang.
Bir kelib bu bog'dagi "o'g'ri" shivirg'ondan so'rang.
Donalar bo'lg'in, to'lalikdan tiqindir, po'sti tang,
Uchraganda har kishi ham istagin bosgay arang,
Ul meni "yorim" deganda – "yo'q" deya qolg'aymi men?*

Butun she'r va ushbu bandni kuzatganda dastlab ko'zga tashlanmaydigan, ammo yangi kuzatuvda yaqqol namoyon bo'ladigan bir tagmatn yuz ko'rsatadi. Bog'dagi holatlar, mevalar tasviridan muttasil ishqiy motivlar "xayol ko'z gusidan" ("Sen yetim emassan" she'ridagi ibora) o'ta boshlaydi.

Banddagi dastlabki ikki misrada nozik bir lutf, tashbih ishlatiladi, yaxshi qizlar labidagi rangni to'q qizil libosdagi qora uzum – shivirg'on o'g'irlab olibdi. Qiz labidan o'g'irlangan rang. Va bunday rangdagi uzum bo'lg'in, tiqin va po'sti tang bo'lmasligi mumkinmi? Hamda har ko'rgan kimsa undan to'tingisi kelishi tayin. Uning o'zi tatinishga chaqirmoqda-ku o'z balog'ati bilan. Shuning uchun – "Ul meni "yorim", deganda – "yo'q" deya qolg'aymi men?"

Men shu yerda bandni o'z so'zlarim bilan bayon qildim, shu shartmi, deyishlari mumkin. Bunda poetik matn qa'ridagi ayrim yashiriqlar ochiladi, deb umid qilaman.

Shunday qilib, uzumzor bog'ning, balki bir oshkomning musavvirova tasviri ishqiy motivlar bilan vobasta kechadi. Shunga o'xshash holat shoirning 1948-yilda yozilgan "Kuzgi ko'chatlar" she'rida ham yuz ko'rsatadi.

*Tevarakka jovdirab, nimanidir chuldirab,
Erigan shisha kabi tiniq oqar irmoqlar.
"Bog'aro yolg'izim", deb yondosh ko'rib, erkalab,
Bag'riga singib borur halqa-halqa buloqlar.*

Ham hayotiy manzara, ham o'ta nozik chizgilar-la chizilgan yengil oshiqona tasvir. Agar bu tasvirni mantiq tiliga ko'chirib, sharxlay boshlasangiz, uning inja tarovatiga putur yetkazgan, Shoh Mashrab yozganidek, "Bu ishq sirrin" bayon etishga behuda uringan bo'lasiz. Lekin bir gapni aytmoq joizdir. Tabiatdagi narsa-hodisalarni ishqiy nigohda ko'rish va kuzatish G'afur G'ulomning o'ziga xosligi hamda uning yuksak jahoniy iste'dodidan darak beradi.

Shunday qilib, uzumzor bog' va "kech kuz tongotari"dagi dala-bog'ning musavvirova tasviri ishoraviy ishqiy motivlar bilan vobasta kechadi. Bundan jahoniy, hozirgi atama bilan aytganda global ma'no kelib chiqadi. Olamdagi har qanday hodisa ishqiy status, maqomga ega. Yuqoridagi tasvirlar shunchaki ulug' shoir xayolotining mevasigina emas. Balki yalpi, butkulumumiy qonuniyat. Shoirning "Yodgor" qissasi so'ngida kuchli zarb bilan aytilgan "Ey ishq. Muncha ham qudratli!" shu yerda ham o'rinni. Butun borliq va mavjudotni o'ziga bo'yinsundirgan fizika fanidagi ulug' qonunlardan biri butun olam joziba (ko'pincha "tortishish" so'zi ishlatiladi) qonuni yalpi ishqning aniq qonuniy zuhuroti emasmi?

"Bog'" she'rida, xususan, "Kuzgi ko'chatlar"da ushbu buyuk qonuniyat go'zal va nafis, badiiy ko'rk va libos bilan o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda biz ishqiy motivlar haqida so'zlar ekanmiz, bu albatta tasavvufning muhim maqomlaridan biri bo'lmish Ishq emas, lekin unga butkul begona ham emas. Yuksak ilohiy maqomga ega bo'lgan tasavvufiy ishqning quyi, issiq insoniy

tuyg'u bilan orolangan hosqichi bo'lsa, ajabmas. Daryo buloq va irmoqlardan, tog' ham qum zarralari, kichik-katta toshlardan bunyod bo'lganidek, Ishq ham dastlab nozik, inja insoniy tuyg'ulardan qaror topadi va so'ng o'zining haddi a'losiga yuksaladi.

Hazrat Navoiy o'zining "Lison ut-tayr" dostoni debochasi-da, "O'ylakim, dushman yaratib o'tqa so'v, yelni ham tufroqqa aylab aduv" deb yozgan va "mundoq to'rt zid" butun borliq hayotini hosil qiladi esa-da, ular o'rtasida, ya'ni chor unsur – suv, havo, olov va tuproq orasida muayyan birikish, ishqiy holatlar mavjud. Shunday zidlik va muvofiqlikdan bunyod bo'lgan aslida dunyo.

Ushbu buyuk haqiqatni shoir juda nozik nuqtalarda jonlantirib tasvirleydiki, butun borliqning doyasi ishq degan ulug' haqiqat faqat aqlimizga emas, tuyg'ularimizga ham o'r-nashadi.

Mana sizga inja badiiy tasvirlar zimnidagi falsafa.

Yana "Kuzgi ko'chatlar" she'rida bitta so'zning tasvir va ifoda salohiyatini kuzataylik:

*Hu... Shudgor etagidan shu tomonga yo'l olur,
Irg'ayday tetik, lobar bog'bon Mirshakar ota,
Uzun-uzoq soyasi go'yoki reja solur,
yelkada ketmon bilan besh-o'n ko'chat, albatta.*

Geometriya va tasviriy san'atda perspektiva degan atama bor. U "narsaning, u tekislikda kuzatuvchidan, kuzatuv nuqtasidan uzoqlik darajasiga ko'ra haqiqatda qanday ko'rinsa, xuddi shunday tasavvur beradigan tasviri"⁵⁸ni anglatadi. Ushbu bandeda uch nuqta bilan tugallangan birgina "Hu..." so'zi ayni shunday perspektivavni hosil qilib, she'r sahniga kuzatuvchi, ya'ni muallif, shoirni olib kiradi, o'rtadagi ma'lum masofani belgilaydi. Bunda uch nuqta (...) ham muayyan badiiy vazifa bajaradi. Buning ustiga bu so'z she'rda bir holat tugallanib, tamom boshqa tematik holat boshlanayotganini urg'ulaydi. Ya'ni "She'r sahniga hazrati inson – bog'bon Mirshakar

⁵⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildlik. 3-jild. Toshkent, 2007. 248-bet

ota kirib keladi. Shu banddan boshlab she'rning birinchi yar-midagi kamhafsala holat barham topib, uning o'rnini tetik kayfiyat egallaydi"⁵⁹. Asarning bu yog'ida endi gap Mirshakar ota va uning ham kech kuzda, ham umr kuzida ekadigan ko'-chatlari haqida boradi. She'r so'ngida yana bir evrilish sodir bo'ladi – Mirshakar ota va u ekib voyaga yetkazajak daraxtlar go'yo yagona vujudga aylanadi:

*Shunda Mirshakar ota, siz qomati shamshodlar,
Naslarning boshiga chinorday solur soya.*

Ular, ya'ni Mirshakar otaning ruhi ko'chgan daraxtlar birga-likda nasllarni meva bilan siylab, ham jaziramadan saqlaydi.

Yana "Hu.."ga qaytsak. Shoir bir she'rini "Bir salomning ku-chi" deb nomlangani kabi o'rniga tushgan birgina so'zning ku-chini ko'ring. Qizig'i, Izohli lug'atda bu so'zga maxsus izoh beril-may, u "hov" bilan "aynan" degan belgi qo'yiladi. Agar shunday bo'lsa she'rdagi "hu.." o'rniga "hov"ni qo'yib ko'ring-chi tasvir qanday buzilishiga guvoh bo'lasiz. Chunki ochiq bo'g'in "hu.." yopiq bo'g'in "hov"ga o'zgarganda maydon torayadi, daladagi kenglik go'yo yo'qqa chiqadi. Aynan "hu.." uzoqdagi kimsa yoki narsaga ishorani shakllantira oladi.

G'afur G'ulomni so'z musavviri deyar ekanmiz, uning ijod laboratoriyasiga, "ruhiy olamiga, badiiy "sir"xonasiga kirish" (S. Mamajonov) ehtiyoji seziladi. Shoir spontan, beixtiyoriy, g'ayri shuuriy tarzda ijod qilgan. Alloma o'zining ijod psixo-logiyasi haqida noyob kuzatishlarini (o'zini o'zi kuzatish) yozib qoldirgan. 1962-yilda yozilgan "Sarhisob" maqolasidan:

"Ba'zan-ba'zan ish stolim ustida ham shunday holat ro'y beradi. Siyohdonim a'lo siyoh bilan to'la. Bir dasta oq qog'oz ustida yangigina yaltiragan po'lat peroli qalamim turibdi. Ni-manidir yozgim keladi, juda ko'p yozgim keladi, a'lo yozgim keladi. Kutilmagan narsalarni yozgim keladi. Qalamimni olib uni-buni chizgan bo'laman, shakllar, bir umr yashamagan kishilarning suratlari, zoologiyaga ma'lum bo'lmagan hay-

⁵⁹ Meli S. So'zu so'z. "Adabiyot falsafasi"ga chizgilar Toshkent: Sharq, 2020. 227-bet.

vonlarning qiyofalari chizilaveradi, chizilaveradi. Raqamlar, qandaydir formulalar... keyin bu sahifa g'ijimlanib, karzinkaga tushadi.

Ko'zim, qo'lim nimadir qilayotganday, ammo zehnim tamoman boshqa narsalar bilan band⁶⁰.

Sirasini aytganda, har qanday chinakam ijod spontandir. Tasvirlar, ifodalar, obrazlar biz bilmaydigan qayerdandir kelmasa, quruq, hissiz mantiq bilan yasalgan bitiklar o'likdir. Zero ijod kashf etmak, ya'ni ijodkorga va kitobxonga no-ma'lum nimanidir ochmakdir.

Buyuk musavvir Van Gog haqida yozganlarga ko'ra, u chizish chog'ida matoga cho'tkani bir bora urar, qayta tuzatmas, boshqa rang chaplamas ekan. Shu bois ham uning asarlaridan ilk yaralish ruhi anqib turar, bu ularning umrboqiyliigi va buyukligini ta'min etadi ekan.

Bu g'ayrishuuriylik, aqlni chetlab o'tgan tuyg'u, intiutsiya kuchidir.

Yapon san'ati va adabiyoti haqida tadqiqot olib borganlar maxsus atama **satori**ni bot-bot tilga olishadi. Satori – qo'qqis-dan kelgan ravshanlik bo'lib, shu lahzada narsa-hodisaning asl mohiyati yarq etib ochiladi. Bu tasavvufda fayzi ilohiy ham deyishadi.

G'afur G'ulom favqulodda xos tabiatga ega shoirki, u o'ylar, mushohada qilar, lekin qat'iy mantiqiy fikrlamas. xayol tizgini bo'sh qo'yib, borliq garmoniyasiga quloq tuta olar, u yoq-dan go'yo aytib turilganday keladigan misralarni qog'ozga tushirar, ayrim shoirlarday, qayta-qayta yozib tuzatmas edi. Bir she'rida "Qarmoqqa bir laqqa ilinib qoldi" deb yozar ekan, buni zinhor baliq deb o'ylamang, bu – qo'qqisdan kelgan tuyg'u va ma'no. Ushbu misra tuyqus chaqnagan tuyg'u-fikrga berilgan go'zal shoirona tavsifdir.

So'z musavviri, san'atkor bo'lish uchun tashbihlar, holat va manzaralar osmondan chalpak yog'ilganidek kutilmaganda kelishi, yorqinligi va favquloddaligi bilan o'z ijodchisini ham

⁶⁰ G'afur G'ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. 1-tom. Toshkent: Fan. 1971. 384-bet.

lol qoldirmog'i lozim. Asl ijod – ilohiy ne'mat. Barchaga ham nasib etmaydigan ne'mat.

Polyak adibi Yan Parandovskiy sharofati bilan "So'z alkimyosi" degan ibora urflashdi. Alkimyogarlari o'rta asrlarda oddiy metallarni oltin va kumushga aylantirishga uringanlar. Bu amalni so'zga ko'chiradigan bo'lsak, maishiy, hayotda ko'pchilik ishlatadigan so'zlardan mo'jiza, san'at asari yaratish so'z alkimyosining mohiyatini tashkil qiladi. So'z shunday evrilishga uchramaguncha san'at asari yaralmaydi.

G'afur G'ulom o'zining qator sara she'rlarida so'z orqali musavvirlik salohiyatini namoyish etar ekan, bunda alkimyoviy jarayonlar ro'y berishi tayin. So'z cho'g'lanmasa, o'zining alkimyoviy xosiyatini namoyon etmasa, chinakam badiiy tasvir, ya'ni badiiy musavvirlik amalga oshmaydi. Voqelikdagi turli holat va manzaralar so'z orqali chizilar, bu go'zallik va nafasatga yo'g'rilar ekan, bunday tasvir ijodkorini so'z musavviri deymiz.

OYBEK VA BADIY TIL MUAMMOLARI (adibning ilk ilmiy faoliyati misolida)

Shuhrat RIZAYEV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

XX asr o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek hassos shoir, zabardast nosir, mohir tarjimon bo'lish barobarida ilmiy-analitik qobiliyatga ega nuktabin olim sifatida ham davr adabiy-madaniy hayotida iz qoldirgan mutafakkirlardan edi. 1943-yili O'zbekistonda Fanlar Akademiyasi tashkil etilganida Oybekning birinchilar qatori haqiqiy a'zo – akademik etib saylanishi tasodifiy emas edi, albatta.

Oybek badiiy ijodining ilk namunalari bo'lgan she'rlari endi-endi ommalasha boshlaganda, u adabiy-tanqidiy faoliyat bilan ham jiddiy shug'ullanishga kirishgan. 1926-yilda yigirma bir yoshli Oybek yosh o'zbek shoirlarining ilk mashqlarini to'plab "Erk kuylari" nomi bilan nashr ettiradi va unga so'zboshi yozadi. Bu to'plamda Oybekning keyinchalik sadoqatli rafiqasiga aylangan Zarifa Saidnosirovaning ham she'rlari bor edi. Ana shu maqola bo'lajak ulug' adibning chop etilgan ilk maqolasi hisoblanadi. Oradan bir necha oy o'tib "Qizil O'zbekiston" gazetasining o'sha yilgi dekabr sonida Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" nazariy kitobiga taqriz e'lon qiladi. 1927-yili may va avgust oylarida yana o'sha gazetada Abdulhamid Cho'lpon she'riyati himoyasiga bag'ishlab "Cho'lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak?" hamda "Munaqqidning munaqqidi" maqolalari bosiladi. Shu tariqa Oybek adabiyotshunoslik iqtidorini ham namoyon etib, ilmiy-adabiy doiralarda e'tirof topa boshlaydi.

Garchi bu maqolalar turli munosabatlarga uchrab, Oybekni goh hud, goh behud qilgan bo'lsa-da, uning adabiy tanqid va ilm dunyosiga dadil kirib borishida dastlabki bir bosqich

bo'lgan edi. Qiziqish va intilishlari bois Oybek 1930-yillarda pedagog bo'lib O'rta Osiyo Davlat universitetida, keyin ilmiy xodim sifatida Madaniy qurilish ilmiy tekshirish institutida va nihoyat, O'zbekiston Fanlar Komiteti huzuridagi Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida faoliyat yuritdi, adabiyot, falsafa, til-terminalogiya masalalariga oid qator maqolalar chop ettiradi.

Oybekning tom ma'noda tilshunos olim desak, haqiqatga biroz xilof ish tutgan bo'lamiz. U rostmana adabiyotshunos tadqiqotchi edi va til-terminologiya, badiiy til borasidagi qarashlari, tadqiqotlari eng avvalo adabiyotshunoslik rukur-sida, ilmiy-adabiy tanqidchilik doirasidagi ishlar edi. Oybek xoh Cho'lpon bo'lsin, hoh Abdulla Qodiriy, xoh G'afur G'ulom, xoh Hamid Olimjon, Shayxzoda, Hamza Hakimzoda, Muqimiy haqidagi turli mavzularda yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida, mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotining, poyeziyasining taraqqiyot yo'llari xususidagi kattayu kichik bir necha maqola va ma'ruzalarida, albatta, badiiy til masalalariga alohida e'tibor qaratadi, ijodkorlarning badiiy til madaniyati orqali ham ularning mahorati, adabiyotdagi o'rni, darajasini ko'rsatib berishga urinadi. "G'afur G'ulom hikoyalarning tili sodda, boy, aniq rangdor va ishlangan bir tildir. Yozuvchi turli tabaqa uchun xarakterli tilni yaxshi biladi. Uning hikoyalari-da shaxslar o'z harakatlariga muvofiq bir til ila so'zlaydirlar. Uslub siqiq, jonli va ortiqcha bo'yoqlardan, ortiqcha ko'rkamlikdan uzoq bir uslub. G'afur G'ulom "chiroyli qilaman" deb tavsiflar, guldor jumlar, "ingichka" obrazlar bilan hikoyani qoplamaydi. Ob'ektni aniq, ravshan chizishga harakat qiladi". (Oybek. Mukammal asarlar to'plami. T 1979. XI tom, 107-b).

Oybekning biroz keyinroq Til va adabiyot institutining ilmiy xodimi sifatida olib borgan tadqiqotlarida, ayniqsa, olimning Alisher Navoiy tarjimai holi va ijodi haqidagi fundamental tadqiqotlarida badiiy til bilan bog'liq poetik mahoratga, "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga doir fikr-qarashlari aynan adabiyotshunoslik tegrasida bildirilgan mushohada va mulohazalarki, bu o'z navbatida, Oybekning ona tilimizga, so'zga

bo'lgan yuksak munosabatining ifodasidir. Ayni shu fikrni Oybekning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" haqidagi 1936-yili nashr etilgan ilmiy tadqiqoti-monografiyasi misolida ham aytish o'rinli. Biroq adolat yuzasidan oladigan bo'lsak, bularning barchasidan avval Oybek sof tilshunoslik, aniqrog'i, terminologiya bilan bog'liq bir maqola bilan 1933-yil "Kitob va inqilob" jurnalida chiqish qilganki, yanglishmasam, bu adibning shu yo'nalishdagi yagona maqolasi bo'lsa kerak. Ammo u ham shu kezlar faol amaliyotda bo'lgan falsafiy atamalar bilan bog'liq edi. Oybekning dastlab mutaxassisligi ijtimoiy fanlar bo'lgani va u 1930-1935-yillar oralig'ida O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Milliy universiteti) da siyosiy iqtisod fanidan dars berganini yodga olsak, uning falsafiy terminlar bo'yicha maqola yozgani tasodifiy hol bo'lib ko'rinmaydi.

"... turli fanlarning orasida devor yo'q, fanlar o'zlarining turli tomonlari ila bir-birlariga bog'lanib, bir zanjir tashkil etadilar. Terminlarda birlik bo'luvi eng muhim shartlardandir. Chunki bir termin bir qancha fanlarda ham ishlatilishi mumkin" (Oybek. MAT.T.1979 XIX tom 44-b).

Oybek atamalarda bir xillik bo'lishini ta'kidlar ekan, ular qo'llanilishi bilan bog'liq qulaylik va muntazamlilikni nazarda tutadi. U "muvozanat" ("равновесие") so'zini misol keltirib, agar kimyogar uni o'ziga moslab "teng og'irlik" tarzida ishlatlsa, bu iqtisod sohasida qo'llaganda no'rinlik va masala mohiyatidan chalg'ishga sabab bo'lishini aytadi. Bunday yondashuvni "kustarchilik", ya'ni "o'z tomorqasiga tortib moslash", "yakkalash", "sun'iy so'z to'qish" deb tushunadi. "Termin ishlashda asosiy manba jonli tilimiz bo'lui lozim. Agar termin ishlovchilar xushyoqmaslik qilmasalar, sun'iy so'z to'qishdan voz kechsalar, jonli tildan juda ko'p narsa topa biladilar" (o'sha manba 45-b).

Bu fikr, nazarimizda, sira ahamiyatini yo'qotmaydigan, hamisha dolzarb fikr bo'lib qoladi. Oybek tilimizni, atamalarini baynalmillallashtirish orqali, asta-sekin Sho'ro mafkurasini bu yo'nalishda ham singdirib, ruslashtirishga boshlayotgan g'oyalarni, olimlarni inkor etadi. Xususan, Alimuhammad

Musin degan olimning ba'zi fikrlarini ma'qullagan holda "O'zbekcha terminlarning ko'pini sun'iy va aytishga o'ng'aysiz holda olinishi", "bu falsafiy terminlarning jiddiyatini susaytirib, ma'noni to'liq bera olmasligi"ni tanqid qiladi "Alimuhammad taklifi bo'yicha "alkimyochilar"ni to'g'ridan-to'g'ri "kimyogarlar" deyish kerak. Bu to'g'ri emas. O'rta asr kimyogarlari "alkimyochi" deyiladi. Ko'pincha bu so'z tagi puch, xayoliy narsalar bilan shug'ullangan kishilarga nisbatan aytiladi" (o'sha manba 49-b).

Maqola so'ngida Oybek Musin taklif etgan terminlarga qarshi o'z muqobillarini taklif etadi. Masalan, Musin "бесконечный" so'zini "oxirsiz" desa, Oybek "nihoyasiz" so'zini taklif etadi. Xuddi shunday "ирония – hayv" o'rniga "kinoya, istehzo" so'zlarini, "линия – liniya" o'rniga "chiziq", "логика – logika" o'rniga "mantiq", "мифология – mifologiya" o'rniga "asotir", "разбор – so'kish" o'rniga "tekshiruv", "результат" o'rniga "natija", "предложение – mo'ljal" o'rniga "faraz", "утопия" o'rniga "xayol", "памят – es" o'rniga "hofiza" atamalarini qo'llash, ya'ni jonli tilimizga murojaat etib, uning boyligidan foydalanish orqali ona tilimizni ilm-fanda ham sof holda saqlash g'oyasini ilgari suradi.

Agar 30-yillarda avj pallasiga kirayotgan ma'naviy va jismoniy qatag'onlar siyosatini yodga olsak, ona tilimizni xalq jonli tili hisobiga boyitib, asrash, uni ilm-fan sohalarida o'z tarixiy tilimiz muqobillari bo'yicha yuritish, qadimdan kelayotgan atamalarimizni o'lik ahvolga solmaslik uchun kurash Oybek uchun to'planayotgan qora "delo"ni yanada semirtirish uchun xizmat qilishi mumkin edi. Demak, bu maqola ham navqiron Oybekning o'ziga xos ma'naviy jasorati, fuqarolik, o'zbeklik shahdi edi. Vaqti bilan Oybek bunday qarashlarini keyingi maqolalari va yaratgan badiiy asarlari orqali bot-bot isbotlab bordi.

Bo'lg'usi buyuk adibning adabiyotshunoslik doirasida badiiy til muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan ilk maqolasi "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1943-yil 14-iyun sonida "O'zbek poeziyasida til" sarlavhasi bilan bosilgan.

Shu kezlar Rossiya matbuotida yozuvchilar asarlari tili bo-rasida qizg'in bahslar kechadi. Butunittifoq Yozuvchilarining birinchi syezdi oldidan rus adibi Maksim Gorkiyning "Til haqi-da" nomli maqolalar turkumi e'lon qilinib, ularda badiiy asarlarda tilga bepisandlik ko'rinishlari urchiyotgani, naturalistik yondashuv zo'raygani, obrazli ibora va ifodalar o'rniga sun'iylik avj olgani kes-kin tanqid qilinadi. Adabiyotning quroli so'z ekani va unga nihoyat-da mas'uliyat bilan yondashish lozimligi ta'kidlanadi.

O'z navbatida yosh tadqiqotchi Oybek ham tengdosh, za-mondosh shoirlarning she'rlarida til masalalarini maxsus o'r-ganib, keskin tanqidiy chiqish qiladi. "Bu kungi o'zbek adabi-yoti, poeziyasining tilga qilgan xizmati, uning shakllanishida-gi roli inkor qilinmas. Uyg'un, Husayn Shams, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom va boshqa oldingi shoir va yozuvchilarning asarlarida bir qadar til yetishmasliklari ko'rinsa-da, umuman tilning ifoda kuchining birmuncha ishlangani, o'sgani darhol seziladi. Bu masala hozir bizni qiziq-tirmaydi. Bu maqolada poeziyadagi til kemtikligiga to'xtayajakmiz" (108-bet).

Tabiiy savol tug'iladi, nega Oybek adabiyotshunos mu-taxassislikning talay masalalari – muammolari mavjud bo'lib, butkul yangi adabiyot, barmoq vaznidagi yangi she'riyat ya-ratilayotgan dastlabki davrlarda poetik til mavzusiga alohida e'tibor qaratdi? Gap shundaki, Oybek til badiiy ijodining bosh quroli, asosiy ifoda tarzi ekanini teran tushunib, adabiyot mo-domiki xalqqa xizmat qilmog'i kerak ekan, u aynan xalqona xalqchil, jonli, tushunarli va ravon bo'lmog'ini istaydi. Asar-ning badiiy to'qimasi til bilan bo'lajagi ayrim shoirlarimizga anglashilmaganga o'xshaydi...

Til kamchiligi asarning badiiy sifatiga manfiy ta'sir qilishi ma'lum. Bizda shunday she'riy asarlar uchraydiki, uning tili judi "og'ir" anglashiladi. Bu – sovet poeziyasining keng o'quv-chi ommasiga kirib borishida katta to'siqdir. Sovet poeziya-si – tor doirada o'quvchilarga xitob qilmaydi. U bir turkum "she'rshunoslarga" bag'ishlangan emas. Sovet poeziyasining asosiy o'quvchilari keng mehnatkashlar ommasi, ishchi va xizmatchilardir" (108-109-betlar).

Albatta, Oybek navqiron pallasiga xos jo'shqinlik va maksimalizm bilan "sovet poeziyasi" degan tushunchani yoqlashga, barqarorlashtirishga urinadi. Biz bu o'rinda mazkur maqoladan yetti yillar avval Cho'lpon she'riyati bilan bog'liq "Cho'lpon. Sho'irni qanday tekshirish kerak?" deya she'riyatning yuksak ilohiy san'at ekanligi, Pushkinning inja san'atkorligi kabi Cho'lponning ham sof san'atkorona izlanishlari o'rganiladi, olinadi, chetga surilmaydi, degan munaqqid qarashlaridan ancha farqli tanqidchini ko'ramiz. Ammo bu biroz aldanchi kayfiyatdir. Aslida, Oybek ona tilimizning sofligi, yuksakligi uchun kurashadi.

"O'zbek tili ilgari buzilmagan deysizmi? O'zbek tilini gap-gashtaklarda boylar, qish, yoz choyxonalarda tuxum bosgan bekorchilar buzganlar. O'zbek tili bozorda dallollar tomonidan, ko'knori-nashaxonlar, takyalarda isqirt odamlar tomonidan, ko'knori-nashaxonlar, takyalarda isqirt odamlar tomonidan, ko'knori-nashaxonlar, takyalarda isqirt odamlar tomonidan maymoq qilingan". Shu so'zlarni aytib, ona tilimizni fasohatdan ayirgan omillarni sanarkan, Oybek, garchi zamon ko'taravermasada, boshqa bir obyektiv haqiqatni ham alohida qayd etadi: "Eski vaqtlarda rus mustamlakachilari ham tilni buzganlar. "Qizimka", "baranchuk", "kipitka", "marja" kabi so'zlar nimani ko'rsatadi? Tildagi kasal tendensiyaga qarshi kurashuvimiz, ..., madaniy ishlangan, madaniyatning turli tomonini to'la ifoda etadigan bir til yaratishimiz kerak. Bu ishda badiiy adabiyotning roli katta" (108-bet).

Garchi bir qarashda Oybek sof Sho'rocha, sotsiologik yondashuv pozitsiyasida turib badiiy ijodda tildan foydalanish masalasini tahlil etarkan, u, baribir, "tilning shakllanishida, boyishida, ifoda va so'zlarning aniqlanishida, fikrlarni ochiq va qabariq berilishida adabiyotning, demak, san'atkorlarning katta xizmatlari bo'lishi"ni ta'kidlab, badiiy ijodning san'at hodisasi ekanini aslo unutmaydi va o'z safdoshlaridan ham o'rinli-o'rinsiz har qanday terminlarni qo'shavermay, so'zga zargarlik bilan, san'atkorona munosabatda bo'lishni talab etadi. Fikrini asoslash uchun maqolada H. Zohid ismli qalamkashning "Mehnat qo'llari" degan she'ridan quydagi parchani keltiradi:

*Bu qo'llar:
Kombinatning porshinini
Randalagan bir tokar,
Gaykasini tayyorlagan,
Bir boltrez
Yo
Literning
Shestirini
Yo'navotgan
Prezirovshchik.*

Sotsialistik ko'rinish, kollektivlashtirish, industrializatsiya munosabati bilan ijtimoiy-maishiy turmushga kirib kelayotgan o'zgarishlarni, o'ylab o'tirmay, boricha she'riy tizmalarga solish so'zga, she'riyatga naturalistik yondashishning ayni ko'rinishi edi. Bundan na ma'no chiqadi va na hissiyotlar ta'sirlanadi. Zamona oqimiga moslashib, "moda"ga berilish san'at hodisasi bo'lgan she'riyatni halokat tomon boshlash edi. Oybek aynan o'zi san'atkor kalbi bilan bunday holatlarga befarq, loqayd qarab turolmadi va ularni keskin tanqid qildi.

"Yosh shoirlar asarlarini ko'zdan kechirsak, til savodsizligi, kambag'alligi yana yaqqol ko'rinadi. Yosh shoirlar fikrni badiiy ifoda qilish emas, hatto, ko'pincha, ikki-uch so'zni mantiqiy to'g'ri yopishtira bilmaydilar (111-bet).

Munaqqid bu fikrlarni shunchaki aytib qo'ya qolmaydi, aksincha bir qator aniq misollarda isbotlab boradi. Ergash taxallusli shoirning "so'z chigalligi", "so'z xashagi"ni, Davronning "chiroyli gapiraman" deb "so'zni yanglish" qo'llashini, qofiya topaman deb ma'noni qurbon qilishini, hatto "grammatik noto'g'ri jumla to'qilishi"ni oshkora va ayovsiz tanqid qiladi.

Oybek navqiron murosasizlik bilan she'rlardagi til buzilishlarini keskin rad etar ekan, bu illatdan qutilish yo'llarini ham topadi, aytadi va tasdiq etadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi nochor vaziyatni "til qashshoqligi"dan deb biladi va bunga qarshi "voqealar, fikr va tuyg'ular jonli, to'g'ri, chuqur

ifodali" bo'lishi uchun so'z boyligi kerakligini, so'z boyligi esa xalqning turli tabaqalari tilini o'rganish, xalq laparlari, qo'shiqlari, dostonlari hisobiga ta'minlanishini ta'kidlaydi... "Shundagina poeziya bugungi sun'iy tildan qutiladi. Shundagina she'rdagi har bir so'z cho'g'lanadi, fikr, tuyg'ularga kuchli ta'sir qila biladi... Shunday til yarataylikki, she'rimiz va har bir so'z uzukka qo'yilgan qimmatli tosh kabi porlasin, har bir misradan katta mazmun barq urib tursin" (112-byet). Ajab emaski, bu fikr bugun ham o'zining oxorini sira yo'qotmay, dolzarbligi, ahamiyatini to'la saqlagan.

Oybek o'z she'riyatida munaqqid o'laroq aytgan o'sha fikrlariga to'la amal qildi. Nafaqat she'riyati, proza, publitsistika, ilmiy tadqiqotlari va o'nlab yetuk badiiy tarjimalarida, har bir yozgan bitigida, hatto jamoat arbobi sifatidagi chiqishlari, ma'ruzalarida ham til softligi, aniqligi, fikr ravshanligi, ifoda madaniyati va go'zal tashbeh, metaforalar bilan to'yingan, mag'zi butun, ta'sirl quvvatli va qudratli so'z va iboralar qo'llashga harakat qildi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, Oybekning navqiron pallada munaqqid va tadqiqotchi sifatida aytgan fikrlari, ilgari surgan qarashlari shaxs va ijodkor sifatidagi ishonchi, hayot aqidasisiga aylanayotgan edi. Bu fikr Oybek ismli ulug'vor adabiy-badiiy hodisaning keyingi har bir bitigida isbotini topadi. Shu bois ham bu so'z sira zavol ko'rmadi, ko'rmaydi, bugunimiz va kelajagimizga ham xizmat qilishda davom etadi.

ZAR QADRINI BILGAN ZARGAR

Rahmon QO'CHQOR,
TDYU dotsenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi

Haykaltaroshlarimiz Adiblar xiyoboniga o'rnatilgan har bir siymo obrazida o'sha ijodkorning sajiyasi, hayotiy prinsiplari, ijodining ustuvor jihatlari singari nedir bir muhim sifatlarni gavdalandirishga, zamondoshlarimizga eslatish va avlodlar yodida muhrlashga uringanini sezish qiyin emas. Deylik, biz Mirzo Bobur siymosida temuriyzodalarga xos o'ktamlik va shohona nazokatni ilg'asak, Erkin Vohidovning bir nuqtaga qadalgan nigohi ayni nuqtada olam va hayot falsafasining mujassamini idrok etayotganini his qilamiz.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning ko'zlarida, o'tkir qarashlarida esa uning hayot va insonda kuzatiladigan eng muhim, abadiy o'zgarmas haqiqatlarni ilg'ashga, ularni chuqur tushunish va shu teranlikda tasvirlashga bo'lgan tolmas shijoatni ko'ramiz.

Abdulla Qahhor suhbatlarning birida hazillashib aytgani mana bu gapni ustozlarimiz tez-tez eslashar edi: "Agar menchalik mehnat qilganida maymun ham yozuvchi bo'lib ketgan bo'lar edi...". Agar adib uy-muzeyida saqlanayotgan qo'lyozmalarga, yozuvchining turmush o'rtog'i Kibriyo Qahhorovaning "Chorak asr hamnafas" kitobidagi mavzuga oid o'rinlarga yoki ko'plab qahhorshunos olimlarning o'nlab kitoblari, yuzlab maqolalariga, xususan, Otabek Jo'raboev sa'y-harakati bilan 2011-yilda chop etilgan "Abdulla Qahhor arxivi katalogi (*arab yozuvidagi hujjatlar tavsifi*)" ma'lumotlariga diqqat qaratsak, bu hazilning qanchalar asosli ekanini yaqindan his qilamiz.

Darhaqiqat, Abdulla Qahhorga nisbatan aytiladigan "so'z zargari" ta'rifida bir misqol bo'lsin mubolag'a, ortiqcha

mahobat yo'q. "Bo'yi baravar kitob yozgan" (L. Tolstoy) adiblarni o'ziga ustoz tanlagan A.Qahhorning butun merosi bor-yo'gi oltita kitobga jo bo'lganining siri ham aslida shunda: u yozuvchilikni kosiblikka aylantirmadi – adabiyotning haqiqiy, betakror hunarmandi, zargari bo'la oldi. Avvalo, adib o'zi aytgan "Adabiyot domovoyi"ga undan oldin birorta yozuvchi yaratmagan o'nlab yangi qahramonlarni qo'shdiki, bu "tirik jonlar" endi hech qachon u mo'tabar hujjatdan chiqarib yuborilmaydi. Zero, "Boshsiz odam"dagi Faxriddin, "O'g'ri"dagi Qobil bobo va uning kampiri, "Anor"dagi Turobjon va uning xotini, "Bemor" hikoyasidagi "Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..." deya uyqusirab duo qilayotgan qizcha, "Sinchalak"dagi Qalandarov, Eshon va Saida, "O'tmishdan ertaklar"dagi hur qiz – Savriniso hamda Babar, "Og'riq tishlar"dagi Marasul Huzurjonov, "to'lka xotin" – Xumorxon, "Tobutdan tovush"dagi Suxsurov, Netayxon va unga tez-tez "dam solib turuvchi" qo'shni – Qori, "Sarob"dagi Saldiy, Munisxon, Sarimsoq (romanning birinchi nusxasidagi temirchining manqurt darajasiga tushirilgan o'g'li!), Murodxo'ja domla va uning xotini Bulbuligo'yo, qizi Soraxon, "Qo'shchinor"dagi Sidiqjon, Zunnunxo'ja va uning xotini... – milliy adabiyotimizning unutilmas obrazlari – badiiy tiplar bo'lib qoldi.

Abdulla Qahhorga nasib etgan muvaffaqiyatlar zamirida, albattaki, adibning zimmasiga olgan mas'uliyatli vazifaga sodiqligi, har bir masalaga halol va vijdoniy yondashuvi, haqiqat va adolatni har narsadan ustun qo'yishidek insoniy fazilatlarini mujassamdir. Shu tufaylidirki, uning qahhorona o'tkir aql, mantiq, yuksak xayolot, topqirlik evaziga dunyoga kelgan, hikmatli so'z, aforizm, yombi fikr sifatida qayta-qayta eslanadigan mana bu singari tafakkur durdonalari xalqimiz didi va ma'rifatining kamoli yo'lida hamon xizmatda:

"Gurjistonda madaniyat tarixiga oid bo'lsa, o'lgan otning taqasini ham baxmalga qadab osib qo'yishar ekan";

"Hammadan bir ayb topib ottirib yuborsa-yu, yonib ketgan uyning mo'risiday bo'lib adabiyotda bitta o'zi so'ppayib qolsa";

“Yevtushenko singari shoirlar, yozuvchilar ko’nglida borini aytayotibdi, xolos, shunga shuncha shovqin? Axir bular kesak emas-ku, o’t chiqsa nima qipti!”;

“Men partiyaning soldati emas, ongli a’zostiman”;

“Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi”;

“Nima uchun ko’cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?”;

“Yurtdan chiqish tiriklay go’rga kirish degan so’z”..

Abdulla Qahhorning umuman tilga, xususan, ona tili va badiiy tilga qaratgan alohida e’tibori, mas’uliyati ham hali ancha zamonlar nafaqat oddiy odamlarga, balki o’zini shoir, yozuvchi, jurnalist, adabiyotshunos va tanqidchi ataydigan juda ko’pchilikka beminnat maktab bo’lishi tayin. Avvalo, yozuvchi ona tili – o’zbek tilini xuddi tuqqan onasi yanglig’ sevdi, uning cheksiz kuchi, imkoniyatlarini ham so’zda (alohida nutqlari va maqolalarida), ham amalda (barcha asarlarida) hammaning ko’z oldida isbotladi. Adib aytadi: *“Juda boy, chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo’lmaydigan fikr, tuyg’u, holat yo’q! Bu til ellik yil ichida shunday bir qudrat kasb etdiki, xalqimizni jahon, rus madaniyatiga sherik qilib qo’ydi”.*

Milliy tilning shunday qudrat kasb etishida Qahhorning ustozlari, iste’dodli tengdoshlari va ko’plab shogirdlari qatori o’zining ham xizmati chakana bo’lgan emas. Zero, uning o’zi ham, Abdulla Qodiriy romanlariga bergan bahosida aytganidek, “yevropa gazi bilan o’lchasa ham yaraydigan” o’nlab asarlarida o’zbek tilining yangi-yangi imkoniyatlarini kashf etish bilan bu til qudratiga ulkan hissa qo’shdi. O’tgan asrning 30–60-yillari yozilgan hikoyalari tili ustidagi mehnati, “Sarob” romani qahramonlari ruhiyatidagi o’zgarish va evrilishlarning teran talqinida qo’llanilgan tahliliy til, “Sinchalak”, “Zilzila” qissalaridagi tasvir uslubi – bularning bari adibning so’zga, adabiy tilga oltindan qimmat noyob manba sifatida yondashgani, biron so’z, ibora, gapni behuda va no’rin ishlatishdan doimiy saqlangani isbotidir.

Bu xususda aniq bir misolga diqqat qilaylik.

Bor-yo'g'i ikki yarim sahifaga jo bo'lgan "O'g'ri" hikoyasi yaratilganidan buyon uning tahliliga bag'ishlab yozilgan ilmiy tadqiqotlar, maqolalar, taqrizlar bir yerga jamlansa, bilmadik, necha jildlik kitob bo'lar ekan. Lekin hali hamon bu hikoya, uning mazmuni va matni xususida nedir yangi gap aytish imkoni tugamaydi.

Yodingizda bo'lsa, ho'kizini o'g'ri urib ketgan Qobil bobo "qo'shnisi - burunsiz ellikboshi"ning ishorasi bilan o'sha kuni kechqurun aminning oldiga boradi. Muallif, aksariyat qahramonlari singari, bu personajning ham tashqi ko'rinishi - portretini, ichki dunyosini alohida tasvirlab o'tirmaydi. Biroq sinchkov, didli o'quvchi bu kimsaning nafaqat tashqi, balki ichki portreti - chirkin ruhiyatini ham uning bir-ikki harakatidan ilg'aydi qo'yadi. Mana o'sha harakat tasviri: ***"Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi"***.

Bo'ldi, yozuvchi Siz bilan menga shunigina ravo ko'radi, shuginani ko'rsatadi.

Endi, hurmatli o'quvchilarimizdan bir narsani iltimos qilamiz: Siz ham amin qilgan xuddi shu ishni qilishga - chinchalog'ingizni ikkinchi bo'g'inigacha burningizga tiqishga urinib ko'ring-chi...

Bo'lmadi, to'g'rimi? Aminga o'xshab kulish tugul, ko'zingizdan yosh chiqib ketsa ketdiki, chinchaloq hatto birinchi bo'g'iniga qadar ham burningizga kirmadi. Nima qilamiz, yozuvchini ortiqcha mubolag'ada, bo'lishi mumkin bo'lmagan narsani tasvirlashga urinishda ayblaymizmi?

Bizningcha, bunga shoshmaganimiz ma'qul. Uning o'rniga hayotiy kuzatishlarimiz, tajribalarimizni yodga olaylik. E'tibor bersak, o'ta semiz, baqaloq odamlarning kaft ustlarini ham go'sht-yog' qoplab kelib, barmoqlari ichga tortib, kichkinalashib ketadi. Bunga qo'shimcha, agar Qobil boboning qo'shnisi bo'lmish ellikboshi "burunsiz" - burni yapasqi, yuzi bilan deyarli bir sathda bo'lsa, aminning burni o'zining mahobati bilan Gogolning Ivan Ivanovichinikidan qolishmaydi

– o'ta katta va teshiklari g'ordek. Bunday burunga boyagidek chinchalog'ning ikkinchi bo'g'inigacha kirib ketishi bimalol mumkin...

Aminning ana shunday ortiqcha semiz, beso'naqay kishi ekaniga matnning sal teparog'ida, yana birgina gapda ishora bor: ***"Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi"...***

Bular, aytilganidek, bu "janob"ning tashqi raftorlariga oid gaplar. Endi xuddi shu tasvirlardan bul kimsaning ichki dunyosiga – axloqiga, madaniyati va ma'naviyatiga ko'z tashlaylik. (Ochig'i, bu o'rinda "madaniyat", "ma'naviyat" degan so'zlarni ishlatish ham noqulay odamga...).

Yozuvchi asar boshida ta'kidlaganidek, "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi".

Demak, bechora Qobil boboning boshiga uyi kuygandan ortiqroq falokat kelgan. Ana shu jabrdiydani xuddi shunday odamlar ustiga rahbar etib qo'yilgan mas'ul amaldorlardan biri – amin qabul qilmoqda. Uning amaliga oid vazifalari orasida odamlarning mol-mulkini har turli tajovuzlardan, o'g'ri-kazzoblardan himoya qilish majburiyati ham borligi aniq. Endi shu odamning otasi tengi Qobil boboni ko'rgan payti qilayotgan dastlabki qilig'iga qaraylik: "... amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi".

Voqea kechqurun bo'lyapti, demak, aminning kekirigi aslo och emas, to'q kekirik, bo'lib ham ortiqcha ko'p yem yeyishdan paydo bo'ladigan kekirik. (O'sha kunning tong qorong'isida ho'kizi o'g'irlanganini bilgan Qobil boboning esa kun uzog'i bir burda non yeyish ko'ngliga sig'maganini ham yodda tutaylik!) Bunga qo'shimcha amin, fojidan xabardor bo'la turib, oqsoqolning ro'parasida bag'baqasini osiltirib kulib o'tiribdi...

Shu joyda adibning hikoyaga epigraf qilib tanlagani xalq maqoli esga keladiki, bundan ortiqcha izohga ham o'rin qolmaydi: ***"Otning o'limi – itning bayrami!"***

Chinchaloqqa qaytamiz. Amin bu g'alati mashhur chinchalog'i bilan biz aytgan nihoyatda "bejirim" burnini andishasizlarcha kavlarkan, yana kuladi. Shu kulgi aralash gaplari esa qarshisida qaltiragancha, najot kutib jim qotgan Qobil boboni endi ochiqdan-ochiq masxaralashga do'nadi:

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

– Ola ho'kiz...

– Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

– Qo'sh mahall..

– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

– Bisotimda hech narsa yo'q...

– O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kelaber, deb qo'yilmagan ekan-da!.."

Bu holni kengroq izohlash, har ikki qahramonga aniqroq ta'rifu tavsif berish, savol-javob payti ular holatida yuz beradigan tabiiy o'zgarishlarni yaqindan tasavvur qilishni o'quvchilarimizning o'ziga havola etsak, to'g'ri bo'lsa kerak...

Biz Abdulla Qahhorning bir mo'jaz hikoyasining birgina kichik manzarasi xususida, shunda ham maqola hajmini yodda tutib mulohaza aytmoqdamiz, xolos. Bunday – biri biridan qiziq, kutilmagan, tagma'noli, qahhorona topilgan va uyushtirilgan manzaralar, qahramonlar yozuvchi merosida shu qadar mo'lki, ularni birma-bir idrok etish zamonamiz o'quvchisining ham qalbi boyishi, didi hamda ruhi yuksalishiga uzoq asrlar xizmat qilishi aniq.

Ta'kidlaganimizdek, Abdulla Qahhor avvalo o'zi, qolaversa, kasbu kori til bilan, yozma yoxud og'zaki nutq bilan bog'liq har bir kishining bir gapni yetti marta emas, yetmish marta o'ylab keyin aytishi va yozishiga doimiy e'tibor qaratgan, bu masalada "falonchilarga yomon ko'rinib o'tiramanmi..." degan riyokorona qo'rqqoqlikdan nihoyatda yiroq bo'lgan. Quyida adibning bu boradagi ko'plab mulohazalaridan ayrimlarini bugungi kun o'quvchisiga eslatamizki, ular hali hamon o'z dolzarbligini yo'qotmaganiga guvoh bo'lishsin: **"Ajib bir til paydo bo'layapti. Qarang: "Hashak" deb qo'ya qolmaydi, albatta, "dag'al hashak" deydi. Jo'xoripoya yo ko'k poya**

demaydi, albatta “yashil massa” deydi... Yoki mana buni o‘qing: “Chorvachilik fermalariga ko‘proq yaxshi yem-hashak jamlash kerak”, demaydi, albatta: “Chorvachilik fermalari o‘zlarining keng-mo‘l yem-hashaklariga ega bo‘lsin uchun bu yem-hashaklarni planda mo‘ljallan-ganidan orttirib jamg‘arishni bevosita ta‘minlash chora-larini ko‘rish kerak”, deb yozadi”.

Afsuski, bu singari tilga bepisandlik qilmishlari omma ta‘lim-tarbiyasi, ma‘naviyati, dunyoqarashi va didiga kuchli ta‘sir qiladigan soha kishilari tomonidan hozir ham har qa-damda sodir etilmoqda. Avvalgi bir necha chiqishlarimizda (jumladan, “Huquq va burch” jurnali, 2012-yil, oktyabr so-nida, “Kitob dunyosi” hamda “Inson va qonun” gazetalarida) televideniye va radioda paydar-pay e‘lon qilinayotgan rek-lamalar tilidagi g‘alizliklar, o‘zbekka xos bo‘lmagan muroja-at shakli hamda “sen”lashlar xususida gapirgan edik. Biroq gapni uqqanga gapirish kerakligi to‘g‘risidagi xalq hikma-tida gap ko‘p ekan – bizning va bizdan boshqa yana yuzlab mutaxassislarning ham fikrini birov sariq chaqaga olmagan. Buni shundan ham anglasak bo‘ladiki, mamlakatimiz poy-taxtidan tortib viloyat markazlarigacha – ko‘plab joylarda zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish hamda bu sohadagi taraqqiyotga yetib yurishga bag‘ishlangan tur-li ko‘lam va darajadagi yig‘inlar son-sanoqsiz o‘tkazilgani holda, bu uskunalar bilan ishlaydigan televidenie va radio xodimlarining intellektual darajasini ham oshirish, ularning tili, nutqi, estetik dunyoqarashi, badiiy didini boyitish, yuk-saltirishga bag‘ishlangan jiddiyroq munozara-muhokama deyarli uyushtirilmadi. Shunday ekan, jurnalistika yoxud boshqa biror gumanitar fakultetni amal-taqal bitirib, o‘zini faqat va faqat televideniye, juda bo‘lmaganda “FM” radiosi-da ishlashga urayotgan “azamat”larning mushugini kim ham xafa qilishga jur‘at etardi?..

Mana shunday munosabat sabab bo‘lsa kerakki, futbol o‘yini sharhini olib borayotgan hurmatli ukalarimiz bella-shuvning 18 daqiqasidayoq **“Falon jamoa pismadon ja-**

moa ustidan bir-u nol hisobida g'alaba qozonmoqda" deyishdan ham, "Falonchi fo'l ishlatdi", "To'p autga chiqib ketdi", "Laysmen bayroqchasini ko'tarib turibdi", "Refetri shafqatsizligini namoyon qilmoqda" deya o'zining xorij tilini "balodek bilishi"ni pisanda etib qo'yishdan ham istihola qilishmaydi. Ularga quloq tutsak, masalan, "Manchester Yunayted"ning "Liverpool" maydonida 3:1 hisobida yutqazib qo'yishi "**Manyunayt**"ning **sharmandali mag'lubiyati**" bo'lib yangraydi. So'raydigan odam yo'qki, "O'-v, birodar, "Liverpool"dek kuchli jamoadan bir yilda bir marta, unda ham mehmonda, shugina hisobda mag'lub bo'lishni bunday atasang, bizning jamoalarimiz o'zining maydonida ko'rsatayotgan tomoshalarni nima deb baholaysan?!"

Bu dilxiraliklardan bezib, televizor murvatini boshqa yoqqa burasang, u yerda beozorgina bir ovoz oddiygina "dori"ni "dori vositasi" sifatida ta'rif-u tavsif qilayotganini eshitasan. Hayron qolasan kishi – qachondan beri biz, suyuq holdami, qattiq (tabletka) holidami, "dori ichadigan" emas, "dori vositasini qabul qiladigan" bo'lib qoldik?

Yoxud nihoyatda "kamtar" muxbir uka va singillarimizning hamma joyga, hatto, molxonaga ham shunchaki bormay, albatta, "tashrif buyurishgan"ini eshitib, "farosatingga balli!" deb yuborganingni bilmay qolasan kishi.

Gapimizda achchiq, kinoya miqdori oshib ketganini o'zimiz ham sezib turibmiz. Lekin shunday aytmaslikning ham iloji yo'q. Chunki gap bir-ikki odamning, qay bir jamoa yoxud guruhning o'rnini to'ldirsa bo'ladigan moddiy mulki haqida emas, balki millatning, xalqning ulug' ma'naviy bisoti himoyasi to'g'risida bormoqda. Sho'ro davridayoq bu masala mohiyatini chuqur anglagan Abdulla Qahhor qattiq kuyinish bilan shunday degan edi: "**Odamlar borki, bisotidagi bir hovuch so'zni aylantirib oyligini olaveradi, o'qish o'rganish bilan o'zbek tilining imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishni istamaydi yoki bunga farosati yetmaydi. Mana shu odamlarning dangasaligi yoki farosatsizligi, chala mulla "olim"larning ilmiy faoliyati oqibatida shundoq bir til**

vujudga kelganki, na muomalada, na suhbatda, na oilada hech kim bu tilda gapirmaydi”.

Yozuvchi bunday xunuk ahvol ildizini, jumladan, ko'plab oilalardagi ona tiliga bo'lgan bepisand, ixlossiz va e'tiborsiz munosabatda ko'radi, bunday duragay, milliy zamindan bebahra muhit nihoyatda achchiq mevalar berishidan xalqini ogohlantiradi:

“Ko'pincha oilalarda bolalar o'z ona tilini mutlaqo bilmaydi! Bu ota-onani zarracha ham tashvishga solmaydi. Ba'zi bir oilalarda bolalar o'z ona tilida gapirgani nomus qiladi. Ba'zi odamlar shuni internatsionalizm deyishadi. Buning nimasi internatsionalizm?!

O'zbekistonda “millatim o'zbeku ona tilim rus tili” deb yozadigan bir necha ming kishi bor emish! Agar shu gap rost bo'lsa, demak, O'zbekistonda falon ming o'zbek o'z ona tilini yo'qotipti, degan so'z! Nainki shu maqtanadigan gap bo'lsa?!”

Bu – adib yashagan o'tgan asrning 50–60-yillaridagi hol edi. Endi hozirgi ahvolga, ayniqsa, yirik shaharlarimizda yashaydigan “yangi o'zbeklar” xonadonlarida yetilayotgan yuzminglab zamona zurriyodlarining tiliga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga jiddiyroq nazar solaylik. Ular aksariyatining odamiy tabiatini ona tili bilan birga qo'shilib milliy ong, ona xalq xususiyatlari, o'zbekka xos asos tushunchalar, xislatlar butunlay tark etmoqda. Ularning qosh-qabog'i-yu, rasmiy hujjatlaridagi yozuvlarni aytmasa, ko'rib-kuzatayotganimiz odamiy tabiati millatiga xos belgilardan deyarli xoli. Eng xavfli jihati – bu singari yoshlar qatlami ertaga emas, hozirning o'zidayoq mamlakat va xalq tarixiy taqdiriga daxldor masalalar hal bo'ladigan boshqaruv organlari, madaniyat muassasalari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot o'choqlari, ommaviy axborot vositalari ichiga faol kirib bormoqdalar, u yerlardagi muhitni o'zlariga moslab o'zgartirishga ham kirishganlar. (Bu borada uzoqqa bormay, har turli xususiy tele- va radio kanallarda tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar ahvoliga, ularning “ijodkorlari”, efirga ruxsat berayotgan “mutasaddilari”-

ning milliy va ma'naviy darajasiga e'tibor beraylik. O'sha kannallarning bittaginasida tunu kun namoyish etilayotgan o'nlab beparda xorijiy teleseriallarning yana faqat bittaginasida, masalan, "Qora niyat" nomli film vositasida tarqatilayotgan, xalqimizning millionlab vakillari ruhiyatiga, ongu shuuriga singdirib borilayotgan ma'naviy-axloqiy yemiruvchi virusning zararlarini o'ylaylik!..) Bunday sharoitda o'zbekning "Birniki mingga, mingniki tumanga" degan maqolidagi jaryon yuzaga keladiki, buning g'oyatda xunuk, keyin ortga qaytarib bo'lmas oqibatlarini tasavvur qilish qiyin emas...

Abdulla Qahhor xorijiy tillarni o'rgatadigan oliy o'quv yurti talabalari bilan uchrashuvda o'zining millatdosh o'g'il-qizlariga shunday murojaat qilgan edi: **"Institutni bitirgandan keyin joylarga borib o'quvchilarga ingliz, nemis, ispan, fransuz tillarini o'rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar boradigan joylaringga chet tillar bilan birga (balki birinchi navbatda!) o'z ona tilimiz - o'zbek tiliga cheksiz muhabbat tuyg'usini olib boringlar! O'zbek tili g'oyat boy, nihoyatda chiroyli, har qanday fikr va tuyg'uni ifoda qilishga qodir ekanini amalda ko'rsatinglar: qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash'ali bo'linglar!**

Men bu gapni tilimizning boyligiga daxl qiladigan, husn-latofatini buzadigan, tilimizni "tahrir" qilishga qaratilgan qiliqlarga barham berish maqsadidagina aytayotganim yo'q. Bu gapning faqat tilimizgagina emas, tuzumimizga ham aloqasi bor".

Adib aytgan "tuzumimiz" so'zi bugun Siz bilan biz yashayotgan, dunyoda yagona, betakror yurt - O'zbekistonimizning, ming yillik tarix tegirmonidan bezavol chiqib kelayotgan ona xalqimizning mashaqqat va yutuqlarga to'la hayoti, dunyoda borligi, deya talqin etilishi mumkin. Shunday ekan, til masalasi - bu millat masalasi, uning bu olamda mavjudligi va yashab qolishi, ertangi taqdiri hamda kelajagi muammosi hisoblanadi. Abdulla Qahhor chinakam ijodkor zotining bu muammoga befarq bo'lishi mumkin emasligiga yorqin misol-

ni hazrat Navoiy faoliyatida ko'radi, ul zoti muborak isbotlagan haqiqatni eng mo'tabar hujjat sifatida hammaga baralla namoyish etadi:

“O'zbek tilida fikr va tuyg'ularni yaxshi ifoda qilib bo'lmaydi, degan nazariyani Navoiy bundan besh yuz yil burun tor-mor qilgan”.

Abdulla Qahhor butun hayoti va ijodini hazrat bobomiz qo'lga kiritgan zafarli marralarni saqlab qolishga, ularni yanada kengaytirishga safarbar etgan ekan, biz ham butun borlig'imiz bilan his qilaylikki, bu safarbarlik ruhi bugun ham bir muddat bo'lsin susaymasligi, undagi ishtirok xalqning har bir farzandi uchun iftixor etsa bo'ladigan kundalik faoliyatga aylanmog'i zarur.

“CHINOR QADAR YASHAYAJAKMAN...”

Bahodir KARIMOV,

filologiya fanlari doktori, professor

XX asr insoniyat tarixida juda murakkab kechdi: o'zgarishlar, to'ntarishlar, buhronlar, jahon urushlari, “sovuq urushlar”, zilzilalar, toshqinlar, siyosiy yakkahokimlik, nihoyat asr oxirida sobiq ittifoqning parchalanishi... Bunday cho'ng ijtimoiy voqea-hodisalarga qaysidir ma'noda ijod ahli e'tibor berishi, ular girdobida yashagan insonning ma'naviy-ruhiy olamiga qiziqishi tabiiy bir holdir. Xususan, XX asr o'zbek adabiyoti tarixi kuzatilsa, davr ob-havosiga hamnafas, davr odimlariga hamqadam adiblar avlodi ko'zga ko'rinadi. Bular orasida G'afur G'ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi alloma adiblar ajralib turadi; ular muhokama qilgan mavzularning o'zaro yaqinligi, ayni chog'da o'ziga xos individullik ham yaqqol seziladi.

Istiqlol yillarida nafaqat mumtoz tasavvuf yoki jadid adabiyoti, balki mustabid tuzum davri, o'z nomi bilan ataganda sovet adabiyoti tarixini ham qayta baholash, adabiy-estetik qiymatini aniqlash yo'lida bir qator yangicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, Maqsud Shayxzoda asarlari, murakkab kechgan hayot yo'li ham e'tibordan chetda qolgani yo'q, albatta. Shoir, dramaturg, olim, pedagog, tarjimon kabi qator sifatlar Maqsud Shayxzoda fenomenini anglashga yordam beradi. Uning ijodiy merosi haqida ko'plab e'tirof va yuksak baholar bor. O'z vaqtida zamondoshlari Maqsud Shayxzoda “she'rlarining shakli rang-barang”ligi (Oybek), “fikrlar shoiri” ekanini (Hamid Olimjon) ta'kidlashdi. Uning hayoti va ijodiga “donolik, mehribonlik, tabassum” xosligiga (Shukrullo), “o'zida ko'p fazilatlarini mujassamlashtirgan go'zal inson”ligiga (O.Sharafiddinov) urg'u berildi.

Biroq mening tasavvurim bo'yicha, bugun ham Maqsud Shayxzodadek ajoyib adabiy siymo merosiga qayta nazar

tashlash va o'zbek adabiyoti tarixidagi xizmatlari, o'zbek adabiyoti xazinasi va adabiyotshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yuzasidan fikrlashish foydali bo'ladi. Garchand Maqsud Shayxzoda "sovet davlati rahbarlarini, partiyani olqishlovchi she'rlar yozib, davrning o'tkinchi masalalariga o'z vaqtida munosabat bildirib turishga, zamonasiz shoir niqobi bilan yashashga" (N. Karimov ta'biri) majbur bo'lgan esa-da⁶¹, uning adabiy bisotida yurak amri bilan bitilgan va o'tkinchi mafkura bo'hronlarini dog'ada qoldirgan umrboqiy asarlar oz emas. Aynan shunday asarlar XX asr o'zbek adabiyoti tarixida mumtoz martabada turadi.

Istiqloq yillari maktab o'quvchilari uchun yozilgan darsliklardan Maqsud Shayxzodaning ko'plab she'rlari (to'rtliklar, "Yillarning salomin yillarga eltib", "She'r chin go'zallik singlisi ekan", "Ayriliq" kabi she'rlari), "Iskandar Zulqarnayn" dostoni, "Toshkentnoma" falsafiy-lirik poemasi, "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasidan parchalar berildi. Oliy ta'lim tizimida filolog talabalarga uning she'riy merosi, dramalari to'la o'rgatib kelinadi; Alisher Navoiyga bag'ishlangan ilmiy-nazariy maqolalariga navoiyshunoslar har doim eng muhim adabiy talqinlar sifatida murojaat qilishadi. Hech shubhasiz, bu adabiy manbalarning barchasi davr o'quvchisining zavqiga, qalbiga, dunyoqarashi va qiziqishiga mosligi - shu misollarning o'ziyiq Maqsud Shayxzoda asarlarining yangi umridan darak beradi.

Bir haqiqatni chuqur anglash kerakki, Maqsud Shayxzoda Toshkentda xotirjam yashashi uchun ikki karra ehtiyotkor va zamon bilan hamnafas bo'lishi, shamolda tebranyotgan baha-ybat daraxtning hilpirayotgan mitti barglarini xuddi rassomdek aniq-tiniq ko'rib turishi lozim edi. Darhaqiqat, bir marta sutdan og'zi kuygan oqil inson ko'ra-bila turib o'zini o'tga-cho'qqa urmaydi. Ammo shoir ko'nglidagi po'rtana, jasur va ziyoli, mard va oddiy insonlarga bo'lgan ehtirom uning qalbida umr bo'yi yashadi. Zero, adib ijodining asl negizini aynan shu tipdagi

⁶¹ N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti. 2008-yil. 354-bet.

go'zal asarlari, o'ziga xos obrazlar galareyasi tashkil etadi. Falakiyotshunos alloma, odil hukmdor Mirzo Ulug'bek yoki xalq qalbidan mangu joy olgan, Vatanning mangu qalqoni Jaloliddin Manguberdi kabi ulug'larning badiiy obrazlari Shayxzoda ijod olamida o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Buning uchun munatoz Sharq adabiyoti va madaniyatiga mehr-muhabbat cheksiz bo'lgan adib turkiy xalqlarning shonli tarixini puxta o'rgandi. Bilasizki, Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy Jaloliddin Xorazmshohning qiyofasi va shaxsiy sifatari haqida: "U bug'doy-mag'iz ranglik, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi... U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ov-dalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi."⁶², deb yozdi. Bunday tarixiy-haqiqiy tavsiflar M.Shayxzoda e'tiborida bo'ldi, tafakkuri qozonida qaynadi. Shu bois "Jaloliddin Manguberdi" dramasida tarixnavis Nasaviy tilidan: "Ammo sher Jaloliddin tortib na'rasin, Tig' sug'urib o'pirdi mo'g'ul marrasin", deb yozadi. Jaloliddin Manguberdi el-yurt shaydosi, ulug' vatanparvar o'laroq: "Kim yurtidan yovni quvsa, mendurman o'shal", deb na'ra tortdi.

Tilga kirgan tarixiy drama munosabati bilan yana muhim bir haqiqatni aytomoq lozim. Mahbuslik nima ekanini o'z tanasida sinab ko'rgan, tuhmatlar tufayli qamoq jazosiga mahkum etilgan Maqsud Shayxzoda botiniy shuurida ozodlik va erk tuyg'ulari uzoq yashadi. Shuning uchun dramaning har bir sahnasida Jaloliddin Manguberding:

*Kishi tug'ilmaydi boshda toj bilan,
Tug'ilar erklikka ehtiyoj bilan⁶³,*

degan hikmati aks-sado berib turadi.

⁶² Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. Toshkent "O'zbekiston", 2006-yil, 295-296-betlar.

⁶³ Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. Toshkent "Muntoz so'z" nashriyoti. 2015-yil, 24-bet.

Shuning uchun Jaloliddin Manguberdi yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan katta-kichik hammani hurriyat yo'lidan bel bog'lab maydonga chorlaydi. Shuning uchun shoir: "Hibslar dastidan, ey voh, xaloyiqlar qilar nola", deb faryod chekadi. Bu ham shoir yuragining eng cho'nqir joyida mudrab yotgan sirli hasrat sasining aks sadosidir.

To'g'irisi, o'zbek adabiyotiga Jaloliddin Manguberdi obrazini birinchi bo'lib Maqsud Shayxzoda olib kirdi. Keyin Erkin Samandarning "Ajodlar qilichi" dramasi, "Sulton Jaloliddin", Habibulla Zayniddinning "Mangu qalqon", Shahodat Ulug'ning "Jayhun epkinlari yoxud Jaloliddin Manguberdi qissasi" tarixiy romanlari, qator she'riy asarlari yozildi. Bu ma'lumotlar Maqsud Shayxzoda boshlagan adabiy an'ananing keyingi davr o'zbek adiblari davom ettirganini anglatadi. Yana bir ma'lumot, shoirning ulkan "Toshkentnoma" asariga ergashib, taniqli shoir Mahmud Toir "Yangi Toshkentnoma" dostonini yozdi. Bu o'rinda M. Toirning ham Maqsud Shayxzodaning zilol bulog'idan suv ichganini ta'kidlamog' kerak.

Biz uchun Maqsud Shayxzoda ijodining yangicha talqinlari muhim va qiziq. To'g'irisi, M. Shayxzoda ijodi, uning jahoniy miqyosi va, xususan, tragediyanavislik mahorati mustaqillik yillariga kelib odil, xolis va to'g'ri bahosini oldi. Bu o'rinda "Mirzo Ulug'bek" asariga O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov bergan bahoni eslash o'rinli. Olim yozadi: "Undagi ("Mirzo Ulug'bek" tragediyasi nazarda tutiladi – B. K.) tasvirlangan hayot dramatisizmi jihatidan eng mashhur tragediyalardagidan zarracha kam emas, asardagi yetakchi xarakterlar har jihatdan barkamol, qahramonlarning gaplarini aytmayisizmi – aksariyati purma'no, hikmatga boy. Albatta, hayotda Mirzo Ulug'bek chinakamiga donishmand odam o'tgan bo'lsa kerak – Shayxzoda asarni yozish jarayonida shu darajaga ko'tarila olgan, uning qiyofasiga kirib turib, ichki dunyosini tugal o'zlashtirib turib qalam tebratgan. Xullas, "Mirzo Ulug'bek" dramasi hech ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorga qo'ysa

bo'ladi"⁶⁴. Olim bunday fikrlarni o'z vaqtida ayta olmagani sababini "sho'ro muhiti"dagi iymanishlarga bog'laydi. Qayta mutolaa, qayta nazar, qayta idrok oqibatida olim "Biz daho san'atkorlarni olis shimoldan, ko'zdan nari g'arbdan va yana dunyoning allaqayerlaridan qidirar edigu, o'zimizdan bunday san'atkorlar yetishib chiqishiga gumon bilan qarar edik", deb haq gapni yozadi. Umuman, ulkan iste'dod egasi Maqsud Shayxzoda o'tkir qalamining go'zal hosilasi bo'lmish "Mirzo Ulug'bek" kabi asarlarni hech ikkilanmasdan dunyo adabiyotining nodir namunalari qatoriga qo'yish mumkin. Bizning bunday umumlashma fikrlarimiz o'z adabiy-estetik zaminiga ega, albatta.

M.Shayxzoda ijodi, mahbuslikdagi hayoti, asarlarining yangi qirralari akademik Naim Karimovning e'tiborini tortdi: "Uning she'rlarida shoirning tanti tabiati va yosh boladek toza qalbi-yu turk va ozarbayjon she'riyatiga xos mavjlar tovlanib-dolg'alanib turadi"⁶⁵. Istiqlol yillarida Naim Karimov tomonidan yozilgan muhtasham "Maqsud Shayxzoda" nomli ma'rifiy-biografik roman ahamiyatini alohida ta'kidlash kerak. Bu M.Shayxzoda to'g'risida mehr-muhabbat va bilimdonlik bilan yozilgan eng muhim kitoblardan biri sanaladi. Kitobda adibning mashaqqatli hayoti, bolaligidan tortib oxirgi nafasigacha bo'lgan taqdir bitigi arxiv manbalari, adib asarlari va zamondoshlarining xotiralari bilan uyg'unlikda tilga kiradi. Bular orasida Maqsud Shayxzodaning "O'zbek va ozarbayjon xalqlarining ma'naviy olami, madaniyati bir-biriga naqadar yaqin! Navo'y va Fuzuliy bir onaning egizak farzandlaridir!..."⁶⁶ kabi ko'plab bebaho fikr-mulohazalari ham bor O'zining munosib o'quvchilarini topgan bu kitob ham adib hayoti va ijodiy biografiasining yangicha adabiy talqinlari sirasiga kiradi.

⁶⁴ Ozod Sharafiddinov. "Uch cho'qqining biri" / Ijodni anglash baxti. Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2004-yil, 549-bet.

⁶⁵ N. Karimov. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2008-yil. 354-bet.

⁶⁶ N. Karimov. "Maqsud Shayxzoda". Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2010-yil, 222-223-bet.

Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda ijodiy faoliyatini yangicha rakursda o'rgangan olimlarining maxsus maqolalari "Sharq yulduzi", "Jahon adabiyoti", "Fan va turmush", "O'zbek tili va adabiyoti", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" kabi qator vaqtli matbuot sahifalarida bosildi.

Bolalik tafakkurimga Maqsud Shayxzodaning "Muhammad to'pchi" degan balladasi muhrlanib qolgan. Asar urush mavzusida; u juda mayin, lirik pafosda boshlanadi.

*Ko'za olib chiqqan yaxshi qiz,
Go'zallarning husni naqshi qiz.
Ktm uchun bu aytganing qo'shiq,
U qahramon bo'lib keljak,
Tez kelmasa kelar bir darak...*

Ma'noli, silliq, ohangli. So'ngra balladada o'zbek o'g'lonining qahramonliklari vasf etiladi. Maqsud Shayxzoda ijodi negizida ko'pincha ana shunday lirik va tragik pafos - "Misoli qish va rayhon, dasht va buloqlar" kabi juftliklar mushtarakdir. Ota va o'g'il - Jaloliddin Manguberdi bilan Muhammad Xorazmshoh, o'g'il va mo'g'il - Jaloliddin va Chingiz - bular o'rtasidagi ziddiyat - bu oddiy nafsning balosi, shunchaki mol-mulk talashi, mansab janjallari emas. Qarama-qarshilik asosida hur Vatan taqdir, inson qalbidagi murakkab ruhiy ziddiyatlar talqini turibdi. Mirzo Ulug'bek bilan unga qarshi personajlar to'qnashuvi ham ma'rifat bilan jaholat o'rtasidagi ulkan konfliktidan iborat. Aslida Shayxzoda hayotining o'zi ham shu ikki qutbdagi, shu qo'sh tushuncha doirasida kechgandek taassurot qoldirdi. Unga bamisoli "bir yoqdan tugamas baxt berdi jahon, bir yoqdan o'kinch va kadar" (Abdulla Oripov ta'biri). Uning butun tahlikali umri konflikt, ziddiyatlarga ko'mildi. Ammo Shayxzoda she'riyat ma'vosida istiqomat qildi; hech qachon o'zining hayotsevar jonbaxsh ruhidan tuban enmadi. O'zida jasorat, ruhiy kuch-quvvat topdi.

Shuning uchun ham shoirning yashnoq misralarida o'ziga xos joziba bor. "Ko'zlar" she'ridagi "go'zallik" kalimasi majoz bilan "ko'z" so'zdan chiqqani esdan chiqmaydigan shayxo-

na topilma, albatta. Shoir yer sharini apelsin – po'rtaxolga o'xshatadi. yerga baland osmondan uchuvchi nazari bilan qarar ekan: "Dunyo go'yo po'rtaxol, Tog'lar unga yopishgan bir xol", deb yozadi⁶⁷.

Shoir hech qachon shayxona tabassumini, saxovatini, betakror va go'zal insoniy fazilatlarini yo'qotmadi. Uning insoniyligi zamondoshlarining tillarida doston bo'ldi, dillarga mahkam o'rnashdi. Insoniy fazilatlarini to'g'risida juda ko'p xotiralar, ta'rif va tavsiflar bor. Said Ahmad yozadi: "Shayxzoda bu dunyodan rohat ko'rmay o'tib ketdi. Lekin u baribir baxtli inson edi. Uni el shoirim derdi. Shayx akam, derdi. Yoshlar uni ustozim derdi. Yosh shoirlar to'da-to'da bo'lib unga ergashib yurardilar. U olim edi. U muhtojlarga yordam qo'lini cho'zgan saxiy inson edi. U g'amda qolganlarga g'amguzor edi. U suhbatini jonon odam edi. U nolishni bilmasdi. Taqdir zarbalariga sabot bilan turib berardi. Bir so'z bilan aytganda u dilbar inson edi. Bir odamda shuncha fazilat bo'lishi mumkinligini Shayxzoda timsolida ko'rganman.

U olim shoir edi.

U shoir olim edi.

Bunday insonlar dunyoga kamdan-kam keladi.

Darhaqiqat shunday.

Tasavvurimcha, M. Shayxzoda hamisha mardlikni, jasoratni, odamiylikni, ma'rifatni ulug'ladi, ma'nan baland va haqgo'y, jasur va odil insonlarni ardoqladi. Uning adabiy qahramonlari ko'pincha o'z umrini har doim sarhisob qilishni yaxshi ko'rishadi.

Bir she'rida:

She'riyat diyorin shoirlarimiz,

Har uy, har ko'ngilga baytlar bo'lsin yor!

Elga dastyor bo'lsa she'rlarimiz –

⁶⁷M. Shayxzoda. «Tanlangan asarlar», 1-jild. – T.: G'ulom. 1969.

*Demakki, umrimiz o'tmabdi bekor!..
("She'r chin go'zallik singlisi ekan..." she'ridan).*

Umri adabiyot yo'lida o'tgan shoir – umri bekor o'tmagani uchun o'z qalamidan mamnun; yozganlaridan xursand.

*"Umidvorman, umidvorman, muqarrar:
Hech qayerda,
Hech qachon
Yaxshi inson o'lmaydi,
Unutilmaydi" ("Tovushlar" she'ridan).*

Shoir umidvor, uning umidi bor. Haqiqatan ham "hech qayerda, hech qachon Yaxshi inson o'lmaydi, unutilmaydi". Jumladan, o'zbek adabiyoti uchun o'ziga xos ajoyib asarlar taqdim etgan Maqsud Shayxzoda ijodi ham hamisha o'quvchini zavqli muloqotga chorlab turadi.

*Umrlar bo'ladiki, tirtigida o'likdir.
O'lmlar bo'ladiki, o'lgan odam tirikdir.*

Ushbu hikmatli misralarni ko'pchilik yod biladi. Ba'zan buni Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub ekanini o'ylab ham ko'rilmaydi. Shayxzodaning bu yorug' olamni tark etganiga yarim asrdan oshibdi. Ammo u, o'zi aytganidek, hamon o'z so'zlari, yozgan asarlari bilan tirik. Zero, shoir navqiron yigit yoshida havaslanib yozgan ediki: "Menga kerak Tolstoycha umr, Chinor qadar yashayajakman" ("Meni aka deydilar" she'ridan).

Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyoti tarixida chinordek yashayajakdir.

So'zimni shoirning "Yo'q, men o'lgan emasman!" she'ridan olingan parcha bilan tugataman:

*Agar bog'lar gullasa, demak, bog'bon o'lmapti,
Agar charog' portasa ha... Charog'bon o'lmapti,
Agar qanot qoqilsa, demak, shunqor o'lmapti,
Agar g'azal yozilsa, demakki, yor o'lmapti,*

*Shirillasa gar suv, demak, mirob o'lmapti,
Agar bo'lsa kitobxon, demak kitob o'lmapti....*

VATAN BETAKROR, KUYCHISI BETAKROR

Hotam UMUROV,
filologiya fanlari doktori, professor

Har bir odamda ko'plab xislatlar va ayni paytda, ularning ham yetakchisi bo'ladi. Bu sifat va xislatlar umr davomida doim o'z egasini boshqaradi. Hamma holatlar va jarayonlarga yetakchi xislatning mag'ziga joylashgan ne'mat o'z tamg'asini bosadi. Jumladan, agar biron kishining fe'li-xo'yidagi yetakchi xislat – yolg'onchilik bo'lsa, u qay darajada to'g'ri gapirganda ham, baribir, yolg'onni qo'shmasdan iloji bo'lmaydi; yolg'on-siz ko'ngli ham, aqli ham to'lmaydi.

Bu haqiqatga tayansak, Hamid Olimjon poeziyasining xislatlari ko'p: jo'shqin lirizmga boyligi, xalqona soddaligi, realizmning chuqurligi, ehtirosning zo'rliigi... Lekin ularning yetakchisi – shodlik va baxtga to'lib yashash va bu tuyg'ularni ko'pning qalbiga singdirishdir. Ana shu bosh xislat – uning barcha asarlari qa'riga, tabiatiga singib ketgandir.

*Quvonch shulkim, tole yor bo'lib,
Baxtni topgan elni ko'roldim,
Asrlarning qayg'usin qarg'ab,
Shodlik va baxt kuyini chaldim.*

Yoki:

*Shodlik yo'lga boshladi meni,
Baxtyorlik bo'ldi odatim.
Shoir bo'lib shodlik va baxtni
Kuylamaklik zo'r saodatim.*

Shuning uchun ham Hamid Olimjonning nomi barcha kitobxonlar qalbida Baxt va Shodlik kuychisi sifatida abadiy yozilib qolgandir. Shuning uchun ham Hamid Olimjon de-

ganda, kishi qalbida ixtiyorsiz ravishda baxt-shodlik tuyg'usi jo'sh uradi. Hamid Olimjon ijodi to'g'risida kimki fikr yuritsa, shoirning baxt va shodlik kuychisi ekanligini ta'kidlamasdan o'tmaydi...

Hamid Olimjon "O'zbekiston", "O'rik gullaganda", "Eng gullagan yoshlik chog'imda" kabi ba'zi she'rlarida bitta kompozitsion topildi uchraydi. Bunda shoir ustalik bilan kitobxon diqqatini o'ziga qaratadi, ya'ni she'rning dastlabki ikki misrasida aytmoqchi fikrini kitobxonga havola qiladi, uning qalbiga hamohang tuyg'ularni, ipga terilgan dur donalaridek, yaqqol tiriladi. Shundan so'ng, go'yo Sizu mening qalbiz bo'lib, shodlik va baxtdan nur emib, quvonchli dilso'zlar ifodasiga o'tadi.

Bundan 70 yil oldin yozilgan va hanuzgacha uning tarovatini, go'zalligi, mo'jizakorligini boshqa biron asar takrorlay olmagan "O'zbekiston" (1939) she'ri ham shunday boshlanadi:

*Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...*

Xo'sh, bu ajib his nima? Nega yayov kezganda bu his tug'yon uradi? Uni Sizu men qanday tasavvur qilamiz?.. Bu o'ylarning sanog'i, adog'i yo'q... O'ylanaverasiz, o'ylanaverasiz... Es-hushingiz lol qotgandan so'ng, qani shoir nima der ekan, qalbidagi ajib hisni qanchalik zavq-shavq bilan xonish qilarkan? Uni qanday chizarkan? Vatanga, insonga esh muhabbatini qanday ifodalaydi ekan, kabi savollarni uyg'otish orqali Sizni o'ziga "bog'lab" olgandan so'ng, qalb zarlarini to'kishga o'tadi:

*Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya,
O'sar edi shoirida g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim, aslo.*

Bu zarblar Sizni o'ziga mahliyo aylasa ham, hali hech bir narsani oshkora qilmaydi. Bizning hayronligimizni oshiradi, xolos. Sizda tug'ilgan savollarning yechimini bermaydi, lekin Sizni tinglashga, "bir ajib his"ning o'xshashini topishga yo'naltiradi, uni bilishga judayam zoriqtiradi, intizor etadi. Shunday tarzda Sizni pinhona tayyorlagandan so'nggina, qalbidan nur kabi oqib chiquvchi va ayni paytda, qalbida pishib yetilgan "O'zbekiston nomli bir jannat"ning timsolini, "Elni quchgan mangu bir bahor"ning anvoyi ranglari iforini his etadigan va hididan mast bo'ladiganday qilib so'zlaydi; "ajib diyor"ning - "Chiroyida zarra dog'i yo'q" o'lkaning mohiyatini kashf etadi:

*O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston.
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir guyo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.*

*Chor atrofga yoyganda gilam
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib guyo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.*

"Bundayin ajib diyor"da mehnat qilayotganlar, "ijod va turmush" mashaqqatlarini yengayotgan odamlarsiz yaxlit bo'lolmaydi. Xuddi shuningdek she'r ham, she'rdagi beniho-ya aniq, qabariqli, rost, yorqin, go'zal o'lka tabiati ham elsiz yaxlit poetik obrazga aylanmaydi. Chunki shoir aytganidek:

*"Go'zal etmish dunyoni odam,
Odam bilan go'zaldir ul ham".*

Shu bois, faqat ular birlashganlarida, bir-birlarining qalb va mohiyatlariga mehr va muhabbat ila kirganlarida, bir jonu tanga aylanganlarida O'zbekistondek diyor – "yangi bir jahon" bo'lib yaxlitlashadi, jonlanadi:

*Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan-kunga o'sadi paxta,
Barg chiqadi har bir daraxtda.
Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to'lar Tekstil.
Hammasing bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog'i pishqirgan selda
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir, -
Bu shundayin ajib diyordir.*

"Bu ajib diyor"ning shuncha xislatlari ketma-ket, bosqichma-bosqich ochilaveradi. Hayratingizni toshiraveradi. Albatta, bunday holga tushishning, Vatan ulug'ligi va go'zalligini his etishning sabablari bor, bu sabablarning arzu tasvirida katta ishonch va hayotiylik beqiyosdir; illo bu Vatanning:

*Dalasida o'smas tikonlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar.
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti.
Chanqov qolib yo'lovchi o'lmas,
Har burchakda boshkesar bo'lmas.
Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go'daklarni yutmas och o'lim.*

*Odamga baxt va tole yordir, -
Bu shundayin ajib diyordir.*

Ushbu parchadagi so'nggi ikki misrani takrorlasangiz, guyo she'r tugagan, uning asosiy g'oyasi ("Odamga baxt va tole yordir") yechilgandek tuyuladi. Shoir bundan oshirib aytolmasligiga, O'zbekistonning qalbini bundan-da zo'rroq ifoda qilolmasligiga, shoirning bir oniy nafasi nihoyalanganiga ishonch hosil qilasiz. Lekin bu ishonchingizni san'atkor dahosi chilparchin qiladi. U nafasni rostlab olish uchun to'xtaganligini his ettiradi, hali uning O'zbekiston qiyofasini balandroq pardada ochishiga, yanada nurlantirishiga, yanada yaxlit uyg'unlikni yaratuvchi xislatlarni ochishiga imkon beruvchi iste'dodining qudrati beqiyosligini ko'rsatadi.

*Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish,
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Bir o'lkaki husnga boydir,
Uning eng zo'r ko'zgusi oydir.
Bir parcha o't bo'lib bunda kun,
Paxtasiga ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi,
Kuychilari o'qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla.
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.*

Vatanning, vatandoshlarning bunday safarbarligidan, har birining o'z ijodi va turmushi bilan bandligidan iftixor tuygan shoir, buning sabablarini voqelikdan axtaradi va voqelikdan topadi...

She'r muqaddimasi Vatan tuprog'ini o'pish ("O'par edim Vatan tuprog'in") bilan boshlangani bois, uning xotimasi ham ana shu aziz tuproqqa baxshida mehrning tasviri orqali yakun topadi, uni tahlilidan ko'ra, o'zini qalbga singdirish ko'proq zavqlidir, jonbaxshdir:

*Shaftolizor bog'larni ko'rdim,
Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim.
Mehr qo'yib o'pgan sari oq,
Oppoq bo'ldi bu aziz tuproq.*

Vatan va xalqning ruhiyatini birgina she'rga sig'dirish va uni to'lasincha ifodalash imkoni hech bir san'atkorga berilmagan. "Har kuni bir buyuk mazmun"ga ega Vatan va xalqning timsolini hamma ijodkorlar yaratishi, u har bir qalbdagi o'zgacha kechinmalar uyg'otishi mumkinligini Hamid Olimjon to'liq anglaydi. Va u shu tushunchadan kelib chiqib, mardonalik va san'atkorlik bilan yaratgan "O'zbekiston"ni yana o'zi ham, o'zgalar ham kuylashiga imkoniyat borligiga shama (ko'p nuqta qo'yib) qilib, tugatadi. Bu bir bora gul iforiday sochilgan "ajib his"larning hali tugamasligiga bashoratdir. Ayni paytda, she'r qanday ochilgan bo'lsa, kompozitsion yaxlitlikni bunyod etish uchun aynan shunday misralar bilan yopiladi:

*Vodiy larni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...*

Oradan ancha vaqt o'tdi. Nihoyat Abdulla Oripovning "O'zbekiston" (1964–1970) she'ri dunyoga keldi. U shunday boshlanadi:

*Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yitroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda, biroq*

*Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.*

Ushbu bandni o'qiganingizdanoq Hamid Olimjonning "O'zbekiston"i yodingizga keladi, ana shu she'r Abdulla Oripov "O'zbekiston"iga turtki bo'lganini anglaysiz.

Hamid Olimjon va Abdulla Oripovning she'rlarida soddalikni, tabiiylilikni, teranlikni his qilasiz. Ikkalasining ham go'zal asar ekanligini tan olasiz. Ayni paytda, ularning farqini – har bir shoirning o'ziga xos o'ylari, tuyg'ulari, orzulari, fikrlari dunyosi borligini anglaysiz.

Hamid Olimjon o'lka "tabiatiga taqlid qilmaydi, balki u bilan raqobatga kirishadi", tabiatni o'z ko'zi, qalbi, ongi bilan qaytadan tiriltiradi, uni faollashtiradi, baxt va shodlik kuyini chaldiradi, tuyg'ularni mazmunga ko'madi, hissiyotni toshirtiradi, odamni entiktiradi, kelinchakka o'xshash O'zbekistonga mahliyo etadi – qo'yadi. Abdulla Oripov esa o'lka tabiatiga emas, balki ana shu o'lkaning buyuk o'g'lonlari – Amir Temur, Ulug'bek, Berunty, Navoiy, Jaloliddin, Sobir Rahim, Habib Abdulla kabilarning tarixiy xizmatlari sarhisobi orqali Vatan timsolini jonlantiradi. Ya'ni, shoir taassurotni fikrdan oladi. Uningcha, "Go'zal va chuqur fikrdan odamning hayratlanishi tabiiy hol... Bu shu qadar go'zal bir mo'jizadirki, uning oldida har qanday daho shoir ham lol qolishi hech gap emas..."

Hamid Olimjon asarida barcha bandlar, qismlar, tasviriy vositalar, badiiy unsurlar "O'xshashi yo'q bu go'zal bo'stonda odamga baxt va tole yordir" degan bosh maqsadni ochishga yo'nalgan bo'lsa, Abdulla Oripov she'rida "Vatanni ulug' qilgan ona xalqdir" degan maqsadga bo'ysunadi va yurt timsolini yaxlitlaydi.

Jumladan, bu Hamid Olimjonda:

*Odamga baxt va tole yordir, -
Bu shundayin ajib diyordir.*

Abdulla Oripov she'rida esa quyidagicha aksini topgandir:

*Bobolardan so'zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim o'zingsan buyuk
Sen o'zingsan, eng so'ngi nonin
O'zi yemay o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon – tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.*

Birinchi she'rda Vatanning betakror mazmuni batafsil yoritilsa, ikkinchisida o'lkaning "kechmishini tomosha" qilish orqali Iqbol hurliqi, mangu yorug'ligi ochiladi.

Birinchisida ilhom juda yengil, tiniq, baxtiyorlikni mujasam etgan bo'lsa, ikkinchisida hayqiriq, shiddat, falsafiylikni voqye qiladi. Shu bois birinchisi zavq bilan o'qilsa, ikkinchisi mulohazakorlikni talab qiladi.

Hamid Olimjon she'ri uzoq o'ylangan, miyada uzoq pishirilgan va so'ngra qog'ozga tong payti birdaniga to'kilgan bo'lsa, Abdulla Oripov asarining bitishi, uning iqroriga, boshqacha bo'lgan: "Men bu she'rni juda uzoq vaqt tanafus bilan, o'qtin-o'qtin yozganman. Katta she'rlarni, o'zimning tajribamdan aytaman, bir o'tirishda yozib tugallash qiyin. Bu bir syujet bo'lsa ekan, davom ettirib ketaversangiz. Agar hazilroq qilib aytsam, bunday she'rlar yo'talga o'xshaydi. U tutishi kerak. Tutmasa, qasddan yo'talsangiz, yo'tal chiqmaydi. Yo'tal o'zi ichdan qo'zib chiqishi kerak. Shuning uchun shu besh-olti yo'tal mobaynida, shu she'rni yozib tugatganman. Bu she'rning bitishiga 3 yil muddat ketgan" (Sharq yulduzi, №1, 2006, 11-bet). "Sevinchdardim – bari Vatanim" nomli suhbatida: "O'zbekiston" she'rimni olaylik. Men uni 1964-yilda boshlaganman. Shu orada uning yarmini yozdim-u, qolgan yarmiga o'sha mahalda nafasim yetmadi. She'rni to'xtatdim keyin. Orada boshqa kayfiyatlar bilan bog'liq she'rlarni yozib yuraver-

dim. Vaqti-soati kelib yana shu she'rga kayfiyatim ro'para keldi. Kutib turgan edim shuni. Xuddi kelgan joyidan yana qattiq bir mehnat bilan she'rni tugatdim. Endi shunga qandaydir bir olti-yetti yil vaqt ketdi", deydi.

Bunday tarzda taqqoslashni qancha davom ettirmaylik, bu she'rlar haqida shunday xulosa qilish mumkin: lkkalasi-ning olmosdek mustahkam misralariga jo bo'lgan tuyg'ular tiniqdan-da tiniq; fikrlari teran, obrazlari ulug'vor; umid va ishonch yorug', faxr va g'urning ruhiy qudrati beqiyos, o'ta hayotiy va go'zalligi betakror.

Lekin menga Hamid Olimjon she'ri beqiyos yuksak ko'rinadi. Unda xalqning ruhini, o'lkam tuprog'ining hidini sezaman, mazasini totganday bo'laman. Quvonchim toshadi, yuragim qinidan chiqaman, deydi. Shunda hayotning baxt va shodlik qo'shig'ini barcha qadrdonlar bilan kuylagim, yonib, yondirib yashagim keladi. Vatanga bo'lgan iftixor va g'ururdan yaralgan mag'rur, qudratli, pokiza, jozibali, jo'shqin, jonbaxsh tuyg'ulardan oziqlangan "she'rimizning eng jarang sasi, boqiy she'r" (A.Oripov) egasi bugun ham safda ekanligiga imon keltiraman.

ZULFIYANING ZALVORLI SO'ZI

Mavlon BOBOXONOV,

filologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

*Hamon e'tiqodim haqiqat, haqdir,
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga.
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,
Osuda o'tadi ruhim abadga.*

Zulfiya

Badiiy ijod bilan, shoir-yozuvchilar dunyosining o'ziga xosligi bilan ozmi-ko'pmi qiziqqanlar biladiki, yurak-yuraklarga yetib boradigan she'r nazm etish ona tilining haqiqiy egalariga, o'z tilining grammatik yoki imlo qoidalarini suv qilib ichishdan tashqari, uning barcha imkoniyatlarini – so'zlarning ma'no tovlanishlaridan tortib, ular ifodalaydigan narsa-hodisalargacha teran his eta oladigan shaxslargagina nasib etadi. O'z tilining nufuzi va kelajagi haqida qayg'urish ijodkor xalqiga xos azaliy tushuncha bo'lib, chinakam shoir yoki yozuvchi o'z xalqi oldida millat tilini asrash va rivojlantirishdek ulkan missiyani ado etishga burchli ekanini yurak-yurakdan his qilib yashaydi. Ular orasidan eng iste'dodlilari zamon va davr ko'rsatmasi qanday ekanligiga qaramasdan, turli qochirimu tashbehlarni o'rni bilan qo'llash orqali ko'zlagan maqsadiga erishadi – ham badiiy asar yaratadi, ham ona tilining yashovchanligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya ana shunday betakror iste'dod sohibasi, Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'usini, olijanob insoniy fazilatlarini yuksak pardalarda tarannum etgan yetuk ijodkor edi. U o'zining badiiy asarlari, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyati bilan nafaqat milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz, balki o'zbek tilining rivojiga, uning jahondagi yirik minbarlarda (ayrimlarida ilk marta) jaranglashiga –

xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga behisob hissa qo'shdi. Professor H. Umurov asosli e'tirof etganidek: «Kamalak yetti rangda yetmish xil jilolanib, barchani maftun qilganidek, Zulfiya «tongning o'ziday rost va yorqin haqiqatga» yo'g'rilgan poeziyasi bilan («Kechir, qoldim g'aflatda!» «Bahor keldi, seni so'roqlab», «Ne baloga etding muftalo» va sh.k.) sadoqat va vafodorlik tuyg'usini – insoniylikning bosh mezoni darajasiga ko'tardiki, usiz haqiqiy komil insonni tasavvur etish ham mumkin emas»⁶⁸.

Haqiqatan ham, shoira o'z boshidan ko'plab malomatlarni kechirgan bo'lsa-da, yana qaddini g'oz tutib hurlikka erishgan jafokash xalq timsoli, aniqrog'i, "o'zbekning Zulfiyasi" bo'lib dunyoga tanildi. O'zbekligini, shu xalq orzu-umidlari-dan, dardu hasratidan bino bo'lganligini o'tlig' misralari bilan eslatib turdi, yosh ijodkorlarga haq va adolat yo'lidan chekinmaslikni bot-bot uqtirdi. "Bugun haqida gapirganda shoir o'z yelkasida o'tmishning – umumiy va milliy tarixning, madaniyatning yukini his qilishi, ayni choqda, taraqqiyot yo'llarini ko'ra bilishi ham kerak"⁶⁹, deganida Zulfiya adabiyot maydonidagi ijodkorlar zimmasiga yuklatilgan ulkan burchni, jumladan, ularning millat tili, ma'naviy-ruhiy dunyosi uchun ham birday mas'ul ekanliklarini ta'kidlagan bo'lsa, ne ajab.

Zulfiya yangi davr ayollar she'riyatining manshaida turib XX asr o'zbek adabiyotining ayol shoiralari maktabini yaratdi. Uzoq yillar "Saodat" jurnalini boshqarar ekan, o'z atrofiga H. Xudoyberdiyeva, O. Hojiyeva, M. Ulug'ova, G. Jo'rayeva, E. Oxunova singari qator iste'dodli shoiralarni to'pladi.

Zulfiya o'zining she'rlari, dostonlari bilan, pokiza e'tiqodiyu zukko fikrlari bilan ko'plab yurtdoshlarimiz hayotidan katta o'rin oldi, ma'naviy dunyosining katta bir qismini tashkil qildi. Holbuki, u inson edi va har qanday inson hayot yo'lida duch keladigan hamma sinovlar, mashaqqatlar, iztiroblar

⁶⁸ Umurov H. She'riyat malikasi Esse. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – B. 4.

⁶⁹ Zulfiya. Asarlar. 3-jild. Kamalak. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B. 135.

uning ham boshiga tushgan edi. Ko'pgina she'rlarida Zulfiya o'zining "kemtik baxti" haqida gapirdi. Umrining so'ngida yozgan "Xotiram siniqlari" dostonida esa o'sha mashaqqatlar, yo'qotishlaru topishlar to'g'risida benihoya mardonalik bilan qalam tebratdi. Boshqirdiston xalq shoiri Mustay Karim Zulfiya ijodini quyidagicha obrazli tasavvur qilgan edi: Zulfiya yaratilari haqida o'ylaganimda men beixtiyor ona yer haqida, ushbu yaratilqlar dunyoga kelmish tuproq haqida o'y suraman.

Zulfiya o'zbek tilining mavqeyini oshirish uchun nimalar qilish kerakligi haqida balandparvoz gaplar gapirmadi, balki o'z ona tilining ifoda imkoniyatlarini yorqin ranglarda ko'rsatdi, lirikaning har qanday janrida his-tuyg'u va kechinmalar manzarasini tavsiflashda o'zbek tili dunyoning istalgan tillari bilan tengma-teng bo'ylasha olishini o'lmas ijodi, ko'rkam va mardonovor she'rlari orqali amalda isbotladi.

Birgina "Xotiram siniqlari" dostoni nafaqat Zulfiyaning o'z umri, balki istibdod tufayli zabunlik yoqasiga kelib qolayozgan butun boshli bir millat, haq-huquqi, or-nomusi toptalgan el boshiga tuganmas ko'rgiliklarni solganlarga qaratilgan baralla hukm, zo'rvonlik siyosatiga atalgan haqqoniy ayblovdur.

Bu asarni liro-epik doston sifatida o'rgangan Sh. Hasanov shunday to'xtamga keladi: "Xotiram siniqlari"da muhtasham epik qamrov mavjud. Butun bir xalqning bir asr davomidagi orzu a'molini, psixologiyasini, turmush tarzini, tarixini shoira 193 satrdan iborat ixchamgina dostoniga jo etgan. Doston tashqi voqea-hodisalar tasviri bilanmas, ichki poetik faoliyat bilan sug'orilgan. Shoira taqdiri xalq taqdiri bilan vobasta... Mustabid tuzumning qatli kushlari, qatag'onlari, surgunlari, yetmish yildan ziyod davom etgan nobop siyosati va buning natijasida tarixi toptalsa-da, udumlari ta'qiqlarga uchrasa-da, biroq irodasi bukilmagan, o'zligini anglab borayotgan xalqning g'amangiz siymosi shoira o'ylarida tug'ilgan og'riqlarining, xotira siniqlarining kolliziyasini belgilaydi"⁷⁰.

⁷⁰ Hasanov Sh. Doston tarkibi va tabiati. – Samarqand: SamDU nashri. 2011. – B. 146.

Dostonda salkam yuz yillik istibdodning lirik qahramon xotirasidagi chandiqlari – jarohat izlari o'zbek tilining ifoda va tasvir imkoniyatlari samarasi o'laroq o'ta ta'sirchan gavdalandirilgan. Oddiy-oddiy so'zlardan tuzilgan misralar birgina shoironing emas, butun boshli xalq tilidan aytilgandek, jamiyat ziyolilari dilidan potrab chiqayotgandek tasavvur uyg'otadi:

*Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa,
Lekin so'qir dillik undan-da dahshat.
Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga
Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.*

Razm solib tinglasangiz, qofiyalar orasidan jonli vujudning mungli nolalari, dardmand yurakning alamnok hayqirig'i eshitiladi:

*«Vatanparvar» debmiz o'z-o'zimizni,
Dengizlar quribdi, chiribdi baliq.
«Insonsan, boshingni ko'tar», demabdi,
Ko'ngling qolganmidi bizlardan, xoliq?*

Zulfiya ijodda kamolot cho'qqisiga ko'tarilgan paytlari sobiq ittifoqning ko'plab gazeta va jurnallari uning suhbatlarini e'lon qilgan. "Hayot va so'z" sarlavhasi ostida e'lon qilingan suhbatda "Drujba narodov" jurnali muxbiri Aleksandr Naumovning "Men o'zbekchani uncha yaxshi bilmayman-u, lekin menga, masalan, ko'pincha o'zbek tilida qofiyaning u qadar ahamiyati yo'qdek, shuning uchun bu tilda fe'lli qofiyalarning juda ko'p uchrashi bejiz emasdek tuyuladi", degan savoliga o'ta bosiqqligi nazokat bilan shunday deydi: "Menimcha, siz yanglishasiz. Fe'lli qofiyalar hukmron deyishingiz ham – yuzaki tasavvur. Bunday qofiyalar bo'sh she'rlarda, gazetalarda bosiladigan tezpi-shar nazmlarda ko'p uchraydi. Garchand, rus she'riyati bilan o'zbek she'riyatining tartiblari bir-biridan haqiqatan juda ham farq qilsa-da, qofiya, vazn, ichki ohang, tirgaklari – assonans, alliteratsiya – she'rning butun fonetik tuzilishi o'zbek she'riyatida ham xuddi rus she'riyatidagi kabi katta

ahamiyatga ega. Hech bo'lmasa, qofiya bilan vazn o'zbek maqollarida qanday rol o'ynashini bilasiz-ku, axir! Shunday bo'lgandan keyin she'rga nima deyish mumkin. Mening nazarimda, azalda she'rning nazmdan ajralib turuvchi tashqi – "o'qilish" yoki "eshitilish"dagi alomati uning yodda qolishi bo'lgan. Bizning O'zbekistonda son-sanoqsiz baytlarni yoddan biluvchi adabiyot shinavandalari qadimdan benihoya ko'p bo'lgan. Hozir ham shunday. Menimcha, bu fakt she'rimizning rasman tuzilishi yuksak darajada ekanligidan dalolat bermaydimi, axir, "yodda qoldiruvchi" asosiy omil shu emasmi? Shu boisdan qofiyaning siyqaligi, qofiyalanuvchi so'zlarning hadeb bir qolipda turaverishi bizda ham zaiflik, didsizlik hisoblanadi"⁷¹.

Ijod mashaqqatlariyu birgina so'z qidirib tong oqartirish azobini ko'p marta his qilganidan bo'lsa kerak, Zulfiya sodda deyiladigan bu til aslida hecham sodda emasligini, uning ortida dono xalq, mutafakkir el turganini juda yaxshi anglaydi: "Bir tomondan frazeologik bisoti olgan bilan ado bo'lmaydigan so'zlashuv tilining boyligiga intilasan va sodda til – aslo soddalik bo'la olmasligini tushunib olasan. She'rim ravon bo'lsa, quloqqa yaxshi eshitilsa, uni o'qigan odam mumkin qadar tez tushunsa, she'rim aniqlik va ravshanlik kasb etsa, deysan. Ammo, ikkinchi tomondan, she'riyat – shunchaki so'zlardan tuziladigan to'rt amal emasligini, she'riy algebra – obrazlilik uning negizini tashkil etishini yillar o'tgan sayin tobora chuqurroq anglab boraverasan"⁷².

Zulfiya ko'plab yosh shoirlarning o'zbek adabiyotiga kirib kelishiga, o'z ovozigga, aytar so'ziga ega bo'lishiga hissa qo'shdi. Ammo o'z ijodiga nisbatan talabchanlik umr bo'yi uni bir zumga ham tark etgani yo'q. Qarang-a, to'plamlaridan birini bejiz aynan o'ziga qarata aytilgan ushbu jumlar bilan yakunlamaydi:

⁷¹ Zulfiya. Asarlar. 3-jild. Kamalak. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B. 154.

⁷² O'sha asar. – B. 157.

*Okean to'liqiniday gumbirlab birdan
Zo'r zalni larzaga solishga qodir –
Minglab kuchli qo'ldan toshgan qarsakdan
O'zini baxtiyor his etar shoir.*

*Bizning bunday shaddod zamonda, ammo,
Bu quvonchning o'zi yetmaydi zinhor.
Agar kimdir keyin, xilvatda, tanho,
O'zi misralaring etmasa takror.*

Shoira she'riyati bugun ham odamlarni mehru muhabbat, sadoqatu vafo, pokligu ezgulik tuyg'ulari bilan to'yintirishda davom etmoqda. Adabiyot, madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun yuzlab iqtidorli qizlarning Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanayotganligi shoira dahosiga, u qoldirgan boy ma'naviy merosga bo'lgan yuksak ehtirom namunasidir. Tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan bu qizlar timsolida Zulfiya yashashda davom etmoqda, ular qonida shoira "men"i oqmoqda. Yangi avlod Zulfiyani ko'rmagan bo'lsa-da, shoiraning har o'qiganingda qu-loq ostida mudom jaranglab turuvchi haroratli satrlari orqali yaqindan tanib olishiga shubha yo'q:

*Hurriyat, kelding-yey, al-omon kelding,
Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim quchar.
Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...
Ruhim u yoqlarga qush bo'lib uchar...*

BADIIY NUTQ JILOLARI

Yo'ldoshxo'ja SOLIJONOV,

filologiya fanlari doktori, professor.

XX asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek adabiyotining taraqqiyoti, ayniqsa, nasrdagi o'ziga xosligi, lirizmning ustuvor fazilatga aylanishi jarayonini ulkan san'atkor Said Ahmadning buyuk xizmatlarisiz tasavvur etish mumkin emas. U Abdulla Qahhordan keyin o'zbek nasriga hayotbaxsh shabada olib kirdi, adabiyotimiz xazinasini ajoyib lirik va yumoristik hikoyalari, badiiy tasviri jihatidan yetuk qissalari, kulgili miniatyuralari hamda komediyalari, "Ufq" trilogiyasi, "Jimjitlik" nomli romanlari bilan boyitdi. Said Ahmad hazmi yengil, tili shirin va shoirona, qahqaha moddasi bilan to'ydirilgan sho'x, hazilga, kulgiga moyil asarlar muallifidir. U tabiatan lirik yozuvchi. Said Ahmadga xos bu xususiyatni adabiy jamoatchilik ham allaqachonlar qayd etgan. Taniqli adabiyotshunos U.Normatov "u nasrda shoir bo'lib tanildi" deb yozsa, zukko adabiyotshunos I.G'afurov yozuvchini to'g'ridan-to'g'ri "Prozaning shoiri" deb ataydi.

Said Ahmad ijodigagina xos bu fazilat uning ilk asarlaridan boshlab ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Binobarin, bu xususiyat yozuvchining hatto urush, o'lim, og'ir xastalik kabi fojey holatlarni tasvirlaganda ham bayonda shu ruh yetakchilik qiladi. Muallif nutqiga xos bunday umidbaxshlik, yashashga ishtiyoq, fojialarni yengishga intilish, ichdan ufurib turgan samimiy tabassum o'quvchining kayfiyatini ko'taradi. Bu fazilatlar bevosita yozuvchining shaxsi bilan bog'lik ekanligini inobatga olish ham adolatdan bo'lur edi. Barchamizga ma'lumki, Said Ahmad ijod maydoniga osonlikcha kirib kelmadi, u boshidan ko'p og'ir kunlarni kechirdi, 50-yillarda qatag'on qilinib, jezqozg'on lagerida ko'p azoblar tortdi, qayt-

ganidan so'ng ham ko'p yillar dadil, jasorat bilan ijod qilishga jur'ati yetmadi. U endi hayotga nekbin ko'z bilan qaradi, o'zi ham, yaratgan qahramonlari ham zavq bilan yashashini istadi.

Said Ahmad asarlarining har birini voqeligi va muammosi qandayligidan qat'i nazar to'lg'onib-to'lg'onib, to'kilib-to'kilib yozganligi sezilib turadi. Shu tufayli ularning har biri nihoyatda rostgo'ylik va samimiyat bilan yozilgan. Zero, yozuvchi ijodining ilk qadamlaridan boshlab, asarlarining shirali, tushunarli, samimiy bo'lishini istadi. Bu fazilatlar til vositasida amalga oshishini anglagan Said Ahmad xalq jonli so'zlashuv nutqi, adabiy til xazinasini puxta o'rganishga kirishdi. Biz ulkan san'atkor Said Ahmadning badiiy nutq mahorati borasidagi o'ziga xos uslubini adibning istiqlol arafasida bitilgan "Jimjitlik" romani misolida isbotlashga urinib ko'ramiz.

Ma'lumki, har bir badiiy asar to'la ma'noda nutq hodisasi, til faktidan iboratdir. Binobarin, asarning tilli yozuvchi mahoratini aniqlashda bosh mezon hisoblanadi. Chunki «Adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz muzika bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi»⁷³. Badiiy asar strukturasiidagi muhim komponentlar - xarakter, sharoit, mavzu, g'oya, syujet, kompozitsiya, voqelik, bayon, psixologik tahlil, konflikt barchasi til orqali yoki aniqrog'i tilning o'zida namoyon bo'ladi. Yozuvchining o'z oldiga qo'ygan bosh maqsadi ham, g'oyaviy niyati ham, asarning ilmiy-mafkuraviy va umuminsoniy mohiyati ham yozuvchi qo'llagan so'zlar vositasida ilgari suriladi.

Shu nuqtai nazardan istiqlol davri adabiy jarayonida yuzaga kelgan badiiy asarlardagi nutq shakllari va uslubiy kashfiyotlarni tasnif qilmoqchi bo'lsak, unda avvalo, adiblarning til ustida ishlashlariga e'tiborni qaratishimiz zarur. Shu jihatdan bu davr adabiyotining nutqiy jarayonlarini yozuvchi uslubiga ko'ra quyidagicha tasnif etish va o'rganish maqsadga muvofiqdir:

⁷³ Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Adabiy-tanqidiy maqolalar. T., 1989. -B.: 64.

- 1) monologik-qissaxonlik nutq uslubi;
- 2) ikki ovozli hikoyanavislik uslubi;
- 3) ko'p ovozli (polifonik) bayon uslubi;
- 4) ohang xilma-xilligi: patetik, oratorlik, qo'shiq, deklamatsiya uslubi;
- 5) iboralarning qurilishi jihatidan – kesik, zarbli, yoyiq va ritmik siqqlik uslubi;
- 6) leksik jihatdan arxaizm va neologizm bilan to'yingan avtor nutqi uslubi va hokazo.

Shunisi quvonarlik, ushbu nutq ko'rinishlari S. Ahmadning barcha asarlarida u yoki bu darajada namoyon bo'ladi. Shu bilan birga badiiy nutqning muallif, qahramon nutqlari, dialog, monolog singari turlari ham o'ziga xos tarzda ko'zga tashlanadi va bu adibning o'ziga xos uslubini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, «Jimjitlik» romanidagi muallif boshlamasiga e'tibor qarataylik: *“Odam bolasining ko'zidan yosh chiqmasa qiyin ekan. Yurak-bag'rinl o'rtagan alamlar shu ko'z yoshi bilan chiqib ketadi. Kimki faryod urib yig'layolmasa, ko'zidan yosh chiqazolmasa, alamlarini ichiga yutsa – dardga chalinadi. Shuning uchun keksalar alam o'rtagan kishiga yig'la, ko'nglingni bo'shat, deydilar. Bu gapda hikmat ko'p”*⁷⁴

Ma'lumki, muallif nutqi orqali bayon qilingan ilk jumlar bayonning butun ohangiga urg'u beradi. Said Ahmad o'z nutqida dastlab qahramonini darhol tanishtirmaydi, balki Tolibjonning yig'lolmasligiga e'tiborni tortadi. Aslida, bu muallif boshlamasining asar qahramoni holati va qiyofasiga mutlaqo daxli yo'qdek tuyiladi. Lekin gap yig'i haqida ketar ekan, yig'lash faqat odamga xos xususiyatdir, demak, gap tagida kimningdir fazilati yoki qusuriga ishora bor. Bu roman qahramonlaridan biri Tolibjon bo'lib chiqadi. Mabodo, yozuvchi o'z nutqini yuqoridagi izohdan emas, balki to'g'ridan to'g'ri ikkinchi xatboshidagi «*Tolibjon yig'lolmasdi*» iborasi

⁷⁴ Said Ahmad. Jimjitlik. Roman. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989. 3-bet (bundan keyingi ko'chirmalar ham shu manbadan olindi va sahifasi qavs ichida ko'rsatildi).

bilan boshlaganida edi, uni yiqitgan yig'lolmaslikning kuchi to'la anglashilmay qolardi. Binobarin, qishlog'iga o'ttiz yildan so'ng jimjitlik istab kelgan Tolibjonning xarakteriga oid asos o'zini oqlamagan bo'lardi.

IXcham, lo'nda, tugal ma'no anglatadigan jumlar tuzish, tabiat manzaralarini shoirona his etish va obrazli iboralarda tasvirlash, badiiy tasvir vositalaridan iloji boricha unumli foydalanish «prozaning shoiri» bo'lgan Said Ahmad ijodiga xos xususiyatdir. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: *«Tog'lar pastak qoyalar bilan o'ralgan. Qoyalar uchi xuddi salom berayotgandek egilib, qor-yomg'irlardan to'sib turardi. Bir yon tubsiz jar. Bahaybat archalarning qurigan mallarang shoxlarida kechalari boyo'g'lining xunuk sayrashini eshitiladi. Etlarni jimirlatib yuboradi. Ammo tong mahali ohanglarga to'lib ketadi. Tongotar paytda bulbullar paydar-pay sayraydi. Toshdan toshga sakrab kiyiklar podasi jarlikka suv ichgani o'tib ketadi. Osmoni falakda burgut qanotini tarang yozib uchadi. Hall hech kimga yuzini ko'rsatmagan quyosh tig'i uning qanotiga tushadi. Go'yo burgut qanotini olovli nurda qayrayotganga o'xshab ketadi. Tullab xunuk tortgan tulkilar sahar payti g'aflat bosib mudrab qolgan qushlarni tishlab o'tadilar. Yovvoyi mushuklar o'zlarini oftobga solgani cho'qqi tomonga o'rmlay boshlaydilar...».* (92-93-b.)

Bu Mirvalining qabih niyatini amalga oshirish uchun Jayronani tog' yonbag'rida qurilgan, ammo o'zi bilan yordamchisi Rasulbekdan boshqa hech kim bilmaydigan binoga olib kelayotgan paytdagi tabiat manzarasi. Bu peyzaj tasviri shu qadar bo'yoqlarga boy, shu qadar ramziy ma'nolar anglatadiki, o'quvchi ular bajarayotgan vazifalarni anglagani sari hayratga tushaveradi. Chunki tog' va qir yonbag'ridagi manzara ifodalangan bu tasvirdagi muallif nutqida qo'llanilgan har bir so'z ma'lum bir g'oyaviy-estetik vazifani ado etishga bo'ysundirilgan, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi va davom ettiradi.

Safar chog'ida va bino ichiga kirganlaridan keyin ham Jayrona bilan Mirvali bir-biriga butunlay qarama-qarshi kechinmalarni boshdan kechiradilar. Mirvalining «*ko'zlari hirsiyotga*

to'lgan», uning fikru xayoli «qarshisida bir jahon bo'lib o'tirgan tengsiz go'zal qiz»ning vasliga yetish, Jayrona esa sirdan osoyishta ko'rinayotgandek tuyilsa-da, hurkaklik bilan o'zini asrash, «har qanday zarbaga tayyor» turgan raqibidan o'zini himoya qilish yo'llarini izlaydi. Parchada keltirilgan «Tullab xunuk tortgan tulkii» iborasi aynan Mirvaliga, «g'afolat bosib mudrab qolgan qush» esa Jayronaga o'xshashini ziyrak o'quvchi tez anglab yetadi.

Mirvalining xufyona ishlarini amalga oshirish maqsadida tog' oralig'ida qurdirilgan bu imorat atrofi ana shunday qo'rqinchli va ayni chog'da fayzlidir. Parchadagi ohang ruhidan anglashilib turgan ajoyib shoirona kayfiyat, ko'tarinkilik, tasvir ko'lamini kengroq qamrab olishga intilish, narsa va predmetlarga nisbatan sifatlashlarni iloji boricha ko'proq qo'llash Said Ahmad asarlaridagi muallif nutqining o'ziga xos fazilatiga aylanadi. Tasvirdagi *"pastak qoyalarning salom berayotgandek egilib"* turishi, archalarning bahaybat tanasi-yu, unda boyo'g'lining xunuk sayrashi (aslida-ku, boyo'g'li chiroyli sayramaydi-ya! Shuning uchun muallif "xunuk" so'zini ishlatmasa ham ma'no tushunarli bo'laverardi, lekin shoirona ruh susayib ketardi), *"osmoni falakda qanotini tarang yozib"* uchayotgan burgutning endigina ko'tarilib kelayotgan quyosh nurlarining olovli tig'ida qanotini qayrayotgandek ko'rinishi (bu yerda burgutning harakati juda obrazli ifodalangan!-Y.S.), *"Tullab, xunuk tortgan tulkilar"* va *"Yovvoyi mushuklarning o'zlarini oftobga solgani cho'qqi tomonga o'rmalab"* borayotganligi Said Ahmadgagina xos bo'lgan poetik iboralardir.

Bu tasvirda emotsionallik bilan ekspressivlik nihoyatda kuchli bo'lib, ularda qahramon kayfiyatini ilg'ab olish qiyin emas. Garchi yuqoridagi parchada personajlar faol ishtirok etmasalar-da, shu manzaralarning guvohi bo'layotgan Jayrona bilan Mirvalining ichki dunyosi, kayfiyati o'quvchiga oson anglashiladi. Jayrona hozir o'zini ignaning uchida o'tirgandek sezyapti, o'z o'y-xayoli bilan band, qanday qilib bo'lsa ham makkor Mirvalining changalidan qutilib chiqishni o'ylaydi, atrof-muhit bilan zarracha ishi yo'q, chunki atrofni tamosha

qilish ko'ngliga sig' maydi. Mirvali bo'lsa, sodiq xizmatkori Rasul tayyorlagan tansiq taomlardan istagancha tanovul qilib, xorij konyaklaridan ko'ngli tusagancha ichib, Jayrona bilan maishat qurish ishtiyorida, shundan boshqa tashvishi yo'q. Binobarin, uni ham tabiat manzarasi qiziqitirmaydi, buning ustiga Mirvali kunda-kunora shu yerda.

Demak, tasvirning tiniqligi va g'oyaviy-estetik salmog'i san'atkorning badiiy mahorati bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy mahorat esa «*chiroyli iboralar, chiroyli ifodalar, antiqa voqealar, kulgili yoki qayg'uli holatlar topish emas, xalqqa aytadigan zarur so'zimizni kitobxonning qalbiga olib kiradigan obrazlar yaratish demakdir*». ⁷⁵ Ustozi A. Qahhorning bu vasiyatiga shogirdi to'la amal qilganligi g'oyat quvonchlidir.

Romanda uchta qistirma hikoya berilgan. Birinchisi, Mirvali tomonidan Tolibjonga aytib berilgan Nurmat tog'a taqdiri to'g'risidagi hikoya; ikkinchisi, Tolibjonning xotirasida jonlangan Kiyksovdli momo rivoyati; uchinchisi, Qora Lochin va uning sadoqati haqida bo'lib, buni ot sohibi Erali chavandoz aytib beradi. Har uchala hikoyaning tinglovchisi ham Tolibjon bo'lib, u orqali mazkur qistirma hikoyalar syujet qurilishi, o'ziga xos kompozitsiyasi, ularda ko'tarilgan ijtimoiy g'oya romanning umumiy g'oyaviy mazmuni bilan chambarchas payvandlanib ketgan. Ularning barchasida ham muallif bayonga erkin aralashadi, bu esa personaj nutqiga qorishib, ikki ovozlilik kasb etadi. Shu bilan birga yozuvchi bu qistirma hikoyalarda badiiy nutqning monolog, dialog kabi turlaridan ham unumli foydalangan holda personajlarning ruhiy-ma'naviy qiyofasini, ijtimoiy tuzumning manfur illatlarini, inson bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarning rang-barang ko'rinishlarini tasvirlaydi.

Bunga misol tariqasida Nurmat tog'a taqdiri bilan bog'liq bo'lgan hikoyani keltirish mumkin. Bu voqeani Tolibjonga sovxoz direktori Mirvali aytib beradi. Nurmat tog'a uning alohida mehmonlarini kutishga mo'ljallangan soya-salqin, shi-

⁷⁵ Abdulla Qahhor Asarlar: 6 jildlik, 6-j. T. G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1970. 411-b.

nam oromgohida qorovul. Qo'li gul bog'bon, shirin taomlar pishiradigan pazanda odam. Mirvalining aytishicha, Nurmat tog'a Hojimurod Xolmatov degan mashhur raisning kolxozida kassir bo'lib ishlardi. Halol, pokiza inson bo'lib, kolxozning bir tiyiniga xiyonat qilmas edi. Ammo...

«Kunlarning birida rais uni kabinetiga chaqirib, o'ttiz ming so'm tayyorlab qo'yishni tayinladi.

– Shuncha pulni nima qilasiz? – deydi ajablanib Nurmat tog'a.

– Kuyovga bitta hovli olib bermoqchi bo'lib yurgandim. Hozir telefon qilishdi. O'ttiz mingga yaxshi hovli savdosini pishitib qo'yishibdi. Uydagi pul xotinda edi. Turkistonga Sultonimni ziyorat qilgani ketgan. Kelishi bilan joyiga qo'yib qo'yamiz. Bankka borib yirigiga almashtirib kelsangiz yaxshi bo'lardi. Shuncha pulni do'ppaytirib olib yurmay.

Nurmat tog'a yo'q deyishni ham, ha deyishni ham bilmay chaynalib turib qoladi.

– Ishonmayapsiz chog'i, – deydi rais achchiqlanib, – yo tilxat yozib beraymi?

Nurmat tog'a raisga necha martalab ming, o'n ming pul bergan, biron marta tilxat so'ramagandi. Rais ham aytgan kuni yo pulni qaytarib berar, yo bo'lmasa buxgalteriya orqali rasmiylashtirib orani ochiq qilib qo'yardi. Shundoq odamga ishonchsizlik qilishga Nurmat tog'aning ko'ngli bo'lmaydi. Aytgan vaqtida o'ttiz ming so'mni idoraga olib kelib beradi» (35-bet).

Shundan keyingi ikki abzatslik muallif izohida Nurmat tog'aning ko'ngli g'ashligi, rais kelguncha reviziya bosishidan xavfsirab yurishi, oxiri buxgalterni bu voqeadan xabardor qilib qo'yish uchun uning xonasiga kirishi, undan raisning hovli sotib olish uchun emas, balki o'ynab kelish uchun xotini bilan kurortga ketganini eshitgach, *“boshi g'uvillab, ko'zlari tinib, holsizlanib kursiga o'tirib qoladi”* (36). Rais va bosh hisobchi bilan Nurmat tog'a o'rtasidagi dialog shu qadar shiddatli, hayajonli qurilganki, har bir so'z har uch insonning suratiyu siyratini aniq ko'rsatishga xizmat qildiriladi. Dialog izchilli-

gi hikoyachining personaj holatini izohlovchi «*Nurmat tog'a yo'q deyishni ham, ha deyishni ham bilmay chaynalib qoladi*», «*Nurmat tog'aning ko'ngli bo'lmaydi*», «*dili sira yorishmaydi*», «*kechasi bilan ming to'lg'onib, tushlari buzilib tong ottiradi*», «*Buxgalter Nurmat tog'aga qaraydi*», «*Nurmat tog'a hayron bo'ladi*», «*Nurmat tog'a sapchib turib ketadi*» va hokazo izohlari orqali to'ldiriladi. Bu izohlarda ko'proq Nurmat tog'a qalbidagi to'lg'anishlar ifodalanadi, uning shu chog'dagi ruhiy holati suhbatdoshining nutqi va luqmalarida ham aks etadi.

Aslida Nurmat tog'a to'g'risidagi qistirma hikoya Mirvali bilan Tolibjon o'rtasida bo'layotgan tavsifiy dialogning ajralmas bir bo'lagidir. Ammo bu dialog mustaqil hikoya shaklini oladi. Uning biron bir joyida tinglovchi-suhbatdosh Tolibjonning reaksiyasi, munosabati ifodalanmaydi. Ayni chog'da bu hikoyani aytib berayotgan suhbatdosh Mirvali ham o'zini chetga oladi. Mabodo, uning nutqidagi «*deydi, bilmay qoladi, qaraydi*» kabi hozirgi-kelasi zamon fe'li shakli qo'llanilmaganda, o'quvchi bu hikoyani avtorga nisbat bergan bo'lardi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra Mirvali bilan Tolibjon o'rtasidagi dialog tavsifiy xarakterga ega bo'ladi, chunki u Nurmat tog'aning ayanchli qismati to'g'risida umumiy ma'lumot (tavsif) beradi.

«Jimjitlik» romanida yozuvchi qahramonlarining ichki olamini ochishda ham badiiy nutq imkoniyatlaridan g'oyat unumli foydalanadi. Bunda u asosiy e'tiborni tashqi ta'sirlarga qaratadi. Binobarin, atrofdagi narsa-buyumlarning joylashish holati, ko'rinishi, rangi personajlar kayfiyatining qandayligiga bog'liq bo'ladi. Bu holatni respublikaning birinchi rahbari Shavkat Rahimov qatnashgan ikki epizodda ko'rib chiqaylik. Shavkat Rahimov o'zining erkatoyi Mirvalining xo'jaligiga tez-tez kelib turadi, uni o'z o'g'lidek yaxshi ko'radi, tadbirkorligi va ishbilarmonligiga tan beradi va shuning uchun uni doim qo'llab-quvvatlaydi. Yozuvchi Rahimovning ruhiy holatini ochishda xatti-harakatlari, jesti va mimikasi, tevarakdagi narsa va buyumlar tasviri zimmasiga yuklansa, Mirvalining ichki dunyosini ochishda ko'proq uning ko'z qa-

rashlari, ichki o'ylari natijalarini ma'lum qilish usullaridan foydalanadi.

Romanda tasvirlanishicha, Shavkat Rahimov birinchi mar-
ta dabdabali ravishda qir yonbag'riga qurilgan «Kiyiksovd
momo» bilan «Qora Lochin» yodgorliklarini ochish uchun
keladi. Bu paytda Shavkat Rahimovning kayfiyati ko'tarinki,
xushchaqchaq va tetik edi. Shuning uchun bu yodgorliklar
uning ko'ziga xuddi harakat qilayotgandek, rangin, tarovatli
ko'rinadi. Yodgorlik va uning atrofidagi har bir detal rahbar
nigohidan chetda qolmaydi, uning har bir so'zi, harakati, qi-
lig'i ayni chog'dagi kayfiyati bilan uyg'unlashib ketadi. Masa-
lan, Rahimov mashinadan «*Tushdi-yu, Mirvali bilan ko'pdan
ko'rishmagan ota-bolalardek quchoqlashib ko'rishdi. Rahimov
uni bag'ridan qo'ymay turib, nimadir dedi. Mirvali bosh silkib
javob qildi*» (153-bet). Keyin Rahimov yodgorlik lentasini
qirqib, tasmani ohista tortgach, «*yodgorlik ustidan chodir sir-
panib pastga tushdi*». Shunda uning ko'z o'ngida:

*«Marmar supa tepasida o'n metr balandlikda nuroniy bir
ona gavdalandi. Uning bir qo'lida kiyik bolasi. Yonida shoxdor
ona kiyik yo'lga qarab turibdi. Onaning qo'llari pastlikka qa-
rab cho'zilgan»* (154-bet).

Ikkinchi yodgorlik ochilganda Rahimovning ko'z oldida
*«bir metrcha balandlikdagi supachada qop-qora bir ot paydo
bo'ldi. Uning egari qoshiga avtomat bilan kaska ilingan. Ot do-
vonga, Kiyiksovd momo tomon o'rlab ketayotibdi»*. Bu tasvir-
dagi har bir detal, har bir ibora Rahimovning xush kayfiyatiga
mos ravishda ifodalangan. Hatto yodgorlikdarning necha metr
balandlikka joylashgani ham, *«shoxdor ona kiyikning yo'lga
qarab»* turishi-yu, onaning qo'llari pastga cho'zilganigacha,
Qora lochinning egari qoshiga ilingan avtomat bilan kaska-
dan to uning dovon tomonga o'rlab ketayotgandek ko'rinishi
ham bosh rahbarning ko'tarinki kayfiyatini isbotlaydi. Said
Ahmad har bir so'zni o'z o'rnida ishlatgan. Aslida, avtomat bi-
lan kaska otning egariga ilingan desa ham bo'laverardi. Yoki
«Ot dovonga qarab chopib ketayotibdi» degan iborani ish-
latsa ham ma'no anglashilaverardi. Bu tasvirda qo'llanilgan

egarning qoshi, otning o'rlab ketayotganligi bevosita qahramon kayfiyati, ichki olami bilan bog'liq iboralardir...

Said Ahmad badiiy nutqning adabiy tasvirda qo'llaniladigan barcha turlaridan unumli va mahorat bilan foydalana oladigan mohir so'z ustasi sifatida tanildi. Keyinroq bu mahorat sirlarini o'z shogirdlariga o'rgatishda ham bag'rikenglik bilan ish tutdi. Bu borada ustoz adibdan erinmay saboq olgan O'tkir Hoshimov, Ne'mat Aminov, Tog'ay Murod kabilarning ijodi yorqin misol bo'la oladi. Ularning badiiy nutq sohasida erishgan yutuqlaridan quvongan Said Ahmad shogirdlarining har biriga alohida ta'rif beradi. Masalan, O'tkir Hoshimovning asarlarini *"loqayd, hayajonsiz o'qib bo'lmaydi. U kitobxonni larzaga soladi. O'tkir – so'z san'atkori"*. Ne'mat Aminov esa *"So'z chavandozi"* darajasiga yetdi. Shu tufayli *"Uning hajviy hikoyalari (u faqat hajv yozadi) kitobxon orziqib kutadi. Kitoblari peshtaxtalarda turib qolmaydi. Hikoyalari latifaga aylanib, og'izdan og'izga o'tib, davralarga quvnoq kayfiyat bag'ishlaydi."* *"Adabiyotga tutab emas, yonib kirgan Tog'ay Murod esa qissa bitmaydi, nazarimda, bor ovozi bilan qo'shiq aytadi. Bu qo'shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor"*.⁷⁶

Ha, O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad mana shu fazilatlar bilan hanuz barhayot. Uning badiiy nutq, badiiy tasvir, psixologik tahlil borasida erishgan yutuqlarini chuqur o'rganish, tahlil va tadqiq etish adabiyotshunoslik fanining muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

⁷⁶ Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim. Xotiralar. adabiy o'ylar. T. "Sharq" NMAK bosh tahririyati. 1999. 230, 237, 243-betlar.

SHOIRANING QALB GO'ZALLIGI yoxud Saida Zunnunova ijodi haqida

Shahnoza ERGASHEVA,
filologiya fanlari nomzodi

XX asr o'zbek adabiyoti rivojida Saida Zunnunova ijodining alohida o'rni bor. Adibaning ehtirosiga boy, badiiy yuksak she'riyati, betakror nasri, syujeti keskin hayotiy muammolar va to'qnashuvlar asosiga qurilgan dramalari, oila, xotin-qizlar muammolari to'g'risidagi o'tkir hajviy asarlari, dolzarb masalalar tahliliga bag'ishlangan maqolalari xalqimizning ma'naviy merosiga aylangan.

Shoira o'z davrining ilg'or fikrli, ziyoli kishisi sifatida badiiy adabiyot, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, milliy til rivoji masalalariga ham befarq bo'lmadi.

Saida Zunnunova qalamiga mansub "O'zbekiston madaniyati" gazetasining 1977-yil 4-fevral sonida chop etilgan "Bir o'ylab ko'raylik" sarlavhali maqola kuyunchaklik bilan aytilgan fikrlarga boy. Unda iste'dod tarbiyasi, ijodkorga munosabat, tanqidchilik mas'uliyati, badiiy asar tili, ona tili va adabiyot darslarini o'qitishdagi muammolar teran tahlil qilingan. "Yozuvchilarga ham, adabiyot rivojiga ham katta xalaqit berayotgan, kishilarning didini buzayotganlar shu sohaga kirib qolgan o'tkinchi, sayoz, qobiliyatsiz odamlardir. Bunday kishilar tirikchilik vaji asar yozadi, uni o'tkazish uchun yuz yoqqa yuguradi, o'ziga yo'l ochish niyatida yaxshi asarlarni qoralashga urinadi, ba'zan g'alabaga ham erishadi. Natijada, hammaga ko'rinib turgan haqiqat bo'yalib, talantsiz yozilgan asar haqida yaxshigina maqtalgan taqrizlar gazeta va jurnallarda ko'rinib qoladi. Talant tarbiyasiga ana shu joyda darz ketdi deyavering, chunki bunday voqealarning oqibatini yillab davom etgan bahslaru o'nlab yozilgan yaxshi maqolalar tuzatolmaydi. Shuning uchun tanqidchilar, adabiyotshunos-

lar biron asarga baho berishda nihoyatda odil bo'lishi, gapirayotgan yoki yozayotgan so'zlariga mas'uliyatni chuqur his qilmog'i, bunga o'zini javobgar deb bilmog'i kerak. Talant, mening nazarimda, ana shunday tarbiyalanadi va ana shunday saralanadi";⁷⁷ deb yozadi shoira. Bu fikrlar shaxsiy yoki homiylar mablag'i hisobidan chop etilayotgan, badiiyatdan yiroq, mazmunan nochor asarlar seroblashgan bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Qolaversa, shoiraning e'tirozlari turli tanlovlarda g'olib bo'lish, davlat mukofotlarini yoki imtiyozlarni qo'lga kiritishni maqsad qilgan yoshlar nomidan ijod qiluvchi, saviyasiz "asar"larini ko'kka ko'tarib maqtovchi zamondoshlarimizga ham bevosita taalluqlidir.

Saida Zunnunova yozuvchi mehnati samarasini ko'rsatishda nashriyot va redaksiyalarda faoliyat ko'rsatayotgan har bir xodimning ona tilini va uning imkoniyatlarini chuqur bilishi, adabiyotni sevishi, tushunishi, mas'uliyatni his etishi muhim ekanini ta'kidlaydi. E'tiborsiz, badiiy didi past muharrir asarning qadrini oshirishga emas, tushirishga xizmat qilishi mumkinligini aytib, o'zining kitoblaridan biriga muharrirlik qilgan xodim yozilgan jumalarni tekislab, ega-kesimini o'z o'rniga qo'yib chiqqanini, bu personajning hayajonli holatini ko'rsatishga bo'lgan yozuvchi niyatini yo'qqa chiqqanini misol tariqasida keltiradi.

Tahririyatlardagi so'roqsiz tuzatishlar shoira nazdida muallif shaxsiga nisbatan hurmatsizlik va shafqatsizlikdir. Uning bunday xulosaga kelishiga asarlari yuzasidan nashriyotlar bilan tez-tez bo'lib turadigan kelishmovchiliklar sabab bo'lgan. "Saida opani "Qo'llar" hikoyasini yozgan paytlari yaqinroqdan bilishga muyassar bo'lgan edim. Shu nomdagi hikoyalar kitobiga muharrirlik qilganman. U o'zi qog'ozga tushirgach, o'zi ishongach, so'ng har bir so'ziga emas, har bir tinish belgisi, har bir nuqtasini qattiq turib himoya qilgan ekan. O'z yozganlariga oqil va idrokli munosabat qanday bo'lishini va boshqa odam yaratgan tekstga "zo'ravonlik"

⁷⁷ Zunnunova S. Bir o'ylab ko'raylik... // "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1977. 4-fevral.

qilish qanchalar yaxshi ish emasligini birinchi marotaba Saida opamdan o'rganganman va shu tuyg'uni u kishida kuzatganman. Bu ham chuqur ma'naviy poklik va e'tiqoddan kelib chiqishini faqat keyinroq bildim",⁷⁸ deb yozgan edi mu-naqqid I. G'afurov.

Adabiyotshunos L. Qayumov esa: "Saida opam bir so'zlik, nihoyatda prinsipial shoira edi. U kishi she'rlarining usti-dan ishlashlarini, ayrim joylarini olib tashlashlarini yomon ko'rardilar va shu hol uchramasligi uchun o'zlari nazorat qilib turardilar"⁷⁹, deb xotirlaydi.

"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida xizmat qilib yurgan chog'larida nashriyot topshirig'i bilan shoira-ning uyidan chop etilishi mo'ljallangan maqolani olib kelgan va munozarali holat guvohi bo'lgan Tursun Ali esa shunday yozadi: "Matbuotning o'sha davrdagi "nazorat-chi"lari maqolaning ikki jumlasiga qizil qalam tortdi. Buni ko'rgan Saida Zunnunova yonib-kuyib ketdi. So'zi hech kimga o'tmagach, hech kim uni tushunmagach, qo'lyozma-ni sahifadan butunlay oldirib, uyiga xomush qaytdi. Men o'shanda birinchi marta o'z so'zi uchun yonib-kuygan, ku-rashgan muallifni ko'rgan edim"⁸⁰.

Shoira tanqidiy maqola va taqrizlarning saviyasi yuqori emasligi, borlari ham bir qolipda ekanligi, sohada yangila-nish, izlanish ko'zga tashlanmayotganidan tashvishlanib yo-zadi. Badiiy asar tili ustida mukammal ilmiy ishlar qilish pay-ti yetganligi, ommaviy axborot vositalarida adabiy til me'yor-lari buzilishining oldini olish til sofligi, taraqqiyoti uchun zarurligini mantiqli fikrlar bilan asoslaydi: "Badiiy asarning qoni-joni – til. Hali men bironta tanqidchining biron asar-ning tili ustida mukammal bir nima yozganini bilmayman. Bu mahorat sirlarini boshqalarga o'rgatishda katta maktab vazir-fasini o'tar edi", deb yozadi shoira.

⁷⁸ G'afurov I. O'ttiz yil izhori. – T: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – B. 114.

⁷⁹ Qayumov L. Birga o'qigan edik // "Vatan" gazetasi, 1996. 21-may.

⁸⁰ Tursun Ali. Ko'zlarida ijod nuri // "Hurriyat" gazetasi, 2001. 24–30-oktabr.

Radio va televidiniye orqali efirga uzatiladigan adabiy eshittirishlar va ko'rsatuvlarda ham tilga munosabat talab darajasida emasligini, muxlislar ham, mutasaddilar ham bunga e'tiborsiz, loqayd ekanligini afsus bilan ta'kidlaydi. Natijada mutasaddilar o'z bilganlaricha yozishi, ishlashi, tanqidiy fikrlar bildirilmaganligi uchun mahoratini oshirish ustida ishlamasliklarini qayd etadi: "Mana bir kichkina misol: radio va televizorda, gazetada "shaharning diqqatga sazovor joylari" degan gap ko'p ishlatiladi. Shu jumla menga oshdan chiqqan toshga o'xshaydi. Balki e'tiborli joylarini, deb aytish durustroq bo'larmidi? "Ohanglar sohibasi", "sut-qatiq sohibasi", "dala sohibasi" va hokazo".

Shoira gazeta va jurnallardagi tilga munosabat, chop etilayotgan materiallarda so'z qo'llash mahorati bilan bog'liq masalalar jiddiy tahlil qilinishi kerakligi, shu mavzuga bag'ishlangan bahs-munozaralar uyushtirilishi, tanqidchilar va mutaxassislar o'z fikrlarini, takliflarini bildirishlari zarurligini ta'kidlaydi.

Insonda kitobga mehrni bolalikdan uyg'otish lozimligi, bu borada ota-onalarga, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilariga qat'iy talab qo'yish orqali samaraga erishish mumkinligini to'g'ri qayd etadi: "Kitobga muhabbat avval oiladan boshlangan, maktabda davom ettiriladi. Badiiy asarlarni ifodali, she'rlarni yod o'qishga bolalarni yoshlikdan o'rgatib borish zarur. Mana bir misol: hozir har sohasining bilag'onlari televizorda chiqib turishadi. Badiiy asar o'qimaydigan ba'zi olimdan ko'ra badiiy asarni ko'p o'qiydigan oddiy ishchi yoki paxtakor chiroyliroq gapiradi, fikrini yaxshi tushuntiradi".

Jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, bolada kitob o'qishni ehtiyojga aylantirishda oila va maktab hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligi, kitobga mehr qo'ygan inson ezgu ishlarga qodir bo'lishi shoira tomonidan bundan yarim asr avval ko'tarilgan edi.

"Bir o'ylab ko'raylik" maqolasi shoira iste'dodining yana bir qirrasini bilan tanishish, shaxsiyati haqidagi tasavvurlarimizni boyitish imkonini beradi.

Zamondoshlari Saida Zunnunovani minbarlarga intilmagan, o'ta xoksor va kamtar ijodkor sifatida xotirlaydilar. "She'rlar" (1964) kitobi so'zboshisida shoira o'zi haqida kam yozishining sabablarini quyidagicha izohlaydi: "O'z to'g'ringda yozish, odatda, qiyin bo'ladi. O'tgan umringga yana bir marta sinchiklab nazar tashlaysan. Ozigina quvonch, g'urur o'rnini beixtiyor xijolatlik, qarzdorlik, qoniqmaslikka o'xshagan bir his egallab oladi. Chunki kichkinagina xizmatini kattakon xalq hurmatlab, nazorat qilib boryapti"⁸¹. Bu satrlardan anglashilib turgan shoira tabiatiga xos sifatlar uning she'rlaridagi lirik qahramon tabiatida ham bo'y ko'rsatadi.

Har qanday she'r shoir qalb daftarining bir sahifasi. Adabiyot tarixida shoirning o'z ijodiga, mehnatiga, she'riyatga munosabati aks etgan she'rlar oz emas. Usmon Nosirning "She'rim yana o'zing yaxshisan", Zulfiyaning "O'g'irlamang qalamim bir kun", A.Oripovning "Onajonim she'riyat" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu qatorni uzoq davom ettirish va bunday asarlarni har bir shoir ijodidan topish mumkin. Xuddi shu singari "She'rlarim, qalbidan silqqan qonimsiz", "She'r kayfi", "Nur bo'lib porlaydi", "She'rlarim" kabi she'rlarda Saida Zunnunovaning adabiy-estetik qarashlari, ijodga, she'riyatga munosabati yorqin aks etgan. Shoira she'r yaratish shoir uchun dardli va o'ta mashaqqatli yumush ekani, lekin bu mehnatning faqat shoirgina his eta oladigan sururi borligi haqida shunday yozadi:

*She'rlarim, qalbidan silqqan qonimsiz,
Dard bilan yozaman ming bor to'lg'anib.
Bir parcha o't bo'lib, lovillab, yonib,
She'rlarim, qalbidan silqqan qonimsiz*⁸².

She'r shoirning yurak qonidan dunyoga keladi. Ijod paytida shoir barcha narsani unutadi, ilhom qanotida ko'kka

⁸¹ Zunnunova S. She'rlar. – T.: Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1964. – B. 5.

⁸² Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. I tom. – B. 154.

parvoz etadi. She'r ishqida yongan yurak o'sha damda anvo-yi ohangga to'lgan, hayotning jamiki sirlarini qatiga yiqqan g'ijjak toridek tarang tortiladi. Hamma go'zallik, insonlar ko'zida jilolangan baxt yolqini, yaproqlar shiviri, gullarning chayqalishi, qushlarning sayrashishi unga kamon bo'ladi. Hatto osmon yulduzlari yellar qanotida zaminga tushib, g'ijjak no-lasiga jo'r bo'ladi. Shuncha mo'jiza nega endi shoirga baxt olib kelmasin?! Shoirning kichkinagina uyiga butun olam sig'adi, tortishuv, bahslashuv avjga chiqadi, u dunyoda boshqa hech kimga nasib etmaydigan, hech kim his eta olmaydigan baxtni tuyadi. Shoironing nazdida bularning barini she'r va shoirlik in'om etadi.

Saida Zunnunova she'rga va uning yaratuvchisi bo'lgan shoirga qat'iy talablar qo'yadi. "Farg'ona" she'rlar to'plami haqida" nomli ilk maqolasidayoq "She'r – umid, orzu, muhabbat, ehtirosga to'lgan samimiy bir qalbning mahsuloti. Bu qalbning tiniqligi shu darajadaki, unda million-million kishilar o'zlarini til bilan ifoda eta olmay yurgan, V. G. Belinskiy tili bilan aytganda, "shurning ochiq va aniq tiliga ko'chirish qiyin bo'lgan" orzu, umid, intilish va tuyg'ularini ko'radilar,"⁸³ deb yozadi. Talabchanlik ijodda zaruriy shartlardan biri ekanini yoqlagan shoira she'r ustida ishlashdan, qayta-qayta tahrir qilishdan charchamagan, har bir so'zni qimmatini yaxshi anglagan holda o'rinli qo'llashga intilgan. Uning lirikada shoir kayfiyati va hissiyotining ahamiyati, qobiliyati va mehnati haqidagi mulohazalari esa tubandagicha: "She'r – juda katta ehtiros, iztirob, hayajon, kayfiyatning mahsuli. Shoirning hissiyot darajasi qanchalik teran bo'lsa, kitobxonning yuragiga shunchalik chuqur o'rnashadi. Bu qobiliyatdan tashqari juda katta mehnatdir."⁸⁴

Ijodkor ahlining aksari murakkab xarakterli, nozikta'b yoki injiq bo'ladi. Shu bois ular ollaviy hayotdan baxt, xotir-

⁸³ Zunnunova S. "Farg'ona" she'rlar to'plami haqida // "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1950. 29-yanvar.

⁸⁴ Zunnunova S. Tanlangan asarlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976. I tom. – B.3.

jamlik topmasa, iste'dodi kamolga erisha olmasligi yoxud zavolga yuz tutishi shubhasiz. Oiladagi barqarorlik, bir-birini tushuna olish, turmush o'rtog'ining daldasi, ko'magi yordamida ijodiy faoliyat jadal tus olishi va butun adabiyot rivoji uchun ham ahamiyatli bo'lishi mumkin. Adabiyotimiz tarixida bunga misollar ko'p. Oybek va Zarifa Saidnosirova, Abdulla Qahhor va Kibriyo Qahhorova kabi munosib juftliklar qatorida Said Ahmad va Saida Zunnunovaning "hayotiy ittifoqini" G'afur G'ulom ta'biri bilan aytganda "ma'qul juftlikning namunasi" deyishga to'la asos bor. Adabiyotshunos I. G'afurov shunday yozadi: "Saida va Said... Ular doim bir-birovlariga jo'rovoz bo'lishga intildilar. Lekin hech qachon raqobat qilmadilar. Kimo'zarga yozmadilar yoki harakat qilmadilar. Saida bunday musobaqa ruhidagi egoizm tamomila yot bir narsa edi. Said "Ufq" romanlarini yozganda, sahifama-sahifa Saidaning daldasini his qilib turdi. Saidaning tunlar uni bedor qo'rgan horg'in, filkrchan, sertashvish nigohi roman qavatlariga to'lqin-to'lqin mavj bo'lib kirdi. Saidaning ishonchi Saidning kuchiga kuch qo'shdi. Saidning ilk o'quvchisi Saida edi"⁸⁵. Shoiria ijodida esa bu hol shunday akslanadi:

*Men yozsam u yozmasa go'yo edim gunohkor,
U maqtalsa men quvondim eslanmagan kezlarim.
Ayolligu onalikdan mushkul, shirin nima bor,
Ota-bola orasida talash bo'ldi hislarim*⁸⁶.

Saida Zunnunova hayotida "eslanmagan kezlar" ko'p bo'lgan. Shunday paytlarda turmush o'rtog'ining yutuqlari unga taskin bergan, quvontirgan. Adibga g'amxo'rlik qilishni oila va adabiyot oldidagi burchi deb bilgan shoiria uning bemalol ijod qilishi uchun sharoit yaratib, yangi-yangi asarlar yozishga undab turgan.

Saida Zunnunova she'riyatiga sig'magan adolatga tashnalik va haqiqatparastlik uning nasriy asarlarida namoyon bo'l-

⁸⁵ Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2001. – B. 7.

⁸⁶ Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. I tom. – B. 356.

di, adibaning rostgo'y shaxsiyati bevosita u yaratgan hikoya va qissalarning personajlari tabiatiga ko'chdi. Xususan, "So'qmoqlar" qissasi o'z davri hayotini ro'y-rost yoritib bergan asardir. Shu bois asar e'lon qilinishi bilan muallifning boshiga ketma-ket "to'qmoqlar" yog'ildi. Asarda, ayniqsa, Sharq xalqlariga xos bo'lgan ayollik sha'ni, qadr-qimmatini toptalayotgani, uning oqibatlarini sifatida hayotda ro'y berayotgan fojialar ta'sirchan tarzda berilgan. Yagona sho'ro xalqini yaratish siyosati qat'iy yurgizilayotgan davrda millatning qadriyatlarini, urf-odatlarini, ming yillar davomida shakllangan axloqiy mezonlari yo'qolib borayotganidan xavotirini yashirmay dadil yozish ijodkordan katta matonat talab etardi. Saida Zunnunova buning uchun o'zida kuch, jasorat topa oldi.

Hayotni faqat qora bo'yoqlarda, noxolis yoritgan asar sifatida qatag'onga uchrab qirq yil mobaynida arxivga tashlab qo'yilgan qissa 2001-yil shoiraning "Tanlangan asarlar" to'plamida Said Ahmad so'zboshisi bilan chop etildi.

O'z davrida Saida Zunnunova qissada ko'targan muammolar uchun xuddi asar qahramoni Aziza kabi zamonadan ortda qolgan, eskicha qarashlarni ilgari surganlikda ayblandi. Lekin paranji-chachvondan endigina chiqqan o'zbek ayollarining milliy xususiyatlarini e'tiborga olmay o'tkazilgan islohotlarning ayanchli oqibatlarini, zamonaviy tibbiyot xalq orasiga dadil kirib bora olmayotganligi, tibbiy savodxonlik past darajada ekanligi asar yaratilgan XX asrning 50-yillarida g'oyat dolzarb masalalardan edi. Muallif xalqlarning ma'naviy qarashlari bir xil emasligini, har qanday yangilik turli xalqda turlicha qabul qilinishini hisobga olib, o'sha xalqni hurmat qilgan holda tatbiq etilishi lozimligini Aziza obrazi vositasida – uning faoliyati, gap-so'zlari, xatti-harakatlari orqali ko'rsatdi.

Adiba ilgari surayotgan fikrlarini hayotiy voqealar, tarixiy misollar bilan dalillaydi. Jumladan, Aziza tilidan keltirilgan quyidagi misol qissaning muvaffaqiyatli chiqqan o'rinlaridan biridir: "Buxoro xoni Amir Nasrullo Qo'qonni bosganda Sharqning buyuk shoirasi Nodirabegim itoat etmagani uchun

sochini kestirib, so'ng yalang'och holda Qo'qonning eng gavjum maydonida qatl qildirgan. Shunda butun Qo'qon xalqi orqasi bilan yurib kelib shoiraning jasadi atrofida jonli devor hosil qiladi. "Sochi kesilgan momom, Gisi burida momom!" deb faryod ko'targan. Shoiraning badaniga nomahramlarning nazarini tushirmaganlar. Siz yevropani misol qilyapsiz. U tomonlarning urf-odati, sharm-hayosi boshqacha⁸⁷.

Bu misol orqali adibaning ma'naviy dunyosi, o'z xalqi o'tmishini yaxshi bilishi va hurmat qilishi, millat sha'ni, or-nomusi uchun kurashishni millat farzandlarining burchi sifatida talqin etganligiga guvoh bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, Saida Zunnunova betakror shaxsiyati, ibratli hayot yo'li va ularning tajassumi bo'lgan ijodiy merosi bilan milliy adabiyotimiz tarixidan munosib o'rin oldi. Uning sara asarlari bugungi kun kitobxonlari uchun ham qadrli, shu bilan birga o'zbek shoir va shoiralari uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tamoqda.

⁸⁷ Zunnunova S. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq. 2001. – B. 416.

OZOD SO'Z QADRI

Shahnoza TO'YCHIYEVA,
filologiya fanlari nomzodi

So'z – ijodkorning asosiy quroli. So'z yordamida adiblarimiz yurak va ongimizga ta'sir etuvchi ma'naviy olamni yaratishadi. Tish shifokorining asboblari qanchalik qimmat bo'lmasin, agar u o'z kasbining ustasi bo'lmasa, tish og'rig'i bilan kasallangan bemor undan davo topmaydi. Adabiyotda ham xuddi shunday, bir qatorga terilgan jimjimador so'zlar mukammal asar yaratilishiga kafil bo'lolmaydi.

Tajribali adib so'z qadrini biladi. Tilni xalqdan o'rganadi va uni o'z o'rnida qo'llay biladi. Bu nafaqat yozuvchilarga, balki adabiyotshunoslarga ham xos bo'lgan xususiyatdir. Shunday ijodkorlar sirasiga Ozod Sharafiddinov ham kiradi. Bu inson umrining oxiriga qadar adabiyot bilan yashadi va u bilan nafas oldi. Olim yillar davomida badiiy so'zni "mag'zi puch so'zdan" ajratib, o'zbek adabiyotining haqiqiy, ishonchli posboni bo'lib keldi. Munaqqid adabiyotimizning qudrati haqida fikrlar ekan, u faqat ongimizga emas, tuyg'ularimizga, hislarimizga ham ta'sir ko'rsatib, ularni tarbiyalab, bizga hayotdan ibratli saboqlar berishini o'rinli misollar bilan ta'riflab berdi. Olimning yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarini o'rganar ekanmiz, ularda so'zga bo'lgan e'tibor, til va uslubga alohida urg'u berilishini kuzatamiz. O.Sharafiddinov ijodining ilk damlaridanoq, iste'dod va uning tabiati haqiqiy poeziya va nasr – o'lmas san'at asarlari ekanligi haqida qayg'urardi.

Maqolalarining birida u "...har qanday she'r poeziya bo'lavermaydi. Agar poeziyaning mohiyati vazn va turoqlardan, qofiya va alliteratsiyalardangina iborat bo'lganda, ma'lum bir ma'noni ma'lum bir ohangda ifodalashdan nariga o'tmagan-da, dunyoda shoirlikdan osonroq ish bo'lmas edi. Agar shunday bo'lsa, o'rtacha savodi bor, esi butun har qanday odamni

bir hafta o'qitib binoyidek shoir qilish mumkin bo'lardi. Unga hatto chiroyli o'xshatishlar, aniq sifatlashlar, original metaforalar topish yo'lini ham o'rgatib qo'ysa bo'lardi. Holbuki, unday emas. Poeziya gazetaning informatsiya janridan farq qiladi. Shoirlik – inson faoliyatining eng qiyin, murakkab tomonlaridan biridir. Shoir degan odam o'tkir fikr yuritish qobiliyatiga, shoirlik talantiga ega bo'lishi lozim. Talant bo'lmasa, har qancha uringan bilan chinakam poeziya namunalarini yaratib bo'lmaydi," – deb yozadi munaqqid o'zining "Zamon. Qalb. Poeziya" kitobida.

Darhaqiqat, iste'dod – bu noyob hodisa. O'z kasbining egasi bo'lish, haqiqiy shifokor, haqiqiy pedagog, haqiqiy huquqshunos va boshqa kasblar ichida eng noyobi, menimcha, tug'ma adib bo'lsa kerak. Mana shu tug'ma iste'dod egasini keng kitobxonga tanitish esa munaqqidga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, munaqqid ham tug'ma talantga ega bo'lishi lozim. Uning ilmiy unvoni bor yo'qligi, shaxsga bo'lgan yaxshi yo yomon munosabatidan emas, balki dunyoqarashi, fikrlash qamrovi, milliy madaniyat rivoji oldidagi mas'uliyati bo'lgan inson tug'ma munaqqid atalishi mumkin, deb o'ylaymiz. Lekin nimagadir tug'ma munaqqidlardan ko'ra iste'dodli yozuvchilar ko'proq uchraydi. Haqiqiy yozuvchi uchun munaqqidning fikri juda zarur va qadrli, chunki aynan shu fikrlar uning kamchiliklarini to'g'irlashga, qo'shimcha bilimga ega bo'lishga va asosiy yozilgan asarning ma'naviy mulkka aylanishiga sabab bo'ladi. Misol uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning eslashicha, adibning 1967-yilda yozilgan "Bahor qaytmaydi" qissasiga O.Sharafiddinov taqriz bergan va unda ayrim kamchiliklarni ko'rsatib o'tgan. Yozuvchi shunday xotirlaydi: "... men bundan sira xafa bo'lganim yo'q, aksincha o'zimga to'g'ri xulosa chiqarib oldim. Va buning natijasida meni yanada mashhur qilgan ikki romanim dunyoga keldi. Domlamdan juda minnatdorman." (Gap "Ikki eshik orasi" va "Tushda kechgan umrlar" romanlari haqida ketyapti – SH.T.) Yuqoridagilarni bayon qilyapmizu, e'tiboringizni munaqqidning har bir narsaga aniq va lo'nda javob izlashiga ham qa-

ratmoqchimiz. Shu o'rinda gap taqriz va tanqid haqida borar ekan, olim ko'p narsalar oydek ravshan ekani, ammo ichiga kirganingiz sari, bularning bari murakkab va muammo bo'lib chiqishini ta'kidlaydi. Misol uchun, she'riyat nima degan savolga minglab javoblar bor, ammo yagona ta'rif yuq. Tanqidchilikda ham xuddi shunday. Ayrimlar tanqid yozuvchiga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, kamchiliklarini ochib berishi, desa, yozuvchilar bunga javoban tanqidchilar asardan xato qidirmasligi kerak, degan fikrni bildiradilar. O.Sharafiddinovning munaqqid sifatidagi pozitsiyasi: tanqidchi asarining nuqsonini topishdan ko'ra ko'proq undagi mavjud yashiringan go'zallikni topib ko'rsata bilishi lozim. Tanqid – bu badiiy adabiyotdagi, she'riyatdagi, nasrdagi yashirin go'zallikni kashf qilish san'ati.

“Tanqidchi bo'lish mas'uliyatli va shu bilan birga sharaffi kasb. Tanqidchi bo'lishni istagan odam, – deydi O.Sharafiddinov, adabiyotni butun vujudi bilan sevishi, unga sidqidildan, fidoiylik ila xizmat qilishi lozim chinakam so'z san'ati tanqidchi uchun olamdagi eng muqaddas eng mo'tabar, eng qutlug' narsa bo'lmog'i darkor... So'z san'atiga muhabbat tanqidchining asarlariga qanot bag'ishlaydi, ularga shunday bir jon ato qiladiki, shu tufayli ularni o'qigan kitobxon qalbida ham nurlu tuyg'ular, musaffo hislar paydo bo'ladi.” Munaqqid nafaqat o'zgalarga, balki o'ziga ham o'ta talabchan bo'lgan. Olim badiiy ijod namunalari haqida so'z ketganda, ayrim asarlarning yengil o'qilishi, ayrimlari esa qiyinligini aytadi. Asarni rad etish yoki ulug'lash unga bog'liq emasligini, gap yozuvchida ham emasligini, uning didida va saviyasida ekanligini va shu sabab ularni butunlay qoralashga haqli emasligini ta'kidlaydi.

Ko'pchilik badiiy asar haqida so'z borganda, kitob o'qishni shunchaki ko'ngilxushlik, vaqt o'tkazishning bir yo'li, ayrimlar esa bilimli bo'lish uchun ko'p kitob o'qish kifoya, deb hisoblaydi. Ular uchun nima o'qiyotgani ahamiyatli emas, asosiysi zerikmaslik. Bu holatni bevosita Ozod Sharafiddinov ijodi bilan bog'lab ko'raylik: olim hayoti davomida o'zbek va jahon adabiyotining sara asarlarini o'qish va uqish barobari-

da ularni o'zbek kitobxonining ma'naviy mulkiga aylantirishga harakat qilib keldi. Birinchidan, u o'zbek adiblarimizning asarlarini tahlil qilib, kitobxon ko'zi ilg'amagan nozik jihatlari e'tibor qaratib, dunyoqarashimizni boyitdi. Ikkinchidan, milliy adabiyotimiz o'z qobig'ida qolib ketmagani sabab, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga o'girdi va ma'naviyatimiz rivojiga o'z ulushini qo'shdi.

Birinchi galdagi vazifani bajarish uchun, munaqqid adabiy portret janriga murojaat qildi va bu janrda mahorat bilan ijod qildi. Muallifga xos bo'lgan xususiyatlar: adabiy portret uchun tanlagan qahramonini kitobxon bilan imkon qadar yaqinlashtirish. Xuddi nozik ruhshunos kabi inson qalbining tub-tubiga nazar solish. Bosh satrlardan, to oxirigacha, voqealar bayoni ichida jumboqli vaziyatni keltirib turib, kitobxonni o'ziga rom etish. Shu tariqa munaqqid o'z zamondoshi ijodiga baho berar ekan, uni har tomonlama tadqiq qilishga, xolis baho berishga harakat qilar, shu tobda o'zi bilan bog'liq voqea bayon qilinishi kerak bo'lsa, kamtarlik, ikki og'iz so'z bilan, bu uning vazifasi ekanligini aytib qo'ya qolardi.

Munaqqid yaratgan adabiy portretlari o'z mavqeyiga ega bo'lib, adabiyotshunoslar va oddiy kitobxonlar ham ularga chanqoq edilar. Lekin shu bilan birga, O.Sharafiddinov adabiyot maydonida erka ijodkor bo'ldi, deyoilmaymiz, uning boshidan qancha bulutu to'fonlar o'tganiga tarix guvoh... Ayrim doiralarda uchun O.Sharafiddinov "A.Qahhorning dumi" edi va shuning uchun ko'p hollarda uning boshida ham "yong'oqlar" chaqilardi. Adabiyotshunos olim katta davralarda yurgani, atoqli yozuvchiyu shoirlar bilan hamsuhbat bo'lgani barobarida oddiy xalqdan uzoqlashmadi. Shu sabab bo'lsa kerak, uning asosiy vazifasi xalqining ma'naviyatini yuksaltirish edi.

Yuqorida aytganimiz "adabiyot posboni" bo'lmish O.Sharafiddinov ustoz adiblar va zamondoshlariga befarq bo'lmay, ularning ijodiga katta mehr bilan qarar, ularning qalb-qo'ri-ni chuqur o'rganishga harakat qilardi. Shunisi ahamiyatliki, olim bironing kaltagi bilan emas, balki ichki sezgi yordamida haqiqiy inson, ijodkor, iste'dod egasini kashf qilishga in-

tilardi. Uning "Iste'dod jilolari" seriyasidagi "Usmon Nosir", "O'tajon Hoshim", "Mustafo Cho'qay", "Cho'lpon", "Abdulla Qahhor", Oybek, Said Ahmad, Shayxzoda, Zulfiya kabi ijodkorlar haqidagi adabiy portret va badiolari shular jumlasidandir. Adabiy portret yaratish barobarida adabiyotni qayta tahlil qilib, o'tgan asr ijodkorlariga "ular haqiqiy san'at asari yarata olmadilar, o'zbek sovet adabiyoti zamonasozlik qildi" degan fikrlarga o'zining qarashini bildirib ketdi. Munaqqid bunday fikrlarga umuman qo'shilmasligini va o'zimizni tarix nomidan hukm chiqaradigan hakamga aylantirish kerak emasligini kuyunchaklik bilan, dalil-isbot keltirib bayon qildi. Bu to'g'rida tarixning o'zi hukm chiqaradi, deydi O. Sharafiddinov. U, adabiyotimiz haqiqatdan ham mafkura zulmi ostida yashagani, ammo cheklash va ta'qiqlarga qaramay, uning ichidan yorib chiqqan adabiyot bor ekanini, Navoiydan to bugungi kungacha bo'lgan adabiyot, A.Qodiriy va Cho'lpon, S.Ayniy va Oybek, Hamza va Uyg'un, G.G'ulom va A.Qahhor, Shayxzoda va Mirtemir ijodini tahlil qilar ekan ularning zamonasozlik qilishga majbur bo'lganliklarini asoslab beradi. Olim katta avlodga katta hurmat bilan qaraydi: "... ularni o'zbek adabiyotining katta avlodi, deb aytadigan bo'lsak, biz o'sha avlod bolalarimiz. O'talarga tosh otish - bexosiyat ish. Ularni tushunishimiz, gunohlari, xatolari bo'lsa kechirishimiz kerak. Ular ham o'z vaqtida xalq o'rtasida katta e'tibor qozongan obro'li ijodkorlar edi", - deydi.

Agar biz adabiyotni yaxshi tushunganimizda otalarimizga nisbatan bepisandlik qilmagan bo'lardik. Afsuski, bizda adabiyotni tushunish masalasi hamisha oqsab kelgan. Bir qancha nazariy maqolalar yozilgan bo'lsa-da, biz adabiyotning tabiatini, obrazlilikini hamon to'la tushunmaymiz." Shu o'rinda u yana bir haqiqatni ta'kidlaydi, "O'sha zamonlar o'tib ketdi, biz yangi bosqichga ko'tarildik, mustaqil dovonga qadam qo'ydik, adabiyotdagi illatlar o'z-o'zidan qolib ketadi", deb o'ylash nodonlik bo'lishini, hozir ham ayrim yangi sxemalar tug'ilyotganini aytadi. "Mustaqillik adabiyoti" deb atayotganimiz, aslida bunday maxsus adabiyotning mavjud emasligi, mus-

taqillik davri adabiyoti qaysi mavzuda bo'lishidan qat'i nazar, haqiqiy adabiyot, san'at darajasiga ko'tariladigan asl adabiyot bo'lishi kerakligini uqtiradi.

O.Sharafiddinov ijodini o'rganishda uning uslubiga ham e'tibor qaratishni lozim deb o'ylaymiz va bevosita savol beramiz: munaqqid uslubining o'ziga xosligi nimada? Birinchidan, u juda jonli va ravon tilda bayon qiladi. Ikkinchidan, shaxsiyatga tegmagan holda tahlil qilayotgan asarga xolis baho beradi. U shunday yo'l tutadiki, aytilgan fikrlar ma'lum bir formulaga tushgandek. Buning orqasida esa ob'yektiv fikr yotadi. O.Sharafiddinov fikrlarini aniq va lo'nda bayon qilib, ortiqcha shubhaga o'rin qoldirmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning adabiy-tanqidiy maqolalari, badiolari bilan tanishgan kitobxon to'g'ri xulosa chiqarishi muqarrar. Fikrimiz asossiz bo'lmasligi uchun quyidagi misolga murojaat qilaylik: "Men universitetga 1946-yilning sentyabrida kelgan edim. Yonimda yetuklik attestati, cho'ntagimda oltin medal, dunyoning hamma ilmini bilib, tadqiq qilib qo'ygandek burnim ko'tarilgan, dimog'im shishgan, bosar-tusarimni bilmayman. Meni bag'riga olgan dorilfunun qisqa muddatdayoq mening ko'zimni ochdi - osmonlardan yerga tushirib qo'ydi, ilm dunyosi sarhadsiz bir ummon ekanini, uning musaffo suvlarini har qancha shimirgan bilan tagiga yetib bo'lmasligini menga ayon qildi. Va menga yana shuni ayon qildiki, faqat mukammal ilmgina insonga saodat yo'lini ko'rsatadigan muqaddas qudratdir." Bu satrlardagi samimiyat, muallif obrazini tasavvur qilishga, ulardagi chuqur ma'no olimning hayotiy pozitsiyasini belgilab olishimizga yordam beradi. Ushbu parchani keltirar ekanmiz, e'tiboringizni yana bir jihatga qaratmoqchimiz. Bu berilgan intervyu, maqola yoki badiolarning nechanchi yilda yozilganidan qat'i nazar, ular bugungi kunda dolzarbligini yo'qotmaganligidadir. Yana misollarga murojaat qilamiz: "... universitet biz - yoshlarga adolat va haqiqat tuyg'usini singirdi. Biz universitet auditoriyalarida besh yil tahsil ko'rgan bo'lsak, besh yil kutubxonalarda eski va yangi kitoblarning changini yutib, igna bilan quduq qazigan bo'lsak, shu jarayonda muttasil fikr-

lashni ham o'rganib bordik. Universitet bizga fikrlashsiz inson inson bo'la olmasligini, fikrlash esa hamma narsani tahlil qilish, voqea-hodisalarning zamiridagi mohiyatga yetib borish, haqiqatni kashf etish ekanini o'rgatdi. Bu ham o'sha yillar sharoitida mutlaqo amalga oshirish mumkin bo'lmagan bir gap edi. Aksincha, har xil mafkuraviy darslarda, yig'inlarda, anjumanlarda qulog'imizga o'sha davrning yolg'on haqiqatlarini quyganlari quygan edi. Lekin fikrlash malakalarini egallagan sari "Men baxtiyormanmi? Mening xalqim, elim erkin yashayptimi? Nahotki, aravani quruq olib qochib, ko'pirtirib-toshirib aytilayotgan gaplar rost bo'lsa?" degan shubha-gumonlar ko'pchilgimizni o'rtay boshlagan edi. O'shanda garchi bizlar Gersen va uning do'stlari kabi Vorobev adirlariga chiqib, Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilishga qasamyod qilmagan bo'lsak-da, ich-ichimizdan shu yurtning sodiq farzandlari bo'lishga, uning baxt-saodati yo'lida hech narsamizni ayamalikka ahd qilib qo'ygandik." Bu fikrlardan bugungi kun nafasi ufurib turibdi. Uning orasida tarixiy voqealar bilan bog'lab ketish, tilning jozibasi – bularning hammasi muallif usulubiga xos bo'lgan xususiyatlar.

O. Sharafiddinov ijodining nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi kunda ham dolzarbligi ularning mavzu ko'lamidir. So'z qadrini bilgan olim bir necha qadam emas, bir necha yil ilgari yurganini uning maqolalari tasdiqlaydi. E'tiboringizni quyidagi parchaga qaratamiz: "Adabiyot inson tuyg'ulariga, dardiga, hayot yo'lga kirib borishi kerak. Odam nima uchun shunday turmush kechiryapti. Inson hayotining mazmuni nima, u inson sifatida qanday xususiyatlarga ega, uning o'ziga xos tomonlari qanday – asarda shular to'liqligicha aks ettirilishi shart." Munaqqid fikrlarini tasdiqlash uchun badiiy asarlardan o'rinli parchalarni keltirib, qahramonning hayot tarzi, tuyg'ulari, kechinmalari orqali bir jamiyatda sodir bo'layotgan tala-to'plarni, dunyo, inson munosabatiga urg'u beradi.

Olimni o'ylantirgan asosiy masalalardan yana biri adabiyot va jamiyat masalasi. O.Sharafiddinov adabiyot jamiyatga

tobe bo'lib, erkinlikdan marhum etilsa, haqiqiy adabiyot jar yoqasiga borib qolishi haqida qayg'uradi. Va buni oldini olish yo'lini ham tushuntirib beradi: "Bugungi adabiyot, badiiy tafakkurimizda erishishimiz kerak bo'lgan eng muhim jihat – voqelikka, dunyoga munosabatda yangi aspektlarga chiqish, dunyoni yangicha, chuqurroq, yuksakroq idrok qilishga o'tish. Binobarin, dunyoning, jamiyatning, insonning mohiyatini kengroq ochishga harakat qilishimiz kerak".

O.Sharafiddinov badiiy adabiyot yordamida o'tgan avlodlarning hayotiy tajribasiga sherik bo'lishimiz va ularning tajribasidan o'z hayotimiz uchun zarur bo'lgan xulosalar chiqarishimiz lozimligini aytadi. Lekin shu bilan birga buni to'g'ri talqin qilish, bir tomonlamalikka berilib ketmaslikni ta'kidlaydi. Badiiy asardan hayotiy soha bo'yicha qat'iy amal qilsa bo'ladigan tavsiyanomalar izlash, adabiyotning mohiyatiga zid kelishini aytib, quyidagi misolni keltiradi: "Yozuvchi o'z asarining xarakteridan kelib chiqib yoxud badiiy niyatining taqozosi bilan konkret soha haqida atroflicha ma'lumot berishi mumkin. Masalan, L. Leonov "Rus o'rmoni" romanida o'rmon xo'jaligiga doir ilmiy muammolarni, A. Koptayeva "Ivan Ivanovich" romanida neyroxirurgiya masalalarini yoxud G. Nikolayeva "Yo'ldagi jang" romanida traktor zavodiga doir ishlab chiqarish problemalarini ancha batafsil tasvirlagan. Shunga qaramay, buni konkret mutaxassisliklar bo'yicha axborot beruvchi ma'lumotnoma emas, balki hayotning umumiy oqimi haqida, uning ichki jarayonlari to'g'risida tasavvur beruvchi hayot darsligi, deyish kerak".

Ozod Sharafiddinov ongli hayotini adabiyot bilan bog'lagan o'z sohasining bilimdoni, ozod so'z egasi edi. U o'zbek xalqi ma'naviy dunyosini boyitishga, unda "yangi sahifa ochishga" harakat qilib yashadi va bunga erishdi ham. Olim tomonidan yaratilgan asarlar va tarjimalar buni tasdiqlaydi, albatta. Ozod domlanning asosiy quvonchi – intellektual mehnat edi. Hatto jismoniy ish bilan mashg'ul holatlarda ham olim adabiyot haqida qayg'urardi. Va asosiysi u hech qachon haq so'zni aytishdan cho'chimasdi, axir "kimdir aytishi kerak-ku,

men aytmasam, qanday qilib nonim halol, deyman” deb, hamisha safning boshida turib, o‘zining ozod so‘zini aytishga kuch va shijoat topardi. O‘zida juda ko‘p fazilatlarini jamlagan olim xuddi gurunglarda davraning guli bo‘lgani kabi, ijodda ham eng oldingi saflarda bordi. Unga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri, yoshlarga bo‘lgan e‘tiboridir. O. Sharafiddinov hammavaqt iste‘dodli yosh ijodkorlarni ko‘ra bilgan va ularga adabiyot deya atalmish keng maydonda shaxdam qadamlar bilan yurib ketishiga ko‘maklashgan. Shu bilan birga ularning tepasida A.Tolstoyning Karabas Barabasiga o‘xshab xipchin bilan emas, balki to‘g‘ri so‘zi, o‘rinli maslahati bilan ularni o‘zining davrasiga tortar va o‘rni kelganda otalarcha mehr ko‘rsatardi. Bu haqda O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov shunday deydi: “Ozod akaning so‘zda ham, qalamda ham jo‘shqinligi, mardligi, soxtalikdan yiroqligi talabalik chog‘larimizda bizni qanchalik ilhomlantirgan, ruhlantirgan bo‘lsa, oradan qarib yarim asr o‘tib ham u kishidagi ruhiyatning bardamligi, jangovarlik va samimiyat hammamizni hayratga solib keldi.”

Haqiqatdan ham O. Sharafiddinov hayoti davomida haq so‘zni aytib kelgan olim. Adabiyotimizda shunday ijodkorlar borki, ularning ijod namunalari O.Sharafiddinov tomonidan tadqiq etilishidan hayiqib tursa-da (balki ba‘zi hollarda xafa bo‘lganlari ham bordir!), lekin baribir munaqqidning obyektiv bahosini eshitish, quruq maqtovdan afzalroq ekanini bilib, o‘z asarlarini olim nigohidan o‘tish tarafdori edilar. Bu xuddi yaxshi shifokorga murojaat qilgandek gap. Mingta lo‘ttivozning safsatasidan, bitta mutaxassisning fikri, garchi u achchiq bo‘lsa-da, foydaliroq bo‘ladi.

Zero, ozod so‘zning qadri qadrliroqdir.

IBROYIM YUSUPOV VA QORAQALPOQ ADABIY TILI

Quanishboy ORAZIMBETOV,
filologiya fanlari doktori, professor

Badiiy adabiyotda nimanidir kashf qilishga niyat qilgan har bir ijodkor o'z asarlarini bir tilda (ko'proq ona tilida) yozishi va o'quvchilariga in'om etishi bor gap. Ijodkorning bahosi yoki bo'lmasa unga bo'lgan hurmat-izzat u yozgan asarlarning badiiyligi, o'quvchiga etik-estetik ta'siri va unga qo'yiladigan qator talablar bilan birga shu milliy tilni rivojlantirishga qo'shgan hissasi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, qoraqalpoq adabiy tilining shakllanishi va rivojida qator adiblar o'zlarining hissasini qo'shdi. Masalan, XIV-XVIII asr adabiyotlarida adabiy til belgili darajada shakllangan bo'lsa, XIX asrga kelib Kunxoja, Ajiniyoz, Berdaq singari klassik shoirlarning ijodi orqali u rivoj topdi va yuksalishga yuz tutdi. XX asr qoraqalpoq adabiyotining klassigi deb tan olingan, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov ijodi bilan qoraqalpoq milliy va adabiy tilni yana ham yuksaltirdi.

Ibroyim Yusupov tilimiz orqali adabiyotimizni, adabiyot orqali tilimizni boyitdi, xalqimizning dunyoqarashini kengaytirib, betakror ijodi orqali qalblarga go'zalik urug'larini qadadi. Shuning uchun ham shoir har bir she'rida so'z va uning ma'nosi, bir so'zning qayta takrorlanmasligi, so'zning ta'sir kuchi, so'zning xalq tiliga yaqinligi va tushunarlilikligi hamda zamon bilan hamnafasligiga alohida e'tibor berdi. Bevosita aytishimiz mumkinki, shoir ijodi orqali tilimiz nufuzi yanada ortib, lug'at boyligimiz yanada boyildi. Bir so'z bilan aytganda, shoir poetikasi, uning boshqalarga o'xshamaydigan obraz yaratish usuli, voqelik kitobxonni keng mushohadaga chorlashi

orqali adabiyotimizda she'riyatni yangi va yuksak cho'qqilarga olib chiqdi.

*Байтерексең өскен гөне тамырдан,
Дилўарлығың қыл суўырған қамырдан,
Қарақалтақтың кеўил қусы сайраса,
Сөз қыйсыны ғәзийнеңнен табылған.*

Mazkur satrlar shoirning "Ona tilimga" she'ridan olingan. Unga e'tibor bersak, har bir qatori alohida-alohida hikmatlardan iborat. U butun ijodni mulkka, xazinaga o'xshatadi. Ishonchimiz komil, bu xazinaning sirini kelajak avlodlar bizdan ham chuqurroq anglab yetadi, uni e'zozlaydi va yurak to'rida saqlaydi. Chunki shoir ana shunday teran obrazli she'rlarni yaratish uchun ham qoraqalpoq tilining boy imkoniyatlarini yanada yuksaltirishni maqsad qilib qo'ygan edi. Ibroyim Yusupovning har bir she'rini oddiy o'quvchi uchun yozishi - shoirning betakror konsepsiyasi edi.

Vatan, tug'ilgan joyga atab she'rlar yaratish Ibrayim og'aning eng sevimli mavzularidan biri bo'ldi. «Kegayli», «Qora tol», «Tolli jag'isda (sohilda)gi esga olishlar», «Tug'ilgan yer», «Ovul, ovul!», «Tol bo'libdi tollari» kabi bir qator she'rlari qoraqalpoq adabiyotidagi mazkur mavzudagi eng buyuk asarlar sifatida baholanadi. Shoir bu she'rlarida tug'ilgan joyni cheksiz mehr va muhabbat bilan ifoda etadiki, tug'ilib o'sgan ovulining toli, daraxtlarini ham, yulg'un-saksavullarini ham, bo'yan-qizil miyasini ham, hayvonot va nabotot olamini ham, hattoki hakka - qora qarq'ani ham go'zallikning, nafislikning, yaratganning in'omi sifatida kuch-qudratning, qo'nim topgan joyiga nisbatan sadoqatning yuksak timsoli sifatida ko'rsata oldi. Bunga, albatta, qoraqalpoq adabiy tilini yuksak mahorat bilan qo'llangani, hattoki, uning imkoniyatlarini kengaytirgani orqali erishdi. Ibroyim og'a, tug'ilgan yerga shoirlik ko'zi bilan qaraydi, farzandlik muhabbati bilan tarannum etadi. Shu bois ham, shoirning tug'ilgan yer haqidagi she'rlari kitobxon qalbidagi mangu muhrlanadi:

*Жазда қайырыңда ойнап қыргалақ,
Қыста музларыңда тептик сырғанақ,
Кекили гүзелген, мойны ырғанақ,
Қара бала есиңдеме, Кегейли?*

Yoki

*Тағжап ауылы, Таллы жағыс,
Алтын бесигимсең нағыз,
Кейлимде көп гайры нағыз,
Сүүретің бар орнап қалған,
Умытсам – тууылғаным жалған.*

Mazkur she'rlarni o'qigan sayin o'qiging keladi va ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbat mavj uradi. Negaki, she'rda obrazlilik va boshqa shoirlarga o'xshamagan betakror badiiy mahorat ustunlik qiladi. Ta'kidlash lozimki, shoir she'rlaridagi kitobxonlarni o'ziga tortadigan jihatlar faqatgina bu sifatlardan emas. Bu – oddiylikdir! Tug'ilgan yerga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari xalq tilida, tushunarli va oddiy hamda tabiiy holda ifoda etish Ibroyim og'aning o'ziga xos ijodiy usulidir. Masalan, keltirilgan "Кекили зелген, майны ырғанақ," satrini olib qarasak, yosh, oddiy o'yin bolasining portretini chizish uchun xalq tilining bugungi avlodlar unutib borayotgan so'zlarini o'rinli qo'llagan va ularni adabiy til leksikasiga singdirib yuborgan.

Shoirning ko'pgina asarlarini milliy xulq-atvor, mentalitet, urf-odatlarini yaratish etaloni sifatida ham ko'rsatishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Qora tol, cho'girma, qo'biz, saksovul singari va boshqada unsurlar milliy obraz yaratishda atribut darajasida qolmadi. Shoir ularga judayam katta yuk, mas'uliyat yuklaydi va ularni badiiy obraz darajasiga ko'taradi. Shoirning bitta «Qoraqalpoqni ko'p maqtama ko'zicha» she'rinegi o'zi butun qoraqalpoq xalqining milliy mentalitetini shu daraja ochib bergan, bu she'rdan har kim o'zini axtaradi, o'zini ko'rgisi keladi va o'z navbatida, har bir kitobxon qalbida faxr-iftixor tuyg'usini paydo etadi.

*Қарақалтақты көп мақтама көзинше,
Қармаққа тез қабатуғын балықпан.
Хәр кимниң бар әззи жери өзинше,
Шортанымдай аңқылдақлау халықпан.*

*Жалғыз атын сойып берип қонаққа,
Жаяу қалып бул халық талай тарыққан.
Соңы айтып мақтайғойсаң бирақта,
Оннан да зорын көрсететин халықпан...*

Shoir adabiyotga samimiy, beg'araz xizmat qildi. Keltirilgan bu she'riy misralarning har biri o'ziga xos hikmatlar guldastasidan sanaladi. Ularni o'zgartirish, hatto so'zlarni almashtirish ham mumkin emas. U butun xazinaga qiyoslanadi. Bu xazina dunyo adabiyoti ko'rgazmasining qoraqalpoq adabiyoti uchun ajratilgan burchakda nodir eksponent bo'lib turaveradi. Sababi, teran falsafiy-estetik mushohadalar yaratish qoraqalpoq tilining ham rivojlanishiga xizmat qiladi. U she'rlarini oddiy kitobxon uchun yaratdi. U o'z she'rlarini boshqa xalqlar tillariga tarjima qildirib, shuhrat qozonish uchun yaratmadi. Uning she'rlari qoraqalpoq tilida turli qatlamlar uchun yozib mutolaa qilindi. Mazkur ta'riflar shoir ijodiy konsepsiyasini belgilab berdi. Shoir o'xshatish, qiyoslash uchun badiiy detallarni mahorat bilan q'lladi, xalq tilining nozik qochirimlarini topa bildi. Masalan, "cho'rton" xalq tushunchasida eng beg'ubor, anqov baliq sanaladi. Ana shu detalni xalqning o'zining portretini yasashda o'rinli qiyos qilgani e'tiborga molik.

Xo'sh, shoir va uning asarlari xalq muhabbatiga sazovor bo'lishining siri nimada? Birinchi navbatda, shoir o'z asarlari orqali kitobxonlar qalbiga yo'l topa olishidadir. Buni shoir ko'proq qoraqalpoq xalq tilini badiiy evirilishlar orqali ko'rkamlashtirib, o'quvchi ongini egallab oladigan darajaga yetkazib amalga oshirdi. Uning she'rlarida xalqimizning umumiy bir kayfiyati, mahorati, insoniyligi, mehr-oqibati tarannum etiladi. Ular mehr nuri bilan bezaladi, unda har kim o'zini ko'rgisi keladi:

*Нақылларың, шағып көрсем маңыздан,
Жууабыйсаң зейин сууын ағызған.
Атам саған азаматлық жан берип,
Анам саған мийрим сүтин тамызған.*

*Қара үйге кирсе ким сени кийип,
Келдің ергенекке сен зорға сыйып,
Пүтин тери зая болмасын дейип,
Бабам пақыр үйе салған шөгирме.*

*Сүмелек қайнатпас мәзи сән ушын,
Үйрет келинлерге буның мәнисин,
Ата-баба дәстүрлерин танысын,
Ким үйретер оны өзиңнен өнге?
Аман бол, сүмелек қайнатқан жеңге!*

Bu misralar shoirining barchaga tanish she'rlaridan olindi. Ona tili – bu har bir millatning milliyiligini belgilab beradigan tushuncha sanaladi. Uni toza holda saqlash, kelajak avlodga yetkazish o'sha xalqning vazifasi. Shoir uni ulkan muhabbat bilan ta'riflaydi. Shoirning falsafiy dunyoqarashi juda keng. U bir badiiy detal orqali katta masshtabdagi mazmuni bera olgan. Masalan – cho'girma bu qoraqalpoqlarning milliy bosh kiyimi. Ushbu cho'girma orqali xalqning butun tarixini, milliy qadriyatlarini yoritib bera oldi. Shuningdek, ushbu xalqning milliy xarakterini ko'rsata olgan. “Пүтин тери зая болмасын дейип, Бабам пақыр үйе салған шөгирме”. Navro'z taomi – sumalakka bag'ishlangan she'rida ham shunday sifatlarni ko'rish mumkin. Albatta, milliy xarakter badiiy til orqali yaratiladi. Buni shoir katta mahorat bilan amalga oshirgan.

Ibrayim Yusupovning asarlarida oddiy so'z poetik so'zga aylanadi. Ushbu so'zlar orqali berilgan tuyg'ularga ulanib, badiiylik jihatdan yanada teranlashadi. Ularning mazmuni kontekstda yanada boshqacha ahamiyat kasb etadi. Shoir she'rlarining ba'zi misralarini iboralari orqali tanish ham mumkin. Ular faqatgina shoirning asarlarida uchraganlikdan

teran mazmunga boy tanish iboralarni yodimizga soladi. Go'zal tasvirlar, ta'riflar shoir qalbining ulkan olamini kashf qilib beradi:

*Сазын самал ядлап, сөзин ел билген,
Бир шайыр дуньяға келди де кетти.
Тал артынан туўған айға телмирген,
Бир гөззал түсима енди де кетти.*

*Ҳаўазыңа кулақ салып қарасам,
Ақ қағаздай ғағырласып барасаң.
Хош аллаяр айтысқандай боласаң,
Келмеске жол тартқан гөззал тырналар.*

Shoirga xos bo'lgan tasvirlash uslubi uning keng dunyoqarashini, mahorati bilan chizishga imkon yaratadi. Subjektning (lirik qahramon) obyektga bog'liqligi juda ravshan. Voqea sizning ko'z o'ngingizda jonlilik kasb etadi. "Сазын самал ядлап, сөзин ел билген" degan misra bu chinakam iboradir. Bu qator dagi so'zlarning birini ikkinchisiga almash tirish mumkin emas. Unda badiiy tilga xos bo'lgan alliteratsiya deysizmi, ichki qofiya deysizmi, obrazlilik deysizmi – bari jamlangan. "Тал артынан туўған айға телмирген, Бир гөззал түсима енди де кетти" degan satrlarda real va romantik voqelik, tasvir ifodalangan. U estetik didni o'stiradi. "Ҳаўазыңа кулақ салып қарасам, Ақ қағаздай ғағырласып барасаң", degan satrlarda obrazlilik kuchli ifoda etilgan. Ovoz bilan harakat o'z originalligini namoyon qilgan. U boshqa tilga tarjima qilinganda originalligini yo'qotishi tayin. Bu Ibroyim Yusupovning ulkan muhabbatga sazovor bo'lganidan dalolat bersa kerak.

Xulosa qilib aytish mumkin, Ibroyim Yusupov qoraqalpoq badiiy adabiy tilini rivojlantirish bilan birga xalq tilining bundan ham o'sishiga imkon yaratdi. Uning she'riyatini hozirgi avlod unitib borayotgan eski xalq tiliga mansub so'zlar va so'z birikmalari, faqat shoir asarlarida uchraydigan frazalogizmlar yanada go'zallashtiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qo-

raqalpoq o'quvchilari orasida Ibroyim Yusupov ixlosmandlari juda ham ko'p. Ayniqsa, yosh avlod uning she'rlarini yodlab olib aytib yuradi. Buni shoirning ikkinchi umri desa ham bo'ladi.

MILLATNING OR-NOMUSI

Perdebay NURJANOV

*filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent*

T. Qayipbergenov ijodi faqat qoraqalpoq adabiyotidagina emas, balki butun turkiy tilli xalqlar adabiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning qissalari, romanlari, publitsistik asarlari ko'tarilgan muammolarning salmoqliligi, badiiy jozibadorligining yuqoriligi bilan hozirgi kunda ham o'quvchilar qalbini junbushga keltirishda davom etmoqda. Bunga eng dastlab yozuvchi asarlaridagi o'lmas g'oyalar, yuqori badiiy saviyada yaratilgan obrazlar asos bo'lganligi ma'lum. Ammo bu o'lmas g'oyalar va obrazlarning o'quvchiga yetib borishida yozuvchi asarlarining badiiy tili eng asosiy o'rinlardan birini egallashi shubhasiz. Shu bois biz T. Qayipbergenov ijodida markaziy o'rin egallaydigan «Qoraqalpoq dostoni» tarixiy trilogiyasining til xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishni ma'qul deb bildik.

Trilogiyada muallifning tasvirlangan voqealarga, qahramonlarning harakatiga munosabati o'zidan oldingi A.Begimov, J. Aymurzayev, X. Seytov singari qoraqalpoq yozuvchilari romanlaridagidan butunlay farqlanadi. Bu esa bizningcha, yozuvchining voqealar, qahramonlar tasvirida badiiy psixologizm usulidan foydalanishi bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda, tasvirlanayotgan davrning badiiy konsepsiyasini yaratishda muallif asosiy e'tiborni personajlarning harakatiga nisbatan ularning xayol olamiga, psixologiyasiga qaratadi. Natijada personajlar xarakterlari ularning o'z o'y-xayollari, mulohazalari orqali ochiladi. Bu narsa personajlarning muallif bilan teng huquqqa ega subyekt darajasiga ko'tarilishiga zamin hozirlaydi. T. Qayipbergenov asarlarining bayon qilish poetikasidagi bu o'zgarishlar tasodifan

paydo bo'lgan emas. Yozuvchining jahon adabiyotiga oid eng yaxshi an'analarni puxta o'rganishi uning bu muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritishiga asos bo'ldi.

Tarixiy roman tili ustida ishlovchi yozuvchi ikkita xatardan saqlanishi lozim: birinchidan, qahramon tilining haddan tashqari arxaizatsiyaga uchrashidan, ikkinchidan, asar tilining haddan ziyod zamonaviylashishidan (modernizatsiya). Bularning ikkalasi ham yozuvchining tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishiga zarar yetkazadi. Haddan tashqari arxaizatsiya qadimgi tilni naturalistik tarzda ko'chirishga olib keladi. Natijada davr badiiy yilnomasining yaratilishiga to'sqinlik yuzaga keladi. Tarixiy roman tilining haddan ziyod zamonaviylashtirilishi esa tasvirlanayotgan davrning til xususiyatini ifodalashga yo'l qo'ymaydi.

Bir butun organizm sifatida romanning tuzilishi o'ta murakkab. Buni tadqiq qilmoqchi bo'lgan olim turli uslubiy birliklar bilan yuzma-yuz keladi. Buning eng murakkab jihati shundaki, bu uslubiy birliklar turlicha til qatlamlariga mansub va turli stilistik qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Mashhur olim M. M. Baxtin bir butun organizm sifatida romanning quyidagi kompozitsion-uslubiy tiplarga ajratilishini ko'rsatadi.

1. Muallifning o'z adabiy-badiiy bayoni (uning barcha ko'p turli shakllarida);

2. Og'zaki turmush bayoni turli shakllarining stilizatsiyaga uchrashi;

3. Yarim adabiy turmush bayonlari turli shakllarining (xat, kundaliklar va h.) stilizatsiyaga uchrashi;

4. Adabiy, lekin, nobadiiy muallif gapining turli shakllari (axloqiy, falsafiy, ilmiy mulohazalar, ritorik so'zlar, etnografik tasvirlar, bayonnoma shaklidagi izohlar va boshqalar).

5. Qahramonlarning uslubiy individuallashtirilgan gaplari»⁸⁸.

⁸⁸ Бактин М. М. Слово в романе. В его книге: М. Бактин. Вопросы литературы и эстетики. Исследование разных лет - Москва, «Художественная литература». 1975.

Keltirilgan uslubiy birliklar roman tuzilishida butun tizimga xos tarzda bir-biriga bevosita birikadi. Bu tizimni yuqorida ko'rsatilgan kompozitsion-uslubiy tiplarning hech biri bilan qiyoslash, ularga muvofiq tarzda tahlil etib bo'lmaydi. Shuning uchun romanning badiiy tarkibini tahlil qilganda uning tuzilishiga mansub yuqoridagi tiplarning organik birligini buzmasdan, bir-biri bilan bog'liqlikda o'rganishga to'g'ri keladi.

Tarixiy roman tili bilan bog'liq tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muammolar juda ko'p. Ular orasida T. Qayıpbergenovning «Qoraqalpoq dostoni» tarixiy trilogiyasidagi muallif gapi va personajlar nutqining o'zaro munosabatini o'rganish juda muhim. Chunki bu narsa asar tili badiiy stilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatini ochishda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan «Qoraqalpoq dostoni» trilogiyasi tilidagi muallif gapi alohida qiziqish uyg'otadi. Ma'lum bo'lganidek, muallif gapi uslubiy jihatdan ikki turga bo'linadi: «qadimgi» yoki «yangi» muallif gapi va stilizatsiyaga uchragan muallif gapi⁸⁹.

Stilizatsiyaga uchragan muallif gapi: «qadimgi» muallif gapidan tasvirlanmoqchi bo'lgan davr yoki ijtimoiy muhit til xususiyatlarining muallif tilida ongli ravishda keltirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy roman tilidagi muallif gapi ko'pincha stilizatsiyaga uchraydi. Chunki bu narsa o'sha davr ruhini berish uchun juda zarur. Bunga «Qoraqalpoq dostoni» tarixiy trilogiyasi tilidagi muallif gaplari misol bo'ladi. Tilining sifati jihatidan «Qoraqalpoq dostoni»ga kiradigan uch romanning – «Mamanbiy afsonasi», «Baxtsizlar» va «Gumrohlar»ning badiiy qurilishidagi muallif gaplari stilizatsiyaning ikkinchi tipiga mansub hisoblanadi. Chunki bunda yozuvchi muallif gapi orqali o'sha davrlarning (XVIII va XIX asrlar) til xususiyatlarini boshidan oxirigacha ko'chirmasdan, uni zarur o'rinlardagina qo'llagan. Negaki, tarixiy roman o'tgan davr haqidagi asar bo'lsada, u

⁸⁹ Фафориш Ф. К. О некоторых особенностях языка и стиля исторического романа А. Н. Толстого. Ученые записки Новосиб. гос. пед. института. 1947. Вып. 4. Новосибир., 1947.

hozirgi zamon o'quvchisi uchun tushunarli adabiy tilda yaratilishi shart. Ana shunda u kishiga estetik zavq bag'ishlay oladi, o'tmish haqida to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu jihatdan trilogiya matnidagi muallif gapi xalqona ruhda yaratilgan. Hozirgi o'quvchi tushunishi qiyin bo'lgan istorizm, arxaizm, dialektizmlarni uchratmaymiz.

Ba'zi hollarda muallif gapi tuzilishida har xil personaj nutqi qismlarining tarqoq kelishi alohida badiiy effektini yuzaga keltiradi. Buni uslubiyat sohasida «o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap» deb nomlanadi. Masalan:

1. Kun peshinga yaqinlashganda ular (O'razan botir va Murod shayx - N.P) bir to'rang'ilning yoniga kelib to'xtashdi. O'razan botir shayxdan endi qolavering, deb iltimos qildi. Charchab qolgan oti endi uni ovulga kun botganda yetkazsa ham katta gap. O'zi bo'lsa safarga chiqqan, ovi hali oldinda, ketaveradi. Shayx qaytishga rozi bo'ldi. Ikkalasi ot ustida quchoqlashib xayrlashishdi.⁹⁰

2. Murod shayx ichki monologining o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap bilan berilishi:

- Rozi bo'l, shayxim, - dedi O'razan botir. U qanchadan-qancha uzoq safarlarga chiqdi, qanchadan-qancha urushlarga otlandi, lekin hech qachon «rozi bo'l» demagandi. Shu sabab bo'ldimi, shayxning ko'ngli buzildi, biroq ko'zidan yosh chiqarmadi. Shunday bo'lsa ham bu gap shayxni o'ylantirib qo'ydi... Keksayib qolgani uchunmi? Bo'lsa bordir. Ikkalasining ham yoshi oltmishdan oshib qolgan. Tanangdan kuch-quvvat ketsa, hayotning qizig'i ham uncha qolmas ekan. Ko'zingga o'lim ko'rinadi. Hamma bilan rozi-rizolik tilashaverish kerakday tuyuladi kishiga. Dastavval yurt bilan rozi-rizolik tilashish kerak...

«Arzingizni qabul qilamiz» deb ketgan rus elchilari ham va'dalarini unutishdi. Qaytaga Rossiyaga savdo bilan ketgan savdogarlar yurtlariga qaytishmadi. Savdogarlarning bekor-

⁹⁰ Qayipbergenov T. Qoraqalpoq dostoni. Uch jildlik. 1-jild. Mamanbiy afsonasi. Roman // Qoraqol. L Tojiyeva tarj / -Toshkent: «Sharq». 1999.19-bet (keyingi o'rinlarda shu manba sahifasi ko'rsatiladi).

dan-bekorga tutib qolingani, xo'rlangani uchun qoraqalpoqlar ham boshga bosh, deb ruslarning chekka ovullaridan yuzlab odamlarni bandi qilib olib kelishgandi.

Xalqning kelib chiqishi haqida haqiqatga yaqin afsonalarni biladigan Murod shayxga ruslardan bandi saqlash nomaqbul ko'rinadi. Biroq, iloji qancha? Millatning or-nomusi shuni talab qiladi.

Shayxning xayoliga kelmagan narsa yo'q. Biylarning ba'zilari arz qilishganiga qaramay, ruslarning bandilarga javob berib yubormay, quruq jo'natib yuborishgani yaxshi bo'lmadi. «Dini, imoni boshqa odamlar bilan bir qavm bo'lish, it bilan mushukni bir katakka qamashdek gap»... Shayx Oqbo'zga qamchi bosmay, asta-sekin haydab, shularni o'ylab kelayotgan edi. (19–20-bet).

3. Chaqchaqlashib o'tirgan bolalar birdan jim bo'lib qolishdi. Lekin Bektemirning gapi ikkala katta yigitni o'ylatib qo'ydi. Chindan ham Maman bilan maslahatlashib ko'rishsa, nima qilarkin? Shayx otasi uni yaxshi ko'radi. Gapini yerda qoldirmay yo Omonliqqa, yo Olloyorga boy bolasining kiyimini kiydirib, musobaqaga qo'shsa bormi!

Eh-he! Bularning ham boshlariga davlat qushi qo'nsa ajab emas. Axir ular ham ko'p narsani bilishadi-ku. Mamanlar kabi shayxning qo'li ostida tarbiyalanib, o'qishmagan bo'lishsa ham, qanchadan-qancha eshiklarga kirib, ko'p o'qiganlar, donolarning gaplarini eshitishgan. Xudo ol qulim desa-yu, baxti kulib, xonga ma'qul tushib qolsa, qancha bechoralarning kuni tug'ib qolar edi. Shunda Mamanning ham yaxshiligini unutmaydi. Shayxni o'la-o'lguncha qadrlaydi.

Ular shu fikrga kelishdi. (33-bet)

4. Maman Omonliqlarnikida butunlay qolish u yoqda tursin, o'sha kuni tunay ham olmadi. Ketidan odam keldi. Murod shayx, kelsin, deb aytirib yuboribdi. U uyiga qaytdi.

U o'zini gunohkor bilgani uchun Omonliq bilan Olloyor to'g'risida diliga tugib qo'ygan gaplarini shayxga aytolmadi. Aytgani bilan shayx «xo'p» der-u, lekin ovullarni necha martalab aylanib, tilanchilik qilib yurgan bolalarni boylarning

farzandi desa, kim ishonardi? Yurtni aldab martabaga erishgandan ko'ra, tilanchilik qilishgani afzal! (36-bet).

Tasvirlanayotgan davr badiiy tarixini turli qahramonlar nuqtai nazaridan ifodalash manerasi T. Qayipbergenov trilogiyasi uslubiga xos jihat. Yuqoridagi misollardan ko'rganimizdek, turli qahramonlar replikalari muallif gapi tuzilishiga organik tarzda birikib ketgan. Bu narsa trilogiya bayon qilish qurilishining rang-barangligini ta'minlaydi, shu orqali asarning o'quvchiga degan emotsional ta'sirining oshishiga xizmat qiladi.

1-misolda Murod shayxning O'razan botirni uzoq safarga kuzatishi voqeasi tasvirlanib, muallif gapi tarkibiga O'razan botir tiliga xos so'zlar aralashib ketadi. Bu esa muallif bayon qilish uslubining ko'p planli bo'lishi, uning rang-barang bo'lishida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

T. Qayipbergenovning «Qoraqalpoq dostoni» trilogiyasining yana bir uslubiy xususiyati shundan iboratki, unda qahramonning ichki monologi ko'p hollarda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap orqali beriladi. Bunga 2-misoldagi Murod shayxning O'razan botirni uzoq yo'lga kuzatib, qaytayotganda yo'lda yurt taqdiri haqidagi mulohazalari ichki monolog yordamida ifodalanishi misol bo'la oladi. Muallif xalqning achinarli taqdirini Murod shayxning ichki o'y-xayollari orqali mohirona tasvirlagan. Agar bu muallif tili orqali quruq tarixiy izohlar yordamida berilganda, bunday jozibador tasvirlanmagan bo'lardi.

3-misol muallif gapidan boshlanib, unga Omonliq bilan Olloyorning tiliga xos so'zlar bevosita qo'shilishi orqali o'sha davrdagi nochor-kambag'alning ushalmas orzulari ishonchli tarzda aks ettirilgan. Demak, bu misolda ham o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning qo'llanilishi o'rinli bo'lgan. Oxirgi misoldan ko'rinib turganidek, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap so'roq, undov shaklida muallif gapining tarkibida aralash qo'llanaveradi, shuning natijasida muallif tiliga qandaydir quvnoqlik, oddiylik bag'ishlaydi, uni xalq tiliga – so'zlashuv tiliga yaqinlashtiradi. Bu esa asarni o'quvchining oson tushunishiga yordam beradi.

4-misol muallif gapidan boshlanib, unga Mamanning tiliga xos so'zlar birdaniga qo'shilib ketadi. Bu hodisa Mamanning o'zi badavlat joydan chiqqan bo'lishiga qaramasdan, uning kambag'al bolalariga bo'lgan muhabbati, shuningdek boy va kambag'al o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak, muallif gapiga qahramon tiliga xos so'zlarning aralashib ketishi - o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning muallif tomonidan mohirlik bilan qo'llanilishi badiiy matnning ko'p qatlamlilikiga, rang-barangligiga olib keladi. Bunda muallif va qahramonlar subyektiv qarashlarining yuzma-yuz kelishi, aralashishi yuz beradi. Shu orqali o'tgan zamon bilan hozirgi zamon o'rtasidagi chegara o'zlashadi, bog'liqlik kuchayadi.

Tarixiy roman matnidagi muallif gapi va personajlar nutqi o'rtasida proporsionallik saqlanishi kerak. Agar personajlar nutqida haddan tashqari ko'p arxaizmlar, dialektizmlar qo'llanilsa, unda muallif gapi va personajlar nutqi o'rtasidagi muvozanat buziladi. Bu badiiy matn tarkibiy qismlari organik bog'liqligining buzilishiga olib keladi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning qo'llanilishi esa badiiy matn tarkibiy qismlari o'rtasidagi proporsionallikni saqlashga xizmat qiladi. T. Qayipbergenov ulkan so'z ustasi sifatida bularning barchasini e'tiborga olib, har bir badiiy so'zga katta mas'uliyat bilan yondashgan. Shu bois trilogiya betakror asar sifatida jahon adabiyoti tarixi qatoridan joy oldi. Asardagi o'lmas g'oyalar, badiiy obrazlar o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

“SO‘Z DURLARIN TERMOQ...”

Iqbol MIRZO,

O‘zbekiston xalq shoiri

“So‘z ham tirik mavjudot. Uning chaqaloqlik, bolalik, o‘smirlik hamda balog‘at chog‘lari bo‘ladi. So‘zda mansub xalqning ruhi, fe‘l-atvori aks etadi. O‘z so‘zingni qo‘yib, o‘zganing zabaniga suyanish – o‘z jigarini uyingdan haydab, begonani yetaklab yurishdek gap...”

(Erkin Vohidov suhbatlaridan)

Tangri Taologa o‘zbek xalqining qaysidir hislati ma‘qul tushgan bo‘lsa kerak, toleiga Erkin Vohidovdek buyuk sho‘rni, mutafakkirni, tengi yo‘q so‘z zargarini tuhfa qildi. Men o‘zbekning oddiy bir havasmand ijodkori sifatida shukurlar qilamanki, o‘quvchilik kezzarim darsligimda suratini ko‘rganim, she‘rlarini yod olib imtihonlarda “besh” olganim insonning nazariga tushdim, mehrini qozondim.

Qiziq bir holatni ko‘p kuzatganman, jurnal yoki gazetada biror ijodkorning suratini ilk bor ko‘rganingdayoq ko‘nglingda qanday taassurot uyg‘onsa, keyinchalik o‘zi bilan ko‘rishgan paytingda ham haqiqatan tasavvuringga mos inson ekanligiga guvoh bo‘larkansan. Gohida shunday bo‘ladiki, ba‘zi kishilar o‘qishli asarlar yozgan taqdirda ham, suratini ko‘rgan paytingda qandaydir noxush kayfiyat uyg‘onadi, negadir ko‘ngil g‘ash tortaveradi. Xuddi shunaqa ijodkorlar bilan keyinchalik birga ishlashga, safarlarida sherik tushishga, ba‘zilari bilan qo‘shni bo‘lib yashashga to‘g‘ri kelgach, bu fikrimga yaqqol amin bo‘lganman. Ammo Erkin Vohidovning yorug‘ yuzi, o‘ziga yarashgan salobati, teran nigohini suratlarida yoki televizionda ilk bor ko‘rgan paytimdayoq yaxshi inson ekanligiga ishonch beruvchi kayfiyat paydo bo‘lgan. “Erkinjon chiqqan gazeta-

ning o'sha sahifasi nur taratib turadi", derdi ustoz Yo'ldosh Sulaymon.

Keyinchalik Erkin Vohidov bilan yaqin hamsuhbat bo'lib, betim qotib, uncha-muncha gapni bemalolroq aytadigan bo'lganimda, o'sha birinchi taassurotimni eslab, ustozga so'zlab berdim. U kishi, o'ziga yarashgan alfozda, boshlarini ozgina orqaga tashlab, kulib, "Ha, suratda odamning ko'ngli aks etadi, buni ilg'agan ilg'aydi. Lekin ba'zi insonlar suratga tushishni qotiradi, bir qarashda pokdomon, farishta bo'lib ko'rinadi, – dedi va jiddiy tortib, misol tariqasida Stalinni esladi, – uning rasmiga odamlar mahliyo edi, haligacha uyining to'rida asraydiganlar bor, lekin ular u odamning qanday razil, vahshiy bo'lganini tasavvuriga ham sig'dirolmaydi", dedi va yana kulimsib qo'shimcha qildi: "Bunaqa nusxalar bugun ham uchrab turadi".

Ulug'lar haqida gap ketganida ba'zilar "guruch bahona suv ichib qolaylik" degan maqsadda o'zining shaxsiyatini targ'ib qilib qoladi, shunga xushyor bo'lish kerak deyishadi. Lekin, buyuk shaxslar to'g'risida ko'zing bilan ko'rib, o'z qulog'ing bilan eshitganlaringni yozmasang, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan oldi-qochdi hangomaga aylanib ketishi ham hech gapmas.

Alqissa, ustoz bilan birinchi ko'rishuvim bundoq bo'lgan. "Qo'ng'iroq" nomli maqolamda bu haqda eslaganman, talabalik paytimda Toshkentga "she'r tarqatgani" kelib, Hamza teatri yonidan chiqib qoldim. Bir pas angrayib, atrofni tomosha qilib tursam, birdan, yo'l chetida mashina to'xtab, kimsan naq Erkin Vohidovning o'zginasi tushib turibdi! Xuddi kutilmaganida boshidan baxt qushi uchib o'tgan odamday angda qoldim. Kimdir kutib olishi kerak bo'lgan shekilli, ustoz avval atrofga ko'z yugurtirib, so'ng o'zlariga xos mahobat bilan ohista yurib, zinadan bir-bir bosib, ichkariga kirib ketdi. Angraygan-cha qoldim. "Eh, nimaga dastxat olib qolmadim, nimaga borib so'rashmadim", deyman hushimni yig'ib olgach. Keyinchalik Erkin akaga shu voqeani eslatganimda, o'ziga xos lutf bilan: "Yugurib borib, qo'limni ushlamabsiz-da, men O'zbekiston

xalq shoiri Iqbol Mirzo bo'laman!" demagan ekansiz-da, dedi. Shu gapdayam ikki ma'no borligini qarang: bo'laman – men o'shaman; bo'laman – men hali bo'laman...

1991-yil Toshkentga kelib, "Vatan" gazetasida ish boshladim. 1994-yil ustoz Xayriddin Sultonov chaqirib, Erkin Vohidov meni so'rayotganini, "Ko'ngil" nomli kitobim ma'qul bo'lganini, Gulchehra opaga (Erkin Vohidovning turmush o'rtog'i) Davlat Standartlash agentligiga yordamchi xodim kerak ekanligini aytdi. Xayriddin akaning stolida ham o'sha shapa-loqdek kitobcha turganini ko'rib xursand bo'ldim...

Ertasiga qo'mitaga bordim, telefon qilib bog'lanolmadim, ancha payt kutdim. Keyin bilsam, opaning toblari qochib kasalxonaga tushib qolib, ishga kelolmabdi. Shunday qilib, opaga yordamchi bo'lish tolemizga yozilmagan ekan. Lekin, keyinchalik oilaviy bordi-keldi asnosida opaga o'g'il, Xurshidbek bilan aka-uka bo'lib ketdik. Gulchehra opam qo'li gul uy bekasi bo'lishi bilan birga, ham so'zga chechan, nozikta'b she'rshunos ekanligiga ko'p guvoh bo'lganman. Buyuklarni suyab turadigan tog'i bo'ladi, ilhom beradigan chamanzor bog'i bo'ladi deyishadi. Oybekning Zarifaxonimi, Hamid Olimjonning Zulfiyasi, Qahhorning Kibriyosi haqida ko'p hikoyalar bor. Men ana shunday timsollar qatorida Opaning qiyofasini ham ko'raman.

Ustoz bilan birinchi suhbatimizdan tortib, statsionardagi oxirgi uchrashuvimiz paytida ham ul zot so'zni qanchalik e'zozlagani, tilga qanchalik mehr va muhabbat ila munosabatda bo'lganliklari, so'zni yosh boladay, jujuqday erkalaganliklariga shohid bo'lganman.

Adabiy "gap"imiz bor edi. O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboev, Ibrohim G'afurov, Umarali Normatov, Ne'matullo Ibrohimov, Abdug'ofur Rasulov, Shuhrat Rizaev, Hamidulla Boltaboev, Xurshid Do'stmuhammad kabi adib-olimlar ishtirokida kun bo'yi adabiy suhbatlar bo'lardi. Suhbatlarda gap Navoiyga borib taqalaverar, so'zlarning tarixiga, rivojiga, harakatiga taalluqli mushohadalar qizigandan qizirdi. Erkin aka mening "Devonu lug'ati-t-turk"ka qiziqishimni rag'batlantir-

rib, "Shoir odam olim, tilshunos bo'lishi kerak, shoirning ilmi shiraliroq bo'ladi", derdi.

"Alp Er To'nga o'ldimi?

Esiz, ajun qaldimi?

O'dlak o'chin aldimi?

Emdi yurak yirtilur!"

- to'rtligini o'qisam, "Voh, mana buni sharhlash kerak, she'rni qarang, turkning qilichidek keskir, ham ritorik so'roq, ham odam qayg'udan o'z ichiga sig'mayotgani ifodasi! Mana shu haqiqiy she'r, voh-voh", deb to'lqinlanib ketardi.

Alisher Navoiyning "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhare sharifroq yo'q ondin", baytini keltirib, ustoz: "Navoiy hazratlari ikki ma'noga ishora qiladi, birinchisi, "Hayvonga til ato etilmadi, faqat ovoz berildi", ikkinchisi, "Insonni hayvondan judo qilgan jihat - tilning nazokati, go'zalligi, latofati, so'zni ishlatish mahorati. Inson bo'la turib tilni to'g'ri ishlata olmasa, hayvondan farqi bo'lmaydi, til latofatiga ega bo'lishi - insonni hayvonsifat odamdan farqlaydi", degan ma'noni ham ifodalaydi..."

Bir kuni Erkin aka Abdulla Qahhorning "Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga millitsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hush-tak chalmaydi?" degan gapini eslab, "Agar til qoidasini buzib, bulg'ab, oyoqosti qilayotganlar jarimaga tortilganda, bizdan ko'ra boy davlat bo'lmasdi, buncha pulni qayoqqa qo'yishni bilmay qolardik", deb lutf qilgandi...

"Til uchun faqat Til qo'mitasi yoki boshqa mas'ul idoralarnas, xalq kurashishi kerak, chunki bu bir tashkilotning emas, xalqning boyligi", - deb ta'kidlardi. "So'z latofati" kitobida yozganidek: "Ona tili umummillat mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun kayg'urmog'i kerak. Unutilgan so'zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg'iz tilshunoslarning emas, millatning ishidir".

Erkin akaning:

*El – ustozim, men esa – tolib,
Soʻz durlarIn termoqdir ishim.
Odamlarning oʻzidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim,*

– degan misralari oʻzlarining hayot shiorlariday jaranglab, yashash prinsipiga aylangan edi. Erkin aka oxirgi paytlaridam tilning goʻzalligiga suyanib, shundan zavq-shavq, quvvat olib yashadi. “Soʻz latofati” kitobidagi hikmatlarining juda koʻplarini oʻsha suhbatlarda bizga gapirib, pishitib olgandi.

Daholarning hikmati shundaki, odamlar bilgan, ammo idrokiga yetmagan mulohazalarni sodda qilib tushuntirib qoʻyadi. Qarang, qarsak bilan chapakni qanday sharhlayapti: “Kaftni kaftga urish – olqish belgisi. Chiqqan tovush chapil-lasa, **chapak**, qarsillasa, **qarsak** boʻladi. Agar biron gʻaflatda, angda, biror narsadan gʻofil qolsa, chapak chalgancha qoldi, deyiladi”. Yoki uzum haqidagi fikrlariga eʼtibor qiling: “**Uzum yedim, “uzum” dedim, bilsam, tokdan uzib yedim**, degan-dek, oʻz qoʻlim bilan ishkomdan uzum uzaturib, bu soʻzning **uzmoq**dan olingani xayolimga kelgan edi. Axir ungan narsani **unum, gʻuj** oʻsgan mevani **gʻujum**, jamiyat tuzilishini **tuzum**, choʻgʻning **qoʻridan** kolgan kulni **qurum** deymiz. Ogʻizga so-lib yutganimiz **yutum**, tomoqdan **qult** etib oʻtgan suv **qultum** boʻlganidek, ishkomdan **uzib** yeganimiz **uzum** boʻladi-da, deya oʻz sodda kashfiyotimdan suyungan edim.”

Erkin akaning tilga boʻlgan munosabati haqida soʻz ket-ganda, yana bir jihatga eʼtibor qilishni istardim. Tilimizni yaxshi koʻradigan akalarimiz, doʻstlarimiz, xudoga shukur, koʻp. Lekin ularning qarashlarida baʼzida mahdudlik, chek-lanish jihatlarini ham koʻramiz. Masalan, kimdir forscha soʻz kerakmas, deydi. Kimdir arabchani, kimdir turkchani-da ish-latishga qarshi, oʻzbek tili “sof” boʻlishi tarafdori. Erkin aka aytardilarki, “Tilimiz shakllangan muhit, jugʻrofiy hudud for-siy, arabiy va turkiy daryolardan suv ichgan, shuning uchun ham ifoda imkoniyati keng. Shunaqa tovlanishlar borki, bosh-

qa turkiy tillarda topilmaydi bu. Qodiriy tilini, Bobur tilini ko'ring, so'zning qanday go'zal ifoda topishiga e'tibor qiling. Xalqona so'zlarni aytmaysizmi. "Qani, o'zlaridan bo'lsin", degan ifodani qaysi tildan topish mumkin?"

Bugungi umumlashuv davrida dunyodagi hech bir faol til xorij so'zlaridan o'zini butunlay muhofaza qila olgan emas. Inglizmi, yaponmi, turkmi, hammasida ham minglab, o'n minglab boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlar borligini kuzatish mumkin.

Darhaqiqat, Erkin aka tilga nisbatan juda bag'rikeng edi. "Tilimizdan boshqa so'zlarni haydab chiqaramiz, deyish noto'g'ri, chunki xalqimizning qon-qoniga singib bo'lgan baynalmilal, internatsional so'zlarni ham qabul qilishimiz kerak. Din nuqtai nazaridan, arabcha ham tilimiz hisoblanadi. Yaqin hamkorlikda bo'lib singishib ketgani uchun fors tiliyam o'zimizning tilimiz", derdi. "So'z - zabarjad, zo'r - gavhar, oltin..." Shu ifodaning o'zida ham uchta tildan foydalangani tilga bo'lgan munosabatini anglatadi. Erkin akaning gaplaridan xulosa qilamanki, Temur bobomiz dunyoni qanday bosib olib, ega chiqqan bo'lsa, biz ham ularning tillariga qaysidir ma'noda egamiz. Navoiy bobomiz fors tiliniyam, arab tiliniyam mukammal o'zlashtirib, bizga meros qilib qoldirgan...

"Men butun insoniyatni, koinotni yaxshi ko'raman, jonimni fido qilaman", deyishimiz mumkin. Lekin bu sevgimiz xalqqa naf keltirmasa, balandparvoz gapligicha qolaveradi. Erkin aka shu ma'noda o'z xalqining adabiyotiga, tiliga cheksiz sadoqati, muhabbati yaraqlab ko'rinib turadigan, go'zallikni ardoqlaydigan, dunyo tillarini hurmat qiladigan kengyurak inson edi. Agar kishi o'zini hurmat qilmasa, boshqalar ham uni hurmat qilmaydi, o'z tilini hurmat qilmasa, boshqalar ham uning tilini hurmat qilmaydi. Agar inson o'z xalqini boshiga ko'tarmasa, boshqa xalq vakillari hech qachon bu ishni qilmaydi. Erkin aka: "Menga Pushkin bir jahonu, menga Bayron bir jahon", - deya ularning hurmatlarini joyiga qo'yib, - Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon, o'zbekim", satrlariga bir umr sadoqat bilan yashab o'tdilar. Mana shu bag'rikenglik,

insoniyatga bo'lgan muhabbat Erkin akaning ijodida o'z aksini topgan. G'azallarida, she'rlarida so'zni o'ynatib, xuddi tilla tangani otib quyoshning nurida tovlantirganday ifoda jilvalarida aks ettirgan. Sodda satrlari bilan so'z san'atining go'zal va mukammal namunalarini yaratib ketdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Oliy Majlisda Til qo'mitasiga rais bo'lib faoliyat olib borgan ham tasodif emas. Bu vazifaga tilni yaxshi ko'radigan, hurmat qiladigan va o'zi ham hurmatga loyiq bo'lgan inson bosh bo'lishi kerak edi va bu juda to'g'ri tanlov bo'lgandi. O'sha paytda birga ishlagan safdoshlari Erkin akaning qanchadan-qancha atamalarini o'zbekchallashtirib bergani, o'zbekcha qonun tilining yaratilishida qo'shgan beqiyos hissalarini eslashadi. Bunda elsevar bir shaxsning ijodi va shaxsi, tili va dili naqadar birligini ko'rishimiz mumkin.

Erkin akaning so'zga nisbatan mas'uliyati, qat'iyatiga, ayniqsa, bugun katta ehtiyoj sezilyapti. Til haqidagi qonun yangi tahrir topayotgan, tilimizga yangi imkonlar ochilayotgan bir paytda Erkin aka bergan saboqlar hammamiz uchun o'ta muhim.

So'z, so'zning mas'uliyati haqida ko'p gapirish mumkin, ammo Erkin akaning hikmatlaridan, "Devonu lug'ati-t-turk"-dagi maqollardan xulosa qilib aytish mumkinki, so'z haqida gapirganda so'zni tejagan, til haqida og'iz ochganda tilni vaqtida tiygan durust.

Ustozimizning oxiratlari obod, ruhlari shod bo'lsin!

Zero, Erkin aka lutf etganidek: "O'z ona tilini sevmagan, til zamirida yotgan tarixni bilmagan, qiziqmagan odam barkamol sanalmas. U kim, qaysi yurt va qaysi millatga mansub ekanidan, o'z ona tilining boyu kambag'alligi, mayin yo dag'alligidan qat'i nazar. O'z tiling o'z vataningdek aziz, o'z onangdek tabarruk..."

ALEKSANDR FAYNBERG – O‘ZBEKISTON XALQ SHOIRI

Rustam MUSURMON,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

Rus tilida asarlar yozgan va yozayotgan shoirlar, yozuvchilar ko‘p, lekin Aleksandr Faynberg O‘zbekiston xalq shoiri unvoniga muyassar bo‘lgan dunyodagi yagona rusiyzabon adib.

Shoir o‘zbek tili va adabiyotiga hurmat-ehtiromining izhori sifatida Alisher Navoiy g‘azallarini rus tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilgan. Uning tarjimalari Alisher Navoiyning rus tilida nashr etilgan 10 jildlik asarlar to‘plamidan munosib o‘rin olgan (“Fan” nashriyoti, Toshkent, 1968-yil). O‘zbek mumtoz she‘riyati haqida ko‘plab maqolalar yozgan. O‘z ijodi bilan o‘zbek tili va adabiyotining jonkuyar targ‘ibotchisi ekanini isbotlagan.

Aleksandr Faynberg hozirgi zamon o‘zbek shoirlari she‘rlaridan rus tiliga qilgan tarjimalarini “Oqqushlar galasi” nomi bilan nashr ettirgan (“Лебединая стая” стихи поэтов Узбекистана в переводах Александра Файнберга, изд. “Нихол”, Ташкент 2008). “Hormang, shoirlar!”⁹¹ deb yozadi shoir sof o‘zbek tilida “Oqqushlar galasi” kitobining so‘z avvalida.

Badiiy tarjima va maqolalardan tashqari she‘r va dostonlarida ham o‘zbek tiliga bo‘lgan muhabbatini namoyon etgan.

2009-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi matbaa-ijodiy uyi tomonidan rus tilida nashr etilgan ikki jildlik asarlari ichida o‘zbek tiliga bag‘ishlangan she‘rlar ko‘p. Ana shu kitobida “Струна рубайата” (Ruboiyot torlari) nomli dostoni berilgan. Doston o‘zbek mumtoz she‘riyatiga ixlos ruhida, yevropaliklarga o‘zbek millatining madaniyati, ko‘ngli va qo‘li ochiqligi,

⁹¹ O‘sha kitob. 2-bet.

to'kin dasturxonini va mehmondorchiligini targ'ib etish mavzusida yozilgan. Asarda "domullo", "bedana", "supa", "kapkir", "oshpaz", "kosa", "to'y", "lagan", "nosvoy" kabi o'zbekcha so'zlar timsol sifatida ishlatilgan va bu so'zlarga badiiy izoh berilgan. Umuman, shoir she'rlarida milliy xarakter va manzarani ochib berish va yorqin tasvirlash uchun o'zbekcha so'zlarni ko'p ishlatadi. "Родина"⁹² she'rida O'zbekistonni muqaddas Vatanim deb tarannum etadi, "Я пил айран в той мазанке убойой" deya o'zbeklarning muzday "ayron"ini ta'riflaydi. Bu Vatanning bepoyon dalalari va osmono'par tog'larini aziz bilib, yo'l bo'yiga soya solib turgan teraklarni ehromlardek yuksak va ulug'vor deya tasvirlaydi. She'rdan shoirning Vatanga muhabbati jo'shib turganini his etasiz.

*Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to
Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –
Yo'llarning girdida bo'lib girgittan
Gumbazdek teraklar turarlar qator*⁹³.

O'zbekiston manzaralarini chizar ekan, o'zbek millatining bag'ri kengligi, halolligi, ishonchini tasvirlar ekan o'zbek millatiga xos fazilatlarini faxr bilan bayon etadi. Qishloqlarda yashayotgan odamlar hovlisining eshigi yo'q, demak, ular hech kimdan xavfsiramay, hech qanday yomonlikdan qo'rqmay ozod va erkin yashaydi, o'zbek o'ziga ishonadi, boshqalardan ham gumon qilmaydi, degan fikrlar uyg'unlashgan ushbu she'rdan.

*Dalalarni kezdin qadamma-qadam,
Teodolit*⁹⁴ *ko'tarib, o'lchadim tanob.
Loysuvoq uylarda simirdim chalob,
Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.*

Bunday mushfiq yurt, bunday mehribon xalq dunyoda yo'q. Men shu yurtda tug'ildim, shu yurtda yashayapman va

⁹² Александр Файнберг. Стихи. поэмы, вольные сонеты, ИПТД им Г. Гуляма, Ташкент, 2009, стр-439.

⁹³ Shoir she'rlarini Rustam Masurmon tarjima qilgan.

⁹⁴ Теодолит – yer o'lchaydigan asbob.

umrim poyoniga yetganda shu tuproq meni o'z bag'riga oladi va meni o'z farzandiday ardoqlaydi, yevropa, men seni tanimayman ham, degan iqrorini dangal aytadi.

*Mushfiq yurt. Shu yerda nuslu nasabim –
O'zbekistondadir hokim, turobim.
Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.*

Men bu yurt uchun jonimni ham berishga tayyorman, mening aziz Vatanim O'zbekiston, degan iftixor va shukronalik tuyg'ulari Aleksandr Faynbergning butun ijodiga, asarlarining ruhiyatiga singib ketgan. Shuning uchun shoir rus tilida she'r yozsa ham o'zbek tili va adabiyotini targ'ib etishdan aslo tolmaydi. Shoirning tili ruscha so'zlaydi, lekin yuragi o'zbekcha uradi, o'zbekcha sevadi, ko'ngli o'zbekning ko'nglidek ochiq va mehrga limmo-lim to'la. Aleksandr Faynberg nomzodini O'zbekiston xalq shoiri unvoniga tavsiya etishganida komissiya yig'ilishida kimdir: "U o'zbek emas", deb e'tiroz bildirgan ekan. O'shanda O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov so'z olib: "Aleksandr Faynberg – mendan ham o'zbekroq", deya javob bergan ekan. Ustoiz, bu shoirning O'zbekistonga mehri va sadoqati kuchli, ijodi va faoliyati, asarlari o'zbekcha milliy ruh va qadriyatlar bilan sug'orilgan, degan fikrni aytgan.

Aleksandr Faynberg o'zbek mumtoz she'riyatining tarjimoni sifatida anglagan haqiqatlari, his etgan nozik tuyg'ularini "Havaskor tarjimonga" she'rida ifodalaydi. Sharqning eng qadimiy va boy tillaridan biri o'zbek tilida yaratilgan she'riy asarlar mutolaasining taassurotlari va o'zbekcha she'rlarining rusiyzabon shoir tomonidan tarjima qilinishi jarayonlari Aleksandr Faynberg tilidan bayon etiladi.

*Nazm – navo, nazm – iltijo,
Sharqni tinglab nash'a olursan.
Cho'ziladi karvondek hijo,
Chilim kabi tutab yonursan.*

Alisher Navoiy g'azallarining vazni, ohangi, timsollari va til xususiyatlari badiiy tahlil etiladi. Aruzning jozibasi, seh-

ri, o'quvchiga ta'siri, so'zlarning sifati, hijolarning cho'zili-shi jonli ifodalanadi. Sharq she'riyatidagi dardni his qilsang, yurak-bag'ring o'rtanadi, chilim kabi tutab yonasan, deydi shoir.

*Ingrar navo yurakni tilib,
She'riyat bu – donishmand ilon.
Nish uradi atirgul bo'lib,
Bulbul bo'lib sehrlar nolon.*

“Но стих – премудрая змея”, ya'ni she'riyat – donishmand ilon, degan obrazni keltiradi Aleksandr Faynberg. Bu timsol bilan, sharqona she'r go'zal, lekin u ilondek chaqishi ham mumkin, uning zahri chaqqan odamni o'ldirmasdan qo'ymaydi, sharqona she'rda donishmandlik va hikmat ko'p, degan fikrlarni aytmoqchi bo'ladi. Tilning, badiiy so'zning kuchini ta'riflaydi. She'r atirguldek go'zal va xush ifor, lekin uning tikonlari ham bor. Gulning qirmizi rangi va yoqimli iforidan huzur qilasan, lekin uning tikoni nafaqat barmog'ingga, balki yuragingga ham sanchiladi.

*Ash'or go'zal, ash'or maftunkor,
Bekorlarga lol etmagaydir.
Asal va moy ichiga bekor
Qilich tig'in berkitmagaydir.*

She'riyat tili shunday odamni lolu shaydo etadi, lekin tilingga asaldek shirin tuyulgan, qulog'ingga moydek yoqqan so'zlarning ichiga qilich tig'i ham berkitilgan bo'ladi. Bunday she'r do'stlarga asaldek, moydek yoqadi, dushmanlarni qilich tig'idek kesadi. Lekin tilning kuchi qilichning tig'idan ham o'tkir, qilich bir marta kesadi, til ming-million marta kesadi. Qilich bir marta o'ldiradi, o'tkir til ming marta o'ldiradi.

*Ovutma o'zingni, shakkar bayt,
Holva bo'lur satrma-satr...
Tog'da bulbul chah-chahlagan payt
She'rda yangrar asrma-asr.*

Milliy she'riyatimiz so'z san'ati, teran falsafasi, timsollar olami, tilining boyligi, ko'pma'noliligi hamda bu tilda yaratilgan asarlarning umrboqiy yashab qolishi nozik obrazlar vositasida ko'rsatib berilgan. O'zbekistonda yashab, ona tilimizda yaratilgan asarlarni o'qib, teran his etgan ijodkorgina o'z taassurotlarini boshqa millatlarga rus tilida shunday yorqin va serma'no qilib tushuntirib bera olishi mumkin.

*Maq'rur yasha, mardona, mard bo'l,
Umring bo'lsin dunyoga zlynat.
Sharqona bayt atridan mast bo'l,
Tarjimaga qilmagn jur'at.*

Bu degani sharqona tilda yaratilgan she'riyatni boshqa tilga tarjima qilish amri mahol, nihoyatda qiyin va og'ir ish. Bunday ijodiy vazifani bajarishing uchun sen havaskor tarjimon bo'lishing yetarli emas, sen uning ichida yashashing kerak, sharq she'riyatiga qismating va umring bilan bog'lanishing zarur. Ana o'shandagina bu buyuk she'riyatning tilini, sir-asrorini, mazmunini anglaysan va his etasan, deydi shoir.

Aleksandr Faynberg o'z qismatini o'zbek she'riyati va adabiyoti bilan bog'lagani, ijodiy va ijtimoiy faoliyati davomida shu yurtga, shu xalqqa fidokorona xizmat qilgani uchun ham yuksak martabaga erishdi.

"Alloh" degan so'z rus tilidagi matnda aynan beriladi:

*Едва пошлёт тебе аллах
свой тайный звук, сокрытый в слове,
как сладкий слог соленой кровью
забытся на твоих губах.*

Aleksandr Faynberg islomiy e'tiqodni ehtirom bilan qalamga oladi. Tilni, so'zni senga Alloh bergan, xuddi tomirlaringga qonni, jismingga jonni ato etgandek tilingga tovushlarni, so'zlarni bergan. Til va uning mohiyati haqidagi fikrlarning Islom ta'limotga mos va uyg'un ekani biz o'zbek ijodkorlarida rusiyzabon shoirga nisbatan hurmat va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi.

*She'r – Allohning tovshi yashirin
Qulog'ingga urilmoqdadir,
Sho'rtakkina qondek so'z shirin
Dudog'ingda tirilmoqdadir.*

Tilning ijodkor hayotidagi o'rni va ahamiyati, shoir o'ziga Xudo tomonidan ato etilgan iste'dodni, so'z sirini his etish qobiliyatini odamlar manfaati, jamiyat rivoji, Vatan ravnaqi, dunyoda tinchlik va do'stlikning barqarorligi yo'lida ishlatishi zarur, degan fikrni Aleksandr Faynberg she'rlarida turli obrazlar va badiiy til vositalari yordamida qayta-qayta ta'kidlaydi.

Aleksandr Faynberg she'rlarida til timsoli keng va teran ma'nolarda talqin etiladi. Til – so'z, fikr, munosabat, tuyg'u, til – she'r, tovush, harf, yozuv, qo'lyozma, kitob kabi tushunchalar mazmunini ham ifodalaydi. Avvalam bor, har qanday badiiy asar til hodisasi hisoblanadi. Har bir shoir she'rlarining tili o'zgalardan farqlanib turadi. Shoirning she'ri – tilning sayqallanib moddiy narsaga aylangan shakli, she'r – til yaratgan san'at obidasi. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri ustoz Abdulla Oripov taniqli shoir Mahmud Toir tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan anjumanda unga Alisher Navoiy asarlarining o'n jildlik asarlar to'plamini tuhfa etayotib: "Alisher Navoiyning mana shu o'n jildlik kitoblari umrboqiylikning moddiy ko'rinishidir. Sizga umrboqiy asarlar yozishingizni tilayman", degan edi. Demak, ulug' shoirlar yaratgan kitoblar tilning umrboqiy yashab kelayotgan moddiy shaklidir.

Aleksandr Faynbergning "Qoramaga qasida" sarlavhali she'rida shoir tilga, so'zga munosabati, ayni paytda so'z ustida ishlash jarayoni qo'lyozma – qoralama varaq timsolida ochib beriladi.

*Ko'nglingni ochib qo'y, shoir, subhidam,
Umringda boshqacha yashama zinhor.
Mehringdan nur olsin olam va odam,
Sen yurakdan kuyla. Xudo bo'lsin yor.*

Shoir, ko'ngling odamlarga, dunyoga nisbatan ochiq bo'lsin – dilingdagi so'zlarni, tuyg'ularni yashirma, ularni tilingga chiqarib izhor etishdan hech qachon voz kechma, hayoting davomida yaxshi so'zlarni tiling bilan biyron va yoqimli aytib umr kechir - bundan boshqacha yashama, mehr bilan aytgan so'zlaringdan olam va odam quyosh nurlaridan bahra olgandek bahramand bo'lsin, hamisha yurakdan kuyla, bu yo'lda senga Xudo yor bo'lsin, demoqda shoir. Bunda til faoliyati – shoir qanday ijod qilishi, ya'ni olam va odamga so'z aytish mas'uliyati va vazifasi haqidagi fikrlar til iboralari – metaforalar orqali ifoda etilmoqda.

So'zning qog'ozdagi ifodasi – yozuv. Yozuvning paydo bo'lishi insoniyat taraqqiyotidagi eng buyuk kashfiyotlardan biridir. Yozuv – tilning dunyodan yo'qolib ketmasligi, avlodlardan avlodlarga o'tib yashab kelayotgani manbai va shartidir. Yozuvda tilning go'zalliklari namoyon bo'ladi. Yozuv – tilning barhayotligini ta'minlaydi. "Qalam bilan yozilganni bolta bilan chopib bo'lmas" naqli bor.

She'r yurakda tug'ilib, qo'lyozmalarda yashaydi. Shuning uchun Aleksandr Faynberg qo'lyozmaga qasida bitib, so'zni sharaflaydi, tilni ulug'laydi.

*Toza qo'lyozmalar... Qo'yma ko'p ruju,
Ular shay, sensiz ham uchmoqqa tayyor.
Qoralamalar bor g'aladonda qulf,
Topilmas ulardek sodiq, vafodor.*

Kitobing qon-joni undan iborat.

U – ijod,

u – mehnat,

u – sardor va bosh.

Agar qozonsang ham keyin shon-shuhrat,

Qoralamalarga to'karsan ko'z yosh.

Dunyodagi eng og'ir va mashaqqali mehnat – so'z ustida ishlash mashaqqati, tahrir. Butun umrini tahrirga bag'ishlagan ustoz ijodkorlar yashab o'tgan. Bu igna bilan quduq qa-

zigandan ham qiyin mehnat. Soʻz ustida ishlansa, gap sayqal-
lashadi, fikr yorqin va tiniq ifodalanadi. Shoir ana shu murak-
kab ijodiy jarayonni tasvirlaydi.

*Qoralama... Sirtidan kamtarin, faqir.
Biroq qasos olar qilsang xiyonat.
Ular harflarnimas, soʻznimas, axir,
Yulduzlar tovushin aylar bashorat.*

Xudo buyurgan va koʻngilga solgan sheʼrlarni Aleksandr Faynberg koʻkdagi yulduzlardan tushgan tovushlar, deya ob-
razli taʼriflaydi. Soʻzlarni yozib, ustidan oʻchirib, yana bosh-
qatdan yozib ishlangan qoralama qoʻlyozma esa, shoir yul-
duzlarning tovushini iloji boricha bejirim va mukammal qilib
qogʻozga tushirish jarayonida chekkan shirin azobini oʻzi-
da namoyon etadi bamisoli yurak urushi surʼatini qogʻozga
chizgan kordiogrammadek. Insonning yurak urishi surʼatini
kordiogramma koʻrsatadi, shoirning til vositasida qogʻozga
tushirgan yurak sadolari qoralama qoʻlyozmada namoyon
boʻladi. Shuning uchun qoralamalarni asrab-avaylash zarur.

*Shoirilar, avaylab asrang doimo,
Ularda Xudoga sirli rishta bor.
Yodlab olish mumkin sheʼrlarni, ammo
ilhom lahzalarin qaytarmoq dushvor.*

*Ijodda yoʻldoshsiz, hayotda qondosh,
Yuksak parvoz aylang misoli burgut.
Hayotga boʻlursiz boqiy zamondosh,
Qoralamalarga qoʻymasangiz oʻt.*

Oʻzligingizdan kechmang, soʻz ishqida yonib-kuygan lah-
zalarangizni unutmang, shoir boʻlib tanilganingizdan soʻng
oʻzingizga bino qoʻymang. Xudoga sirli rishtalarni bogʻlab
turgan qoʻlyozmalarga bepisand boʻlib, soʻzga masʼuliyatni,
tilga eʼtiqodni unutsangiz, yulduzlar tovushini eshitmay qo-
lasiz, demoqchi shoir.

Shoirning boshqa sheʼrlarida til – haqiqatni aytish,
haq-huquqni talab qilish vositasi ekani qalamga olinadi.

*Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq,
Ummonlar suviga biz og'u qo'shdik.
Delfinlar otilib qirg'oqqa tushdi,
O'lsa ham biror so'z aytishgani yo'q.
Daraxtlar gapirmas, kesilar o'rmon,
Tog' boshiga yugan solar lokator.
Sahro osmonida lovullar yadro,
Yonadi tili yo'q maysa, o't-o'lan.*

Dunyoda yuz berayotgan zulm va nohaqliklarga qarshi gapirmasdan, so'z bilan, til bilan kurashmasdan jim va befarq o'tiraversang, fojealar sodir bo'laveradi, deydi shoir. Til agar bor imkoniyatlarini ishga solsa, nihoyatda katta kuch. Faqat inson adolat yo'lida Xudo ato etgan tildan foydalanmay, sukut saqlab o'tiribdi.

*Suv gap qaytarmaydi, gap qaytarmas tosh,
Sher olovga sakrar ursang, egib bosh.
Uchar qushlar o'lar to'p otganda o'q,
Yaralgandan buyon bu ko'hna dunyo
Befarqmiz. Uyatdan o'lganimiz yo'q.
Ne uchun til berding odamga, Xudo?*

Shoir dunyoda sodir bo'layotgan global muammolardan ham ko'ra, odamlarning befarqligidan iztirob chekayapti. Shu o'rinda so'zning xazinabonlari bo'lgan tili biyron shoirlarning mas'uliyatsizligini keskin tanqid qilmoqda.

*Sen jimsanmi?
Jim tur.
Zamon aybdormas,
Hech nima chiqara olmas ovozing.
Ko'kragingda jomdek ichi bo'sh yurak
Till yo'q qo'ng'iroq kabi chalmas zang.*

Ma'naviy so'qir, Abduvali Qutbiddin iborasi bilan aytganda, dilmarg – ko'ngil his-tuyg'ulari o'lik odamlar, aslida, olamning jarohatidir.

*Hayot hayot emas yangi qo'shiqsiz,
Eski qo'shig'ingni kuylama takror.
Jim tur. Bog'laquncha yangidan xudo
Yorug' yulduzlarga maysalardan tor.*

Ma'naviy so'qir odamlarning eski qo'shig'ini tinglashga, qotib qolgan fikrlarini eshitishga kunimiz qolmaydi. Dunyo doimo o'zgarishda, olam o'zgaradi, odam o'zgaradi, yangilash inson ruhياتida ham, hayotda ham sodir bo'ladi. Bizga yangi zamonnı yangi qo'shiqlar, yangi she'rlar bilan tarannum etadigan shoirlar kerak. Xudoning o'zi yorqin yulduzlardan maysalarga bog'langan torlarnı chertadigan, yulduzlar tovushini eshitadigan shoirlarnı ham yaratadi. Ana shunday shoirlar tıllarda doston bo'ladi, ularning orqasidan yaxshi so'z, yaxshi nom qoladi. Ularning ibratlı hayoti so'zga, adabiyotga evriladi. Ana shunday shoirlardan biri, shubhasiz, O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg. Shoir yulduzlardan kelgan tovushlar bilan o'z hayoti haqida shunday yozgan edi:

*Co'zga evrilaman, so'zga ha demay.
Na hayrat-hayajon, na shubha-gumon.
Chag'ıllar to'lqınlar uzra chag'alay.
Aks-sado beradi shovullab o'rmon.*

ABDULLA ORIPOV IJODIDA ONA TIL VA ONA SO'Z QUDRATI

Baxtiyor MENGLIYEV,

filologiya fanlari doktori, professor

Sharq mutafakkirlari nafaqat til, so'z, uning borliqning vujudga kelishidagi o'rni masalasida, balki tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon etishgan. Ana shu cho'ng poydevor va mustahkam zamin asosiga qurilgan bugungi o'zbek so'z san'ati bir qanoti milliy tafakkur va ikkinchi qanoti ona til bo'lgan sor burgut yanglig' adabiyot osmonida mag'rur parvoz qilmoqda. Lutfiyu Navoiy, Boburu Ogahiy, Qodiriyu Cho'lpon, G'afur G'ulom va Oybek, Erkin Vohidov va Abdulla Oripovday kabi ulkan so'z san'atkorlari almashib darg'alik qilayotgan purviqor kema singari inson qalbi ummonida suzib bormoqda.

Abdulla Oripov zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin namoyandasi, uning serqirra ijodi ijtimoiy-falsafiy, badiiy, lingvistik, lingvostilistik va lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganilishga loyiq tabiati bilan alohida ajralib turadi. Uning o'tkir falsafiy qiymatga ega va badiiyatning yuksak namunasi bo'lgan lirikasi, yirik dostonlari, badiiy tarjimalari, poetika va til haqidagi o'tkir maqolalarini o'qigan yetuk kitobxon hayratga tushib, millatparvar shaxs shoirning falsafiy-badiiy mahoratidan iftixor va, bir vaqtning o'zida mas'uliyat his qiladi. Uning qalamida ona tilimiz xazinasida har bir so'z yangi-yangi imkoniyatini namoyon qiladi, beqiyos falsafiy mazmun va badiiy qiymat kasb etadi. Adib ijodida so'z eng qimmatbaho ganj sifatida namoyon bo'ladi. Taniqli yozuvchi Said Ahmadning A. P. Chexovning til mahorati haqida aytgan "so'zni u xuddi mix qilib qoqib qo'ygandek. Ombir bilan sug'urib ololmaysiz. Qopqog'i bilan qoqib ombir tishlamaydigan qilib

qo'yadi" degan obrazli fikri donishmand shoir ijodiga ham bevosita daxldor. Bu haqda tadqiqotchi, adibning chin muxlisi Umida To'raeva tadqiqotlarida teran fikrlarni ko'ramiz.

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Uning lirik she'rlari, dostonlari va tarjimalari fikrning chuqur va teran falsafiyligi, ifodalarning favquloddaligi va jozibadorligi, xalqchilligi, milliy til va milliy ruh yaxlitligining go'zal namunasi sifatida hayratlanishga loyiq. Bejiz akademik M. Qo'shjonov "nazarimda shunday bo'ladiki, ma'lum bir davrda million-millionlarning dard va alamini va ko'ngil rozini izhor qilish vazifasini biror shaxs zimmasiga yuklaydi. Yirik she'riyat sultoni shu tariqa maydonga chiqadi" demagan edi. Abdulla Oripov zamonaviy o'zbek adabiyotini yangi bir yuksalish pillapoyasiga ko'tarib, bu mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan edi.

Abdulla Oripov - chinakam millat shoiri. Ijodkor el-yurt hurmatini qozonishining bosh sabablaridan biri esa, avvalo, asarlarining xalq qalbiga yaqinligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ona xalqi ma'naviyati, uni o'zida aks ettirgan ona tili xazinasidan muttasil oziqlanishi. Uning ijodi mafkura va ma'naviyat kategoriyalari farqlanmay qolgan davrlarda ma'naviyat faqat shaxsiy mohiyatga ega hodisa ekanligini asoslovchi metodologiya vazifasini bajardi va hozir ham shunday.

Abdulla Oripovning o'zbek millati hayoti va orzu-armonlarini milliy til imkoniyatidan mohirona foydalanib yuksak badiiy saviyada ifodalagan, milliy ruh bilan sug'orilgan ijodini, ayniqsa, she'riyatini lingvistik va lingvopoetik planda ham tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan.

Abdulla Oripov she'riyati adabiyotshunoslikda keng o'rganilayotgan mavzu. Ayniqsa, adib o'zi ta'kidlaganidek, o'zbek she'riyatining so'nggi 30-35 yillik tarixida Abdulla Oripov qadar tanqid e'tiboriga tushgan shoir kam.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti, avvalo, voqealar san'ati bo'lgan g'arb adabiyotidan farqli ravishda so'zlar, tashbehlar san'atidir. Lisoniy imkoniyat esa badiiy so'z san'atining aso-

si. Demak, adiblar ijodini lingvistik yo'sinda tadqiq qilish har qanday badiiy san'at namunasini ilmiy o'rganishning asosini tashkil etmog'i lozim. Lingvistik alqov va lingvistik tanqid o'zbek so'z san'atining mohiyatini ochib bermog'i lozim. Bugun badiiy so'zning estetik va mantiqiy qimmatiga e'tibor urfdan qolayotgan bir paytda uni baholaydigan lingvistik tanqid yo'nalishiga kuchli ijtimoiy ehtiyoj mavjud.

Abdulla Oripov ijodining jozibasini ta'minlagan bosh omil – uning ona til imkoniyatidan bemisl foydalanish mahorati. G'arb shovinistlarining millat tafakkur tarzi tilining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi deb flektiv til sohiblarini agglyutinativ, amorf va polisintetik til egalaridan ustun qo'ygalarining biryoqlama va asossiz ekanligiga Hazrat Navoiy, G'afur G'ulom va Abdulla Oripov kabi ijodkorlarning tafakkur tarzi, ulardagi tafakkur va til dialektikasi asosida amin bo'lish murakin.

Ma'lumki, badiiy asar tilining ifodaviylik, ta'sirchanlik darajasida poeziya ustuvor fazilati bilan ajralib turadi. Badiiy tasvir vositalarining ko'p qo'llanishi va rang-barangligi, obrazli va yuksak estetik qiymatga ega bo'lgan til birliklaridan fikrni lo'nda, qisqa va o'ta ta'sirchan tasvirlash maqsadida mohirona foydalanish ijodkordan fikr ifodalashda so'z qo'llashda hassos va xasis bo'lishni talab qiladi. Abdulla Oripov she'riyati ana shu fazilatlarining yuksak namunasi mahsuli ekanligi bilan e'tiborli.

Yetakchi ijodkorlar badiiy nutqida qo'llangan til ifodalarini chuqur o'rganmay turib, davr tiliga, tilning muayyan davrdagi holatiga munosib baho berib bo'lmaydi. Zero, Alisher Navoiy o'z asarlarida mumtoz o'zbek tilining imkoniyatlaridan mohirona foydalandi. Tilning bor xazinasini ishga solib, uni yanada boyitish, bu boylikni ko'z-ko'z qilish borasida hayratomiz talant, ma'naviy jasorat va shaxsiy fidoyilik namunasini ko'rsatdi. Shu boisdan eski o'zbek adabiy tili til taraqqiyotining markazi va misli ko'rilmagan yuksalish nuqtasi sifatida tan olinadi. Adabiyotshunos va tilshunoslar tomonidan Alisher Navoiy ijodini chuqur va har tomonlama o'rganish aso-

sidagina eski o'zbek adabiy tiliga munosib baho berildi. Shu boisdan o'zbek tilining o'tmishi va buguni ijodkor yashagan davr tilining umumiy yo'nalishi va taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda, lisoniy tadrijiyotni o'zida aks ettirgan mohir so'z san'atkorlari Alisher Navoiy, Bobur, Masharab, Nodira, G'afur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor asarlari badiiy nutqini tadqiq qilish katta ahamiyatga ega. Bu fikr boshqa ilg'or adiblar qatorida hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyot darajasini, o'zbek tafakkuri va tili dialektikasini yorqin namoyon qiluvchi Abdulla Oripov ijodiga ham bevosita taalluqli.

Abdulla Oripov o'z qarashlarida har doim ona tilini hi-moya qilib keldi. "Men italiyaliklarga shunday savol berdim: - Aytinglar-chi, sizlarda shamolning necha xil nomi bor? Ular ikki-uch so'zni aytishdi. Shunda men ularga shamol, bo'ron, dovul, yel, nasim, shabboda, sabo... deb sanab berdim. Va, nihoyat, bobomiz Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga tayanib so'radim: "Sizlar necha xil yig'laysizlar? Biz, misol uchun 19 xil yig'laymiz. Yig'lamoq, bo'kirmoq, siqtamoq, bo'zlamoq, ingramoq, o'kramoq, faryod chekmoq..." Bu so'zlarning har biri har xil holatni berishini tushuntirib berdim. Shunda ular tilimizning quvvati, ifoda qudrati, imkoniyatiga tan berishdi. "Bizning tilimiz ana shunday pahlavon, go'zal va so'lim til dedim". Bu so'zlar millatning yig'loqiligini emas, tafakkur darajasini ko'rsatadi, albatta.

Abdulla Oripov ijodining ilk davrlaridayoq o'zbek tili imkoniyatidan mahorat bilan foydalangan adib sifatida poetik ifodaning individual va original namunalarini ko'rsatishga erisha olgan edi. Uning "Muhabbat", "Birinchi muhabbatim", "Onajon", "Onajonim, she'riyat", "O'zbekiston vatanim manim" kabi lirik she'rlari, "Jannatga yo'l", "Hakim va ajal" dostonlari, bir qancha tarjimalari ona tili imkoniyatlari namoyon bo'lgan go'zal badiiy asarlar sifatida allaqachon o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasidan joy olishga muvaffaq bo'ldi. Ulardagi chuqur falsafiy tafakkur mahsuliga go'zal badiiy shakl bergan jonli xalq tiliga xos har bir so'z, ibora o'zining odatiy

va noodatiy qo'llanishlarida shoirning ona tili boyligidan nechog'lik mahorat bilan foydalanganligini ko'rsatdi.

O'zbek tili xazinasi, xususan, leksikasi nihoyatda boy. Bugungi izohli lug'atlarimiz kundalik adabiy so'zlarni qamrab olgan, xolos. Biroq bu boylikdan o'z o'rnida oqilona foydalanish, ota-bobolarimizdan meros muqaddas xazinadagi har bir javohirni avaylab-asrash, undan birni olib, o'nni qo'shish millatning Abdulla Oripovdek sohir so'z ustalariga xos fazilat. Shuning uchun ham u "men italiyalik ziyolilarga ona tilimizning imkoniyatlari naqadar keng ekanligini tushuntirib berdim va, tabiiyki, bu tilning imkoniyatlarini bilmaysizlar deb Navoiyning "Xamsa"sini misol qilib keltirdim" deb o'z tilini ko'z-ko'z qilishdan tolmaydi. Buni ijodida ham, qarashlari bayonida ham ko'ramiz.

Abdulla Oripov so'zi - tom ma'noda xalq dilidagi va tilidagi so'z. Adib bejiz "Pushkin she'riyati yashovchanligining eng asosiy sabablaridan biri - uning tuyg'ular ifodasi xalq nutqi asosida qurilganligidadir" demagan edi. Bu tamoyil uning butun ijodini qamrab olgan. Shoir o'z she'rlarida ona tilining har bir so'zini ardoqlab, unga tazyiq o'tkazmasdan, majburlamasdan o'z holiga qo'yib ishlatdi. Biroq tilning voqeyalanish me'yorlari doirasida shoirning badiiy maqsadlar uchun qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlarni o'z badiiy-estetik maqsadlari uchun undash, ularga ustuvor faollik berish, so'zlarni mutlaqo yangi qurshovlarda qo'llash, shuningdek, yangi so'zlar yasash hollari kuzatiladi. Bu til imkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisadir. Rus tilshunosi Y. S. Stepanov ta'kidlaganidek, poetik nutq taraqqiyotining boy va murakkab tarixining guvohlik berishicha, tilga "tazyiq qilish" ning 2 xil mutlaqo qarama-qarshi ko'rinishi bor. Ularning biri tilga "salbiy zo'rlik qilish" bo'lsa, (bir paytlar rus futurist shoirlari (V.Xlebnikov) til qonuniyatlariga sig'maydigan so'zlar, so'z formalari, sintaktik konstruksiyalar tuzib (masalan, *Добрый утра, Он хожу* kabi), "biz sintaksisni zaiflashtirdik" deb iftixor qilishgan), ikkinchisini esa ijobiy ta'sir deyish mumkin. Bunda adiblar neologizm, yasama so'z hosil qilib, so'zlarga

mutlaqo okkazonal qo'llanishlar baxsh etishadi, sintetik metaforalar, oksyumoronlar qo'llashadi. Abdulla Oripov badiiyotida so'z qo'llashlarning bunday turi Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Ollmjon, Mirtemir, Erkin Vohidov ijodida bo'lgani kabi anchayin salmoqli. Bu, albatta, shoirning betakror, o'ziga xos badiiy uslubi bilan belgilanadi. Masalan,

*Chehrai zarrin sira ko'rmakka hojat qolmadi,
Shams narvoni uza ag'yor erur paydo bu kun (YA, 204)*

baytida qo'llangan *shams narvoni* birikuvi shoir tomonidan ixtiro etilgan poetik birikma. Birikma ko'chma ma'nosini bilan, avvalo, vazn talabiga, so'ngra shoirning badiiy maqsadiga to'lig'icha yopishib turibdi.

Yoki:

*Vahki ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,
Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun. (YA, 204)*

Baytdagi *beishq* so'zi shoir tomonidan odatdagi *ishqsiz* birligining o'rnida ishlatilgan. Odatdagi nutqda unli bilan boshlanuvchi *ishq* so'ziga *be-* so'z yasovchisini qo'shish o'ng'ay emas. Biroq shoir tomonidan yasalgan, nutqiy yasalma bo'lgan *beishq* so'zi avvalo vazn talabiga ko'ra qo'llangan. Aks holda u ramal bahrida yozilgan g'azalning foilotun rukniga muvofiq bo'lmas edi. *-dim beishq tan-* kesmasi foilotun ruknini to'ldiradi. *-dim ishqsiz tan-* shaklida birinchi cho'ziq bo'g'in qisqarib, rukn an'anasi buziladi. Ikkinchidan, ifodaviylik va ekspressivlik noan'anaviy *beishq* so'zida an'anaviy *ishqsiz* so'zidagiga nisbatan kuchli ekanligi tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolmagan. Ko'rinadiki, she'riyatga xos bo'lgan ushbu yuksak obrazlilik va ko'tarinkilikda Abdulla Oripovga xos bo'lgan iqtidor bilan ona so'zning kuchi va qudrati uyg'unlashgan.

Zamonaviy o'zbek she'riyati so'zlar tarixiy-etimologik mansubiyati jihatidan mumtoz poeziyadan tubdan farqlanadi. Asosiy tafovut – zamonaviy she'riyatida fors-arab poetik leksikasi ta'sirining kuchsizlangani. Abdulla Oripov for-

siy-arabiy qatlamga mansub an'anaviy leksik birliklar: *samo, boqiy, maskan, falak, koshona, nihon, zarrin, shukrona, visol, nasim, daho, zavol, navqiron, firoq, vafo, nogoh, ajib, bokira, sarxush* kabi leksik birliklar tizimida *nahot, surur, alvido, rangin, xilqat, dilqash, pokdomon, ummon, siyna, ruxsor, purviqor, g'anim, hilol, mahvash, betimsol, fido, abad, sargashta, jahoniy, g'addor, g'orat, bimisli, azaliy, jahannamiy, samoviy, rutubat, xotiro, beshak, nolon, bahr, qamar, hayhot, nogohon, nido, nasim, daho, yanglig', zotan, zavol, navqiron, nelar, sarbaland, farah, sarxush, bezavol, gulgun, mohtob, zabun, nisori, abas, garchand* o'ziga xos tarzda faollashtiradi.

Shoir she'riyatida an'anaviy va noan'anaviy, o'ziga xos poetik birliklarni ko'ramiz. Hozirgi adabiy til uchun ko'hna bo'lgan so'zlarga yangi hayot, yangi mazmun baxsh etiladi. Deylik, *hilol* so'zi hozirgi adabiy til uchun arxaiklashgan. Adib badiiy nutqida ham u an'anaviylik belgisini saqlab qolgan:

*Nun labing uzra sokin qoldi hiloldek qomatim,
Harfo'yin aylay desam, o'zga erur imlo bu kun.*

Abdulla Oripov she'riyatida faol ustuvorlik kasb etgan qator passiv leksika namunalariga katta badiiy vazifa yuklatilgan. Masalan *ro'yo, yiroq, yugurik, kakhshon, dardkash* so'zlari shoir qalamida faollashgan va yangi mohiyat kasb etgan.

Bukun:

*Charxi kajraftorning shevasi doim shul ekan,
Vasl uyida g'ayr eli aylab yurar yallo bu kun.*

Ro'yo:

*Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo.*

Kakhshon:

*Shoir bo'lish oson, shoir bo'lish qiyin
Shunday shiorlarni kakhshonida.*

kabi.

Bunday so'zlar sirasini yana ancha davom ettirish mumkin: *lol, qay, nahot, erur, bitdim, aro, o'lka, surur, samo, boqiy, maskan, alvido, rangin, xilqat, tuyg'u, dilqash, pokdomon, nechun,*

ulug'vor, ummon, falak, siyna, ruxsor, koshona, purviqor, g'anim, hilol, mahvash, ul, betimsol, fido, abad, sargashta, nihon, zarrin, uzra, jahoniy, otash, og'ush, g'addor, g'orat, bimisli, bolqmoq, qo'ldosh, yelkadosh, azaliy, jahannamiy, kuzak, moviylashmoq, g'ururdosh, shukrona, samoviy, rutubatli, xotiro, beshak, nolon, bahr, visol, qamar, yalov, hayhot, nogohon, neni, nido, butkul, nasim, daho, yanglig', zotan, zavol, navqiron, nadir, nelar, fiqoq, vafu, yugurik, nogoh, sarbaland, ajib, farah, bokira, sarxush, bezavol, nechuk, gulgun, mohtob, zabun, nisor, abas, garchand, yeldirim, yelvagay, ushbu, manim. Alohida guruh so'zlar Abdulla Oripov she'riyatida ustuvorlashadi: *qay, nahot, surur, alvido, rangin, xilqat, dilqash, pokdomon, nechun, ulug'vor, ummon, siyna, ruxsor, purviqor, g'anim, hilol, mahvash, ul, betimsol, fido, abad, sargashta, jahoniy, g'addor, g'orat, bimisli, bolqmoq, qo'ldosh, yelkadosh, azaliy, jahannamiy, kuzak, moviylashmoq, g'ururdosh, samoviy, rutubatli, xotiro, beshak, nolon, bahr, qamar, yalov, hayhot, nogohon, neni, nido, butkul, nasim, daho, yanglig', zotan, zavol, navqiron, nadir, nelar, yugurik, sarbaland, farah, sarxush, bezavol, gulgun, mohtob, zabun, nisor, abas, garchand, yeldirim, yelvagay, manim* kabi.

Sevgidan yetim-u umrdan yarim

Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak:

Odatda, *yetim* so'zi insonning ota-onadan va hayvonlarning onadan (masalan, *yetim qo'zi* tarzida) erta ayrilganlik holatini ifodalash uchun qo'llanadi. Bu yerda shoir uni inson uchun muqaddas tuyg'u bo'lgan sevgisidan, sevgilisidan bevaqt ayrilganlik tushunchasini ifodalash uchun qo'llamoqda. Badiiy nutqda an'ana bo'lib qolgan *yorsiz, hijronzada* kabi birliklar g'ayrioddiy qo'llangan *yetim* so'zi oldida anchayin rangsiz va siyqasi chiqqan birliklar ekanligi badda ma'lum bo'lib qolgan. Insonga buyurilmagan toq o'tishni esa shoir yarmi, jufti yo'q umr deya tasvirlaydi. Yor tafti esa inson vujudining durkunligini ta'minlaydi. Busiz u bamisoli qurigan daraxt. Shoir nutqida bu holatlar so'zlarni topib ishlatish natijasida o'ta jonli badiiy shakl olgan.

Shuningdek, *yetim, yarim, qurigan, yolg'iz* so'zlarining okkozional ma'nolari bandda tanosub san'atining go'zal namunasini yaratishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, so'z san'atkori Abdulla Oripov she'riyatining badiiy tili o'ziga xos, unda ona tili va milliy tafakkuri yaxlitligi betakror tarzda voqyelangani. Shu boisdan uning ilmiy tadqiq qilinayotgani, shoir she'riyati tilining tarixiy-etimologik, tematik, statistik va semantik tavsifi ishlba chiqilayotgani XX asrning so'nggi choragi va hozirgi davr badiiy tili darajasini xolis va to'g'ri baholashda benihoya qimmatli.

“ONA TILIM, EY MUQADDAS ONA TILIM...”

Abdulhay SOBIROV,

filologiya fanlari doktori, professor

Turkiy xalqlarning ulug' yozuvchisi Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'otit-turk” nomli betakror asarida “Erdam (odob)ning boshi – til” degan maqolni keltiradi. Yuzaki olib qaraganimizda, bu odatdagi so'zga, kundalik hayotimizda tez-tez ishimiz tushib turadigan shunchaki bir iboraga o'xshaydi, lekin bu maqolning ostida millat ma'naviyati, urf-odatlari, qadriyatlariga tegishli ulkan mazmun yotganligini hamma ham dildan his qilavermaydi. Bu o'rinda millat dunyoqarashi, millat tafakkurining o'ziga xos “izhori”, “tug'rosi” bo'lgan badiiy adabiyot – so'z san'ati haqida gap ketmoqda.

Darhaqiqat, adabiyotning asosi, tayanch nuqtasi, boshi bu – milliy tildir. Adad nuqtai nazaridan olganimizda, ham tarixan, ham zamonaviy ko'lamda xalqimiz ichidan yetishib chiqqan shoir va yozuvchilar, ular tomonidan yaratilgan asarlar sonsiz-sanoqsiz, ammo millat dardlarini, xalqimizni qayg'u-alamlarini, xursandchiliklarini qoyilmaqom qilib, avj pardalarda yozish, “bulbulzabon” bo'lib “yuragini sayratish” hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun “odobning boshi” sanalmish tilni mukammal bilish, ona tilining boylıklaridan, behisob xazinalaridan yuksak mahorat bilan foydalanish lozim bo'ladi. Bu xazina esa ertaklardagi “sim-sim g'ori” singari hammaga ham bag'rini ochavermaydi.

“Tilning butun qudrati – uning xalq dilida va mehnat jaryonida yaratilib, boyib borishi bilan bog'liqdir”, – deb yozadi atoqli yozuvchimiz Pirmqul Qodirov.⁹⁵ Haqiqiy ijodkor xalqning dilidagi o'sha “qudrat”, yani “gavhar”ni topib, uni sayqal-lab va unga jilo berib, buning evaziga hammaning e'tiborini qozonish baxtiga musharraf bo'ladi. Faqat Yaratgan Egam-

⁹⁵ Pirmqul Qodirov. Til va el. – Toshkent: Ma'naviyat. 2010. – 245 b.

ning nazari tushgan “diliyu tili pok bo’lgan” benazir zotlarga-gina bu yuksak maqom in’om etiladi. Ana shunday sharafga loyiq bo’lgan insonlardan biri bu – O‘zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusuf yuqorida ta’kidlaganimizdek, ilohty iqtidor egasi. Uning she’rlari biz bilgan-bilmagan ajoyib mo’jizalarga boy, sehrli, o’qiganingiz sari yana o’qigingiz kelaveradi. Shoir she’rlari bilan tanishar ekansiz, xazinalarga boy, afsonaviy saroylarning eshigi birin-ketin ochilgani kabi ona tili go’zalliklari har yon ifor sochib, sizni so’zlar dunyosiga, ajab-tovur hislar og’ushiga yetaklaydi. Quyma, betakror she’riy satrlar orqali siz o’sha maftunkor, sirli “xazina”ga, “sim-sim g’ori”ga yetib borasiz. Bu xazina ona tili boyligidir.

Muhammad Yusuf yuragini eng baland pardalarda “sayratta olgan”, o’zbek tilining betakror kuchidan, tarovatidan bahramand bo’lib, xuddi bayramlarda o’z halvosini boshqalarga tekinga, beminnat tarqatgan saxovatli halvogar kabi hamon she’rlarini o’z xalqiga “ulashib yotibdi”. U bir qarashda kamtargina, aslida, qalban buyuk, kamtar inson edi.

Taqdir taqozosi bilan shoir tavallud topgan Mingtepa, qadim Dovon davlatining poytaxti Ershiga borib qolsangiz, birinchi e’tiboringizni tortadigan narsa sizga keng quloq ochib turgan oq sochli Pomir tog’lariga, undan oldinga turib chiqqan, mangu posbon Ulug’tog’ va uning tevaragidagi son-sanoqsiz tepaliklarga ko’zingiz tushadi. Shundoqqina shoir uyi oldidan sharqirab zilol suvli Xizrariq oqib o’tadi...

*Bir go’sha suv bo’lsa, bir go’sha qirlar,
Qancha yurtni ko’rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog’laring izimdan ergashib yurar⁹⁶.*

Mana, shoir tug’ilib, voyaga yetgan yurtning poetik timsoli – Ulug’tog’lar, ariqlar, qirlar tasviri. Xalq bu qutlug’ maskanni bejizga Mingtepa deb atamaydi. Oqtepa, Qoratepa, Devtepa,

⁹⁶ She’rlar quyidagi nashrdan olindi: Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2015. – 373 b.

Sho'rtepa, Jingiltepa... Har bir tepalikning o'z nomi, o'z siri bor. Nazarimda, bu tepaliklarda Chin (Xitoy), Qutayba, Chingizxon va chor Rossiyaga qo'shinlariga qarshi mardonavor kurashgan, yengilmas, o'z yurtiga fidoyi insonlarning dardi, armoni "ko'milib" yotgandek tuyuladi menga. Odamlari ham mard, jasur, bir so'zli, bilimga chanqoq insonlar – Dukchi Eshonning nabiralari. Muhammad Yusuf mana shunday qutlug' maskanda tavallud topgan. Uning dardlari o'zi she'rga solgan Ulug'tog'dek cho'ng, tepaliklar kabi hadsiz-hududsiz, "buramatol"dek bir-biriga eshilib, qo'shilib, chirmashib, chatishib ketgan. Mingtepada tug'ilgan insonning shoirlikdan boshqa qismati yo'q (!)

*O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Sendek mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga. ("O'zbekiston")*

Mana, sizga so'zdan foydalanish mahorati, hamma aytishi mumkin bo'lgan so'zlardan poetik timsol yaratish mo'jizasi (!)

O'zbekiston, ota makon, ona yurt haqida endigina adabiyot maydoniga kirib kelayotgan shoirlardan tortib, ulug' ijodkorlargacha – barcha o'z iqtidorlari doirasida she'rlar bitishgan, o'zlarining yurtini kuyib-yonib tarannum etishgan, animo "bedapoya"ni, she'rning davomida "tandir"ni, "Baxmalda tug'ilgan qo'zi"ni she'rga solish, she'rga solganda ham ularni "Rim"ga, "Parijning eng go'zal restoranlari"ga, "arab ohusi"ga qarshi qo'yib, o'ziga xos, betakror, yangi poetik obraz yaratish faqat Muhammad Yusufgagina – el ardoqlagan tilparvar, millatparvar ijodkorga xos. Shoir she'rlarining kuchi ham aynan mana shunda – oddiylikda, hamma bilgan narsadan qaytarilmas timsol yaratishdadir. Bunday timsollarning bitta she'rda emas, aksariyat she'rlarda uchrashi noyob hodisa.

"Shoirning betakror mahorati, – deb yozadi atoqli adabiyotshunos N. Rahimjonov, – asarlaridagi poetik obrazlar ta-

shigan estetik, axloqiy, falsafiy ma'nolar salmog'i va individualligi bilan belgilanadi. Ana shu jarayonda nozik bir holat bor. Bu – badiiy obraz tabiatidagi boqiylik va zamonaviylikning uyg'unlikda, yaxlitlikda zohir bo'lishidir⁹⁷.

Sobiq ittifoq davrida umrining ma'lum bir qismini o'tkazgan, mustaqillik arafasida xalqning buyuk qudratiga guvoh bo'lgan, undan keyingi yaratuvchanlik, bunyodkorlikka yo'g'rilgan va shukuhi ming yillarga tatiydigan shu kunlarimizda yashayotgan, Muhammad Yusufga zamondosh bir inson sifatida shuni alohida ta'kidlab o'tishni istardim. Muhammad Yusuf xalqimiz taqdiri hal qilinayotgan 80–90-yillarda millat dardini dildan his etgan, Vatan taqdiri ustida joy kuydirgan, xalqimiz sha'nini birinchilardan bo'lib o'z she'rlarida ko'tarib chiqqan fidoiy ijodkorlardan edi. U o'z pozitsiyasida oxirigacha sobit turgan, Vatan mavzusini boshqa maqsadlarga "chuvalantirmay", oddiygina so'zlardan she'riy marvaridlar shodasini yasay olgan mahoratli so'z ustasi sifatida ham adabiyotimiz tarixida mangu qoldi.

*Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim,
Ruhini shod etay desang – xalq bo'l, elim. (Xalq bo'l, elim!)"*

Adabiyotshunoslar xolis aytsinlar: shu bandda nechta she'riy san'at bor ekan? Alliteratsiya, takror, tanosib, ritorik so'roq, ma'nodosh so'zlardan o'rinli foydalanish va hokazo. Demak, shoir o'zbek tilini mukammal bilgan, har bir so'zni o'z o'rnida qo'llay olgan, har bir so'zdan kelib chiqadigan ma'noni bilib turib qo'llagan. Bu haqda shoirning o'zi shunday deb yozadi: "Jimjimador, balandparvoz so'zlarni yomon ko'raman. So'zni borligicha ifoda etsam deyman. Uning ustidan bo'yoq surkash mutlaqo ortiqcha. Qanday so'z bo'lmasin, o'rnida ishlatilsa, soddalik va ravonlik o'z-o'zidan paydo bo'ladi. To'g'ri, so'zlarni bezab, haddan tashqari go'zal qilish

⁹⁷ Rahimjonov N. Qalb qushi // Mehr qolur, muhabbat qolur. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. –17-bet.

mumkin, lekin uni otangiz, onangiz tushunmasa, nima keragi bor? Men shunday deb o'ylayman!..."⁹⁸ Mana, Muhammad Yusuf ijodining jilosi, jazibasi qayerda?

*O'g'lim desang, osmonlarga
G'iro't bo'lib uchgayman.
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman.
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, Vatanim... ("Vatanim")*

Bu she'rni kimlar aytmagan?! Sevara Nazarxondan tortib, gruzin qo'shiqchilarigacha hamma "Vatanim" she'rini kuyga solib yurakdan kuylashganiga guvohmiz. She'rga e'tibor berganmisiz, har bir bandeda takrorlanadigan, she'rning butun mazmunini misralarga "qadab turadigan" "oltin qoziq"lar bor. Bular: "Vatanim" so'zining oldidan kelib, Vatan qadri-ni bilmagan, xudbin va nokas, loqayd kimsalarning boshiga "qoqiladigan" "oltin qoziq" vazifasidagi "ulug'imsan, ilig'imsan, cho'lig'imsan, urug'imsan, qudug'imsan, dudug'imsan" so'zlaridir.

Juda ko'p muxlislardan so'rab ko'rganman: mazkur so'zlarning ma'nosini noto'g'ri izohlashadi. Ayniqsa, "G'ichir-g'ichir tishimdagi So'lig'imsan, Vatanim" iborasidagi "so'liq"-ning ma'nosini uncha-muncha odam tushuntirib bera olmaydi. Muhammad Yusuf bu so'zlarni bekorga ishlatmagan. O'z tilini sevgan, xalq ichida yurgan matal va matallardan, qadim so'zlardan boxabar ijodkorgina bunday so'zlarni adabiyotga dadil olib kiradi. Muhammad Yusufda bu xislat yuqori edi.

"So'lig'imsan" so'zini u bilib turib she'rga solgan. "So'liq" yoki "suvluq" yuganning ot og'ziga solinadigan metall qismi sanaladi. Yugan otni boshqarish uchun uning boshiga solina-

⁹⁸ Orif To'xtash. Haqiqiy she'r odamlar orasida (Muhammad Yusuf bilan suhbatdan)// Meir qolur, muhabbat qolur. -Toshkent: Muntoz so'z. 2014. -167-bet.

digan, suvlug'i va tizgini bo'lgan, qayish tasmalardan yasalgan abzaldir.

Sobiq ittifoq zamonida og'zimizga so'liq solingan edi, dardimizni dadil ayta olmas edik, boshimizga yugan urib, o'z ko'riga ishlatar edilar: Shoir xalqimizning bu dilgir holatini juda chiroyli tarzda ifodalagan.

Muhammad Yusufning yuqoridagi kabi til materiallaridan san'atkorona foydalanib, Vatanimizning poetik timsoli chizib berilgan "O'zbekiston", "O'zingdan qo'ymasin, xalqim", "Qayda bor?", "Samarqand", "Tavallo", "O'zbek" kabi she'rlarini to'liqlanmasdan o'qiy olmaysiz. Hammasi millat dardiga, xalq g'amiga, alamiga, o'rni kelganda faxru iftixoriga to'ldirib tashlangan.

Shoirning quyidagi satrlarini turg'unlik yillariga qarata aytilgan qoralov, ayblov deb tushunish mumkin.

*Qani Bog'ishamol, kezgan qirlaring,
Qirlarda kekkaygan qirg'ovullaring.
Eslab, ezilmasmu endi dillaring,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?*

Quyidagi satrlar esa xalqning dil qoni, bo'g'zidagi dod, alam bo'lib tashqariga otilib chiqqan edi. To'rt qatorlik she'rda "paxta" so'zini besh marta va o'rinli qo'llagan shoirga tassanno!

*Nahoringda paxta, shomingda paxta,
Ayvoningda paxta, tomingda paxta,
Oqar og'u bo'lib qoningda paxta,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?*

Bu kabi tasvirlar ijodkorning barcha mavzularidagi she'rlarida uchraydi. E'tiboringizni tortadigan jihatlardan biri shoirning ekologik g'oyalari, tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatib berishga bag'ishlangan she'rlaridir. Muhammad Yusuf tabiatga oshufta shoir sifatida "Qushlar ham yig'lar", "Ruh to'tisi", "Cho'loq turna", "Jayron, nega ko'zlaringda yosh", "Qaldirg'och", "Kapalaklar", "Erka kiyik", "Qizg'aldoq" singari she'rlarida bulbul, to'ti, qumri, jayron,

turna, kiyik, qaldirg'och, kapalak va boshqa hayvonu parrandalarning shunday timsollarini yaratganki, ularga hayotda biz ham duch kelganmiz, biz ham ularni qo'limiz bilan ushlab ko'rganmiz, biz ham tomosha qilganmiz, achinganmiz. Lekin, Muhammad Yusuf?! Ularning timsolini o'z she'rlariga shunday joylaganki, bironta ijodkorda buni uchratmaysiz: o'ta sodda til bilan, hayvonlarning ma'yus, parvarishtalab, biz – insonlarga jovdirab qarab turgan holatini mahorat bilan chizib bergan.

*Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,
Kokil yoysang, yerdan bo'lak toshoyng yo'q,
O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,
Peshonangdan o'pay deam, peshonang yo'q. ("Qizg'aldoq")*

O'xshatishni qarang. Ham nozik, ham tabiiy.

*Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
Oyog'ingga qo'yib yotay bosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh? ("Jayron")*

Mana, hammamiz bilgan lolaqizg'aldoq va jayronga ta'rif! Kim yana shunday bayt ayta oladi? Faqat lolaqizg'aldoq va jayronlarni sevgan, ularni yulib, payhon qilish, nobud etish, otish, yo'qotishdan emas, termulib, zavq olishdan charchamagan odamgina shunday satrlarni bita olishi mumkin. Bu faqat bitta odam – Muhammad Yusuf bo'lishi mumkin.

Muhammad Yusufni "muhabbat kuychisi" ham deyishadi. Uning "Suvpari", Mehr qolur", "Zebi, Zebi...", "Netarman", "Ozoda", "Biz baxtli bo'lamiz", "Men bittadurman", "Tushlarimga kir", "Sevgi sadosi", "O'n sakkizga kirgan qiz" singari she'rlarida "ko'zlari jayron", "kiprigi nayza", "paripaykar" o'zbek qizlarining yuksak darajadagi timsollari bor.

*Sanam, sochingdan ham shaydolaring ko'p,
Husning oshiqdari – adolaring ko'p,
Nimang ko'p, ko'yingda gadolaring ko'p,
Ammo, men bittaman, men bittadurman. ("Men bittadurman")*

Muhammad Yusuf butun vujudi, borlig'i bilan kuylayapti.
Bu she'rni o'qigan har qanday odam uni kuyga solib aytishga tayyor.

*Suzilma oy osmonda,
Sendan to'lin yuzlar bor.
Surxon degan tomonda,
Sendan oydin qizlar bor. ("Zebi, Zebi...")*

Yoki:

*Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,
Oyqaboq go'zalim, joningdan sening.
Kulib, ko'klaringdan tushmaysan, qara,
Oy o'tsa uyalar yonigdan sening. ("Rayhon")*

Bu satrlar "lodayonoq", "hilol yuz", "qo'liqadoq" o'zbek qizlariga o'ziga xos madhiya, maqtov.

"Onamga", "Singlimga maktub", "Onamga xat", "Ota uy", "Ota", "Onaizor", "O'zbekning ayollari" she'rlarini ham shunchaki o'qiy olmaystiz. Tildan mohirlik bilan foydalanib, sifatlash, o'xshatish, takror, qarshilantirish, tovushlarni qavatlash, tovlantirish usullarini qo'llab, yaqinlarimiz: ota, ona, singil timsollarini juda chiroyli tarzda ko'rsatib bera olgan.

*O'zbekning ayollari,
O'zbekning xotinlari,
Suvdan halol,
Guldan pok,
Qo'llari oltinlari,
Qay tomonga bursa yuz,
Yo'llari oltinlari,
Izzat uchun yaralgan.*

Muhammad Yusuf ijodi haqida soatlab gapirish mumkin. Uning ona tili haqida, o'zbek tilining jamiyatimizdagi o'rnini, unga bo'lgan munosabatlarimiz to'g'risida bitgan shoh asarlaridan biri bu – turgan gap, uning "Ona tilim" she'ridir.

*Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdimu bo'lak ishini qotirmadim.*

*Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Onam "erkam" deb quchganda tunlar yarim,
Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,
Parovozni hansiratgan bug'doylarim,
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim...*

*Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'kda dil yo'q derlar,
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Bir qarasam, har shevangda ming jilolar,
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cho'lponlaru, Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.*

Izohga hojat yo'q.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hammamizda yurak, ikkinchi nom bilan aytganda, qalb bor. U vujudimizdagi eng sergak, eng ta'sirchan, eng nozik a'zo. Yaxshi gap ham, yomon gap ham yurakka borib uriladi. Yuragi botir, yuragi baquvvat insonlar hayotda hamisha o'z o'rnini topadi. Yuragini boshqarib, o'zlik chegarasidan o'tib, jamiyat tomon evriladi, qaysidir jihati bilan ko'pchilikning dardiga sherik bo'ladi. Uning mustahkam yuragi boshqalarning ham g'amini ko'taradi.

MUNDARIJA

<i>Abdug'affor QIRG'IZBOYEV</i>	
Adiblar so'zining qudrati.....	3
<i>AKROM DEHQONOV</i>	
So'z mas'uliyati.....	5
<i>Zulxumor XOLMONOVA</i>	
Boburning til ilmiga oid talqinlari.....	18
<i>Otabek ISMOILOV</i>	
So'z martabasi.....	32
<i>Qurbanbay JARIMBETOV</i>	
Berdaq – qoraqalpoq milliy adabiy tilining asoschisi	46
<i>Otabek JO'RABOYEV</i>	
Muqimiy so'zining salmog'i.....	51
<i>Nurboy JABBOROV</i>	
Furqat – so'z ra'nosining oshig'i.....	64
<i>Zaynabidin ABDURASHIDOV</i>	
Behbudiy va o'zbek tilshunosligi masalasi.....	73
<i>Shahnoza SOATOVA</i>	
Millatning ruhi	89
<i>Bahodir KARIMOV</i>	
Qodiriy so'zining qadri.....	97
<i>Abdulhamid NURMONOV</i>	
Cho'lpon asarlarining til xususiyatlari.....	110
<i>Suvon MELI</i>	
So'z musavviri.....	117
<i>Shuhrat RIZAYEV</i>	
Oybek va badiiy til muammolari.....	127

<i>Rahmon QO'CHQOROV</i>	
Zar qadrini bilgan zargar	135
<i>Bahodir KARIMOV</i>	
"Chinor qadar yashayajakman..."	146
<i>Hotam UMUROV</i>	
Vatan betakror, kuychisi betakror.....	154
<i>Mavlon BOBOXONOV</i>	
Zulfiyaning zalvorli so'zi	163
<i>Yo'ldosh SOLIJONOV</i>	
Badiiy nutq jilolari.....	169
<i>Shahnoza ERGASHEVA</i>	
Shoiraning qalb go'zalligi	179
<i>Shahnoza TO'YCHIYEVA</i>	
Ozod so'z qadri.....	188
<i>Quanishboy ORAZIMBETOV</i>	
Ibroyim Yusupov va qoraqalpoq adabiy tili.....	197
<i>Perdaboy NURJONOV</i>	
Millatning or-nomusi.....	204
<i>Iqbol MIRZO</i>	
"So'z durlarin termoq..."	211
<i>Rustam MUSURMON</i>	
Aleksandr FAYNBERG - O'zbekiston xalq shoiri.....	218
<i>BaxtIyor MENGLIYEV</i>	
Abdulla Oripov ijodida ona til va ona so'z qudrati.....	228
<i>Abdulhay SOBIROV</i>	
"Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim..."	237

SO‘Z XIYOBONI

(Adiblar so‘z ta‘rifida)

O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
Toshkent-2020

Muharrir

Nizomjon Islomov

Badiiy muharrir

Umid Sapayev

Musahhih

Faxriddin Hasanov

Sahifalovchi

Rustam Isoqulov

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015 y.
14.10.2020 yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 84×108 ¹/₃₂. «Cambria» garniturası.
Shartli bosma tabog‘i 11. Adadi 3000 nusxa.
Buyurtma raqami № 247. Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyotida nashrga tayyorlandi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy.
Tel.: +99899 791-75-55; +99871 262-21-54
e-mail: fan_ndk@mail.ru

«Print Line Group» HK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko‘chasi, 44 uy.